

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIM MARKAZI

X. Q. SHODMONOV, X. Sh. ESHMURODOV  
O. T. TURSUNOVA

# **ASAB VA RUHIY KASALLIKLAR**

*Tibbiyot kollejlari o'quvchilari uchun  
o'quv qo'llarma*

**TOSHKENT  
2004**

**Taqrizchilar:**

**Tursunova Iroda Muxsimovna**

O'z RSSV qoshidagi o'quv uslubiy idora direktori muovini,  
tibbiyot fanlari nomzodi.

**Asqarova Nilufar Qudratovna**

Samargand Davlat Tibbiyot instituti Shifokorlar malakasini oshirish fakulteti.  
Asab kasalliklar kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Ushbu kitob tibbiyot kollejlarida ta'lim olayotgan  
talabalar uchun mo'ljalangan

**X. Q. Shodmonov, X. Sh. Eshmurodov, O.T. Tursunova.**

**E-94 Asab va ruhiy kasalligi.** Tibbiyot kollejlari uchun oquv qo'llarma.  
«Bilim» nashriyoti, 2004. – 200 b.

A  $\frac{4108100000 - 117}{M 361(04) - 2004}$  - 2004 - y.

© «Bilim», 2004- y.  
© O'MKHTM, 2004- y.

*Ushbu kitob ustozimiz Samargand davlat tibbiyot oliygohi Asab kasalligi kafedra mudiri tibbiyot fanlar doktori professor Aslanov Anvar Mananovichni yorqin hotirasiga bag'ishlanadi.*

## **SO'ZBOSHI**

Hozirgi kunda Mustaqil O'zbekiston Respublikasida o'zbek tiliga davlat tili magomi berilishi munosabati bilan tibbiyot kollejlarida lotin alifbosida o'qitishni olib borishga o'tildi. Ana shunday sharoitda tibbiyot kollejlarining talabalarini lotin alifbosida yozilgan darsliklar bilan ta'minlash juda dolzab masalalardan biri bo'lib qoldi. O'quv adabiyotida tegishli mavzular va nozologik birliklar bo'yicha barcha zarur ma'lumotlar keltirilgan. Mavzuning dolzarbligi, kasallik ta'rifi, taraqqiyoti, tasnifi, tashxisi, davolash usullari, oldini olish choralariga keng o'rinn berilgan. Mavzular bo'yicha nazorat savollari, test savollari hamda asab va ruhiy kasalliklarida qo'llaniladigan dorilaming retseptlari berilgan.

Kitobning yangi nashriga O'zbekiston nevrologiya ilmining tarixi, oliy asab tizimi faoliyati, vegetativ asab tizimi va yangi tashxis qo'yish usullari kiritilgan. Darslik shu sohadagi zamona viy ma'lumotlar bilan to'ldirilganki, yangi rasmlar va yangi dorilarni qo'llash usullaridan iborat.

Ushbu o'quv adabiyotidan tibbiyot kollejlarida ta'lim olayotgan bo'la-jak hamshira talabalarga emas, balki oliy toifali hamshiralar ham foydalanishlari mumkin.

Mualliflar kitobxonlarning ushbu o'quv adabiyoti mazmuniga oid barcha tangidiy mulhaza va taklif-istiklami bajonidil qabul qildilar.

**NEVROPATOLOGIYA VA PSIXIATRIYANING  
RIVOJLANISH TARIXI**

Nevrologiya faniga bundan ming yil ilgari Abu Ali ibn Sino asos solgan bo'lib, faqat XIX asr oxiri, XX asr boshlarida evropa tibbiyotidan nevrologiya fani bo'lib ajralib chiqgan. Abu Ali ibn Sino birinchi bo'lib umumiy nevrologiya bilan xususiy nevrologiyani ajratib berdi, inson a'zolarining faoliyatini ularning tuzilishi bilan chambarchas bog'liq ravishda bayon qildi. Shu bilan birga a'zolarni bosh miya va itoatkor a'zolarga bo'lib chiqgan, bosh (markaziy) a'zolarga bosh va orqa miyani kiritdi. Bosh miyani his-tuyg'ular va harakatning boshlang'ich a'zosi deb ta'riflagan. Bosh miya anatomiyasini bayon qilgan. Ibn Sino bosh miyani «ong markazi» deb ta'riflaydi. Bu a'zo orgали biz dunyoni ko'ramiz, eshitamiz, mushohada qilamiz va hidni bilamiz. Bu a'zoda fikr paydo bo'ladi, fikrdan esa bilim tug'iladi. Ichki a'zolarning faoliyati, ishlash tarzi ham bosh miyaga bog'liq. Ibn Sino orqa miya anatomiyasi va fiziologiyasini chuqr o'rganib, shunday yozgan edi: «yaratuvchi... bosh miyaning bir qismini pastga (tananing pastki qismiga) tushirib, insonga muruvvat ko'rsatdiki, undan ajralgan asablar mayda tarmoqlarga bo'linib, o'z vazifalarini bemalol, uzlucksiz bajo keltiradilar». Ibn Sino nafas markazining bosh miya bilan orqa miya o'rtasida joylashganligini, jinsiy va siyidik chiqarish a'zolari faoliyatini orqa miya idora qiladi deb aytgan. Ibn Sino «Tib qonunlari» kitobida periferik asab tizimining anatomiyasi va fiziologiyasini tasvirlab bergan. Periferik asablarni Ibn Sino quydagicha ta'riflaydi: «asablar bosh miyadan yoki orqa miyadan boshlanib, mayda, yumshoq o'tkazgichlardan iborat. Ular harakatlantirish va sezish vazifalarini bajarish uchun yaratilgan». Bundan tashqari, bosh miya va orqa miya asablarining harakatlantiruvchi va sezuvchi vazifalarini e'tiborga olib, alohida-alohida bayon qilgan. Ibn Sino asab va ruhiy kasalliklar tasnifini yaratgan. Hozirgi zamон asab tizimi tasnifi Ibn Sino yaratgan tasnifdan katta farq qilmaydi. Ibn Sino kasalliklarni o'tkir va surunkali, yengil yoki og'ir, davolanadigan va davolamaydigan kasalliklarga bo'ladi. Kasallikni 4 ta: boshlang'ich, zo'rayish, o'ta zo'rayish va susayish davrlarga ajratadi. Ichki a'zolar kasalliklari natijasida asab tizimining buzilishlarini ifodalab bergan. Ibn Sino bemorlarni davolashda psixoterapiyaga katta e'tibor bergan. Uhing fikricha, yaxshi so'z, mehribon do'st va sevimli odamlarning yaqinligi, sayru sayohatlar, ov, musiqa kabi kayfiyatni yaxshilovchi omillar inson ruhini ko'tarib salomatligini mu-

tahkamlaydi. Bundan tashgari, kasallik turlarini o'rganishda *Al-Xorazmiy*, *Al-Forobiy*, *Abu Bakr ar-Roziy* va boshqa olimlar olib borgan ishlar ham maqtovga sazovordir. Insонning asabi nozik, lekin qudrati zo'r. Kishi asabi qanchalik zo'riqsa, kasallikka shunchalik tez chalinadi va dard ancha og'ir o'tadi. Odamning asabi qanchalik yaxshi bo'lsa, kuch-quvvati ham yaxshi bo'ladi. Agar odamning asabi tinch va o'zi xotirjam bo'lsa, kasallikdan yiroq yuradi. Bunday odam dardga uchraganda ham tez va asoratsiz sog'ayadi, deb yozgan edi Abu Bakr ar-Roziy.

Ming yillar mobaynida ruhiy kasalliklarga g'ayritabiiy kuchlarning alomati deb qarab kelindi va ularni xudoning g'azabi yoki aksincha uning rahmati natijasidir, deb hisoblandi. Ana shu tushunchalarga qarab, ruhiy kasalliklar bilan og'rigan bemorlarga nisbatan munosabat ham turlichcha bo'lgan. Odatda, tentak bo'lgan bemorlarni xudoning g'azabini qo'zg'atgan deb hisoblashar, ularga nafrat bilan qarashar va ko'pincha o'ldirib yuborishar edi. Osoyishta tentaklik deb ataladigan dardga mubtalo bo'lgan kishilarni «xudoning sevimli bandalari» hisoblab, ularga mehr-shafqat qilishar, yangi kiyimlar kiydirishar, bo'yinlariga gulchanbarlar osishar edi. «Shu narsani bilmog kerakki, – deb yozgan edi Gippokrat, – bir tomonidan lazzatlanish, shodlik, kulgi, o'yinlar, boshqa tomonidan g'anginlik, ma'yuslik, norozilik va achinish miyada paydo bo'ladi. Bu tufayli biz tentak bo'lamiz, alahlaymiz yoki kechasi, yo bo'lmasa kunduz kunlari biz vahimaga, qo'rquvg'a tushamiz». Ruhiy kasalliklar Gippokratning fikricha bosh miyaning kasallanishi tufayli paydo bo'ladi va bosh miyaning yarim sharlari bir tomonining shikastlanishi tananing qarama-qarshi tomonida talvasaga tushish kabi buzilishlarni paydo qilishini aytib o'tgan. Shu kunga qadar psixiatriyada qo'llanilib kelayotgan «melanxoliya», «maniya», «paranoyya» atamalari Gippokratga taalluqlidir. Bundan tashgari, u 4 tipdagi gavda tuzilishi va mijoz (sangviniklar, flegmatiklar, xoleriklar va melanxoliklar)larni hamda har bir tipning o'ziga xosligiga odama tabiat (ob-havo, tashqi muhit) ta'sirining natijasi borligini kuzatdi.

O'zbekistonda nevrologiya fanining rivojlanishida O'rta Osiyo Davlat dorilfununing ochilishi sabab bo'lди. 1920-yil yanvar oyida dorilfununning tabobat fakulteti qoshida asab kasalliklari kafedrasi tashkil etildi. Bu kafedraga birinchi bo'lib professor M. L. Zaxarchenko asos soldi va 1939-yilgacha uni boshqarib keldi. 1940-yildan 1959-yilgacha professor A. Ya. Shargorodskiy, 1963–1965-yillar davomida professor S. G. Oxundovlar kafedrada mudir bo'lganlar. 1966-yildan esa kafedraga Yevropa va Osiyo tibbiyot fanlar akademiyasining akademigi professor N. M. Majidov rahbarlik qilib kelmoqda. 1960-yildan boshlab bolalar asab kasalliklari kafedrasi paydo bo'lди. Bunda bolalarning tug'ruq vaqtidagi jarchatlari, ularda kuzatiladigan asab kasalliklari va ruhiy o'zgarishlar ilmiy jihatdan o'rganiladi. Keyingi yillarda bolalarda uchraydigan asab kasalliklarini o'rganishda, ulaming kelib chiqish sabablari, tarapqiyoti va klinik belgilarni aniqlashda yangi yo'naliishlar ochilmogda.

Kasalliklarni aniqlashda faqatgina klinik tekshiruv va laboratoriya usullariga tayanib qolmay, balki zamonaviy elektrofiziologiya usullariga ham keng o'rinn berilmogda. Bunday usullarning tibbiyot amaliyotida, xususan, nevrologiya va psixiatriyada qo'llanilishi bosh va orqa miya jarohatlari, tutqanoq xurujlari, beixtiyor harakatlar va tug'ma shikastlanishlari natijasida kelib chiqgan kasalliklarni aniqlab, oldini olishda katta samara berayapti. Keyinchalik bir necha o'zbek olimlari: fan arbobolaridan – A. R. Rahimjonov, N. M. Majidov, X. K. Salohiddinov, professorlardan M. X. Samiboyev, F. T. Abduhakimov, Sh. Sh. Shomansurov, B. G'ofurov, M. Otajonov, E. Shamsiyev, S. S. Busakov, Sh. Asgarov, F. K. Xannanova, G. Q. Sodigova, A. M. Aslanovlar asab kasalliklari bo'yicha fanga bir qancha yangiliklarkiritdilar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lishi munosabati bilan tibbiyot fanining rivojlanishiga katta e'tibor berildi. 1991-yilda Buxoro, Nukus va Urganchda tibbiyot institutlari ochildi. Bu voqealarda O'zbekiston nevrologiyasining rivojlanishidagi yangi bosqichdir.

Shunday qilib, O'zbekiston nevrologiyasining ilmiy amaliy faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, bu davr mobaynida bir qator taniqli olimlarning yetishib chiqgанин guvohi bo'lamiz. Bu olimlarning ilmiy izlanishlari, erishgan yutuqlari nevrologiya fanining rivojlanishiga va uni dunyo nevrologiyasi miqyosiga olib chiqishda ulkan hissa qo'shdil.

**Nevropatologiya** (grekcha «nevron» – nerv yoki asab, pathos – kasallik logos – fan) – asab kasalliklari va nervning harakatlantinuvchi, sezuvchi, vegetativ qismlaridagi buzilishlarni hamda ularni davolash, oldini olish choralarini o'rganuvchi fandir.

**Psixiatriya** (grekcha «psyche» – ruh, jonne, iatreo – davolash degani) – odamning bilish faoliyatidagi sezgilar va xulq-atvordagi paydo bo'ladigan buzilishlarni o'rganadi. Odamning ruhiy faoliyatida ro'y beradigan o'zgarishlar va ularni davolash hamda oldini olish bilan shug'ullanadi.

Nevrologiya ikki qismdan iborat:

Umumiy nevrologiya – bu, o'z navbatida, asab tizimining anatomiyasini, gistologiyasini, hamda fiziologiyasini o'rganadi va yana umumiy nevropatologiya topik tashxisi qo'yishni, ya'ni zararlanish qayerda va uning natijasida nima ro'y berishini o'rganadi.

Xususiy nevropatologiya – bu asab kasalliklarining kelib chiqish sabablarini, tarajsiyotini, klinik manzarasini, oqibatini, davosini va oldini olish choralarini o'rganadi.

Psixiatriya ham ikki qismdan iborat:

umumiy psixopatologiya – ruhiy kasalliklarning umumiy alomatlari, kechishining qonuniyatlari, aniqlash usullari va tafsifi, davolash va oldini olish choralarini to'grisidagi fandir;

xususiy psixiatriya – ruhiy kasalliklarning turlari, qiyosiy tashxisi va davolash usullaridir;

## **Bemorlarni bevosita va asbob-uskunalar yordamida tekshirish usullari. Rentgenologik tekshirish usullari**

Tashxis qo'yishda miya qutisi yoki umurtqa pog'onasining rentgenologik tekshiruvlari katta yordam beradi (*kraniografiya, spondilografija*).

**Spondilogrammalar** bemorning umurtqalaridagi, ularni bog'lovchi qismlaridagi, orga miya va vertebrobazillar tizimdag'i qon aylanishini buzuvchi va turli xil og'riqlarga sabab bo'luvchi kasallik belgilarini aniqlasa bo'ladi.

Kraniogrammalar kalla suyagining rentgen tasviridir. Har bir kasallik uchun o'ziga xos kraniogramma belgilari mavjud. Masalan, miya qutisi ichining gipertenziyasi uchun quyidagi belgilar: «panja barmoqlar botirilgan» tasvir, turk egarining silliqlanishi yoki kengayishi, bolalarda miya qutisi choklarining bir-biridan ajralishi, miya qutisi hajmining kattalashishi xos bo'ladi.

Gipofiz o'smasi uchun quyidagi belgilar xos bo'ladi: turk egari kattalashadi, orga, old devori tekislanib qoladi.

Bundan tashqari, kraniografiya aksari miya qutisining singani yoki darz ketganini aniqlashda yordam beradi. Bu usul ba'zan kasallik haqida to'liq ma'lumot berolmaydi. Bunday hollarda kontrast usullardan foydalaniladi. Rentgen kontrast usullari, odatda, neyrojarrohlik masalalarida ko'proq qo'llaniladi.

Rentgen kontrast usullaridan rentgenografiya qilishdan oldin, likvor yo'llariga rentgen nurlarini yaxshi to'sib qoladigan ba'zi moddalar shox tomirlariga yuboriladi, bu usul *angiogramma* deyiladi.

Umurtqa pog'onasi ichidagi o'simtalar va boshqa o'zgarishlami kontrast rentgen usullari orqali tekshirish – *miyelografiya* deb ataladi. Miyelografiya yordamida umurtqa pog'onasini rentgen suratiga tushirish *miyelogramma* deb ataladi.

Miyelografiya ikki xil: pastga yo'naluvchi va yugoriga yo'naluvchi turlarga bo'linadi. Pastga yo'naluvchi miyelografiya o'tkazish uchun orga miya suyuqligidan og'irroq bo'lган kontrast moddalar – lipidol, pantopak, neyrotrast, abrozil, mayodillardan foydalaniladi. Bu moddalar, odatda, bemor o'tirgan holatida miyaning katta bo'shilg'iga yuboriladi. Kontrast modda araxnoidea osti bo'shilg'iga tushgach, pastga yo'nalib, likvor yo'llarini to'sib turgan blok ustida to'xtaydi. Yugoriga yo'naluvchi miyelografiya o'tkazish uchun kislород yoki oddiy havo yuboriladi (pnevmomiyelografiya). Bu gazlar bel umurtqasini punksiya qilish orqali yuboriladi. Gazli pufak yugoriga ko'tarilib, likvor yo'llами to'sib turgan blokning pastki qismida to'xtaydi.

Miya qutisi ichida o'smalar bo'lsa, qorinchalari tizimlari qarama-qarshi tomonga suriladi, likvor inshootlari deformatsiyalangan bo'ladi. Gidrotsefaliyada esa, miya qorinchalari kengayib, o'z shaklini o'zgartiradi, miya qobig'ining chandiqlari mavjud bo'lsa, miya qorinchalari shu chandiq

tomon yaqinlashib qolganini ko'rish mumkin. Likvor yo'llariga kontrast modda yuborilganda, bemoning boshi og'riydi, meningizm alomatlari kuzatiladi.

**Kompyuter tomografiya** – juda noyob va zamonaviy tashxis qo'yish usulidir. Bunda kristall va gazli detektorli skanner qurilmasi yordamida miyadagi kasallangan joy o'rganiladi. 20, 40, 60 soniya davomida skenner bemon boshini bir marta aylanib o'tib, ma'lum masofada miya qatlamlarining rentgen nurlarini yutish qobiliyatini 160, 256, 512 marta o'lchaydi. Bu axborot EHM qurilmaga uzatiladi va miyaning har bir qatlamlaridagi tasvir ekranda paydo bo'ladi. Tasvirmi juda qisqa vaqt (40–50 soniya) davomida olish mumkin. Bu usulning yana bir afzalligi shundaki, tasvimi fotografiya tasviriga ham tushirish mumkin. Kompyuter tomografiya usuli ko'pgina tug'ma qiyshayishlar, o'smali jarayonlar, qon quylish o'choqlari, yiringli jarayonlar, miya qorinchalarining kengayishi, gidrotsefaliya haqidagi juda noyob ma'lumotlarni beradi.

**Yadro-magnit rezonansi usuli.** Bu yangi usullardan bo'lib, oxirgi vaqtarda qo'llanila boshladi. Bunda ba'zi kimyoiy elementlar atomlari (vodorod, fosfor va boshq.) kuchli magnit maydonida rezonans hodisaga uchraydi. Paydo bo'lgan elektromagnit impulslar har bir to'qimaning o'ziga xos tovushini beradi, bu tovush kompyuterda qayd etiladi, qayta ishlanib, ekranga tasviri tushiriladi.

Yadro-magnit rezonansi usuli ichki a'zolardagi va asab tizimidagi organik jarohatlar, o'smali jarayonlar, parazitlar, qontomirlardagi aterosklerotik o'zgarishlarni aniqlashda, ularga tashxis qo'yishda katta yordam beradi. Bundan tashqari, bu usul orgali insultni boshdan kechirgan bemonlarda bosh miya to'qimasining tiklanish xususiyati ham aniqlanadi.

**Neyrosonografiya usuli** bola bosh miyasi kasallik holatlarini o'rganishning yangi va zamonaviy usuli hisoblanadi. Neyrosonografiya usuli ultratovushli tashxis qo'yish usullaridan biri bo'lib, chaqloqlarda prenatal va postnatal shikastlanishlar oqibatida kelib chiqgan bosh miya, uning qontomirlari va qorinchalar tizimidagi o'zgarishlarni qayd qilishga imkon beradi.

Bu usulning afzalligi shundaki, u mutlaqo zararsiz, tekshirish uncha ko'p vaqt olmaydi, bola nurlanmaydi. Tekshiruv, asosan, 3–7 daqiqa davomida o'tkaziladi. Neyrosonografiya usulini o'tkazishda maxsus datchiklar bolaning katta va kichik liqildaqlariga o'matiladi hamda maxsus yozuvchi moslama asosida qayd etiladi.

Neyrosonografiya usuli gidrotsefaliya, meningotsele, ensefalozele, miyaning turli qismlariga qon quylishlar, o'smalar, miyada qon aylani-shining buzilishlari (hemorragik infarkt) ni aniqlashda va davolashda eng zamonaviy usul bo'lgani uchun keyingi vaqtarda amaliyotda keng qo'llanila boshladi.

**Elektromografiya** (EMG) – mushaklar biopotensiallarini tekshirish orgali harakat apparati holatini aniqlash usulidir.

**EMG** – mushakning harakat sohasidagi o'zgarishni, aniqrog'i, uning markaziy yoki periferik nerv qismida, yoki mushakning o'z holatini aniqlashda yordam beradi. EMG orqali bu o'zgarishlarni dastlabki bosqichda, ya'ni hali klinik belgilar yuzaga chiqmasdanq aniqlash mumkin. Bu usul kasallikning kechishida harakat buzilishining periferik falajlik xilida boshqa o'xshash kasalliklar bilan qiyosiy tashxis o'tkazishda aniq ma'lumotlar beradi.

Bemordagi mushaklar faoliyatini tekshirish uchun elektromiografiya qo'llaniladi. Elektromiografiya elektron kuchaytirgich va qayd qiluvchi tuzilmadan iborat asbobdir.

**Elektroensefalografiya** EEG – miya biopotensiallarini qayd qilishga asoslangan zamonaviy tekshirish usulidir. Elektroensefalografiya orqali bosh miya potensiallari qayd etiladi va ulaming tasvirlari ossillografik tizim orqali siyoh bilan qog'ozga tushiriladi. Hozirgi vaqtida bir vaqtning o'zida miyaning turli sohalaridan biotoklar qayd etuvchi 4,8,16 kanalli elektroensefalografiya keng qo'llaniladi. Miya biotoklarini qayd qilish usuliga *elektroensefalogramma* deyiladi. Bu usul orqali epilepsiya, o'sma kasalliklari aniqlanadi. (1-rasm).

EEG ni tahlil qilganda unda bir-biridan chastotasi, amplitudasi, shakli doimiyligi bilan farqlanuvchi to'lqinlarni ko'rish mumkin. Tebranish vaqt va amplitudasiga ko'ra EEG da quyidagi to'lqinlarni farqlash mumkin:

**Alfa to'lqinlar.** 8–12 to'lqin/soniya chastotali, 40–70 mikrovolt amplitudali, ikki fazali, sinusoidal shaklli bo'lib, ular me'yorda ensa, tepe qismlarida qayd etiladi.

**Beta to'lqinlar.** 13–30 to'lqin/soniya chastotali 10–30 mikrovolt amplitudali to'lqinlardir. Ular miya po'stlog'ining motor sohasidan yozib olinadi. Bosh miya kasalliklarda EEG asosiy ritmlarining o'zgarishi tufayli kasallik potensiallari paydo bo'ladi:

Delta to'lqinlar va teta to'lqinlar-kichik chastotali (3–4 va 5–7 to'lqin/soniya) va katta amplitudali 50–150 va 100–250 mikrovolt to'lqinlardir.

Turli o'tkir uchli potensiallar (*epileptik tig'*). Yakka yoki guruhli, bir yoki ikki tomonlama, bir yoki ikki bosqichli tutqanoq razryadlari.

Elektroensefalogramma yordamida quyidagi masalalar hal qilinadi:

1. Bosh miyaga diffuz targalgan jarayondan (yallig'lanish) uning ma'lum qismlarida joylashgan jarayonlarni (o'sma, abscess, gematoma) ajratib olish.
2. Bosh miya yarim sharlarida joylashgan jarayonni miyachada joylashgan jarayondan ajratib olish.
3. Bosh miyaning zararlangan (o'ng yoki chap) yarim sharini aniqlab olish.
4. Bosh miyaning ichkarisida joylashgan jarayonni uning yuzasida joylashgan jarayondan ajratib olish.
5. Bosh miyaning umumiyl belgilari qaydarajada ekanligini aniqlash.
6. Bosh miyadagi «epileptik o'choq» ni topish.
7. Qo'llanilgan dari vositalarining ta'sirini nazorat qilish.

**REG-reoensefalografiya** – miya qutisi ichiga yuqori chastotali o'zgaruvchan tok yuborish natijasida qon aylanish holati aniqlanadi. Tirik to'qimaning elektr qarshiligi miyaning qon aylanishiga ko'p jihatdan bog'liqidir. REG tekshirilayotgan sohadagi tomirlarning holatini, ularning tonusini aniqlaydi.

**Exo-EG-exoensefalografiya** deb bosh miyani ultratovush nurlari yordamida tekshirishga aytildi. Ultratovush nurlar bemoning boshiga tik holatda yuboriladi. Boshdan o'tayotgan tovush nurlari o'z yo'nalishida har xil qarama-qarshiliklarga uchraydi va natijada, aks-sadolar hosil bo'ladi. Bosh suyagi bilan miya chegarasida hosil bo'luvchi qarshilik aks-sadosi va hokazolar shu jumlaga kiradi. Aks-sado tovushlari tik holatda otilib chiqqan chiziqni hosil qiladi. Bu aks-sado tovushlari ichida o'rtta chiziqdagi (III qorincha, epifiz, gipofizdan akslangan) tovushlar katta ahamiyatga ega. Bunday o'rtta chiziq aks-sadosi M-exo deyiladi. Me'yoriy holatda M-exo o'rtta qismida joylashgan bo'ladi. M-exoni o'lchash tashxis qo'yish uchun muhim ahamiyatga ega. Bosh miya o'smasi, absessi, parazitar kasalliklari, gematomasi, tuberkulomasi va boshqalarda miya o'rtasida joylashgan III – qorincha va epifiz joyidan qo'zg'alan, o'ng yoki chap tomona surilgan holatda bo'ladi. Bu xol M-exoning ham surilishiga olib keladi. Exoensefalografiya bosh miyadagi kasallik jarayonini topishda katta ahamiyatga ega.

**Pnevmoensefalografiya usuli.** Orqa miya kanali punksiyasi yoki subokspital punksiya vaqtida subaraxnoidal oraliqqa igna orgali havo yuboriladi. Pnevmoensefalografiya qilish uchun havoni ko'pincha orqa miya kanali punksiyasi vaqtida yuboriladi, chunki bu usul birmuncha xavfsizroqdir. Buning uchun oldin punksion igna orgali shpris bilan orqa miya suyuqligi olinadi, keyin shu shpris hajmida havo yuboriladi. Olingan suyuqlik va yuborilgan havoning hajmi 80–100 sm<sup>3</sup>. dan oshmasligi kerak. Pnevmoensefalografiya qilinayotgan vaqtida havo yuborilgandan so'ng bemorda qattiq bosh og'riq, ko'ngil aynish, qusish, teri rangining ogarishi, yurakning tez urishi va sovuq ter bosishi ro'y beradi. Bular tezda o'tib ketadi. Lekin pnevmoensefalografiya vaqtida kerakli dorilarni tayyorlab qo'yish lozim (kordiamin, kofein, lobelin). Bosh miyada o'sayotgan o'smaning hajmi katta yoki u miyaning chekka qismida, yoki miyachada joylashgan bo'lsa, pnevmoensefalografiya usuli bemonlar uchun xavflidir. Chunki punksiya ta'sirida yoki havo bosimi ostida bosh miyaning joylanishi o'zgarib, miya ustuni faramen occipitale magnum (ensa suyagining katta teshigi)ga sigilib, ezilishi mumkin.

**Ventrikulografiya usuli.** Miya qutisi ichidagi bosimning haddan tashqari oshib ketganligi (ichki gidrosefaliya), miyada o'sayotgan o'sma hajmining kattalashganligi yoki umurtqa pog'onasida deformatsion o'zgarishlar yuz bergenligi natijasida pnevmoensefalografiya qilish mumkin bo'lмаган тағдирда ventrikulografiya usuli qo'llaniladi. Ventrikulografiyaning ensefalografiyadan farqi shuki, bunda 20–30 sm<sup>3</sup> hajmdagi havo to'g'ridan

to'g'ri bosh miya qorinchalari bo'shilig'iga yuboriladi. Buning uchun miya qutisida bosh miyaning punksiya qilinmoqchi bo'lган qorinchasi to'g'risidan trepanatsion teshikcha ochiladi. Bu teshikcha orgali maxsus punksion igna bilan miya qorinchasining tegishli shoxchasi punksiya qilinib, unga igna orgali ma'lum miqdorda havo yuboriladi va buning ketidan miya qutisi rentgenografiya qilinadi. Rentgenogrammada bosh miyaning o'sma joylashgan tomonidagi qorinchalarga havo butunlay bormaganligini yoki kam borganligini, qorinchalarning hajmi bir xilda emasligi yoki ularning asimetrik joylashganini ko'rish mumkin. Bu esa topik tashxis qo'yishda yaxshi natijalami beradi.

**Gammaensefalografiya** (skennen qilish). Izotopli ensefalografiya yoki skennen qilish deb, organizmga nishonlangan izotoplar yuborib, ularning nurlanishini gammaensefalografiya yordamida o'lchab olishga aytildi. Neyroonkologiyada indikator sifatida ko'pincha yod izotopi ishlataladi. Skennen qilish, asosan, perpendikular va yon proyeksiyalarda o'lchanadi. Skennen qilish uchun organizmga radiaktiv modda yuborilib, 1–2 soat o'tgandan so'ng radiaktiv izotopning bosh miyada targalishi aniqlanadi. Skennogramma kasallik jarayonlarining joylanishi, shakli hamda kattachichligi haqidagi xabar beradi. Skennen qilish usuli, shuningdek, bosh miya qorinchalarining kengayganlik darajasi, orqa miya suyuqligi o'tkazuvchi yo'llarining bekilgan-bekilmaganligini aniqlashda qo'llaniladi. Buning uchun radiaktiv modda bevosita bosh miya qorinchalariga yoki orqa miyani punksiya qilish usuli vositasida subaraxnoidal oraliqqa yuboriladi.

### **Asab tizimi anatomiysi, fiziologiyasi va gistologiyasi.**

#### **Asab kasalliklarining umumi simptomatologiyasi.**

#### **Asab to'qimasi**

Nerv tizimining struktura – funksional birligi – nevron deb ataladi. Nerv hujayralari, asosan, asab tizimining markaziy qismiga (bosh va orqa miyalarda) joylashgan bo'lib, uning tolalari periferik nervlarni hosil qiladi. Asab hujayrasi yoki neyroni bir qancha o'simtalar va tanadan iborat (2-rasm). Neyronni tana, akson va dendrit tashkil etadi. Nerv hujayrasining o'simtalarini kalta va uzun bo'ladi. Hujayraning asosidan ketgan uzun o'simtaga akson deyiladi. Hujayraning kalta daraxt shoxlariga o'xshash o'simtalar esa dendrit deb ataladi. Dendritlar nerv impulslarini qabul qilib, nerv hujayrasi tanasiga o'tkazadi, so'ng akson bo'ylab u hujayradan periferiyaga (sirtga) o'tadi. Nerv impulsları har doim bir tomoniga yo'naladi, ya'ni dendritdan hujayra tanasiga, keyin aksonga o'tadi, bu *dinamik polarizatsiya qonuni* deb ataladi. Akson tugagandan so'ng dendritlarga yaqinlashadi yoki keyingi hujayra tanasiga boradi, bunda neyronlar zanjiri hosil bo'ladi. Nerv hujayralarining bir-biri bilan tutashgan joyiga *sinaps* deb ataladi. Nerv hujayrasining dendritlari retseptorlar vazifasini bajaradi. Retseptorlar tashqaridan va ichkaridan kelayotgan ta'sirlami qabul qilib, nerv impulslariga

aylantiradi va hosil bo'lgan impulsami hujayra tonon yo'naltiradi. Sinapslar yordamida axborot birinchi neyronning aksoni orgali ikkinchi neyron dendritiga o'tishida mediatorlar yordam beradi. Har bir nerv hujayrasi yadro, protoplazma, neyrofibril apparat, xromatin modda va boshgalardan tashkil topgan.

**Yadro.** Hamma hujayralarning yadrosi dumaloq bo'lib, yadroning kattaligi o'rtacha hujayraning 1/4 qismiga tengdir. Yadro hujayraning o'rtasida joylashgan. Yadro ikki qavat lipoproteid parda bilan qoplangan. Yadro bilan protoplazma o'rtasida faol modda almashinuvi vaqtida bu pardalarda teshiklar paydo bo'lib, ular orgali yadroga turli moddalarning molekulalari kiradi. Yadro ichida bir yoki ikki dona yadrocha joylashgan bo'lib, yadrochaning asosiy tarkibini ribonukleoproteinlardan tashkil topgan hujayra ydrosoi, hujayra va uning o'siqchalari trofikasini boshqarib turadi. Nerv hujayrasining protoplazmasida har xil hajmdagi oqsillardan donachalar va tayoqchalar joylashgan bo'lib, ular mitokondriylar deb ataladi. Ular lipoidlardan tuzilgan parda bilan o'ralgan. Mitokondriylarda har xil fermentlar, uglevod, oqsil, moy va energetik modda almashinuvida ishtirok etuvchi fermentlar bor. Mitokondriy nerv impulslarini aksonga yo'naltirishda ishtirok etadi. Hujayra atrofida lipoid va proteinlardan tashkil topgan Golji apparati joylashgan, u mayda halqachalardan iborat bo'lib, hujayrada sodir bo'ladigan moddalar almashinuvida ishtirok etadi. Nerv hujayralarida ikki xil pigment uchraydi. 1. Lipofutsin – sariq rangda bo'lib, oqsil va lipoiddan tuzilgan, hujayra yadrosoi yonida joylashgan. Yoshlarining nerv hujayralarida lipofutsin miqdori kamroq bo'lib, keksaygan sari ko'payib boradi. 2. Melanin – markaziy asab tizimining ma'lum bir qismidagi hujayralarda uchraydigan qora rangli pigmentdir (masalan, bosh miya po'stloq osti sohasida joylashgan – qora modda).

Nerv tolasi nevrofibrillardan tuzilgan o'q silindridan iborat bo'lib, nerv impulslarini o'tkazishda ishtirok etadi. O'q silindr ikki parda bilan qoplangan, bu pardalarga *miyelin pardalar* deyiladi. Miyelin pardalar o'q silindrini butunlay o'ray olmaydi, ba'zi joylari ingichkalashib qoladi. Bunga *Ranve qisishmaları* deyiladi. Ikki qisishma orasida joylashgan nerv tolasi bo'lagiga asab *tolasining* segmenti deyiladi. Miyelin pardanining ustidan o'rabi turuvchi pardaga *Shvann pardasi* deyiladi. Shvann pardasining farqi, u qisishma hosil qilmaydi va uning hujayralari bo'ladi.

Periferik asab tizimida ikki xil nerv tolalari uchraydi. 1. *Miyelinli nerv tolalar* deb – miyelin va Shvann pardalari bilan o'ralgan asab tolalariga aytildi. 2. *Miyelinsiz nerv tolalar* deb – fagatgina Shvann pardasi bilan o'ralgan nerv tolalariga aytildi. Bunday nerv tolalarda miyelin parda bo'lmaydi.

Asab sohasi ikkita katta tizimdan iborat.

**1. Markaziy asab tizimi:** bunga bosh miya va orqa miya kiradi. Chunki bu ikkala miya ichkarida (kalla suyagi va umurtqa pog'onasini ichida) – markazda joylashgan.

## **II. Periferik asab tizimi:** bunga tashqarida yotgan tuzilmalar kiradi.

Bulariga:

1. Ildizlar (oldingi – harakat ildizi, orqadagi – sezgi ildizi).
2. Umurtqalararo gangliya (tugunchalar).
3. Chigallar (yelka, bo'yin, bel va dung'aza chigallari).
4. Alovida periferik nervlar (qo'llarda – bilak, tirsak nervlari, oyoqlarda – son, quymich nervlari va boshq.).

### **Markaziy asab tizimi**

**Orqa miya.** Orqa miya umurtqa pog'onasining uzunasiga ketgan kanali-da joylashgan. U kattalarda 41–45 sm, yo'g'onligi 1–1,5 sm, og'irligi 34–38 g tashkil qiladi. Orqa miya birinchi bo'yin umurtqasining yugori qismidan boshlanib, pastki qismi ikkinchi bel umurtqasining yugori qismida tugallanadi. Yangi tug'ilgan bolalarda ikkinchi va uchinchini bel umurtgalarning o'rtaida tugallanadi. Orqa miyada bo'yin va bel kengligi bo'lib, bu qo'l va oyoqda nerv tolalarining ko'pligi natijasida paydo bo'ladi. Orqa miya segmentlarga bo'lingan. Segment deb – orqa miyaning ikki juft ildizlariga aytildi. Orqa miya 31–32 juft segmentdan tuzilgan. Bular: 8 ta – bo'yin, 12 ta – ko'krak, 5 ta – bel, 5 ta – dungaza, 1–2 ta – dum segmentlaridir. Orqa miyaning har bir segmentida 2 juftdan ildizlar bo'lib, ularning oldingi jufti harakat ildizlari, orqadagi juftlari esa sezuvchi ildizlardir.

Orqa miyaning ichki tuzilishini uning ko'ndalang kesimida ko'rish mumkin (*3-rasm*). Bunda ko'ndalang kesim markazida kapalaksimon shakldagi kulrang modda joylashgan, uning atrofi oq moddalardan iborat. Kulrang modda nerv hujayralari va uning aksionlaridan iborat. U orqa miyaning oldingi shoxida harakat hujayralari, orqa shoxida esa sezuvchi hujayralaridan iborat. Yon shoxlarida vegetativ nerv hujayralari joylashgan. Orqa miyaning oq moddasi kulrang moddaning atrofida joylashgan, bunga ustunlar deyiladi.

Yon ustundan – pastga tushuvchi harakat yo'llari, yuqoriga ketuvchi yuzaki sezgi yo'llar va ekstrapiramid yo'llar o'tadi.

Orqa ustundan – chuqur sezgi yo'llar – Burdax va Goll tutamlari o'tadi.

Oldingi ustundan – kesishmay qolgan harakat yo'llari pastga qarab o'tadi. Oq modda bu o'tkazuvchi yo'llardir.

Orqa miya quyidagi qismilarga bo'linadi:

- yuqori bo'yin qismi  $C_1 - C_4$  segmentlardan iborat;
- bo'yin kengligi  $C_5 - C_8 - D_1$  segmentlardan iborat;
- ko'krak qismi  $D_2 - D_{10}$  segmentlardan iborat;
- bel kengligi  $D_{11} - D_{12} - L_{1-5} - S_{1-2}$  segmentlardan iborat;
- orqa miya konusi  $S_{3-5} - Co_{1-2}$  segmentlardan iborat.

**Bosh miya.** Bosh miya kalla suyagining ichida joylashgan bo'lib, katta yoshli kishilarda-erkaklarda 1375 g, ayollarda 1275 g, yangi tug'ilgan

chaqaloqlarda 330–340 g. ni tashkil qiladi. Bosh miya ikkita yarim sharlar, ya'ni o'ng va chap yarim sharlardan iboratdir. Bu yarim sharlarni ustki vertikal chugur egat ikkiga ajratib turadi. Egatning ostki tomonida og moddadan paydo bo'lган qadoqsimon tana joylashgan. Miya ustini – uzunchoq miya, Vorolev ko'prigi, miyacha, miya oyoqlaridan tashkil topgan. Bosh miyaning 3 ta yuzasi bor:

- tepe qismi – konveksital qism;
- ichki qism;
- bazal qism yoki miya asosi.

Bosh miya yarim sharlari peshona, tepe, chakka va ensa bo'laklariga bo'linadi. Bu joylarda markazlar joylashgan bo'lib, har bir bo'lagi ma'lum narsa uchun javob beradi. Peshona qismi – harakat uchun, tepe qismi – sezgi uchun, chakka qismi – eshitish, ta'm, hid bilish uchun, ensa qismi – ko'rish uchun (4-rasm). Bosh miya yarim sharlarning bo'shilg'i bo'lib, yon qorinchalar hisoblanadi. Ikkita yarim sharlar bir-biri bilan qadoqsimon tana orgali bog'langan. Gistolik jihatdan bosh miya 2 qismdan iborat. Oq modda – o'tkazuvchi yo'llardan va kulrang modda – asab hujayralaridan tuzilgan. Bosh miyaning oq moddasi bu o'tkazuvchi yo'llar. Bu joylardan ham sezgi, harakat yo'llari o'tadi. Bular, o'z navbatida, quydagilarga bo'linadi.

Assotsiativ tolalar – bu tolalar bitta yarim shardagi markazlarni bir-biri bilan bog'laydi.

Komussural tolalar – ikkita yarim shardagi markazlarni bir-biri bilan bog'laydi.

Proyeksiyon yo'llar – bu bosh miya po'stlog'idagi markazlarni orga miya bilan bog'laydi.

Oq moddada yana ichki kapsula joylashgan bo'lib, undan pastga va tepaga ko'tariluvchi o'tkazuvchi yo'llar o'tadi. Ichki kapsulaning oldingi sonidan – bosh miya peshona-ko'priy yo'llari; orga sonidan – bosh miya po'stlog orqa miya yo'llari (bu harakat, sezgi, ko'rish, eshitish yo'llari); tizza qismidan esa kalla bosh miya nervlarining harakat yo'llari o'tadi (5-rasm).

Bosh miyaning kulrang moddasi bu faqat asab hujayralardan iborat. Bu kulrang modda bosh miya po'stlog'i deb ataladi, uning qalinligi 5 mm. ga teng. Bosh miya qobig'i 6 qavat asab hujayralardan tuzilgan. Bosh miya po'stlog'ida 14 mlrdga yaqin neyronlar bor. Odam shuncha hujayralar bilan tug'iladi, lekin dastlab bu hujayralar yetilmagan bo'ladi, keyinchalik asta-sekinlik bilan yetishib boradi.

**Oraliq miya:** oraliq miya – bosh miya yarim sharlari orasida joylashgan bo'lib, bosh miyadan tashqi tomonidan ichki kapsula bilan ustki tomonidan qadoqsimon tana bilan hamda bosh miya gumbazi bilan chegaralangan. Oraliq miyaning ichki qismi miya III qorinchasining yon devorlaridan tashkil topgan. Oraliq miya quydagi qismlarga bo'linadi:

- oraliq miyaning ustki qismi – epitalamus;
- oraliq miyaning o'rta qismi yoki ko'ruv do'ngligi – talamus;

— oraliq miyaning pastki qismi — gipotalamus.

**Ko'ruv do'ngligi:** oraliq miyaning asosiy qismi ko'ruv do'ngligidan iborat.

Ko'ruv do'ngligi III qorinchaning yan devorlarini tashkil etadi. Ko'ruv do'ngligida teri sezgisi va mushak-bo'g'im sezgisi yo'llarining ikkinchi neyroni tugallanadi. Ko'ruv do'ngligining orqa tomonida ichki va tashqi tizzasimon tanachalar joylashgan. Tashqi tizzasimon tana bosh miya po'stloq ostining ko'ruv markazi, ichki tizzasimon tana esa bosh miya po'stloq ostining eshituv markazi hisoblanadi. Ko'ruv do'ngligi bir necha yadrolar yig'indisidan tashkil topgan.

Miya ustuni 3 qismdan iborat:

**O'rta miya** — bosh miya yarim sharlari bilan ko'priklar o'rtasida joylashgan bo'lib, unga miya oyoqlari va 4 tepalik kiradi. O'rta miyaning pastki qismida miya oyoqlari orasida III—IV bosh miya nervlarining yadrosoi joylashgan.

**Vorolev ko'prigi** — uzunchoq miya bilan miya oyoqlari o'rtasida joylashgan. Bunda V—VI—VII—VIII juft bosh miya nervlarining yadrosoi joylashgan. Oq modda — bu o'tkazuvchi yo'llardan iborat (harakat va sezgi yo'llari). Kulrang modda — bunda kalla bosh miya nervlarining yadrolari joylashgan. Miya ustunida yana retikular formatsiya yoki to'rsimon tuzilma joylashgan.

**Uzunchoq miya** — orga miyaning oldingi qismini tashkil etadi. U pastki tomonda orga miya, yugori tomonda Vorolev ko'prigi bilan chegaralangan. Uzunchoq miyada IX—X—XII juft bosh miya nervlarining yadrosoi joylashgan.

### **Bosh miya po'stloq qismining fiziologiyasi, zararlanishi va tekshirish usullari**

Birinchi tovush tizimi — bu bilish, ko'rib bilish va kundalik amaliy ishlami bajarish (masalan: kiyinish, yuvinish, ovqatlanish).

Ikkinci tovush tizimi — bu fikrlash va gapirishdir. Atrofdagi muhitni to'g'ri anglay bilish unga to'g'ri javob berish, gapirilgan gapni to'g'ri tushunish shu tizinga bog'liq.

Bosh miya po'stlog'i asab tizimining eng oliv joyi hisoblanadi, bu yerda tahlil (analiz — sintez) qilinadi. Bosh miya po'stlog'ining har bir qismi ma'lum narsa uchun javob beradi.

**I. Peshona qismida:** 1. Oldingi markaziy egatda ixtiyoriy harakatlarining markazi alohida-alohida bo'lib, teskari joylashgan. 2. Nigoh (qarash) markazi.

3. Yozish markazi — grafiya. 4. Muvozanat markazi. 5. O'ng qo'l bilan yozadiganlarda chap tomonda gapirish markazi — Brokka markazi joylashgan. 6. Ruhiyatga alogasi bor.

**Zararlanganda:** 1. Monoplegiya — bitta qo'l yoki bitta oyoqning falajlanishi. 2. Jekson tutqanog'i — bitta qo'l yoki bitta oyoqda qaltirash

bo'ladi. Bu bosh miya po'stlog'i ta'sirlanganda kuzatiladi, bemor ma'lum muddat hushini yo'qotmaydi. 3. Nigoh falaji – ikkala ko'z bir tomonga qarab qolgan bo'ladi. 4. Muvozanat buzilishi – bemor bunda tura olmaydi, zararlangan tomondan qarama-qarshi tomonga yiqiladi. 5. Agrofiya – yoza olmaslik. 6. Motor afaziyasi – bemor gapirilgan gaplarni tushunadi, lekin gapira olmaydi. 7. Benorda ruhiy o'zgarishlar kuzatiladi.

**II. Tepa qismida:** 1. Bosh miyaning orga markaziy egatida butun sezgi markazlari joylashgan. 2. Sterognoz – jismlarni paypaslab bilish markazi joylashgan. 3. Tananing joylashgan o'rinnlarining markazi. 4. Praksiya markazi. 5. Sanash markazi.

**Zararlanganda:** 1. Monoanesteziya – bitta qo'l yoki bitta oyoqda qarama-qarshi tomonda sezgining buzilishi. 2. Asteriognoz – jismlarni paypaslab bila olmaslik. 3. Autotopagnoziya – tananing joylashgan o'rinnlarini bila olmaslik. 4. Akulkuliya – sanashni bilmaydi.

**III. Chakka qismida:** 1. Eshitish markazi. 2. Hid bilish markazi. 3. Ta'm bilish markazi. 4. Muzikaga qobiliyat markazi. 5. Gapirishning sensor markazi.

**Zararlanganda:** 1. Eshitish, hid bilish, ta'm bilish gallutsinatsiyasi – yo'q narsalarni sezish kuzatiladi. 2. Amuziya – muzikaga qobiliyatning yo'qolishi. 3. Vestibular ataksiya – bosh aylanish. 4. Chakka tutqanog'i – chakka qismi kasal bo'lganda tutqanoq xuruji paydo bo'ladi. 5. Sensor afaziya – bunda bemor gapga tushumaydi, gapira olmaydi.

**IV. Ensa qismida:** 1. Ko'rish markazi. 2. Ko'rib bilish markazi.

**Zararlanganda:** 1. Ko'rish gallutsinatsiyasi – yo'q narsalarni ko'rish.

2. Metamorfobsiya – narsalarning qiyshiq bo'lib ko'rinishi. 3. Mikrobsiya – narsalarning kichik bo'lib ko'rinishi. 4. Makrobsiya – narsalarning katta bo'lib ko'rinishi. 5. Ko'rish agnoziyasi – ko'radi, lekin shu narsalarni nima uchun kerakligini bilmaydi.

**Oraliq miya.** Oraliq miya yallig'lanish, o'sma, shikastlanish ta'siri-da gipotalamusning zararlanishiga olib keladi va bunga *gipotalamik alomat* deyiladi. Bu alomatning quyidagi turlari bor: 1. Gipotalamik alomatning vegetativ qon-tomir turi. Bunda bemorda paroksizmal xuruj va organizmda ichki gomeostaz buzilishi paydo bo'ladi. Bemorlar xuruj qilganda yurak birdan qattiq tez ura boshlaydi, qon bosim oshib yoki kamayib ketadi, nafas olishi o'zgaradi. Xuruj vaqtida yuz terisi qizarib yoki oqarib ketadi, titraydi, so'ng ko'p terlaydi. Bosh og'rish, ko'ngil aynish bilan kechadi. Xuruj tutganda va tugashi oldidan ko'p miqdorda siyidik ajraladi. 2. Gipotalamik alomatni diensemefal tutqanog'ida – bemorlarda tutqanoq xuruji qo'l va oyoqlarda tonik tortishishlar kuzatiladi, bunda bemor hushdan ketadi. Bu kasalliklar ayollarda ko'proq uchraydi. 3. Gipotalamik alomatning neyroendokrin turida bemorlar semirib yoki ozib ketishi mumkin, ishtaha kuchayib yoki kamayib ketadi, doimiy changoqlik, hayz ko'rishning buzilishi bilan kechadi. 4. Gipotalamik alomatning neyrotrofik turi – bunda terida shishlar (Kvinke

shishi), soch to'kilishi yoki butunlay boshning ayrim joylarida soch-ning tushib ketishi, terining ma'lum qismlari oqarib qolishi (leykoder-miya), trofik yaralar paydo bo'lishi mumkin. 5. Gipotalamik alomatning neyromushak turi – bunda darmonsizlik kuzatiladi, ba'zan bemorlar qimirlamay qoladi. Bunda soxta falajlik va boshqa soxta alomatlar paydo bo'ladi. Bu o'zgarishlar harakat markazining zararlanishidan emas, balki mushaklar faoliyatining gipotalamus orgali boshqarilishining buzilishi natijasida sodir bo'ladi.

### **Bosh miya po'stloq osti tuzilmalari**

Bosh miya po'stloq osti tuzilmalari boshqacha ekstrapiramid (pirami-da yo'lidan tashqari) yoki *striopolidar tuzilmalar* deb ataladi. Odamdag'i harakatning yaxshi tartibli bo'lishi piramida tizimdan tashqari po'stloq osti tuzilmalariga ham bog'liq bo'ladi. Ekstrapiramid deyilishiga sabab, bu tizim piramida tizimlaridan tashqarida yotadi. Ekstrapiramid odamlardan tashqari baliqlar, qushlarda oliy harakat vazifasini bajaradi, chunki ularda bosh miya po'stlog'i yo'q. Ekstrapiramid tizim, o'z navbatida, bosh miya po'stlog'i, miyacha, miya ustuni va orqa miya bilan bog'langan. Bu tizim ba'zi murakkab ixtiyorsiz va ixtiyoriy harakatlarni bajarishda, mushaklar tonusini boshqarishda, ruhiy va emotsiyonlar, shartli va shartsiz reflekslarni sodir qilishda qatnashadi.

Ekstrapiramid tizimi 2 xil bo'ladi.

Striar tizim – bu yadrolar tuzilmasidan iborat: bunga dumli yadro va qobiq (skarlupa) kiradi.

Polidar tizim – bunga quyidagilar kiradi: oq sharlar, qora modda, qizil yadro, lusevo tanasi.

Ekstrapiramid tizim, asosan, mimikalar uchun, mushaklar harakatining bir xil tartibli bo'lishi uchun, kundagi o'rganilgan harakatlarni tartibili bo'lishi, ma'lum vaqt, ma'lum joyda bajarilishida va mushaklar tonusi uchun katta ahamiyatga ega. Bu tizim harakatning tezligiga, to'g'ri bajarilishiga, yurishga ham aloqasi bor. Odamning ruhiy, ruhiy – iroda vazifalariga ham ta'sir qiladi.

Striar tizimi zararlansa, bemorda ixtiyorsiz harakatlar paydo bo'ladi, tanada turli xil ixtiyorsiz harakatlar, mushak tonusi pasaygan bo'ladi. Bemorda harakatlar ko'p (giperkinez), bu harakatlarni bemor to'xtata olmaydi, bu *giperkinetik-gipotonik belgilari* deb ataladi.

Ixtiyorsiz harakatlar quyidagi turlarga bo'linadi. 1. Atetoz – qo'l va oyoqlarda asta-sekinlik bilan bo'ladigan ixtiyorsiz harakat. 2. Torsion spazm – bo'yinda, belda bo'ladigan qiyshayishlar. 3. Xoreosimon giperkinez-yuz mushaklarida, qo'l hamda tilda kuzatiladi. Bunda bemor ko'zlarini tez-tez yumish, qisish, labni burish, tilni va qo'l panjalarini qimirlatish belgilari kuzatiladi. 4. Gemiballizm – beixtiyor qo'lida, oyogda juda rivojlangan katta qimirlash. 5. Miokloniya – ayrim mushaklarning

beixtiyor qisqarishi. 6. Tremor – bosh, til, pastki jag' va qo'l barmoqlarning titrashi. 7. Yozuv spazmi – faqat yozgan vaqtida qo'l barmoqlarida tortilish kuzatiladi.

Polidar tizimi zararlansa, bunda bradikinez – kam harakat yoki akinez – bemorning bir joyda qotib qolishi kuzatiladi. Polidar tizim zararlanishi natijasida gipertonik – gipokinetik alomat paydo bo'ladi. Bunda bemorning tanasi yarim bukchaygan, qo'llar tirsakdan, oyoqlar tizza bo'g'imidan yarim bukilgan bo'ladi. Yuz mimikasi pasaygan – gipomimiya, qo'l, oyoq, tanada harakatlar sekinlashgan, yurishda qo'l ishtirok etmaydi. Bemorning qo'l, oyoqlari va pastki jag'i titrab turadi, yuzi qotib qolgan – amimiya. Bunday bemorlarda kulish tuyg'usi sekinlik bilan boshlanadi va kulgini keltirib chiqaruvchi sabab o'tib ketgandan keyin ham iljayib turaveradi. Bunday holat parkinsonizm kasalligida uchraydi. Bemorlarning yurishi mayda qadamchalar bilan, qo'l barmoqlarida tortishish, «tanga sanash» belgisi kuzatiladi. Bemorlar biroz turtib yuborilsa o'zini to'xtata olmaydi, yonga ketib qolsa – letropulsiya, oldinga ketsa propulsiya, orqaga ketsa – retropulsiya belgilari kuzatiladi (6-rasm).

Pollidar tizim kasallansa, mushaklar tonusi oshadi – ekstrapiramid xilida, ya'ni mushak tonusi ham bukuvchi mushaklarda, ham yozuvchi mushaklarda bir xilda oshadi. Markaziy falaj vaqtida esa mushaklar tonusi piramid xilida oshadi, bunda qo'llarda bukuvchi mushaklar, oyoqlarda yozuvchi mushaklarda tonus oshadi. Bunda Vernike-Mann vaziyati kuzatiladi.

**Miyacha.** Ixtiyoriy harakatlarning yaxshi, tartibli, muvozanatli bo'lishi yana bir a'zo – miyachaga bog'liq. Miyacha kalla suyagining ichida – orqa chuqurchada joylashgan bo'lib, og'irligi 120–150 g ikkita yarim sharlardan tashkil topgan. Sharlami biriktirib turuvchi o'rta qismida miyacha chuvalchangi joylashgan. Miyacha ham butunlay bosh miya tuzilishini qaytaradi, lekin hajmi kichkina bo'lganligi uchun miyacha deb ataladi.

Miyacha 2 xil kulrang va oq moddadan tuzilgan: 1. Tashqi tomoni kulrang modda bilan qoplangan, u *miyacha qopqog'i* deyiladi. Kulrang modda yadrolardan tuzilgan, bular tishsimon yadro, tiqinsimon yadro, sharsimon yadro, yopilg'ichsimon yadrodan iborat. 2. Oq modda – bu o'tkazuvchi yo'llar bo'lib, 3 juft oyoqchalar bor. Bular: tepa, o'rta va pastki oyoqchalar bo'lib, shu oyoqchalar bilan miyacha markaziy asab tizimining boshqa qismlari bilan bog'lanib turadi.

Miyachada ham po'stloq qatlam bor. 1. Yuzaki va molekular qatlam. 2. Chuqur Purkine hujayralari. Miyacha yarim sharlari o'z tomonidan orqa miya bilan, qarama-qarshi tomonдан esa miya yarim sharlari bilan bog'langan. Miyacha organizmdagi muvozanat vazifasini bajaradi. Muvozanatni saqlash, harakatning ma'lum bir tartibda bo'lishi, yozish, ovqat yeyish miyachaga bog'liq. Qaysi yarim shar kasal bo'lsa, bemor o'sha tomoniga yiqiladi. Agar o'rtadagi chuvalchangsimon tuzilma kasallansa bemor orqaga yiqiladi. Demak, miyacha muvozanatni saqlovchi, ixtiyoriy

harakatlarni muvofiqlashtinuvchi va mushaklar tonusini boshqarib turuvchi a'zodir.

Miyachaning zararlanishiga ataksiya deyiladi, bu 2 xil ko'rinishda bo'ladi.

1. Dinamik ataksiya – bu bemor harakat qilganda, biror ish qilayotganda kuzatiladi, masalan, yozganda yoza olmaydi, ovqat yeganda qoshiqni og'ziga olib bora olmasdan qoshiqdagi ovqatni to'kib yuboradi.

2. Statik ataksiya – bemor tura olmaydi, yiqlidi, o'ng tomon zararlansa, o'ng tomonga yiqlidi, yurganda mastga o'xshab yuradi. Ataksiya faqat qo'lda, oyoqda, tanada bo'lmasdan balki ko'zda hamda tilda bo'ladi. Ko'zdagi ataksiya – nistagm, ya'ni ko'z olmasining qimirlab turishi, gaplami bo'g'in-bo'g'in qilib gapiradi. Miyacha zararlanganda mushaklar tonusi pasayadi – gipotoniya bo'ladi (7-rasm).

### **Miyachani tekshirish usullari**

**Vartenberg usuli** – qo'l panjalarini uzatib, bir-biriga urish.

Piramid tayogchalariga piramidanı kiygizish.

**Ozereskiy I usuli** – oyoqlar uchida turish.

**Ozereskiy II usuli** – bitta oyoqda turish.

Bu to'rtta usul ham bolalarda qo'llaniladi.

**Barmoq** – burun sinovi: bemor ko'zini yungan holda ko'rsatgich bar-mog'i bilan burun uchini ko'rsatadi.

**Tizza** – tovon sinovi: bemor yotgan holda ko'zini yumib, bir oyog'ining tovonini ikkinchi oyog'ining tizzasiga qo'yib, oyoq panjasini tomon yurgiziladi. Agar miyacha zararlansa, intension titrash bo'ladi.

**Romberg holati** – bemorning oyoq panjalarini birlashtirib, qo'llarini oldinga uzatib, ko'zlar yumladi. Agar miyacha zararlansa, bemor muvozanat saqlay olmaydi, gandiraklab yiqladi.

**Bosh miya pardalari, bosh miya qorinchalari, orqa miya suyuqligi hosil bo'lishi, aylanib yurishi. Meningial belgilar, meningizm, kalla ichki bosimining kuchayishi va kamayishi**

Bosh miya uch xil parda bilan o'ralgan: 1. Qattiq parda (*dura mater*) – ikkita plastinkadan iborat bo'lib, qattiq qo'shimcha to'qimadan tashkil topgan. Tashqi plastinka kalla suyagiga yopishgan, ichki plastinka esa bosh miya tomonida bo'ladi. Bu qavat asab va qontomirlar bilan ta'minlangan. Qattiq miya pardalari o'z yo'nalishi bo'yicha bir qancha bo'shliqlarni tashkil etadi. Bu bo'shliqlarda vena qoni to'planadi. 2. O'rgimchak to'risimon parda (*arachnoidea*) – bu ingichka qo'shimcha to'qimalardan tuzilgan bo'lib, qattiq miya pardasi bilan yumshoq miya pardasi orasida bo'ladi. Tashqi qavati endoteliyidan iborat bo'lib, subdural bo'shliq devorini hosil qiladi. Ichki qavati esa yumshoq pardaga qaragan va uning bilan bog'langan.

Ba'zi joylarda araxnoidal qavat yumshoq qavat bilan qo'shilib ketadi. Ba'zi joylarda ikki qavat orasida suyuqlik hovuzchasi hosil bo'ladi. Hamma suyuqlik hovuzchaları bir-biri bilan hamda subaraxnoidal bo'shliq bilan bog'langan.

3. Yumshoq miya pardasi (piamater) – bu parda bosh miyani yopib turadi, egatlar orasiga kiradi. Bu qavatda qontomirlar, asab tolalari ko'p joylashgan. O'rgimchak to'risimon parda bilan yumshoq parda ikkalasi birqalashib, umumiyl nom «Leptomeninx» ni tashkil qiladi. Yumshoq parda qorinchalar orasiga kirib, u yerda qontomir (xoriodal) chigallarini hosil qiladi. O'rgimchak to'risimon parda bilan yumshoq parda orasidagi bo'shliq subaraxnoidal bo'shliq deb ataladi. Orqa miya suyuqligining ko'p qismi shu bo'shliqda bo'ladi va doimo aylanib turadi. Subaraxnoidal bo'shliq orga miyani boshdan oxirigacha o'rab turadi. Orga miya tugallanadigan joyda (II bel umurtqasi) subaraxnoidal bo'shliq kengayib, oxirgi suyuqlik hovuzchasini hosil qiladi. Unda «ot dumii» ga o'xshash asab tolalari shu hovuzchada turadi.

Orga miya suyuqligining ko'proq qismi bosh miyaning markaziy bo'shliqlarida, miya qorinchalarida bo'ladi. Bular o'ng va chap yon qorinchalar, III va IV qorinchalardir. Orga miya suyuqligi miya qorinchalarida joylashgan xoriodal chigallardan ishlab chiqiladi. Orga miya suyuqligi yon qorinchalardan va Monroy teshiklari orgali III qorinchaga o'tadi. Bu yerdan Silviy suv yo'li orgali IV qorinchaga tushadi. IV qorinchadan orga miya suyuqligi orga miyaning markaziy kanaliga Majandiy va Lushk teshiklari orgali katta suyuqlik havzasini bilan subaraxnoidal bo'shliqga o'tadi. Katta kishilarda 150–200 ml orga miya suyuqligi bo'ladi. Bosh miya va miya ustuni atrofida joylashgan suyuqlik bosh miyani turli xil jarohatlardan, qattiq silkinishlardan, zararlanishdan saqlab turadi. Bulardan tashqari, suyuqlik miya hujayrasida moddalar almashinuvini ta'minlaydi, bulardan chiqqan chiqindilarni tozalab turadi va miyaning ichki bosimini bir me'yorda saqlab turadi (8-rasm).

**Orga miya suyuqligini olish tartibi.** Orga miya suyuqligini lumbal punksiya qilish natijasida olinadi. Bunday punksiya shifoxonada qilinadi, u tashxis qo'yish va davolash maqsadida o'tkaziladi. Punksiya qilishdan oldin qo'lni yaxshilab sovun bilan cho'tka orgali yuvib, spirt va yod eritmasi bilan tozalanadi.

Bemorni ko'pincha o'ng tomonga yonbosh qilib yotqizib, oyoqlarni tizza bo'g'imidan bukkan holda qoringa yaqinlashtirib, boshni biroz oldinga egil yotqiziladi. Bemorning chanoq suyagini yugorigi qirrasidan umurtqa pog'onasi bo'ylab yod bilan chizib olinadi. Bu chiziq  $L_3-L_4$  umurtqalar o'simtasi orasiga to'g'ri keladi. Punksiya, asosan,  $L_2-L_3$ ,  $L_3-L_4$ ,  $L_4-L_5$  umurqa o'simtalar orasi spirt va yod bilan tozalanib, keyin 0,5 %-2,0 ml novokain shu joy terisi ostiga yuboriladi, shu joyga maxsus igna mandreni bilan II-III bel umurtqasi orasiga qilinadi. Punksiya qilayotganda igna bemorning bosh tomoniga salgina qaratib turib, o'rta chiziqga gorizontal holatda sanchiladi. Ignan uchi miya qattiq pardasiga borib yetgach, biroz qarshilik sezadi. Miya qattiq pardasi teshilgach,

garshilik yo'qoladi. Keyin mandren olingen vaqtida suyuqlik tomchilab chiqadi. Suyuqliknинг rangi tiniq, bosimi maxsusuvli monometr yordamida o'lchanadi. Yotgan holatda 150–180 ml suv ustuni, o'tirgan holda 200–250 ml suv ustuniga teng. Agar monometr bo'lmasa, suyuqlik chiqishini sanaymiz, bunda bir daqiqada 60–80 tomchi suyuqlik oqib chiqadi. Bosh miyada suyuqlik bosimi oshib ketgan bo'lsa, u tomchi bo'lib emas, balki to'xtovsiz bosim bilan otilib chiqadi. Tashxis qo'yish maqsida 3–4–5 ml suyuqlik olib tahlil qilinadi. Bunda rangi –tiniq, rangsiz, hu'jayralar soni 0–5 ta limfasit hisobiga, bolalarda 20 tagacha, ogsillar soni 0,1–0,3 g/l, shakar miqdori 0,5–0,75 g/l, xloridlar 7,0–7,5 g/l. Bular sog'lom kishilarda bo'ladi (9-rasm).

Bosh va orqa miya o'smalarida ogsillar soni ko'payadi, meningitlarda esa hujayralar soni limfasitlar hisobiga ko'payadi, bosim oshib, rang o'zgaradi, loyqa bo'ladi. Punksiyadan keyin bemor 2 soat to'shakda qorin bilan yostiqsiz yotishi lozim. Shundan so'ng 2 kungacha orgasi bilan yostiqsiz yotishi kerak. Bemorga 1–2 kun davomida 0,5 mg. dan 2–3 mahal urotropin berib turish tavsiya etiladi.

Orqa miya suyuqligidagi ogsil moddasi (albumin, globulin) 0,2–0,3 % ni tashkil etadi. Buni tekshirish uchun quyidagi usullardan foydaniladi.

1. Nonne-Appelt reaksiysi bunda shisha idishda teng miqdorda 0,5–1,0 ml orqa miya suyuqligi olinib, unga to'yingan ammoniy sulfat eritmasi solinib aralashтирiladi. Agar orqa miya suyuqligida globulin miqdori me'yorda bo'lsa, aralashma loyqalanmaydi. Lekin globulin miqdori ko'proq bo'lsa, aralashma loyqalanib ketadi. Loyqalanish darajasiga qarab: sust bo'lsa +, o'rtacha bo'lsa ++, juda kuchli bo'lsa +++ yoki +++, belgisi ko'rsatiladi.

2. Pandi reaksiyasida soat oynasiga karbol kislotaning 12–15 % eritmasidan quyilib, uning ustiga bir tomchi orqa miya suyuqligidan tomiziladi. Suyuqlikda globulin miqdori me'yordan ko'proq bo'lsa, aralashma loyqalanadi. Bu reaksiyaning loyqalanish darjasini ham yugorida ko'rsatilgan belgilar bilan aniqlanadi.

Agar orqa miya suyuqlik tarkibida hujayralar soni me'yorda bo'lsa, lekin ogsillar soni ko'proq bo'lsa, bu ogsil-hujaya *dissotsiatsiyasi* deb ataladi. Bu holat asab tizimida o'smalar borligidan darak beradi. Lekin hujayralar miqdori oshib, ogsil miqdori o'zgarmasa, bu hujaya-ogsil *dissotsiatsiyasi* deb ataladi. Bu holat barcha markaziy asab tizimining yallig'lanish kasalliklarida uchraydi.

**Punksiya qilish kerak:** meningitlarning barcha turlarida, orqa miya yallig'lanishida, leptomeningitlar, ensefalitlar, gipertenzion belgilar, miyelitlar va bosh miya qon aylanishining o'tkir buzilishlarida.

**Punksiya mumkin emas:** bosh va orqa miya o'smalarida, komatoz holatlarda.

Orqa miyada ro'y beradigan kompression jarayonlarda (o'sma, leptomeningit va boshq.) subaraxnoidal oraliqning ma'lum bir yerida to'siq

paydo bo'lishi mumkin. Natijada, orqa miya suyuqlik aylanishi buziladi. Subaraxnoidal oraligda to'siq bor yoki yo'qligini aniqlash, orqa miya kasalliklariga tashxis qo'yishda quyidagi usullardan foydalaniladi.

**Kvekenshededt usuli.** Orqa miya suyuqligi olinayotgan vaqtida bemor bo'ynining ikkala yon tomonidan ikkala v. jugularisning ustti qo'l bilan bosiladi. Agar subaraxnoidal oraligining punksiya qilinayotgan joyidan yugoriroq qismida to'siq bo'lmasa, orqa miya suyuqligining oqimi tezlashadi yoki to'siq mavjud bo'lsa, orqa miya suyuqligi oqimi o'zgarmasligi, susayishi yoki to'xtab qolishi mumkin.

**Stukkey usuli.** Punksiya qilinayotgan ignadan orqa miya suyuqligi oqib turgan vaqtida bemor qomining pastki qismiga bosiladi. Agar to'siq bo'lmasa, suyuqliking oqimi tezlashadi. Agar to'siq mavjud bo'lsa, oqim o'zgarmaydi, to'xtab qoladi.

Agar punksiya qilingandan keyin bemorda meningizm belgilari paydo bo'lsa, shu belgilari yo'qolguncha bemor o'midan turg'izilmaydi. Bir necha kun davomida bemorga 40 %li 20,0 ml glukoza eritmasidan tomir ichiga yuboriladi va bosh og'rig'iga qarshi dorilar beriladi (10-rasm).

**Meningial belgilari.** Miya pardalarining yallig'lanish kasalliklarida, shu pardalar tagiga qon quyilib qolgan vaqtarda, bosh miya jarohatlanganda, bosh miya o'smalarida, abscesslarda va bosh miya ta'sirlanishiga aloqador belgilari kuzatiladi. Bularda meningial belgilari ijobiy bo'ladi. Bu belgilari bosh og'rishi, qayt qilish, yorug'likka qaray olmaslik, tovushlar yomasligi, tomir urishining sekinlashuvi, ensa mushagini tarangligi, Kernig va Brudzinskiy belgilari hamda talvasa xurujlaridir.

Kernig belgisida sonni to'g'ri burchak ostida bukib, oyoqni tizza bo'g'imidan yozish kerak. Kasallangan vaqtida oyoq tizza bo'g'imidan yozilmaydi. Brudzinskiy yugori belgisida ensa mushaklari tarangligi tekshirib ko'rileyotganda oyoqlar tizza bo'g'imidan bukiladi. Pastki belgisida birinchi oyoqni chanoq-son bo'g'imidan bukib, tizza bo'g'imidan yozganda ikkinchi oyoq tizza bo'g'imidan bukiladi.

**Meningizm.** Yallig'lanish belgilari bo'lмаган holda miya pardalarining ta'sirlanishidan kelib chiqqan holda belgi hisoblanadi. Bunda bemorning boshi og'riydi, qayt qiladi, tomir urishi sekinlashadi. Ensa mushagi tarangligi, Kernig, Brudzinskiy belgilari kuzatiladi. Lekin orga miya suyuqligi tarkibida o'zgarish me'yoriy holda bo'ladi. Bosimi ko'tarilgan bo'ladi. Bu holat har xil kasalliklardan va turli xil zaharlanishlardan keyin kelib chiqadi.

**Kalla ichki bosimining oshishi (gipertensiya) belgilari.** Kalla ichida biror narsa (o'sma, gematoma, exinokokkoz, abscess) paydo bo'lganda orqa miya suyuqligi ishlab chiqishi ko'payadi, so'riliishi kamayadi yoki bekilib qoladi. Kalla ichki bosimi kuchayib ketadi. Bunda gipertenzion belgilari kuzatiladi. Buning klinik manzarasida bosh og'rishi, qayt qilish, ko'z nervining tubida dimlanish paydo bo'ladi. Bosh og'riq ko'pincha ertalab kuchayadi, bu ovqat yeyishga bog'liq bo'lmaydi. Bemorda ko'ngil

aynimasdan o'zi bilmagan holda ko'proq ertalablari qusib yuboradi. Bundan tashqari, bemorning ruhiyati buziladi, karaxt bo'lib yuradi.

Gipertenzion-gidrosefal alomatning asosiy belgisi – qattiq bosh og'riq bilan bemor o'zini boshi yorilib ketayotgandek his qiladi. Bosh og'riq ko'pincha bosh aylanish va quşish bilan birga davom etadi hamda vaqtı-vaqtı bilan xuruj zo'rayib turadi. Kalla va butun tanani majburiy holatda tutib turadi, ya'ni bemorlar boshini yonga yoki oldinga egib turadilar. Faqat bir yonbosh bilan yetadi, bu holat o'zgarsa, bosh aylanish va quşish kuchayib ketadi. Bemorning ko'z oldini vaqtı-vaqtı bilan to'r bosib, mayda-mayda olov uchqunlari ko'rina boshlaydi. Xuruj vaqtida bemorning rangi qizarib yoki oğarib ketadi. Nafas olishi tezlashadi, taxikardiya yoki bradikardiya bo'ladi. Bosh og'riq kuchli bo'lganda bemorlar hushdan ketib qoladilar. Bosh miya qorinchalarida bosim oshib ketganligi sababli bosh miya venalarida qon aylanish qiyinlashadi. Natijada, ko'z tubida ko'ruv nerv papillasi shishadi, uning vena qontomirlari kengayib ketadi va mayda qon quyilishlar paydo bo'ladi.

Gipotenziv alomati bosh miya ichida bosim pasayib ketganda paydo bo'ladi. Bunda bemorlar bosh og'riqni boshning tashqi tomonidan bosilayotganday his qiladilar. Bosh og'riq ko'pincha ensada va bo'yinning orgasida bo'ladi. Yotgan, o'tirgan holatlarda bosh og'riq kamayishi yoki yo'qolishi, tik turgan yoki yurayotgan paytlarda zo'rayib ketishi mumkin. Ortostatik bradikardiya, ko'ngil aynish, bosh aylanish, yorug'lilik yoqtirmaslik belgilari bilan birga umumiy damonsizlik, uyqu bosish, ko'z tinishi, ayrim vaqtlari hushdan ketish hollari ham bo'lib turadi.

#### ***Nazorat savollari***

1. Asab hujayrasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Dinamik polarizatsiya qonunini tushuntirib bering?
3. Bosh miya yarim sharlarining qismlari va ulaming vazifalarini aytинг?
4. Orqa miya tuzilishini aytib bering?
5. Bosh miya po'stloq osti tuzilmalariga nimalar kiradi va uning tekshirish yo'llari?
6. Miyachaning vazifasi va tekshirish usullari?
7. Orqa miya suyuqligi sog'lom odamlardagi tarkibi va uning organizm uchun ahamiyati qanday?
8. Bosh miyadagi gipertenzion va gipotenzion alomatlarning bir-biridan farqini tushuntirib bering?

#### ***Periferik asab tizimi anatomiyasи, fiziologiyasi, zararlanish belgilari va tekshirish usullari***

Periferik (sirtqi, chekka, uchki) asab tizimi deb, bosh va orqa miyadan boshlangan nerv hujayralari, nerv tolalari va ulaming yo'llarida hosil bo'lgan nerv tugunlari ya'ni gangliyalarga aytildi.

Markaziy asab tizimining teri, mushak, pay bilan bog'lovchi qismiga somatik asab tizimi deyiladi. Markaziy asab tizimining ichki a'zolari,

qontomirlar va ichki sekretsya bezlari bilan bog'lovchi qismi vegetativ asab tizimi deb ataladi. Orqa miyadan chiqadigan periferik asab tizimida sezuvchi nervning boshlanish qismida mayda nerv tolalari bo'lib, u tashqi muhitdan kelgan har-xil ta'sirlami qabul qilib, impulsga aylantirib beradi. Bunday retseptorlar teri, mushak, pay, ichki a'zolarda joylashgan bo'lib, ulardan kelgan axborotlarni sezuvchi tolalar orgali markaziy asab tizimiga yetkazib beradi. Harakat nerv tolalari esa markaziy asab tizimidan kelgan axborotlarni teri, mushak, qontomirlar, ichki a'zolarga yetkazib beradi. Markaziy asab tizimi tashqi va ichki muhitdan kelgan axborotlarga organizmni moslashtirib beradi.

Periferik asab tizimi zararlanganda, shu nervga taalluqli mushaklarda falajlik va terida sezgining yo'qolishi hamda sezgi buzilishlari bilan kechadi. Periferik asab tizimi zararlanganda og'riq (nevralgiya) va tananing qismlarida uvishish (paresteziya) kuzatiladi. Ayrim asabning zararlanishi natijasida juda qattiq chidab bo'lmaydigan, achishtiruvchi, kuydiruvchi og'riqlar bo'ladi – bu og'riq kauzalgiya deyiladi.

Orqa miya ildizlarining zararlanishi – *radikulit*; orqa miya tugunlarining zararlanishi – *ganglionit*; nerv chigallarining zararlanishi – *pleksit*; alohida nervlarning zararlanishi – *nevritlar* deb ataladi.

1. Orqa miyaning oldingi ildizi zararlanganda periferik asab tizimiga xos falajlanish kuzatiladi. Bunda mushaklarda gipotrofiya yoki atrofiya, pay reflekslari susaygan yoki yo'qolgan bo'ladi. Orqa miyaning orqa ildizi zararlanganda esa ildizcha turdag'i sezgi o'zgarishlar bo'ladi.

2. Orqa miya orqa shoxidagi tugunlar zararlanganda, shu zararlangan sohada kuchli og'riq bilan birga uchuq toshishi kuzatiladi.

3. Yelka chigali uchta tutamdan iborat bo'ladi. Bu tutamlar orqa miyaning C<sub>5-8</sub>–D<sub>1</sub> segmentlaridan chiquvchi orqa miya nervlarida hosil bo'ladi. Bu nervlar o'mrov suyagining orqa tomonidan bir-biri bilan qo'shilib, uchta tutamni hosil qiladi. Yugori tutam C<sub>5-6</sub> segmentlardan chiquvchi orqa miya nervlarida hosil bo'ladi. O'rta tutam C<sub>7</sub> segmentlardan chiqadigan va pastki tutami esa C<sub>8</sub>–D<sub>1</sub> segmentlaridan chiquvchi orqa miya nervlarida hosil bo'ladi. Yuqori tutamlar zararlanganda shu asab tolalari bilan ta'minlangan mushaklar falajlanishi va atrofiyalanishi, terida esa sezgi yo'qolishi kuzatiladi. O'rta tutam zararlanganda, shu mushaklarda falajlanish va atrofiyalanish bilan birga tirsak va oraliq nervlariga taalluqli teri sohasida sezgi o'zgarishlari bo'ladi. Pastki tutam zararlanganda oraliq va tirsak nervlari bilan ta'minlangan mushaklar falajlanishi, qo'lтиq va bilak nervlari ta'minlaydigan teri yuzidagi sezgi yo'qoladi.

4. Bel chigali D<sub>12</sub>–L<sub>1-4</sub> segmentlardan chiquvchi orqa miya asab tolalardan hosil bo'ladi. Son va sonning tashqi teri nervi bel chigallari zararlanganda ko'proq uchraydi. Son nervi zararlanganda boldirmi yozuvchi mushaklarning falajlanishi bo'ladi, tizza refleksi yo'qoladi. Bunda bemor bukilgan boldirmi yoza olmaydi. Sonning tashqi teri nervi zararlanganda mushaklarda falajlanish bo'lmaydi, lekin teri sevgisi yo'qoladi.

5. Dung'aza chigali L<sub>4-5</sub> va Co<sub>1-3</sub> segmentlardan chiqqan orqa miya asab tolalaridan iborat. Dung'aza chigalidan chiquvchi quymich nervi ko'proq zararlanadi. Bunda sonni tashqi tomonga aylantirish, boldirni bukish va oyoq panjasining harakatlari yo'qoladi. Oyoq kafti mushaklarining falajlanishi, atrofiyalanishi va Axill hamda pay reflekslari yo'qoladi. Oyoqning orqa tomonida og'riq va boldir hamda oyoq panjasining terisida sezgi yo'qoladi. Kichik boldir nervining zararlanishida oyoq panjasini va barmoqlar yugoriga bukilmaydi, oyoq panjasini osilib qoladi. Bemor oyoq uchi yerga tegmasligi uchun tizzasini yugoriga ko'tarib tashlab yuradi. Boldir va oyoq panjasining tashqi yuzasida sezgi o'zgarishlari bo'ladi. Katta boldir nervi oyoq panjasini va barmoqlarni yugoriga bukuvchi mushaklarni ta'minlaydi. Bu nerv falajlanganda bemorlar oyoq panjasini va barmoqlarni pastga buka olmaydi, oyoq panjasini tashqi tomonga va yugoriga tortilib qoladi. Axill refleksi yo'qoladi, teri sezgisi boldir orgasida, oyoq panjasini va barmoqlarning ostida hamda ularning ichki tomoni yuzasida yo'qoladi.

Bilak nervi, asosan, qo'l panjasini orgaga bukadi, tirsakni yozadi. Sezgi qismi esa I-II-III barmoqlarning ustki qismini sezgi bilan ta'minlaydi. Agar bilak nervi zararlansa, qo'l panjasini osilib qoladi, tirsak sal bukiladi. Shu joylarda periferik nerv xilidagi falajlanish belgilari bo'ladi (bular atrofiya yoki oriqlash, gipotoniya va shu zararlangan tomonda yozuvchi bilak reflekslari chaqirilmaydi), I-II-III barmoqlarning ustki qismida qo'l panjasida sezgi yo'qoladi.

Tirsak nervi bu nerv IV-V barmoqlarni bukadi, birinchi katta barmoqni sinchalakka olib keladi. Sezgi qismi esa IV-V barmoq qo'l panjasida tashqi va ichki qismida sezgi bilan ta'minlaydi. Agar bu nerv zararlansa, IV-V barmoqlar bukilmaydi, periferik nerv xarakteridagi falajlanish kuzatiladi. Bunda atrofiya gipotenor sohasida bo'ladi. Bemor royal, pionina chalolmaydi, panjasasi «qushsimon» panja ko'rinishida bo'ladi. Sezgi sohasi IV-V barmoqlarning ichki qismida sezgi yo'qoladi.

O'rta yoki oraliq nerv ham aralash nervlardan iborat bo'lib, harakat qismi I-II-III qo'ldagi barmoqlarni bukadi. Sezgi qism esa I-II, qisman III barmoqlarning ichki qismini sezgi bilan ta'minlaydi. Agar shu nerv zararlansa, I-II-III qo'ldagi barmoqlar bukilmaydi, tenor sohasida atrofiya bo'ladi. Bemorning qo'l panjasasi «maymun» panjasiga o'xshab qoladi. I-II, qisman III barmoqlarning ichki qismida sezgi yo'qoladi hamda tirsakni bukish reflekslari chaqirilmaydi.

Quymich nervining harakat qismi uni tizza sohasidan bukadi va oyoqni tashqariga qaratadi. Quymich nervi tizza osti chugurchasiga borib, ikkita nervga bo'linadi.

I. Kichik boldir nervi bo'lib, u boldirning tashqi tomonidan ketadi. Bu nerv oyoq panjalarini orgaga burishni va tashqariga qaratishni amalga oshiradi. Sezgi qismi esa boldir va oyoq panjasining tashqi qismini sezgi bilan ta'minlaydi.

II. Katta boldir nervi bo'lib, harakat sohasi oyoq panjasidagi barmoqlarni bukadi va bir-biriga yaqinlashtiradi hamda oyoq panjasini ichkariga buradi. Sezgi sohasi esa boldirning orga ichki tomoni va oyoq panjasining tovon qismini sezgi bilan ta'minlaydi.

Agar quymich nervi zararlansa bemor tizzasini buka olmaydi, oyoqni tashqariga qarata olmaydi, sonning orga qismida sezgi yo'qoladi. Oyoqda esa Axill refleksi chaqirilmaydi. Agar kichik boldir nervi zararlansa, oyoq panjalarini orqaga hamda tashqariga buka olmaydi, ya'ni oyoq panjasini osilib qoladi. Benorming yurishi «xo'rozsimon» – oyoqni ko'tarib bosadi. Boldirming tashqi tomonida sezgi yo'qoladi. Falajlanish periferik asab xilida kuzatiladi. Agar katta boldir nervi zararlansa, oyoq panjasini barmoqlarini buka olmaydi, bir-biriga yaqinlashtira olmaydi, oyoq panjasini tashqariga qarab qolgan, uni ichkariga burish qiyin bo'ladi, falajlanish periferik nerv xilida bo'ladi. Axill va tovon reflekslari yo'qoladi, boldirming orga ichki qismida sezgi yo'qoladi.

**Periferik asab tizimini tekshirish usullari.** Agar periferik asab tizimi zararlammagan bo'lsa, paypaslab ko'rilmarda og'rimaydi. Zararlanganda esa ularning sirtga chiqish joylari va ustunlari paypaslaganda og'riydi. Tekshirilganda qo'l, oyoq va tanada joyalashgan hamma nerv ustunlarini paypaslab chiqish kerak. Quidagi tortilish usullarini ko'rib chiqamiz:

1. Laseg belgisi, bunda quymich nervini tortish natijasida sonning orga tomonida qattiq og'riq paydo bo'ladi. Bunda bemor yotgan holda bitta oyog'ini tizzani bukmasdan yugoriga ko'tarishi tavsiya etiladi. Agar quymich asabi zararlammagan bo'lsa,  $90^{\circ}$  yugoriga ko'tarilganda ham og'rimaydi. Agar zararlangan bo'lsa, oyoqni  $30^{\circ}$  yugoriga ko'tarilganda ham og'riq paydo bo'ladi.
2. Bexterov belgisi, bunda sog'lom oyoqni yugoriga ko'targanda quymich nervi bo'lsa, zararlangan oyoq og'riydi.
3. Neri belgisi, bu orqa miyaning bel va dung'aza ildizlarini tortib ko'rish belgisi bo'lib, bunda bemor yotgan holda boshi oldinga bukilladi. Agar zararlammagan bo'lsa bel sohasida og'riq bo'lmaydi. Agar bel va dung'aza ildizlari zararlangan bo'lsa bunda belda qattiq og'riq bo'ladi.
4. Vasserman belgisi – bu son nervini tortib ko'rish belgisi bo'lib, bunda bemorni chalqancha yotqizib qo'yiladi. Agar son nervi zararlangan bo'lsa tekshirilayotgan oyoqni tizza bo'g'imidan bukib, yugoriga ko'tarilsa, sonning oldingi qismida og'riq paydo bo'ladi.
5. O'tirish belgisi, bemorga oyoglarni oldinga uzatgan holda o'tirish tavsiya etiladi. Agar beldagi ildizlar zararlangan bo'lsa, bemor o'tirganda oyoglarni tizza bo'g'imidan bukib oladi, ya'ni bemor beldagi og'riqni kamaytirish magsadida shunday qiladi.
6. Dejerin belgisi, bemorlar yo'talganda yoki aksa urganda bel-dung'aza sohasida og'riq kuchayadi (11-rasm).

#### *Nazorat savollari*

1. Periferik asab tizimi deb nimalarga aytildi?
2. Orga miya oldingi shoxi zararlanganda qanday belgilar paydo bo'ladi?
3. Yelka chigali nimalardan tuzilgan?

4. Bilak va quymich nervlarining vazifalarini aytинг?
5. Periferik asab tizimini tekshirish yo'llarini ko'rsating?
6. Tortilish belgilaringin turlari va kelib chiqish sabablarini tushuntiring?

### **Harakat tizimi, anatomiysi, fiziologiyasi, zararlanish belgilarini va tekshirish usullari**

Buyuk rus olimi Sechenov aytganidek, miya faoliyatining asosiy narsasi bu harakatdir. Butun tirik jonivorlar, odamlar kechayu-kunduz harakat qiladi. Harakat 2 xil bo'ladi: 1. Ixtiyoriy harakatlar bu harakatlar odamning xohishiga bog'liq harakatlar. 2. Ixtiyorsiz harakatlar – odamning xohishiga bog'liq emas, bu harakatlarga chagaloqlardagi harakat kiradi.

Ixtiyoriy harakat markazlari bosh miya po'stlog'ining peshona qismi oldindi markaziy egatida joylashgan, joylashishi alohida-alohida va teskari. Har bir markazdan pastga qarab harakat neyronlari boshlanadi. Ular ichki kapsulagacha gulbog'ni tashkil qiladi. Pastga tushadigan harakat yo'llari birlashib, ichki kapsulani orqa sonini oldindi 2/3 dan o'tadi. Ichki kapsuladan o'tgandan keyin miya oyoqchalari orgali miya ustuniga tushadi. Uzunchoq miya orqa miya chegarasida harakat yo'llari kesishadi. 85–90 % asab tolalari kesishadi. Kesishgandan keyin orga miyani yon ustuniga tushadi, keyin har bir segment sohasida oldindi shoxga kirib, harakat hujayralarida tugaydi. Bu harakat neyroni – *birinchi markaziy neyron yoki piramida yo'lli* (kortiko-spinal yo'l) deyiladi. Kesishmay qolgan harakat tolalari orqa miyaning oldindi ustuniga tushadi. Birinchi markaziy neyron tugaydi, orqa miya tamom bo'lган joyda, bu ikkinchi bel umurtqasi sohasida. Orqa miyaning oldindi harakat hujayrlaridan kelgusi neyron boshlanib, tashgariga chiqadi va mushaklarda tugaydi. Bu ikkinchi periferik neyron – *orga miya mushak yo'lli* (spino-muskular yo'l) deyiladi (*12-rasm*). Ikkinci periferik asab qismlari. 1. Ildizlar (oldindi shoxda harakat ildizi, orqa shoxda sezgi ildizi). 2. Umurtqalararo tugunlar (bu faqat sezgiga tegishli). 3. Chigallar (aralash tolalardan iborat sezgi). 4. Periferik asablar (qo'l, oyoq va tanadagi alohida nervlar). Har bir targ'il ko'ndalang mushak asab bilan ta'minlangan. Periferik asab quyidagi vazifalami bajaradi: 1. Harakat. 2. Sezgi. 3. Trofik yoki oziqlantirish.

**Zararlanganda.** Agar ikkala neyron butunlay biror joyda zararlansa, unda harakat bo'lmaydi. Bunda plegiya – umuman harakat yo'q, parez – harakat butunlay yo'qolmagan, amo chegaralangan. Parezlar yengil, o'rta va chuqur parezlarga bo'linadi. Parezlar joylashishiga qarab bo'linadi, monoparez – bitta qo'l yoki bitta oyoqda harakat chegaralangan, paraparez – ikkala qo'l yoki ikkala oyoqda harakat chegaralangan, gemiparez – bir tomonda o'ng yoki chap tomonda harakat chegaralangan, tetraparez – ikki qo'l va ikki oyoqda harakat chegaralangan. Parezlar xarakteriga qarab ikki xil bo'ladi:

Markaziy parezlar-markaziy asab tizimi kasallanganda kuzatiladi.

Periferik parezlar-periferik asab tizimi kasallanganda kuzatiladi.

Belgilari	Markaziy yoki spastik falajlik (markaziy neyron zararlanguanda bo'ladi)	Periferik yoki bo'shashgan falajlik (Periferik neyron zararlanguanda bo'ladi)
Peristol va pay reflekslari	Oshgan (gi perrefleksiya)	Susaygan yoki yo'qolgan (gi porefleksiya)
Patologik reflekslari (Babinskiy, Rossolimo, Gordon va hokazolar)	U chraydi	U chramaydi
Klonus (yoq panjası, tizza qopqog'i, qo'l panjası)	U chraydi	U chramaydi
Himoya reflekslari	U chraydi	U chramaydi
Hamkor harakatlar	Kasallikka xos hamkor harakatlar uchraydi	U chramaydi
M ushaklar tonusi	Oshgan (gi pertoniya)	Susaygan yoki yo'qolgan (gi potoniya yoki atoniya)
M ushaklar trofikasi (oziqlanishi)	Buzilmagan yoki biroz yengil buzilgan	Buzilgan va chuqur atrofiya belgilari
Elektr o'tkazuvchanlik	Buzilmagan	Buzilgan
Vegetativ o'zgarishlar: (paresteziya, teri quruq, ko'p terlash, tirnoqlar sinuvchanligi, turli xil dog'lar, qo'l va oyoqdagi tomirlar urushining pasayishi, qo'l va oyoqlarning sovuq qotishi).	U chraydi	U chraydi

Agar bosh miya peshona qismi, oldingi markaziy egat yoki gulbog' zararlansa, bitta qo'lda yoki bitta oyoqda monoplegiya bo'ladi, faqat qarama-qarshi tomonda bo'ladi. Agar ichki kapsula zararlansa, bir tomonдан va undan pastdag'i tuzilmalar miya ustunidan, orqa miyagacha zararlansa, gemiplegiya faqat markaziy xilida hamma vaqt qarama-qarshi tomonda bo'ladi.

**Orqa miya zararlansa:** 1. Yugori bo'yin qismida orqa miyaning butun ko'ndalang qismi zararlansa, tetraplegiya markaziy xarakterda bo'ladi. 2. Orqa miyaning bo'yin qolningi zararlansa, bunda ham tetraplegiya bo'ladi. Bunda faqat qo'llarda parez periferik xarakterda, oyoqlarda markaziy xarakterga ega bo'ladi. Chunki qo'llar uchun orga miyaning oldingi shoxidagi harakat hujayralari zararlangan bo'ladi, oyoqlar uchun esa markaziy neyron zararlangan. 3. Orqa miyaning ko'krak qismi zararlanguanda pastki paraplegiya oyoqlarda markaziy xarakterda, chunki oyoqlar uchun markaziy neyron zararlangan. 4. Orqa miyaning bel qismi butunlay zararlansa, bunda pastki paraplegiya oyoqlarda, falajlanish periferik xarakterga ega. Chunki orqa miyaning oldingi shoxidagi harakat hujayralari zararlangan. Shunday qilib, orqa miyaning butun ko'ndalang qismi kasallanganda paraplegiya yoki tetraplegiya bo'ladi.

**Harakat sohasini tekshirish.** 1. Faol harakatlarni tekshirishda bemor shifokor buyrug'ini bajarishi kerak, barcha bo'g' imlardagi harakatlar to'liq

ko'rildi. Bemor yurganda harakatlari kuzatildi. Qo'l yoki oyoqlarning shifokor buyrug'i asosida yugoriga, pastga va yon tomonga harakatlari tekshirilib ko'rildi. Bunda bemorda parez yoki paralichlar bor yoki yo'qligi aniqlanadi. 2. Sust harakatni tekshirishda shifokor bemorning o'ng tomonida turib, bemorning boshini, qo'l va oyoqlardagi bo'g'imlar harakatini kuzatadi. Bo'g'imlardagi harakat to'liq chegaralangan yoki chegaralarmanligi aniqlanadi. Shu bilan birga mushak tonusi ham bir vaqtning o'zida tekshirib boriladi. Mushaklar tonusi ko'rيلayotgan vaqtida bemor mushaklarni bo'sh qo'yishi kerak. Mushaklar tonusi piramid yoki ekstrapiramid xilida ekanligi, qaysi qo'l yoki oyoqlarda bo'lsa, shu mushaklar tonusi aniqlanadi. Bundan tashgari, gipotrofiya yoki atrofiya borligini «sm» lenta yordamida o'ng va chap tomon o'lchanadi. O'ng tomon chap tomonga nisbatan 1,0 – 1,5 sm farq qiladi. Son, boldir, yelka va bilakning o'rta qismi o'lchanadi. Mushaklar kuchi bukvchi va yozuvchi mushaklarda aniqlanadi. Bu 5 balli tizim bilan aniqlanadi. 5 ball – bunda qo'l-oyoqlarda faol harakatlar chegaralarmagan, mushaklar kuchi pasaymagan; 4 ball – faol harakat chegaralangan, Barre holatda qo'l-oyoqlami bir necha daqiga ushlab turiladi. So'ngra parez bo'lgan qo'l yoki oyoq sekin pastga tushib ketadi bu yengil parez deyiladi; 3 ball – mushaklar kuchi pasaygan, Barre holatda qisqa vaqt tura oladi, bemor qo'l yoki oyoqni biroz ko'tarishi mumkin. Bu o'rta og'irlilikdagi parez deyiladi; 2 ball – mushaklar kuchi birdan pasaygan bemor qo'l yoki oyoqlarini ko'tara olmaydi. Bemor oyoqlarini tizza bo'g'imidan buka olmaydi – bu chuqur parezlar deyiladi; 1 ball – ayrim mushaklarda qisqarish yoki uchish bo'ladi, harakat butunlay yo'qolgan, bu plegiya deb ataladi.

Yashirin parezlami aniqlashda Barre usulidan foydalaniladi. 1. Yuqridagi usul – bunda qo'llar oldinga uzatilgan holda ushlab turiladi va ko'zlar yumiladi. Agar parez bo'lsa 1–2 daqiga ichida parez bo'lgan qo'l pastga tushib ketadi. 2. Pastki usul – bemor chalgancha yotgan holda oyoqlarini 45° bulkan holda ushlab turadi. Agar parez bo'lsa, oyoq tushib ketadi.

Markaziy parezlarda tizza qopqog'i va oyoq panjasasi o'ynab qoladi, bu klonus deb ataladi. Klonus bir maronda mushaklarning qisqarishi natijasida paydo bo'ladi.

### *Nazorat savollari*

1. Piramida yo'li nima?
2. O'ng oyoqda tizza va Axill reflekslari yo'qolgan, tashxis qo'yish uchun tekshirish o'tkazing.
3. Bemorning qo'llarida periferik nerv falaji, oyoqlarida esa markaziy spastik falajlik bo'lsa, siz qanday fikr qilasiz?
4. Bemorning tizza refleksi osghan, ikki tomonda oyoq panjasida klonus bor. Patologik reflekslaridan Babinskiy chaqiriladi. Bunda bemorda qanday shikoyatlar bo'lgan, zararlangan joyni aniqlang.
5. Markaziy va periferik asab tizimi zararlanganda qanday belgilar bir-biridan farqlanadi?
6. Orga miyaning bo'yin qismi to'liq zararlanganda qaysi belgilar paydo bo'ladi?

## **Reflekslar anatomiysi, fiziologiyasi, zararlanishi va tekshirish usullari**

Refleks degan so'z fanga birinchi bo'lib, XVII asrda fizik olim Dekard tononidan kiritilgan. Refleks so'zi akslanish yoki qaytarish degani ma'noni anglatadi. Goll refleks yoyining tuzilishini aytib o'tgan.

Odamda refleks hosil bo'lishi refleks yoyiga bog'liqdir. Refleks ikki xil bo'ladi: shartli va shartsiz reflekslar. Shartli reflekslar – bu reflekslar tug'ilgandan keyin paydo bo'ladi. Shartsiz reflekslar tug'ma reflekslar deb ataladi yoki shu reflekslar bilan odam tug'iladi.

Shartsiz reflekslar deb organizmning tashqi va ichki ta'sirlarga asab tizimi orqali javob qaytarishiga aytildi. Bu reflekslar 2 xil bo'ladi. Oddiy va murakkab shartsiz reflekslar. Oddiy shartsiz reflekslar orga miya faoliyati natijasida paydo bo'ladi. Murakkab shartsiz reflekslar esa miya ustuni va bosh miya yarim sharlarining po'stloq osti tugunlarida paydo bo'ladi.

Oddiy refleks yoyining tuzilishi: retseptorlardan paydo bo'lgan qo'zg'alish markazga intiluvchi afferent neyron orgali orga miyaning orga shoxiga boradi. Orga shoxdan esa oraliq neyron orgali orga miyaning oldindi shoxiga o'tadi. Oldindi shoxdagi harakat hujayralaridan markazdan qochuvchi efferent neyronlar orgali bu qo'zg'alishlar ishchi a'zolar mushaklariga borib tugaydi. Buning natijasida mushaklarda harakat paydo bo'ladi. Agar oldindi shox zararlansa, reflekslar susayadi yoki butunlay yo'qoladi. Har bir refleksning o'z reflektor yoyi bo'ladi (13-rasm).

**Tug'ma shartsiz reflekslar.** Bu reflekslar chaqirilishiga qarab ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Yuzaki reflekslar, chunki bu reflekslar yuzadan chaqiriladi. Bu reflekslar:  
a) shilliq pardalardan chaqiriladigan reflekslar, bularga ko'z shox pardasi refleks va konuktival reflekslardir. Bu reflekslar tashqi ta'sir (qog'oz yoki paxta bilan) shilliq pardaga tekkizilganda paydo bo'ladi va ko'zlar yumiladi. Bularning reflektor yoyi sezgi qismi V – juft kbm nervlari, harakat qismi VII – juft kbm nervlari (ko'zni yumilishi). Agar refleks zararlansa V – VII juft kbm nervlari kasallangan bo'ladi; b) yutish refleksi – bu refleksni chaqirishda tomoqning tanglay qismiga shpatel tekziziladi. Javob reaksiyasida qusish paydo bo'ladi. Reflektor yoyi IX – X kbm nervlari. Agar refleks zararlansa, qusish bo'lmaydi; v) teri reflekslari – bu reflekslar teriga ta'sir qilish natijasida chaqiriladi. Bularga qorin reflekslari: yogri qorin reflekslari reflektor yoyi D<sub>7-8</sub>, o'rta qorin refleksi D<sub>9-10</sub>, pastki qorin reflekslari D<sub>11-12</sub>. Agar bu reflekslar zararlansa, orga miya segmentlari kasallangan bo'ladi; g) tuxum (kremaster) refleksi – bu refleks sonning ichki qismidan tepaga qarab ikki tomonidan ta'sirlanadi. Natijada, o'ng yoki chap tomoniga ta'sir ko'rsatilganda shu tomonagi tuxum yuqoriga ko'tariladi. Bu refleksning chaqirilmasligi orga miyaning organik o'zgarishlaridan darak beradi. Reflektor yoyi L<sub>1-2</sub>; d) tovon refleksi – reflektor yoyi L<sub>5</sub> – S<sub>1</sub>.

II. Chuqur reflekslar – bularga suyak va paylardan chaqiriladigan reflekslar kiradi. A. Karporadial refleks (KR) – bu qo'ldagi suyakning

boshchasiдан chaqiriladi, reflektor yoyi C<sub>5-6</sub>. B. Pay reflekslari: qo'llarda bukilish refleksi (BR) bu refleks bilakdagi ikki boshli mushakni payidan chaqiriladi. Reflektor yoyi C<sub>5-6</sub>; qo'llarda yozuvchi refleks bu refleks (TR) bilakdagi uch boshli mushak payidan chaqiriladi. Reflektor yoyi C<sub>7-8</sub>; tizza refleksi (PR) – bu refleks sonning 4 boshli mushagining payidan chaqiriladi. Reflektor yoyi L<sub>3-4</sub>; Axill refleksi (AR) – Axill payidan chaqiriladi, reflektor yoyi L<sub>5</sub> – S<sub>1</sub> (14-rasm).

Sog'lom odamlarda reflekslar ikki tomondan chaqiriladi: o'ng va chap tomonidan D=S o'rtacha jonlangan bo'ladi. Reflekslar odam tabiatiga ham bog'liq bo'ladi. Ba'zi odamlar juda ham jahldor bo'lsa, ularda reflektor chaqirilishi jonlangan bo'ladi. Ba'zi odamlarda reflekslar past bo'ladi. Patologik reflekslar ikki xil bo'ladi: 1. Periferik asab tizimi kasallanganda reflekslar past bo'ladi (*giporefleksiya*) yoki yo'qoladi (*arefleksiya*). 2. Markaziy asab tizimi kasallanganda esa reflekslar yugori bo'ladi (*giper-refleksiya*). Agar reflekslar chaqirilganda o'ng yoki chap tomonda yugori yoki past bo'lsa (D>S; D<S), bu *anizorefleksiya* deb ataladi. Markaziy paralichlarda patologik reflekslar uchraydi. Ular ikki guruhga bo'linadi: 1. Yozuvchi patologik reflekslar: bularga Babinskiy, Oppengeym, Gordon, Sheffer reflekslari kiradi. 2. Bukuvchi patologik reflekslarga Mendel – Bexterev, Jukovskiy, Rossolimo, Churayev kiradi.

Bu reflekslar, asosan, oyoqlardan chaqiriladi (15-rasm).

**Babinskiy refleksi** – oyoq kaftiga tashgari tomonidan barmoqlar tomon o'tmas igna bilan chizish natijasida bosh barmoq yugoriga qarab bukiladi.

**Gordon refleksi** – ikki qo'l orasida boldir mushaklari qisiladi, bunda oyoqning bosh bormog'i yugoriga qarab bukiladi.

**Oppengeym refleksi** – katta va ko'rsatgich barmoq bukilgan holda boldir suyagi ustidan pastga qarab yurgiziladi. Shunda oyoq panjasining bosh barmoq'i yugoriga qarab bukiladi.

**Sheffer refleksi** – Axill payi bosh va ko'rsatgich barmoq bilan qisilganda oyoq panjasining bosh barmoq'i yugoriga qarab bukiladi.

**Mendel – Bexterev refleksi** – bolg'acha bilan oyoq panjasining tashqi yuzasiga uriladi, bunda barmoqlar pastga bukiladi.

**Jukovskiy refleksi** – bolg'acha bilan oyoq panjasining ichki o'rta qismiga uriladi, bunda barmoqlar pastga bukiladi.

**Rossolimo refleksi** – shifokor qo'l bilan bemorning oyoq panjalariga urganda oyoq barmoqlarining hammasi pastga bukiladi.

**Churayev refleksi** – barmoq bilan bemor oyoq barmoqlari ostiga uriladi, natijada barmoqlar bukiladi.

Babinskiy belgisi ikki yoshgacha bo'lган bolalarda me'yoriy hisoblanadi. Bunga asosiy sabab, piramida yo'lining to'liq shakllarmaganidir.

### **Nazorat savollari**

1. Reflekslarning inson uchun qanday ahamiyatli tomoni bor?
2. Reflektor yoyini tushuntirib bering.

3. Babinskiy refleksi qachon paydo bo'ladi?
4. Markaziy va periferik asab kasalliklarida reflekslar chaqirilishiga qarab qanday bo'ladi?

### **Kalla bosh miya asablarining anatomiysi, fiziologiyasi, zararlanish belgilari va tekshirish usullari**

Kalla bosh miya nerv (kdm) larining yadrolari kalla suyagining ichida joylashgan bo'lib, 12 juft kdm nervlaridan iborat. Bu nervlar xarakteriga qarab sezuvchi, harakatlantiruvchi va aralash nervlarga bo'linadi. Sezuvchi nervlarga quyidagilar kiradi: I juft hidlov nervi, II juft ko'rav nervi, VIII juft eshituv nervi; harakatlantiruvchi kdm nervlariga III juft ko'z olmasining harakatlantiruvchi nervi, IV juft g'altaksimon nerv, VI juft uzoqlashtiruvchi nerv, VII juft yuz nervi, XI juft qo'shimcha nerv, XII juft til osti nervi yoki tilni harakatlantiruvchi nervlar. Aralash kalla bosh nervlari 2 xil vazifani bajaradi, bular harakatlantiruvchi va sezgi vazifasidir. Bularga V juft uchlamchi nerv yoki uch shoxli nerv, IX juft til-halqum nervi, X juft sayyor yoki adashgan kalla bosh miya asablaridir.

**I juft hidlov nervi.** Bu faqat sezgi asabi bo'lib, burun ichidan tepe qismidagi shilliq pardalardan, bu yerdagi neyroepitelial hujayralardan boshlanadi. Bu hujayralar hidlov hujayralari deyiladi. Retseptor sifatida hid qabul qilinib, aksonlari suyak orgali miya asosiga kiradi va bulbusni hosil qiladi. Keyin qadogsimon tanani aylanib o'tib, bosh miya po'stlog'idagi chakka qismining gipokamp degan joyida tugaydi.

**Zararlanganda.** Agar bemon burunning ikkita teshigi bilan hidni sezmasa, unda mahalliy kasalliklar – gripp, URVI, burun polipi va qiyshiqligini inkor etishimiz kerak. Agar burunning bir tomoni hidni sezmasa, unda kasallikni miya asosining zararlangan tomonidan izlash zarur. Bular bosh miya leptomeningiti, o'smalar, meningit va boshqa kasallikkarda kuzatiladi. Agar bosh miya po'stlog'i zararlansa, unda hidlov gallutsinatsiyasi bo'ladi, ya'ni yo'q hidlami sezish.

**II juft ko'rish nervi.** Boshlanadi, ko'z tubidagi to'rsimon pardadan ta'sirlarni qabul qiluvchi retseptorlar bor. Tayyoqchasimon retseptorlar oq – qora narsani qabul qiladi, kolbachalar esa rangli narsalarni qabul qiladi. Ganglioz hujayralar ular birlashib ko'z nervi bo'lib, o'z tomonidan miya asosiga kiradi. Bu turk egari sohasigacha ko'rav nervi deyiladi. Shu joyda faqat ichki tolalar kesishadi, tashqi tolalar esa kesishmaydi. Kesishmagandan keyingi yo'l ko'z yo'li deyiladi. Keyin bu tashqi tizzali tanacha va talamus yostiqchasiida tugaydi. Tizzali yostiqchadan tolalar boshlanib, Groshale tutamini hosil qiladi va bosh miya po'stlog'i ensa qismida tugaydi. II juft ko'rish va ranglarni ajratish uchun kerak.

**Zararlanganda:** agar ko'z nervi zararalansa, shu tomonda ko'z ko'rnay qoladi, bu amovroz deb ataladi yoki ko'zning kam ko'rishi ambliopiya deyiladi. Agar kesishgan joy va ko'rish yo'li zararlansa, unda gemianop-

siya bo'ladi. Agar markaz kasal bo'lsa ensa qismida ko'rish gallutsinatsiyasi, ya'ni yo'q narsalarni ko'rish paydo bo'ladi.

**III juft ko'z olmasini harakatlantiruvchi nervi.** Bu nerv yadrolari bir necha xil bo'ladi. 1. Yugori qovoqni ko'taradigan mushakni asab bilan ta'minlaydi. 2. Tepa to'g'ri mushak – ko'z olmasini tepaga va biroz ichkariga harakat qildiradi. 3. Medial to'g'ri mushak – ko'z olmasini ichkariga buradi. 4. Pastki qiyshiq mushak – ko'z olmasini tepaga va biroz tashgariga buradi. 5. Pastki to'g'ri mushak – ko'z olmasini pastga va ichkariga buradi. Bu yadrolar katta hujayrali yadrolarga kiradi. Yana mayda hujayrali parasimpatik yadrolar bor bo'lib, bu yadrolardan nervlar chiqib, qorachiqini toraytiradigan mushakni nerv bilan ta'minlaydi. Juftsiz yadrosoi bor parasimpatik qism esa, siliar mushakni nerv bilan ta'minlaydi. Bu mushak akkomadatsiya vazifasini bajaradi. III juft km nerv yadrolari o'rtalarda joylashgan, yadroga markaziy neyron bo'lib, u peshona qismning oldingi markaziy egatidan boshlanadi. Keyinchalik pastga tushib, ichki kapsulaning tizzasidan o'tadi va yadroga kelib, o'z tomonidan hamda qarama-qarshi tomonda tugaydi yoki yadrolar bosh miya po'stlog'i bilan ikki tomonlama bog'langan bo'ladi. Periferik asab neyronlari esa yadrodan boshlanib, tashgariga – mushaklarga chiqadi va yugorida ko'rsatilgan mushaklarni nerv bilan ta'minlaydi.

**Zararlanishi.** Ptoz – ko'z yugori qovog'ining tushib qolishi, g'ilaylik (ctrabizm) – ko'z olmasining tashgariga qarab qolishi, ekzoftalm – ko'z olmasining kasallangan tomona chiqib qolishi, midriaz – ko'z qorachig'ining kengayishi, mioz-ko'z qorachig'ining torayishi, diplopiya – ko'zga narsalarning ikkita bo'lib ko'rinishi.

**IV juft g'altaksimon km nervi.** Bu nerv yadrosoi o'rtalarda – Silveyev suv yo'lining tagida joylashgan. Miya asosi va kalla suyagining tepa ko'z oralig'idan chiqib, bitta mushakni tepa qiyshiq mushakni nerv bilan ta'minlaydi. Bu mushak ko'z olmasini pastga va tashgariga buradi. Markaziy neyron bosh miya po'stlog'ining peshona qismi oldingi markaziy egatidan boshlanadi. Pastga tushib, yana ichki kapsulaning tizzasidan o'tadi va yadroga kelib, o'z tomonidan va qarama-qarshi tomonidan kelib tugaydi. Shuning uchun markaziy falajlanish bo'lmaydi.

**Zararlanishi.** Diplopiya faqat pastga qaraganda paydo bo'ladi, bu ko'zning ichkariga qarab qolgan g'ilayligi, u faqat pastga qaraganda, ayniqsa, bu narsa zinadan pastga tushayotganda ma'lum bo'ladi.

**V juft uch shoxli km nervi.** Bu aralash nervlardan tuzilgan bo'lib, harakat va sezishni bajaradi. Harakat qismi markaziy neyroni bosh miya po'stlog'ining oldingi markaziy egatidan boshlanib, ichki kapsulaning tizzasidan o'tadi va Vorolev ko'prigidagi yadrosiga kelib, o'z tomonidan va qarama-qarshi tomonidan kelib tugaydi. Bu degani yadrosoi bosh miya po'stlog'i bilan ikki tomonlama bog'langan. Yadrodan ikkinchi periferik neyron boshlanadi. Kalla suyagidan tashgariga chiqib, chaynov mushaklarini nerv bilan ta'minlaydi.

**Zararlanishi.** Agar markaziy neyron bir tomonlama zararlansa, markaziy falajlanish bo'lmaydi, chunki yadrosoi bosh miya po'stlog'i bilan ikki

tomonlama bog'langan. Agar periferik neyron bir tomonlama zararlansa, shu tomonda chaynash buziladi. Agar periferik neyron ikki tomonlama zararlansa, unda pastki jag' osilib qoladi.

Uch shoxli nervning sezgi qismi gangliya Gasserada birinchi neyron tanasi yotibdi. Uchta katta dendritlari bor: 1. Bular ramus oftalmikus, ramus maksillaris, ramus mandibularis. Bu uchalasi yuzdagi sezgi bilan ta'minlaydi. Aksoni esa ichkariga kirib, yadroda tugaydi. Bu yadro Vorolev ko'prigida joylashgan. Yadrodan ikkinchi neyron boshlanib, qarama-qarshi tomonga o'tadi va ko'z do'mbog'ida tugaydi. III neyron esa ko'z do'mbog'idan boshlanib, ichki kapsuladan o'tadi va miya po'stlog'i tepe qismining orga markaziy egatida tugaydi.

**Zararlanshi.** Birinchi shoxchasi zararlanganda shu joyda sezgi yo'qoladi. Qaysi shoxlarda zararlanish bo'lsa, shu joyda nevritik tipda sezgi yo'qoladi. Agar yadrosi zararlansa, unda segment xilida sezgi yo'qoladi. Yuzda halqasimon sezgi yo'qolishi kuzatiladi.

**VI juft uzoqlashtiruvchi kbm nervi.** Yadrosi Vorolev ko'prigi rombovid chiqurchaning tagida joylashgan. Yadrodan ikkinchi periferik neyron boshlanib, Vorolev ko'prigi va uzunchoq miya chegarasida, miyadan va kalla suyagidan esa tepe ko'z oralig'idan chiqadi. Bu yerdan chiqqib, tashqi lateral mushakni nerv bilan ta'minlaydi. Bu mushak ko'z olmasini tashqariga tortib turadi.

**Zararlanshi.** Periferik neyron zararlansa, ichkariga qarab qolgan g'ilaylik hamda diplopiya kuzatiladi.

VI juftning ham markaziy neyroni bo'lib, bu bosh miya po'stlog qismi peshonadagi oldingi markaziy egatdan boshlanadi. Pastga tushib ichki kapsulani tizzasidan o'tadi va yadroga kelib, o'z tomonidan hamda qarama-qarshi tomonda tugaydi. Demak, bu nervni ham markaziy falajlanishi kuzatilmaydi (16-rasm).

**VII juft yuz kbm nervi.** Yadrosi uzunchoq miya bilan Vorolev ko'prigi chegarasida joylashgan. Yadrosi ikki qismdan iborat: tepe va pastki qismlar. Markaziy neyroni bosh miya po'stlog'i peshona qismining oldingi markaziy egatidan boshlanib, ichki kapsulaning tizzasidan o'tadi va yadroning tepe qismiga ikki tomonlama kelib tugaydi. Pastki qismi esa bir tomonidan qarama-qarshi tomonidan kelib tugaydi. Shunday qilib, pastki yadrosi bir tomonidan qarama-qarshi tomon bilan bog'langan. Yadrodan ikkinchi periferik neyron boshlanib, miyada ko'pri - miyacha burchakdan tashqariga chiqadi. Keyin yuz nervi eshitish nervi bilan birlashtiriladi chakka suyagi piramidasi ichiga kiradi, piramida suyagining ichki qismida eshitish nervi ajralib, yuz nervining kanaliga o'tadi. Bu yerde yuz nervining tashqi tizzasini hosil qilib, foramen stilemastoideum orgali tashqariga chiqadi. So'ng qulqoq suprasii tagidan o'tib yuz mimik mushaklarini nerv bilan ta'minlaydi.

Sog'lom odamlarda yuzni tinch holatda ko'rganda peshona ajinlari ikki tomonidan bir xil, qosh ikki tomonidan bir xil kenglikda, ko'z oralig'lari bir xil, burun-lab qatlami ikki tomonidan bir xil, og'iz burchagi bir xil tekislikda joylashgan. Yuz nervining qaysi neyroni zararlanishiga qarab

ikki xil falajlik bo'ladi, unda zararlangan tomondan qarama-qarshi tomonda bo'ladi. Tinch holatda: peshona ajinlari bir xil, qoshlar bir tekislikda, ko'z oralig'i bir xil, qarama-qarshi tomonda zararlanishdan burun-lab qatlami silliqlashgan va shu tomonda og'iz burchagi pastga tushgan. Markaziy falajlik mimik sinovlarida esa bemor ikki tomondan qoshlarini yaxshi ko'taradi, ko'zlarni yaxshi yumadi, tishlarni tirjaytirganda zararlangan tomondan qarama-qarshi tomonda burun-lab qatlami tashqariga ketmaydi. Shu tomondan bemor labini oldinga chiqara olmaydi, lunjini shishira olmaydi, natijada, og'zidan havo chiqib ketadi. Yadrodan tepada zararlanish ro'y bersa, markaziy falajlanish kuzatiladi. Yuz nervining periferik falajlanishida qaysi tomon zararlansa, shu tomonda o'zgarish bo'ladi. Masalan, chap tomonda yuz nervining periferik nervi zararlansa, shu tomonda yuz nervining periferik falaji kuzatiladi. Bunda tinch holatda kuzatganimizda chap tomonda yuz asimetriyasi, ya'ni yuz bir xil emas, chap tomonda peshona ajinlari silliqlashgan, qosh biroz pastda, ko'z oralig'i kengaygan, burun-lab qatlami silliqlashgan va og'iz burchagi pastga tushgan. Bemor mimik sinovlarda kuzatilganda chap tomondagi qoshini ko'tara olmaydi, achchiqlana olmaydi, ko'zini yuma olmaydi (lagoftalm yoki quyon ko'zi, Bella belgisi), tishlarini ochib tirjaytirganda burun-lab qatlami tashqariga ketmaydi, lunjini shishira olmaydi (17-rasm).

**Yuz nervining topik zararlanishi.** Agar Vorolev ko'prigi va uzunchoq miya chegarasidagi yadro zararlansa, shu tomonda yuz nervining periferik falajligi, qarama-qarshi tomonda esa gemiplegiya markaziy xarakterda va gemianesteziya o'tkazuvchanlik xilida bo'ladi. Bu falajlik boshqacha alternashgan falajlik deb ataladi. Agar miyacha ko'prik burchagi zararlansa, shu tomonda yuz nervining periferik falaji, giperakuziya – qulooqning ko'p eshitishi, ko'z va og'izning qurishi bo'ladi hamda tilning oldingi qismi ta'm bilmaydi (ageziya). Agar parus akustikus internus ichi zararlansa, xuddi miyacha ko'prik burchagidagi belgililar kuzatiladi. Agar kanalis facialis ichi zararlansa, unda shu tomondagi yuz nervining periferik falajligi kuzatiladi, og'iz va ko'z quriydi, tilning oldingi qismi ta'm bilmaydi. Agar faramen stillomostadeum dan keyin zararlansa, yuz nervining periferik falaji shu tomonda bo'ladi.

**VIII juft eshitish kbm nervi.** O'z navbatida, bu ikki nerv tizimidan iborat: 1. **Koxlear nerv** – bu eshitishga aloqasi bor. 2. **Vestibular nerv** – bu vestibular apparatiga aloqasi bor. Koxlear nervning gangliyasi bo'lib, dendritlari ta'sirlarni tashqaridan qabul qiladi, aksonlari esa kalla suyagi orgali miya ustuniga uzunchoq miya va Vorolev ko'prigi chegarasidagi yadrolarda tugaydi. Bu *birinchi neyron* deb ataladi. *Ikkinci neyron* chegaradagi yadrolardan boshlanib, o'z tomonidan va qarama-qarshi tomonga o'tib, yugoriga ko'tariladi va birlamchi eshitish markazida o'rta miya to'rt tepalikning oxirgi do'mboqchasida to'xtaydi. Uchinchchi neyron shu joydan boshlanib, ichki kapsuladan o'tadi va bosh miya po'stlog'ining chakka qismidagi Geshlya egatida tugaydi.

**Zararlanishi.** Agar gangliyadan yadrogacha bиринчи нейрон зарарланса, шу томонда қулоқ ешиitmайды, бу анакузия деб аталади, қулоqнинг кам ешитиши гипакузия дейилади. Agar иккинчи нейрон бир томондан зарарланса, ешитишга алоғаси бо'lmaydi, chunki yadrosi po'stlog bilan иккি томонлама bog'langan. Agar po'stlog зарарланса унда ешитиш gallutsinatsiyasi bo'ladi.

**2. Vestibular nerv** – қулоқ ichida gangliyalar bo'lib, dendritlari tashqaridan ta'sirlami qabul qilib oladi. Aksonlar esa kalla suyagi orgali ichkariga uzunchoq miya va Vorolev ko'prigi chegarasidagi yadroldarda tugaydi. Shu joydagи yadrolar pastdan orqa miya bilan, tepadan ko'z olmasini harakatlantiruvchi nervi va miyacha hamda bosh miya po'stlog'i bilan bog'langan. Agar vestibular nerv зарарланса, bemorda vestibular ataksiya kuzatiladi. Bunda bemorda ko'ngil aynishi, bosh aylanishi, nistagm va nuvozanat buzilishlari kuzatiladi.

**IX juft til-halqum kмn nervi** – bu nerv aralash nervlardan iborat bo'lib, harakat, sezuvchi va ta'm biluvchi tolalardan tuzilgan. Yadrosi uzunchoq miyada yadrogacha markaziy neyron o'z томонидан va qarama-qarshi томондан bog'langan. Yadrodan ikkinchi neyron boshlanib, miyadan – oliva miyachaning pastki oyoqchasi orasidan chiqadi. Kalla suyagidan chiqib, bitta mushakni nerv bilan ta'minlaydi, bu mushak tomoqni ko'taradigan mushakdir. Bu nerv tilning orqa томонидаги ta'm bilishni amalgalashadi. Tildan neyronlar boshlanib, uzunchoq miyadagi yadroda tugaydi. Tilning orqa томони achchig va sho'rni sezadi.

**X juft adashgan yoki sayyor nerv.** Harakat neyroni yadrodan boshlanib miyadan oliva miyacha oyoqchalari orasidan chiqadi, kalla suyagidan chiqib yumshoq tanglay mushaklarini qizilo'ngach mushaklarini, ovoz uchun kerak bo'lган bog'lamlarni nerv bilan ta'minlaydi. Bu nerv ichki a'zolardagi silliq mushaklar, bronxlar, qizilo'ngach, oshqozon-ichak, qontomirlar, yurak-o'pka mushaklari, limfa bezlaridan sezgi neyronlari boshlanib, uzunchoq miyadagi yadroda tugaydi.

**Zararlanishi.** Disfagiya – yutinishing buzilishi, bemor yuta olmaydi. Afoniya – ovozning yo'qolishi, bemorda bundan tashgari, ovoz reflekslari hamda tilning orgasida ta'm bilishning yo'qolishi kuzatiladi. Bular *bulbar falajligi* дейилади. Chunki kalla bosh miya nervlarining yadrosi zararlanganda, asosiy belgisi yutinishing refleksi yo'qoldi, tili og'izzdan chiqmaydi. Patologik reflekslar bo'lmaydi. Psevdobulbar falajlik yadrodan tepadagi markaziy neyron ikki томонлама зарарlanganda kuzatiladi. Bunda bemor yuta olmaydi, gapira olmaydi, lekin yutish reflekslari bo'ladi. Bulbar falajlik periferik asab tizimi zararlanganda bo'lsa, psevdobulbar falajligi esa markaziy neyronlarning falajligidir.

**XI juft qo'shimcha nerv.** Bu harakat vazifasini bajarib, yadrosi uzunchoq miyaning pasida, orqa miyaning teparog'ida – oldingi shoxlarda joylashgan. Markaziy neyron ikki томондан – yadrodan, miya po'stlog'idan keladi. Periferik asab neyroni esa yadrodan boshlanib tashqariga chiqadi va m. sternocleidomastoideus (boshni o'ng va chap томонга buradi hamda ol-

dinga va orqaga egishda ishtirok etadi) hamda m. trapesius (yelkani ko'tarishda qatnashadi) mushaklarini nerv bilan ta'minlaydi. Zararlanguanda fagat periferik falajlik kuzatiladi. Bunda shu tomonda bo'yin yelka mushaklarining origlanishi, bo'yinning shu tomonga qiyshayishi kuzatiladi. Agar periferik nerv ikki tomonlama zararlansa, bunda bemoning bo'yin va yelka mushaklarining origlanishi bilan birga bosh oldinga osilib qoladi.

**XII juft til osti nervi.** Bu harakat nervlaridan bo'lib, tilni harakatga keltiradi. Yadrosi uzunchoq miyada joylashgan. Yadrogacha markazdan bosh miya po'stlog'idan markaziy neyron keladi va qarama-qarshi tomonga o'tadi. Shunday qilib, yadrosi bosh miya po'stlog'i bilan fagat bir tomonlama qarama-qarshi tomon bilan bog'langan. Periferik neyron esa uzunchoq miya olivasi piramidalari orasidan hamda kalla suyagidan chiqib, tildagi mushaklarni nerv bilan ta'minlaydi. Me'yorda til og'izdan to'g'ri chiqadi, hamma tomonga harakat qiladi, atrofiya bo'lmaydi, fibrillar qaltirash kuzatilmaydi.

**Zararlanshi.** Agar markaziy neyron zararlansa, bemor tilni chiqarganda tilning uchi zararlangan tomondan qarama-qarshi tomonga buraladi, origlash, fibrillar qaltirash bo'lmaydi. Gapirish o'zgaradi – dizartriya, noaniq gapiradi. Agar periferik nerv zararlansa, bunda tilni chiqarganda til zararlangan tomonga buraladi, shu tomondan tilning yarmida origlanish hamda gapirish noaniq bo'ladi. Agar XII juft nervining uzunchoq miyadagi yadrosi zararlansa, u vaqtda til qiyshayishi, origlanishi, bemoning noaniq gapirishi hamda tilda fibrillar qaltirash kuzatiladi. Agar bu nerv ikki tomonlama zararlansa, bemor tilni og'iz ichidan chiqara olmaydi.

Belgilari	Bulbar falaji	Pseudobulbar falaji
Zararlangan joy	Uzunchoq miyadagi IX—X—XII juft kbm nervlari; yadrolari, ildizlari	Ikki tomonlama po'stloqdan yadrogacha bo'lgan harakat yo'llari
Falajlik	Periferik nerv xilida	Markaziy nerv xilida
Atrofiya	Uchraydi (asosan, mimik, chaynov mushaklarida)	Uchramaydi
Tilda fibrilatsiya yoki fassikulatsiya:	Uchraydi	Uchramaydi
Yumshoq tanglay mushaklarida falajlik	Uchraydi	Uchramaydi
Yutinish reflekslari	Uchramaydi	Uchraydi
Majburan yig'lash va kulish	Uchramaydi	Uchraydi
Yutinish buzilishi (disfagiya)	Uchraydi	Uchraydi
Nutq buzilishi (dizartriya)	Uchraydi	Uchraydi
Ovoz chiqishi buzilishi (disfoniya yoki afoniya)	Uchraydi	Uchraydi

### ***Nazorat savollari***

1. Hid bilish va ko'ruv nervlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Benor tilini to'g'riga chiqara olmaydi, tili chap tomoniga buralgan va shu tomonda tilning yarmida atrofiya kuzatiladi, gaplari noaniq. Bunda qaysi kabi nervlari zararlangan?
3. Mimik sinanalmalarni bajarib ko'rsating.
4. Bulbar va psevdobulbar falajda zararlangan joy va ulaming bir-biridan fargini tushuntiring.

### **Sezgi tizimi anatomiysi, fiziologiyasi, zararlanish belgilari va tekshirish usullari**

Odamzod paydo bo'libdiki, u tashqi muhit bilan mulogotda bo'ladi. Tashqi ta'sirlarni qabul qiladi, uni bosh miya po'stlog'igacha yetkazib, u yerda tahlil qiladi. Ko'rish, hid bilish, eshitish, issiqsovugni sezish – hammasi sezgi sohasiga bog'liq. Sezish analizatori – bunda qabul qilish joyi – retseptor, o'tkazish qismi va markaziy oxirgi qismi bor. Markaziy qism bosh miya po'stlogida tugaydi, bu analizator deb ataladi. Sezgi hamma vaqt tashqaridan – sirtdan boshlanadi. Sezgida albatta qabul qilib oluvchi joy – retseptorlar bo'lishi kerak.

Bu retseptorlar quyidagilar: 1. Ekstroretseptorlar – bu retseptorlar tashqarida teri ektodermasida va shilliq qavat pardalarida uchraydi. Ular ikki xil bo'ladi: a) kontakt retseptorlar – ta'sirlarni etishi natijasida bo'ladi (og'riq, issiq – sovuqni sezish); v) distan – masofadan sezish (ko'rish, eshitish, hid bilish). 2. Proprioretseptorlar – chuqur to'qimalardagi retseptorlarga (pay, mushak, suyak, bo'g'im) aytildi. Masalan, bemorning ko'zini yumib, ko'rsatkich barmog'ini yuqoriga yoki pastga qaratilganda bemor shu holatni bilishi kerak. 3. Introretseptorlar – ichki a'zolardagi sezgilarni biladi: masalan, oshqozon yoki buyrakdag'i og'riqlar.

Sezgi ikkiga bo'linadi: 1. Yuzaki sezgi – bu retseptorlar yuzada joyalashgan, bularga og'riqni sezish, issiqsovugni sezish, qisman taktil (paypaslab silash) sezish kiradi. Yuzaki sezgi yo'llari: birinchi neyron umurtqalararo gangliyada joyalashgan. Dendritlar tashqaridan ta'sirlarni qabul qiladi, akson esa ichkariga kirib, orqa miyaning orqa shoxidagi sezgi hujayralarida tugaydi. Ikkinci neyron – orqa miyaning orqa shoxidagi sezgi hujayralaridan boshlanib, har segment sohasida qarama-qarshi tomoniga o'tadi. Orqa miyaning yon ustiga borib, tepaga ko'tariladi va ko'rav do'mbog'ida tugaydi. Uchinchi neyron – ko'rav do'mbog'idan boshlanib, ichki kapsula orqa sonining orqa qismidan o'tadi va bosh miya po'stlog'i tepe qismining orqa markaziy egatida tugaydi. 2. Chuqur sezgi – bu sezgiga quyidagilar kiradi: a) mushak – bo'g'im sezgisi; b) bosim va og'irlik sezgisi; v) jismalarni paypaslab bilish sezgisi – steriognoz; g) vibratsion sezgi – bularning retseptorlari mushakda, bo'g'imda, suyakda, payda yotadi. Chuqur sezgi yo'llari: birinchi neyron boshlanadi, retseptorlardan dend-

ritlar umurtqalararo neyronga qarab yo'naladi, akson ichkariga kiradi, ya'ni orqa miyaning orqa ustuniga boradi. So'ngra o'z tomonidan yugoriga ko'tariladi va uzunchoq miyaning pastki qismidagi yadrosiga borib tugaydi. Ikkinci neyron – uzunchoq miyadagi yadrodan boshlanib qarama-qarshi tomonga o'tib, ko'tarilib ko'rav do'm bog'ida tugaydi. Uchinchi neyron boshlanadi, ko'rav do'm bog'idan ichki kapsula orqa sonining orqa tomonidan o'tib, bosh miya po'stlog'ining tepe qismidagi orga markaziy egatida tugaydi (18-rasm).

**Sezgining zararlanishi.** 1. Nevritik xilida sezgi yo'qolishi – bunda aldhida-alohida nerv sohasidagi sezgining yo'qolishi. Masalan, quymich nervi zararlanganda sonning orqa qismida sezgi yo'qoladi yoki son nervi zararlanganda sonning oldingi qismida sezgi yo'qoladi. 2. Polinevritik xilida sezgi yo'qolishi, bu polinevrit kasalligida, ya'ni ko'p nervlarning yallig'lanishi natijasida paydo bo'ladi. Bu sezgi yo'qolishi qo'l va oyoqlarning pastki qismida, qo'llarda «qo'loppsimon», oyoqlarda «paypoqsimon» sezgi yo'qoladi. 3. Segmentar xilida sezgi yo'qolishi. Bularga: orqa ildiz, umurtqalararo tugunlar va orqa shoxlar zararlanganda sezgi yo'qoladi. 4. O'tkazuvchanlik xilida sezgi buzilishi – bunda o'tkazuvchi yo'llar zararlanganda, sezgi buzilishi shu zararlangan joydan pastda bo'ladi. Orqa miyaning bel qismi zararlanganda pastda ikkala oyoqda sezgi yo'qoladi, bunga paraanesteziya deyiladi. Orqa miyaning ko'krak qismi zararlanganda qorin va bel sohalarida sezgining yo'qolishi va paraanesteziya bo'ladi. Orqa miyaning bo'yin qismi zararlanganda tetraanesteziya (ikki qo'l va ikki oyoqda sezgining yo'qolishi) va tanada ham sezgi yo'qolishi bo'ladi. Miya ustuni va ichki kapsula bir tomonidan zararlanganda – gemianesteziya (tananing o'ng yoki chap tomonida sezgi yo'qolishi) qarama-qarshi tomonda o'tkazuvchanlik xilida sezgining yo'qolishi bo'ladi. 5. Bosh miya tepe qismi orqa markaziy egati va gulbog' zararlansa, monoanesteziya (bitta qo'l yoki bitta oyoqda sezgi yo'qolishi) qarama-qarshi tomonda o'tkazuvchanlik xilida bo'ladi.

Anesteziya – sezgining butunlay yo'qolishi, analgeziya – og'riq sezgisining yo'qolishi, temanesteziya – harorat sezgisining yo'qolishi, gipesteziya – sezgining pasayishi, giperesteziya – sezgining kuchayib ketishi, dizesteziya – sezgining buzilishi masalan, taktil (ip va qil) taassurotni og'riq deb, sovuqni issiq deb his qilish, giperpatiya – kuchsiz ta'sirlami sezmaydi, lekin kuchli ta'sirlarga esa chidab bo'lmaydigan og'riq borligini bemor aytadi, og'riqni qayerda ekanligini ko'rsatib bera olmaydi. Paresteziya – bunda bemorlar badanida har xil uvishish, vijirlash, chumoli yurgandek holat paydo bo'ladi.

**Yuzaki sezgini tekshirish.** Bunga og'riq va harorat sezuvchanligi kiradi. Bularni tekshirish uchun shifokor bemorning o'ng tomonida turib, igna yordamida avval sog'lom tomonidan keyin kasal tomonidan igna sanchib ko'radi. Bunda sezgining bir xilligi, o'tkir va o'tmasligi chap va o'ng tomonidan tekshirib boriladi. Avval yugori yuz qismdan boshlab, keyin qo'l, tana va oyoqlar hamda old va orqa tomonidan tekshiriladi. Bunda

og'riq bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Harorat sezuvchanligini tekshirishda ikkita shisha idish olinib, birinchisiga 40–50°C issiq suv, ikkinchisiga 20–25°C li sovuq suv solinadi. Bemorlami tekshirishda aval issiq shisha idishni, keyin esa sovuq shisha idishni tananing ikki tomoniga ko'zlar yumilgan holda, birin-ketin teriga tekkizilib, bemordan sovuq issiqligi so'rab boriladi.

**Chugur sezgini tekshirish.** 1. Taktil sezgini tekshirish uchun qog'oz yoki paxta yordamida bemorning badaniga tekkiziladi. Bunda bemor shu tekkizilgan narsani sezishi kerak. 2. Mushak-bo'g'im sezgisini tekshirish uchun bemorning ikkala ko'zi yumilgan holda qo'l va oyoq bo'g'imi lari istalgan tomoniga bukiladi. Me'yorda bemor qaysi bo'g'imi, qaysi tomoniga bukilganligini aytadi. Agar chugur sezgi zararlangan bo'lsa, bemor sezmaydi. 3. Vibratsiya sezgisi – buni tekshirishda kamerton suyaklar ustiga qo'yiladi natijada bemor kamerton vibratsiyasini bir-ikki soniyada sezishi kerak. Agar suyak o'tkazuvchanligi zararlansa, bu sezgini bemor sezmaydi. 4. Stereognoz – ko'zni yumgan holda bemorga tanish buyumlar kalit, soat, tanga beriladi. Agar bemor bu narsalarni bilsa, stereognoz deb ataladi. Bu miya po'stlog'ining sintez qilish faoliyatining zararlanishi yoki teri va harakat sezgilarining yo'qolishida kuzatiladi. 5. Teriga chizilgan shakllarni sezish – bemor tanasiga o'tmas buyumlar bilan har xil shakllar, raqamlar va harflar chiziladi. Me'yorda bemorlar chizilgan narsalarni aytadi, zararlangunda esa aytib bera olmaydi.

### **Nazorat savollari**

1. Orga miyaning tugunlari zararlansa, qanday belgilar paydo bo'ladi?
2. Bemorda chap oyoqning spastik falaji bilan birga chugur sezgi sohasi buzilgan. O'ng tomonda esa og'riq va harorat sezuvchanligi buzilgan. Zararlangan joyni aytib bering.
3. Dizestesiya va giperpatiyaning fargi nimada?
4. Polinevritik xilida sezgi buzilishlarini tushuntiring.

### **Vegetativ asab tizimi anatomiysi, fiziologiyasi, zararlanish belgilari va tekshirish usullari**

Asab sohasi ikkita katta tizimdan iborat:

1. Somatik asab tizimi – bu asab tizimi ko'ndalang targ'il mushaklarni nerv bilan ta'minlaydi. Bularga yuzdagagi mushaklarning harakati qo'l va oyoqdagi hamda tanadagi mushaklarni nerv bilan ta'minlaydi.
2. Vegetativ asab tizimi – bu tizim avtonom bo'lgani bilan bosh miya po'stlog'ining nazoratida bo'lib turadi. Bu degani somatik asab tizimi va vegetativ asab tizimi bir-biri bilan uzviy bog'langan.

Vegetativ asab tizimining asosiy vazifasi odam tanasidagi silliq mushaklarni va butun ichki a'zolarning faoliyatini idora etadi. Vegetativ asab tizimi qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, tana haroratini bir me'yorda saqlash, qantomirlarni turli muhitga moslashtirish, shuningdek,

organizm ichki muhiti turg'unligi (gomeostaz) ni, moddalar almashinuvini me'yorida boshqarib turadi. Bundan tashqari, ichki a'zolar, limfa va qon, tomirlar, ichki bezlar, silliq va ko'ndalang targ'il mushaklar hamda sezgi a'zolarni ta'minlaydi. Bularning ishlarini ma'lum tartibda borishini boshqarib turadi.

Vegetativ asab tizimi ikkiga bo'linadi: simpatik va parasimpatik asab tizimlari. Shu ikkala tizim bir-biri bilan kelishilgan holda ishlaydi.

Simpatik asab tizimi. Umurtqa pog'onasining ko'krak va bel qismlari-da bu asab tizimining hujayralarida orqa miyaning C<sub>8</sub>-L<sub>2</sub> segmentlari orqa miyaning yon shoxlarida joylashgan. Bularidan preganglionar tolalar boshlanadi. Umurtqa pog'onasidan chiggandan keyin asab tolalari zanjir ko'rinishida umurtqa pog'onasi bo'ylab joylashadi va bir-biri bilan qo'shiladigan tugunlarda tugallanadi. Bu chegara ustuni deb ataladi. O'ng va chap tomonagi chegara ustunlari 3 ta bo'yin, 12 ta ko'krak, 5 ta bel, 4 ta dumg'aza va 1 ta dum simpatik tugurlardan tashkil topgan. Mana shu tugunlardan postganglionar tolalar chiqib ichki a'zolar, tomirlar silliq mushaklar va bezlarga borib tugaydi. Bu bo'linish shuning uchun kerakki, har bir joy ma'lum qismlarni idora etadi. 1. Bo'yin simpatik tugunlari boshning soch qismlarini, vertebrobazillar qontomirlarini idora etadi. 2. Ko'krak tugunlari ko'krak qafasi ichidagi a'zolar (o'pka, bronx, traxeya, yurak) ni idora etadi. 3. Qorin tugunlari qorin ichidagi a'zolar (jigar, oshqozon, taloq, ichaklar) ni idora etadi. 4. Chanoq tugunlari kichik chanoqdagi a'zolar (qovuq, bachardon, jinsiy a'zolar, to'g'ri ichak)ni nerv bilan ta'minlaydi.

Simpatik asab tizimining vazifasi: ko'z qorachig'i va bronxlarni kengaytiradi, so'lak ajralishini kamaytiradi, tomirlarni toraytiradi, qon bosimini ko'taradi, yurak urishini tezlashtiradi, terlashni kamaytiradi, qondagi qand miqdorini ko'taradi, ichak urishini kamaytiradi.

Parasimpatik asab tizimlari quyidagi qismlardan iborat. 1. O'rta miya qismi - bu ko'z olmasini aylantiruvchi nerv yadrolaridir. Bular qorachiqning torayishiga va akkomadatsiyaga aloqasi bor. 2. Miya ustuni uzunchoq miya qismi IX-X juft nerv yadrolariga aloqasi bor. So'lak chiqishi, ko'z yosh oqishi, ta'mbilishni nervlar bilan ta'minlaydi. Bu yadrolardan tolalar ko'krak va qorin bo'shlig'idagi barcha a'zolarga boradi. 3. Dumg'aza qismi S<sub>2-3</sub> segmentlardan boshlanib, kichik chanoqda joylashgan a'zolarni parasimpatik nervlar bilan ta'minlaydi.

Parasimpatik asab tizimining vazifasi: qontomirlarni kengaytiradi, qorachiqni toraytiradi, yurak faoliyatini sekinlashtiradi, oshqozon-ichak harakatini, jigar, oshqozon-ichak bezlarining vazifasini kuchaytiradi, bronxlarni toraytiradi, siyidik pufagi va yo'g'on ichakni bo'shatishda ishtirot etadi.

Simpatik va parasimpatik asab tizimlarining faoliyati o'zaro ma'lum bir muvozanatda saglanib, ichki a'zolar ishi va ichki jarayonlarning me'yorda kechishini ta'minlaydi.

**Tekshirish usullari.** Vegetativ asab tizimining simpatik va parasimpatik qismlar faoliyatini tekshirish uchun, avval, bemorning shikoyatini o'rganish va uni kasallilikning kechishi bilan taqoslash kerak. Bemorning tashqi ko'rinishi terisining ahvoli, terlashi, allergik holati so'raladi. Yurak-tomir faoliyatini aniqlash uchun chap va o'ng qo'l-oyoqlarda qon bosimi o'lchanadi, yurak tovushi eshitib ko'rildi.

**Qontomir reflekslarini tekshirish yoki demografizm.** Demografizmning ikki turi-mavjud mahalliy va reflektor. Mahalliy demografizmda terining ma'lum joyiga o'tmas buyum bilan chizib ko'rildi. Shunda mayda qontomirlardagi qo'zg'alish xususiyati qay ahvolda ekanligi aniqlanadi. Teri chizilgan joy qizaradi yoki oq rang hosil bo'ladi. Qizil rang bir necha daqiqadan so'ng yo'qolishi kerak. Mabodo, chizilgan joyda oq rang hosil bo'lsa, bu qontomirlar tonusi oshib ketganligidan dalolat beradi. Agar qizil rang uzoq vaqtgacha yo'qolmay tursa, aksincha, qontomirlar tonusi susayib ketganligini bildiradi. Agar kishida allergiya holati bo'lsa, chiziq o'tkazilgan joyda shish paydo bo'ladi.

Reflektor demografizm teriga to'g'nag'ich uchi bilan chizish orqali paydo qilinadi. Bunda terining chizilgan joyda ma'lum kenglikda aylanasi jum-jimador qizarish paydo bo'ladi va bir necha daqiqadan so'ng yo'qolib ketadi. Periferik nervlar, orqa miya shoxlari, ba'zan orqa miyaning turli qismlarida zararlanish bo'lsa, tananing shu zararlangan joyida reflektor demografizm bo'lmaydi.

**Ko'z-yurak refleksi (Danini-Ashner refleksi).** Ikkala yumuq ko'zga barmoqlar bilan bosilganda, yurak urishi bir daqiqada 6-12 taga sekinlashadi. Agar yurak urishi bir daqiqaga 12-16 tagacha kamaysa, bu hol parasimpatik asab tizimi tonusining oshganligini bildiradi. Agar yurak urishi sekinlashmasa yoki bir daqiqaga 2-4 taga tezlashsa, u simpatik asab tizimi tonusi oshganligidan dalolat beradi.

**Klino-ortostatik reflekslar.** Bemor yotgan holatda tomir urishi va qon bosimi o'lchanadi, keyin tezda o'midan turg'iziladi (ortostatik refleks). Tikka turganida tomir urishi bir daqiqada 6-30 tagacha ko'payadi, qon bosimi simob ustuni bo'yicha 20 taga oshadi. Tik holatdan yotish holatiga o'tganda esa qon bosimi va yurak urishining tezligi 3 daqiqadan so'ng oldingi holatga qaytadi (klinostatik refleks). Agar ortostatik refleksda 1 daqiqada tomir urish 12 tadan oshib ketса, simpatik asab tizimi qo'zg'aluvchanligi oshadi. Agar klinostatik holatda tomir urish sekinlashib ketса, parasimpatik asab tizimi qo'zg'aluvchanligi oshgan bo'ladi.

**Teri haroratini tekshirish.** Terining har xil sohalari o'ziga xos haroratga ega. Tananing tepa qismlari pastki qismlaridan issiqroq bo'ladi (oral-kaudal qonuniyati). Qo'l va oyoqlarning yugori qismlari harorati ularning uchidan issiqroq (proksimal-distal qonuniyat). Sog'lon odamlarda harorat tananing ikki tomonida bir xil dara jada bo'ladi. Har xil asab kasalliklarida bu qonuniyat buzilgan bo'ladi yoki harorat asimetriyasi, ya'ni tananing yarmida harorat pasayib yoki oshib ketadi.

**Adrenalin bilan sinov o'tkazish.** Benor terisi ostiga 0,1 ml adrenalin yuboriladi, terining dori yuborilgan joyida 5–10 daqiqadan so'ng oq dog' paydo bo'ladi. Bu oq dog' atrofini qizil tasma o'raydi. Qizil tasma bilan o'ralgan bu dog' 15–20 daqiga davomida saqlanib turishi kerak. Bu sinamada yurak urishi ortadi va qon bosimi ko'tariladi. Agar bunday holat uzoq muddat davomida saqlanib tursa, simpatik asab tizimi tonusini oshganligidan dalolat beradi.

**Gidrofillik (teridan suv so'riliши) xususiyatini tekshirish.** Tirsakning pastki uchdan bir qismiga 0,2 ml fiziologik eritma yuboriladi. Yuborilgan joyda papula (shish) hosil bo'ladi. Papulaning yo'qolgan vaqtini me'yorda 40–60 daqigaga to'g'ri keladi. Mabodo, papula tez so'rilib ketsa, to'qimalarning gidrofilligi me'yorida oshgan bo'ladi.

**Ter ajralishini Minor usulida tekshirish.** Benor tanasiga minor eritmasi bir tekis surkab chiqiladi (Minor suyuqligi tarkibida 90 g 96° li toza spirt, 10 g kanakunjut moyi, 1,5 g kristallangan yod bor). Bu eritma qurigandan so'ng ustidan bir xil qalnlikda kraxmal kukuni sepiladi, so'ngra bemorga 1,0 g aspirin va bir stakan issiq shirin choy ichirib, u elektr vanna ostiga yotqiziladi. Benor terlashi natijasida eritma tarkibidagi yod kraxmal bilan birikib, tananing terlagan qismlarida qoramitir rang hosil qiladi. Ter ajralmagan joylarda tana rangi o'zgarmay qoladi.

**Pilmotor refleksini tekshirish.** Benor bo'yin terisining orga tomoniga sovuq ta'sir ettirilsa (efir yoki sovuq suv), benor tanasining shu tomonida terisi g'oz terisiga o'xshab, tuklari tik bo'lib qoladi. Orga miya kasalliklarida orga miyaning shikastlangan segmentlari sohasida pilmotor refleks bo'lmaydi.

### **Chanoq a'zolar faoliyati va zararlanishi**

Siydik pufagining devorida ikki xil silliq mushaklar bo'lib, birinchisi m. sphincter – bu siydik pufagini qisqartiradi, ikkinchisi m. detruzor – bu mushak siydik pufagini bo'shatadi. Siydik pufagi ikkita asab tizimi bilan ta'minlangan: 1) simpatik asab tolalar orqa miyaning yon shoxida joylashgan bo'lib, siydik pufagidagi mushakni qisqartirgan holda saqlaydi va detruzorni bo'shashtiradi. Agar simpatik asab tonusi oshsa, siydik ajralmaydi. 2) parasimpatik asab tolalari orga miyaning S<sub>1</sub> – S<sub>3</sub> segmentlarida joylashgan bo'lib, harakat tolalari detnuzomi qisqartiradi va sfinktermi bo'shashtiradi. Parasimpatik markaz qo'zg'alsa, siydik pufagi bo'shaydi. Siydik pufagi uchun orga miyaning shu segmentlarida vezikospinal markaz bo'lib, bu markaz hamma vaqt bosh miya po'stlog'i, po'stlog osti tuzilmalarining nazoratida turadi. Sog'lon kishilarda siydik pufagi siydik bilan to'lgandan keyin pufakdagi shilliq pardalami ta'sirlaydi va sezgi tolalari orga miyaning orga shoxiga S<sub>4</sub> segmentiga boradi, qisman bosh miya po'stlog'iga ko'tariladi va siyish holati yuzaga keladi. Qisman esa orga miyaning siydik pufagi markaziga boradi. Shuning uchun, siydikni ma'lum vaqtgacha siydik pufagida ushlab tura oladi.

**Siydik chiqishining buzilishi:** 1) agar siydik pufagini bosh miya po'stlog'i bilan bog'laydigan markaziy yo'llar ikki tomonlama zararlansa, siydik pufagi to'lib, sfinkter qisman ochiladi va siydik tomchilab chiga boshlaydi. Bu *ischuria paradoxa* deb ataladi. 2) Chindan siydikni ushlay olmaslik orqa miyadagi segmentlar zararlanganda ro'y beradi. Bunda siydik siydik pufagiga tushishi bilan tomchilab chiqib turadi. Siydikni chiqara olmaslik markaziy neyron zararlanganda (masalan, orqa miya o'smasi, miyelit) kuzatiladi.

To'g'ri ichakni ikkita sfinkteri bo'lib, birinchisi ichki m. sphincter ani internus – bu silliq mushaklardan iborat. Ikkinchisi tashqi m. sphincter ani externus – bu ko'ndalang targ'il mushaklardan iborat. To'g'ri ichak simpatik asab tizimi tomonidan ta'minlanib, ichki sfinkterni qisishga olib keladi. Parasimpatik asab tolalari esa sfinkterni bo'shashtiradi. Agar ichakda axlat to'plansa, keyin sezgi tolalar dastlab orqa miyaga keyin bosh miya po'stlog'iga ta'sirni olib boradi va ma'lum vaqtgacha axlatni ushlab tura oladi. Axlat chiqarish markazi orqa miyaning S<sub>2</sub>-S<sub>4</sub> segmentlarida va bosh miya po'stlog'ining oldingi markaziy egatida joylashgan. Bosh miya – po'stlog-orqa miya yo'llari bir butunligining buzilishi dastlab yozilishning to'xtashiga, keyinchalik esa siydikni ushlab tura olmaslikka olib keladi. Axlat chiqara olmaslik orqa miya o'smalari, miyelit kasalliklarida kuzatiladi. Axlatni ushlay olmaslik orqa miyaning dung'aza segmentlari zararlanganda kelib chiqadi.

#### ***Nazorat savollari***

1. Vegetativ asab tizimining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Simpatik va parasimpatik asab tizimining asosiy farqlarini aytib o'ting.
3. Demografizm turlari va tekshirish yo'llari.
4. Ko'z-yurak refleksini o'zingizda tekshirib ko'ring.

**ASAB KASALLIKLARINI TEKSHIRISH, DAVOLASH  
VA PARVARISH QILISH USULLARI ASAB KASALLIGIDA  
BEMORLARNING KASALLIK TARIXINI YOZISH**

Bemorning familiyasi, ismi, otasining ismi tug'ilgan yili, jinsi, millati, manzili, ishslash joyi, kasbi, shifoxonaga kelgan vaqtiga soati, shifoxonadan chiqgan vaqtiga, qaysi transportda kelgani, yo'lllarmasidagi tashxisi, qabulxonada qo'yilgan tashxisi va yakuniy tashxisi.

Bemorning asosiy shikoyatlari so'raladi. Bemordan bosh og'rishi, boshning qanday og'rishi, doimiyligi, kunning qaysi vaqtida og'rishi, og'riq boshning qaysi joylarida ko'proq bo'lishi va og'rioni keltirib chiqaruvchi sabablar so'raladi.

Kasallikning rivojlanish anamnezida kasallikning boshlanishi, dastlabki belgilar, kechishi, qilingan davoni natijasi so'raladi. Kasallik qanday paydo bo'lganligi, birdan yoki asta-sekinlik bilan, o'z-o'zidan paydo bo'lganmi yoki boshqa kasalliklar bilan kasallik kuchayganmi, qayerda davolangan, qanday dorilar olganligi so'raladi.

Ayol bemorning hayot anamezida homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarimidagi toksikozi, onaning kechirgan kasalliklari, olgan dorilar, homilaning harakati, bola tushish alomati so'raladi. Bundan tashqari, bola nechanchi homiladan o'z vaqtida tug'ilganligi, oson yoki qiyin tug'ilganligi, tug'ilgan vaqtida yig'laganligi, ko'karib qolishi, sarg'ayishi, yaxshi emganligi. Ona nechta bola tuggan, sog'ligi, abort bo'lganligi, o'lik tugganligi, ota-onanining yoshi, qonning rezus jarayoni aniqlanadi.

Bola qanday rivojiana boshlagan, bir yoshgacha og'rigan kasalliklar, emlash olganligi, vazni oshishi, tishi chiqishi, boshini tutishi, o'tirishi, yurishi, qapirishi, tungi siyidik tuta olmasligi va shaytonlash bor-yo'qligi aniqlanadi. Bola necha yoshdan o'qiy boshlagan, o'qishni o'zlashtirishi, ikkilamchi jinsiy belgilar paydo bo'lishi, hayz ko'rishi aniqlanadi. Nasl kasalliklari, ota-onanining qarindoshligi, ota-onanining qarindoshlarida tug'ma yoki irsiy kasaliklar yoki surunkali kasalliklar borligi so'raladi. Uy sharoiti, oilaviy ahvoli, zararli odatlar aniqlanadi.

Bemorning umumiy ahvoli, tana tuzilishi, teri va shilliq qavatlar, teri osti yog' qatlami, limfa bezlari, suyak-bo'g'im tizimi, nafas a'zolari, yurak qantomir tizimi, ovqat hazrn qilish a'zolari, siyidik ajratish tizimi va endokrin a'zolar tizimi tekshiriladi.

## Asab sohasini tekshirish

**1. Ruhiy holati va gapirishi.** Hushi o'zida yoki hushdan ketgan, hamma gapni tushunadi, savollarga to'g'ri javob beradi, joyni, vaqtini aniq ayta oladi, yoshi olgan ma'lumotiga to'g'ri keladi.

**2. Kalla suyagi** shakli odatdagidek, aylanasimon, paypaslab ko'rilganda chandiq, kentik izlari ko'rinnmaydi. Barmoq bilan uring ko'rulganda kalla sohasida og'riq sezilmaydi.

**3. Umurtqa pog'onasi** shakli odatdagidek, ko'krak kifozi, bel lordozi me'yorida, skalioz yo'q, umurtqa pog'onasining hamma tomonga harakatlari to'liq, og'riq sezmaydi. Umurtqa pog'onasi bo'ylab suyaklarni paypaslaganda va uring ko'rulganda og'riq sezmaydi.

**4. Meningial belgilar**-ensa mushagining tarangligi, Kernig, Brudzinskiy (yugori, o'rtal, pastki) belgilari, ko'tarilish va kalla suyagining katta havzacha belgisi tarangligi aniqlanadi. Bosh og'riq, bosh aylanish, yorug'lik va shovqimi yoqtimaslik, qusish belgilari.

**5. Kalla bosh miya nervlari.** Hidlov nervida bemor burunning ikkala teshigi bilan hidning bir xilligini sezishi aniqlanadi. Bunda hid bilishning susayishi yoki yo'qolishi (anosmiya), ko'payishi, hidlami ajrata bilish, yo'q hidlami aytish. Tekshirganda o'tkir, achchiq hidlar hidlatilmaydi. Kamfora moyi, kerosin va boshqa moddalarning hidlari o'ng va chap burun teshiklariga alchida-alchida sezish qobiliyati tekshiriladi. Ko'ruv nervida ko'rvu o'tkirligi visus=od=1,0 ga teng, ko'rish maydoni (tashqariga 90°, ichkariga 55°, yugoridan 55°, pastdan 70° ga teng), ranglarni ajrata bilish har bir ko'zda alchida tekshiriladi, ko'z tubi tekshiriladi. Ko'z olmasini harakatlantiruvchi nerv, g'altaksimon nerv, uzqolashtiruvchi nervlar uchalasi birligida tekshiriladi. Ko'z olmasining hamma tomonga harakatlari bir xil to'liq, og'riq sezmaydi, jismalarning ikkita bo'lib ko'rinishi (diplopiya), yugori qovoq pastga tushib qolgan (ptoz), ko'z qorachig'inining tebranib turishi (nistagni), ichkariga va tashqariga qarab qolgan g'ilayliklar, ko'z qorachig'inining kattaligi va yorug'likka to'g'ri hamda moslashgan javobi tekshiriladi. Ko'z qorachig'inining akkomodatsiya va konvergensiyasi aniqlanadi. Uch tarmoqli nervning chiqish joylarini bosib ko'rib, og'riq tekshiriladi. Yuzdag'i og'rioni sezish ikki tomondan bir xilli, tilning oldingi 2/3 ta'm bilish o'ng va chap tomoni aniqlanadi. Chaynov mushaklarining ikki tomondan kuchi, atrofiysi tekshiriladi. Yuz nervi ko'rulganda yuzdag'i ajinlarning bir xilli, tinch holatda yuz ikkala tomondan bir xil, peshona qatlamlari bir xil rivojlangan, qoshlar bir xil kenglikda, burun-lab qatlami bir xil, og'iz burchaklari bir xilda. Mimik sinovlarda yuzdag'i harakatlar ikki tomondan qoslarni bir xil ko'taradi, ko'zlarni yaxshi yuma oladi, tirjayganda burun-lab qatlami ikki tomonga bir xil ketadi, lunjlamni shishira oladi. Eshituv nervi: koxleyar qismi – eshitish o'tkirligi, qulogda shovqin, shang'illash va eshitish gallutsinatsiyalari. Vestibular qismi – bosh aylanish, nistagni, muvozanat buzilishi. Til – halqum nervi va sayyor nervlar

birgalikda ko'rildi. Ovoz chiqishi tiniq yoki dimoq bilan gapiradi, yutishi yaxshi yoki yutganda qiynaladi, yutganda ovqat burundan qaytib tushmaydi. Yumshoq tanglay simmetrik, sezuvchanligi, tanglay va halqum reflekslari, tilning orga 1/3 qismida ta'm bilish o'ng va chap tomonidan alohida tekshiriladi. Qo'shimcha nerv boshni harakatlantirish orgaga, o'ng va chap tomonga, yelkani ko'tarish o'ng va chap tomoni, kuraklarni bir-biriga yaqinlashtirish aniqlanadi. Til osti nervi-til og'iz ichidan to'g'ri chiqariladi, til harakatlari hamma tomonga to'liq, atrofiya va til mushak tolalarining tortilishi ko'rildi.

**6. Harakat sohasi.** Faol harakatlar har bir bo'g' imlarda alohida tekshiriladi. Sust harakatlar bilan birgalikda mushaklar tonusi, mushaklar trofikasi aniqlanadi. Mushaklarning kuchi har bir mushaklarda alohida-alohida tekshirib ko'rildi. Ixtiyorsiz harakatlar (giperkinez, tiklar), fibrillar va fassikular qaltirashlar, mushaklarning tortishi (spazm), harakatsizlik (akineziya, animiya), tutqanoq xurujlari, ularning turi aniqlanadi.

**7. Harakat muvozanati.** Romberg holatida turish, burun-barmoq sinovi va tizza-tovon sinovi, ko'zni ochgan va yumgan holatlarda yurish, xat yozish tekshiriladi.

**8. Reflekslar.** Suyak usti (KR), pay (PR, BR va IR), Axill (AR), teri va shilliq qavatlardagi reflekslar, qorinning (yugori, o'rta, pastki) reflekslari hamda kremaster reflekslari ikki tomondan tekshiriladi. Oyoq panjasini patologik reflekslari (Babinskiy, Oppengeym, Rossolimo, Jukovskiy va boshq.), tizza kosasi, qo'l va oyoq panjasining titrashi (klonus) tekshirib ko'rildi.

**9. Sezuvchanlik.** Og'riqdan shikoyatlari so'raladi, og'riq qo'l va oyoqda uvishish yoki chumli yurgandek, og'riq joylarini aniqlash. Tortilish belgilari (Neri, Lasseg, Vasserman) o'ng va chap tomonda ko'rildi. Yuzaki sezish (og'riqni sezish, issiq-sovuqi ajrata bilish, tanaga tekkan narsani bilish). Chuqur sezgi (mushak-bo'g' imdagi sezgi, bosim, og'irlik, tana qismlarini joylashish sxemasi, vibratsiya, jismlarni paypaslab bilish va boshq.).

**10. Vegetativ asab tizimi.** Terining rangi (ogargan yoki qizarganligi, ko'p terlash, harorati, junlar chiqishi) ikki tomonidan bir xilligi tekshirib ko'rildi. Dermografizm (qizil, oq, aralash yoki bo'rtib chiqqan), barmoqlar qaltirashi, siyidik va axlatning tutilib qolishi yoki tuta olmaslik, jinsiy faoliyat, qantomir urishi (a.radialis va a.femoralis posterior) bir xilligi va timoqlar holati.

**11. Oliy asab faoliyati.** Vagtni, joyni aniqlab olish, xotirada saqlash, diqqatni jamlash, nutq, yozish, o'qish, hisoblash, narsalarni taniy olish (gnosis) va apraksiya. Uyqu holati, kayfiyat, shifokor tekshirganda bemor o'zini tutishi, savollarga javob berishi, psixomator qo'zg'alishlar.

**12. Qo'shimcha tekshirishlar.** Umumi yon, siyidik, axlat va balg'anni hamda oshqozon shirasini tekshirish. Qonning biokimiyoviy ko'rsatkichlari. Orqa miya suyuqligi tarkibini tekshirish. Exo, EEG, REG, EKG, KT, kalla suyagi va umurtqa pog'onasining rentgen tekshiruvlari.

**13. Xulosa va davolash.** Qo'yilgan tashxis o'ziga o'xshash bo'lgan kasalliklar bilan qiyoslangandan so'ng yakuniy tashxis qo'yiladi. Davolash: dorilar, fizio-terapeutik muolajalar, parhez va to'shakda yotish rejimi, ugalash, parafin va refleksoterapiya.

**14. Kundaliklar yozish.** Bunda bemorning ahvoli har kuni yozib boriladi. Muolaja olgandan keyingi holatida o'zgarishlar ko'rsatib o'tiladi.

**15. Epikriz.** Kasallik yakunida qisqacha, tushunarli qilib yoziladi va shifoxonadan chiqqandan keyin kerakli tavsiyalar beriladi.

#### **Asab kasalliklarini davolash va parvarish qilish usullari**

Asab kasalliklarini davolashda, odatda, bir yo'la bir necha usullardan foydalilaniladi. Bemorga ma'lum bir rejim, parhez, dori moddalari, zarur bo'lganda jarrohlik usullari tavsija etiladi. Bemorni davolashda hamshiralarning xizmati alohida ahamiyatga ega. Chunki ular shifokor buyurgan har qanday muolajalarni bajaribgina qolmay, o'zlarining shirin so'zleri bilan ham bemorlarning tezroq sog'ayib ketishlariga xizmat qilishlari kerak. Tibbiyot hamshirasi ishda, bemorlarni davolashda sabr-toqtli, shirin so'z, mehribon, ayni paytda, talabchan bo'lishlari lozim. Bemorlar xushchaqchaq, kantarin, hushyor, e'tiborli hodimlarni yoqtiradilar.

Tibbiyot hamshirasi o'z kasbini chuqur egallagan, bilimli bo'lishi, kasallikning kechishini, dori-darmonlarning organizma ta'sirini yaxshi bilishi kerak. Hamshiralar bemorning tana haroratini o'lchashni, murakkab muolajalarni bajarishni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari shart. Hamshiralar bemorlar bilan ko'proq muloptda bo'lib, kasallikdan tezroq qutulish yo'llarini tushuntirishlari lozim. Hamshira snifokorga bemorning har bir kecha-kunduz mobaynidagi ahvoli haqidagi ma'lumotlarni yetkazib turishi kerak. Bundan tashqari, bemorlar snifokordan tortinib, aytal olmagan gaplarini hamshiralar so'rabbilishlari zarur. Keyingi paytlarda reabilitatsiya, asab va ruhiy og'rigan bemorlarni davolashda psixoterapiya katta ahamiyatga ega. Reabilitatsyaning maqsadi ruhiy bemor sog'ligini tiklash bo'lib, asosan, uning 4 ta yo'li bor: 1) shifokor bilan bemorning yaqindan suhbatlashishi; 2) bemor hayot faoliyatining hamma tomonlariga (oilada tutgan o'mni, jamiyatdagi faoliyatiga, uning o'ziga hamda kasaliga) e'tibor berish va ularga ta'sir qilish turlicha bo'lishini hisobga olish; 3) ta'sir ko'rsatishning biologik (dori-darmonlar, fizioterapiya usullarining ta'siri) va ruhiy ijtimoiy psixoterapiya, mehnat bilan davolashning ajralmas birligi; 4) reabilitatsyaning yugoridagi uchala turini birlgilikda o'tkazish yoki biridan ikkinchisiga o'tish. Bu tadbirlar bemorning sog'ayishiga yo'naltirilgan bo'lib, bunda tibbiyot hamshiralari faol ishtirok etmog'i lozim. Ruhan davolashning eng muhim vazifasi bemorning yo'qotgan faoliyatini qaytarish, uning salomatligini, mehnat qobiliyatini tiklashdan iborat. Hamshiralar bemorda yuz beradigan turli holatlarni tezda ajaratib olishlari va o'z vagtida tegishli yordam berishlari hamda butunlay sog'ayib ketishlariga ishonch hosil qilishlari lozim.

Bosh miyada qon aylanishining buzilishlarida (miya ichiga qon quylganda) tez ko'rsatilgan to'g'ri yordam og'ir asoratlarning (o'pka shamollashi, yaralar paydo bo'lishi va tanada trofik o'zgarishlar hamda siydiq yo'llarining zararlanishi) oldini olgan hamda bemorni o'lindan olib qolgan bo'ladi. Bemor uzoq vaqt qimirlamay yotishi natijasida nafas yo'llarining shamollashiga (o'pka zotiljami, og'iz, burun, tomonoda shilliq yig'ilish natijasida nafas yo'llarini bekitib qo'yadi) olib keladi. Bunday hollarning oldini olish uchun bemorni har 2-3 soatda o'ng va chap tomoniga ag'darib turish, og'iz-tomoq bo'shlig'ida yig'ilgan shilliqlami tozalab turish, siydiq tutilib qolganda issiq isitgich qo'yish yoki kateter bilan siydirib olish kerak. Chugur trofik yaralar paydo bo'lmasligi uchun bemorning kurak va dumba sohalarini tez-tez kamforali spirit bilan artib turish, terlab ho'l bo'lib qolgan joylami toza ho'l latta bilan artib, talk upasini sepiib qo'yish zarur.

Hushidan ketgan bemorlami ovqatlantirishda juda ehtiyoj bo'lish kerak. Agar yutish refleksi bo'lsa, shirin choyni qoshiqda ichirish kerak. Agar bemor icha olmasa, yutishga qiynalssa, 0,9 % natriy xlорид yoki 5-10 % glukoza eritmasini tomir ichiga yuborish tavsiya etiladi. Bemor ancha vaqtidan beri yutinolmay yotgan bo'lsa, zond orgали ovqatlantirish kerak. Zondni oldin qaynatib, vazelin yoki glitserin surtib keyin ishlatiladi. Suyuq ovqat yuborishdan oldin zondning oshqozonga to'g'ri tushganiga ishonch hosil qilish kerak. Zond nafas yo'llini qisib qo'ygan bo'lsa, bemorning yuzi ko'karib, o'ziga xos tovush eshitiladi. Zond to'g'ri qo'yilgandan so'ng, 1 ml sterillangan suv yuborib ko'rildi, agar bemorda yo'tal paydo bo'lmasa, zond oshqozonga tushgan bo'ladi va ovqatni bemałol yuborsa bo'ladi. Bemorning falaj bo'lib qolgan qo'l-oyoqlarini to'g'rilaq qo'yish kerak. Chunki mushaklar uzoq vaqt mobaynida tortilib qolishi natijasida harakat chegaralanib, falajlangan qo'l va oyoq qiyshayib ketadi. Shuning uchun qo'l falaj bo'lsa, qo'lтиq orasiga kichkina yumaloq yostiqcha qo'yib, yelka ozgina ko'tarib qo'yiladi. Qo'lni to'g'ri uzatib, bamoglamni to'g'rilaq qo'yish lozim. Qo'l tirsak bo'g'imidan bukilib ketmasligi uchun ozgina qum solingan xaltada qo'lning ustiga qo'yiladi. Oyoq panjasini to'g'rilaq fiziologik holatga keltirish uchun esa taxtakachdan foydalaniładi. Buning uchun panjaga loyiq yunshoq matoni o'rab, panjani qimirlameydigan qilib tirab qo'yiladi. Shunday qilinganda bemor keyinchalik yurishda qiyalmaydi. Kasallikning ikkinchi haftasidan boshlab shifobaxsh badantarbiyani boshlash kerak. 3-4 haftalarga borib, bemorni asta-sekin oyoppa turg'izib, harakatga keltirish kerak. Dastlabki vaqtarda bemorning falaj oyog'i uvishib yotgani uchun u oyog'ini yerga tekkanini yaxshi sezmaydi. Shuning uchun, hamshiralar bemorni birinchi bor yurgizganda unga yordamlashib, yiqilib ketmasligining oldini olishi kerak.

Ayrim vaqtarda bemor gapirishga qiynaladi, nutq buziladi bunga afaziya deyiladi. Agar bemor o'ziga aytilgan gapning ma'nosini tushunsa, lekin o'zi gapira olmasa, bu *motor afaziyasi* deb ataladi. Sensor afaziyada bemor gapira olmaydi, lekin atrofdagilarning so'zini ham tushunmaydi. Amnestik

afaziya – bunda bemor atrofdagi narsalarni taniydi, ulardan qanday foydalanish kerakligini biladi, lekin ularning nomlarini eslay olmaydi. Bunday hollarda hamshiralar bemorni yuvintirish, kiyintirish, yechintirish ishlariga alohida e'tibor berishilari kerak. Bosh miya jarohatlarida (bosh miya chayqalishi, subaraxnoidal bo'shliqqa qon quylganda) bemorning tinch yotishini ta'minlash, og'iz bo'shlig'ini tozalab turish lozim. Chunki og'izda bir talay so'lak va shilimshiq to'planib qoladi. Bemor bezovta bo'lganda tinchlantiradigan dorilar qilish tavsiya etiladi. Siyidik tutilib qolganda kateter solish yoki siyidik tuta olmaslikda siyidikdon qo'yish talab qilinadi.

Meningit bilan og'rigan bemorlarga o'midan turmasdan, tinchgina yotish, yengil hazm bo'ladigan ovqatlar berib turish kerak bo'ladi. Meningitlarda kalla ichki bosimi ko'pincha ko'tariladi, bunda bemorlarda tovush va yorug'lik ta'sirlariga sezuvchanlik oshib ketadi (giperakuziya va fotofobiya). Bunda hamshiralar bemorni yorug'lik tushmaydigan tinch xonalarga yotqizishlari shart. Yetarlicha toza havo bo'lishi zarur. O'rinn yaxshi solingan, to'shami tekis bo'lishi, yostiqlari yumshoq bo'lishi kerak. Miyelit, orga miya jarohatlarida oyoqlarda paraparez yoki paraplegiya, chanoq a'zolari vazifasining buzilishi, trofik o'zgarishlarda kasallikning birinchi kunidan boshlab teriga yaxshi qarab borish zarur. O'rindagi choyshabning bumalari bo'lmasligi, choyshab tagiga rezina doira solib qo'yish kerak. Bemorning vaziyatini kuniga bir necha marta o'zgartirib turish, badan terisini kamforali spirit bilan artib turish lozim. Kontrakturlarning oldini olish uchun oyoqlarning holatiga qarab borish, oyoq panjalari osilib qolmasligi kerak. Oyoq panjalari tayanch yordamida boldirga nisbatan to'g'ri burchak ostida turadigan qilib qo'yiladi. Chanoq a'zolarining vazifalari buzilganda qat'iy aseptik sharoitlarda kateter solinib, siydirib olinadi. Ich qotib qolsa, tozalovchi huqqa qilinadi.

Bulbar falaj boshlanganda bemorlami ovqatlantirishga alohida ahamiyat berish lozim. Nafas yo'llariga ovqat va suyuqlik tushib qolishining oldini olish lozim. Ovgat yarim suyuq bo'lishi, bemorni dam oldirib, kam-kamdan tez-tez ovqatlantirib turish tavsiya etiladi.

Bemorni bel va oyodagi qattiq og'riq (bel-dung'aza radikuliti yoki umurtqalararo diskning orga churrasi), harakat qilganda, yurganda og'riq zo'rayadi. Bunday bemorlarga o'rindan turmay yotish (o'rinn qattiq bo'lishi kerak), o'rinda og'riq kamayadigan holatni tanlash buyuriladi. Bunda kasal oyoqni tizza va chanoq-son bo'g'imidan bukib, sog' yonbosh bilan yotilganda og'riq kamayadigan holat bo'ladi. Og'riq goldiruvchi dorilar ichishga beriladi va mushak orasiga yuboriladi. Bemorda qattiq bosh og'rig'i tutib turishi kalla ichki bosim oshib ketishiga bog'liq bo'ladi. Bu holat bosh miya leptomeningiti, bosh miya o'smalari, bosh miya jarohatlari, migren va boshqa kasalliklarda kuzatiladi. Bunday hollarda tinch sharoit bo'lishini ta'minlab, yorug'likni kamaytirish, kalla ichidagi bosimni pasaytirish uchun snifokor buyurgan dorilarni qilish: tamir ichiga glukoza

va magniy sulfat eritmalarini yuborish, mushak orasiga magniy sulfat, laziks, ichishga glitserin berish tavsija etiladi. Tutqanoq xuruji vaqtida bemorning boshi tagiga yostiq qo'yib, tishlarining orasiga bint o'ralgan shpatel yoki sochiqning chetini kiritib qo'yish, ko'ylagining yoqasini yechib, kamarini bo'shatib qo'yish zarur.

Asab kasalligi bilan og'rihan bemorlami tekshirish usullaridan biri lumbal punksiya qilib, orga miya suyuqligining bosimi va tarkibini tekshirish, zarur bo'lsa kontrast moddalar yuborish kerak. Birinchidan, orga miya suyuqligini olishdan oldin bemorning ovqatlanishi mumkin emas. Suyuqlik olingandan so'ng igna sandhilgan joyga sterillangan tampon ustidan 3 qavat bint qo'yiladi va bemor aravachada yotgan holda xonaga olib kelinadi. Lyumbal punksiyaning shifo bo'lishi shunga bog'liqki, bunda ko'tarilib ketgan kalla ichki bosimini pasaytirish, orga miya suyuqligiga dori moddalar yuborish lozim bo'ladi. Lyumbal punksiya qilishda bemorni maxsus stolda yonbosh bilan yotqizib, oyqolarini qorniga tortib, boshini oldinga engashtirib qo'yiladi. Punksiya, odatda, mahalliy anesteziya ostida qilinadi. Punksiyadan keyin bemor yostiq qo'ymasdan 2 saat davomida qorni bilan chalqancha yotishi kerak. Bemorning oyoq tonomi esa 5 sm gacha ko'tarib qo'yiladi. Bemorni punksiya qilingandan so'hg, 2 saatdan keyin ovqatlantirsa bo'ladi va 2 kungacha o'midan turg'izmaslik kerak. Punksiyadan keyin 2 – 3 kun davomida 0,5 g dan kuniga 3 mahal urotropin ichiriladi. Shunda asorating oldi olinadi. Ba'zan punksiyadan keyin siyidik tutilib qolishi kuzatiladi. Bunday hollarda qovuq sohasiga issiq isitgich qo'yiladi, bu naf bermasa kateter solinadi. Asab tizimi kasalliklari orasida bedavo og'ir dardlar bor. Bemorning ahvoldidan umid yo'qligi to'g'risida hamshiralalar bemor oldida gapirmasligi kerak. Aksincha, ahvol yaqin orada yaxshilanib qoladi, deb bemorni ishontirish talab etiladi.

### **Periferik asab tizimi kasalliklari**

Asab tizimi kasalliklari ichida hammadan ko'p targalgani – bu periferik asab tizimi kasalliklari. Zararlanish periferik asab tizimining hamma qismalarida sodir bo'ladi: orga miya nerv ildizlarining zararlanishi – *radikulit*, orga miya orga tugunlarining zararlanishi – *ganglionit*, nerv chigallarning zararlanishi – *pleksit*, bir necha periferik nervlarning zararlanishi – *polinevrit*, bitta periferik nervning zararlanishi – *mononevrit* yoki nevrit deb ataladi.

Periferik asab tizimi kasalliklari orasida juda ko'p uchraydigani – bu nevritlar (alovida nervlarning yallig'lanishi) va radikulitlar. Bulami keltirib chiqaradigan sabablar turli xil. 1. Yuqunli va boshqa kasalliklardan keyin (gripp, sil, difteriya, brusellyoz, revmatizm, diabet va bosh.). 2. Toksik sabablar (moddalar). Alkogol va boshqa turli xil zaharli kimyoviyatlar. 3. Turli xil jarohatlardan, nerv tolalarining qisilishidan keyin ham paydo bo'ladi. Har bitta nerv ma'lum joyda yotadi va suyak hamda tog'ay

oralig' idan o'tadi. Bu suyak va tog'aylarda o'zgarishlar bo'lib, ular o'sadi va periferik nervlami bosib, qisilishga olib keladi. Radikulitlami keltirib chiqaradigan jarayonlar umurtqa pog'onasidagi birlamchi o'zgarishlardir. Bu o'zgarishlar umurtqa pog'onasida kuzatiladigan moddalar almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadi. Osteokondroz umurtqalar orasidagi tog'ay to'qimalarining o'zgarishi natijasida namoyon bo'ladi. Spina bifida - umurtqalar orasidagi oraligining bitmay qolishi. Ko'p noto'g'ri, qaltsi harakatlar vaqtida, og'ir yuk ko'targanda umurtqalararo disk joyidan silijiysi. Natijada asab, tolalarini qisib qo'yadi.

Nevritning asosiy belgilari nerv yo'li bo'y lab og'riq paydo bo'lishi, asab tizimini harakatlantiruvchi va sezuvchi vazifalarining yo'qolib qolishi - periferik asab falaji boshlanib mushaklar attoniyasi va atrofiyasi paydo bo'lishi, arefleksiya, og'riq sezgisining pasayishi yoki yo'qolishi, terida trofik o'zgarishlar: terining yuqqa tortib, quruq bo'lib qolishi, sochlarning to'kilib ketishi, teri rangining o'zgarishi, timoglarning mo'rt bo'lib qolishi.

### **Bel-dung'aza radikuliti**

Bel-dung'aza radikuliti juda ham ko'p uchraydi, chunki bel-dung'aza sohasiga og'irlikning ko'p tushishi sabab bo'ladi. Odamzod kecha-yu kunduz harakatda bo'ladi, o'tiradi, turadi, yuradi hamma vaqt og'irlik belga tushadi. Bu kasallikning kelib chiqishi, asosan, umurtqa pog'onasidagi o'zgarishlarga bog'liq. Umurtqalar orasidagi suyak-tog'ay sohasida moddalar almashinuvni natijasida, ya'ni tog'ay o'zining mayinligini, elastikligini yo'qotib qotib qoladi. Umurtqalararo diskrlaming o'zgarishi, o'z navbatida, ildizlarga ta'sir etib, radikulit kasalligiga olib keladi. Orqa miya nerv ildizlarining jarohatlanishi, ko'pincha umurtqa pog'onasining osteokondrozi, turli shikastlar, umumiyluq yuqumli kasalliklar ogibatida umurtqa pog'onasi ning yallig'lanishi va uning o'smalari sabab bo'lishi munkin.

Kasallikning rivojlanishiga yoki qaytalanishiga yuk ko'tarish yoki keskin harakat qilish ogibatida umurtqa pog'onasiga og'irlik tushishi sabab bo'ladi. Kasallikning rivojlanib borishiga nerv ildizlarini umurtqalararo disk churrasi bosib qolishi, uning ta'sirida venoz qon dimlanib qolishi, limfa ogimi buzilishi sabab bo'ladi, bu natijada atrofdagi to'qimalaming shishib ketishi, orqa miya nerv ildizlarining kasalligiga olib keladi.

**Klinik manzarasi.** Bemorlar, odatda, qattiq bel og'rig'idan, oyoqlarda, sonning old va orga tomonidagi og'riqdan shikoyat qiladilar. Og'riq harakat qilganda, ish qilganda, yo'talganda, aksa urganda kuchayadi. Ko'pincha bemorlar oyoqlari sovuq qotishi, uvishishidan shikoyat qiladilar. Bemorlar og'riqni kamaytirish maqsadida og'rib turgan oyog'ini chanoq-son va tizza bo'g'imidan bukib, sog'lom tomoni bilan yotadilar. Tekshirganda bemorlarda umurtqa pog'onasining shakli o'zgarib, bel lordozi yo'qolib, o'miga skolioz (umutroganing yon tomonga qiyshayishi) paydo bo'ladi. Bu reflektor yo'li bilan yuzaga keladigan himoyalanish holatidir. Mana shunday

holatda og'riq sezilarli darajada kamayadi. Laseg belgisini aniqlab ko'rila-yotganda bel va oyoq og'riqlarining kuchayishi doimiy belgidir. O'tirish belgisi, Neri, Dejerin va Bexterov belgilarini tekshirganizda belda qattiq og'riq paydo bo'ladi.

Bel-dung'aza radikulitida dumba, son, boldir sohasidagi mushaklar gipotrofiyaga uchrab, bo'shashib qolishi mumkin, og'ir hollarda oyoq panjasni mushaklari parezga uchraydi. Reflekslar kasallangan tomonda, agar son nervi yallig'langan bo'lsa – tizza refleksi, agar quymich nervi yoki uning shoxlari kasallansa – tovon yoki Axill reflekslari yo'qoladi. Sezgi sohasida kasallangan tomonda paravertebral nuqtalarda og'riq bo'ladi. Oyoqdagi periferik nerv tolalari bo'yicha bosib ko'rilmaga og'riq bo'ladi. Yuzaki sezgi qaysi nerv kasallanganiga qarab sonning old va orgasida, boldirning yonida yoki orgasida anesteziya yoki gipesteziya bo'ladi. Vegetativ o'zgarishlar kasallangan tomonda boldir, oyoq panjalarida sovuq qotish, shu tomonda oyoqning arteriya tomirlarida tomir urishi susaygan, terisi quruq bo'ladi. Agar yo'qolish belgilari (atrofiya, gipotrofiya, arefleksiya va sezgi buzilishlari) bo'lsa, radikulit deb tashxis qo'yiladi. Agar bemorda ta'sirlanish belgilari (og'riq, bel-oyoglarda tortilish belgilari) bo'lsa, lekin yo'qolish belgilari bo'lmasa, unda bel-dung'aza radikulalgiyasi deb tashxis qo'yiladi. Bemorning, albatta, umurtqa pog'onasini rentgenografiya qilish kerak. Kasallik odatda qaytalanib turadi.

**Davosi.** Birinchi navbatda bemor qattiq to'shakda yotib turishi lozim. Og'riq qoldinuvchi dorilar: reopirin, pirobutal, diklofenak, analgin, baralgin, aspirin, brufen, indometatsin beriladi. Kasallikning o'tkir davrida bel-dung'aza sohasiga issiqlik bilan davolash (issiq, qum xaltacha), tarkibida ilon va asalari zahari bor surtnamani surtish, B guruhli vitaminlar, shishni kamaytiradigan dorilar buyuriladi. Fizioterapiya muolajalari bel-dung'aza sohasiga solluks, infraruj, diodinamik tok qo'yish, ultrabinafsha nurlar bilan davolash, novokain bilan elektroforez, snim hamda UVCH qo'yish yaxshi samara beradi. Mushak – tonik og'riq alomatlarida nimesil, sirdalud va midokalm buyuriladi. Og'riq kamaygandan keyin ugalash tavsiya etiladi. Agar og'riq kuchli bo'lsa, unda paravertebral blokada tavsiya etiladi. Bunda novokain 2 % 20–30,0 ml, vitamin B<sub>12</sub> 1000 mkg, gidrokortizon 50 mg, platifillin 0,2 % 1,0 ml dan olinib paravertebral nuqtalarga qilinadi.

Kasallik sunukali kechsa, tarkibida vodorod sulfid va rodon bo'ladigan ma'dan suvlarga tushish taklif etiladi. Agar davolanish naf bermasa, unda jarrohlik yo'li bilan umurtqalararo disk churrasi olib tashlanadi. Umurtqalararo disk churrasi yoki ot dumi churrasi qisilib qolishi natijasida bemorning oyoqlari falaj bo'lib qolganida va chanoq a'zolarining vazifasi buzilganda o'sha churrani olib tashlash lozim bo'ladi.

Bel-dung'aza radikulitining paydo bo'lishiga spondilolistez – umurtqaning oldinga siljishi ham sabab bo'lishi mumkin. Agar bel sohasida og'riq qaytmasa, unda bu og'riq belgisi o'smaga – ot dumi nevrinomasiga aloqador bo'lishi mumkin.

**Parvarish qilish.** Bel-dung'aza radikulitida og'riqan benorlarga qattiq to'shakda yotishni ta'minlash. Og'riq xurujlarida sog'lom tomoni bilan yotish, og'riqning bo'lgan oyoqni tizza va son bo'g'imlaridan bukib yotish kerak. Chunki bu holat og'riqni pasayishiga yordam beradi. Hamshiralardan og'riq xurujlariga qarshi analgin, baralgin, ortofen yoki diklofenak inyeksiya qilish talab etiladi.

### **Bo'yin radikuliti**

**Sabablari.** Eng asosiy sabablaridan biri shu joyda kuzatiladigan osteokondroz, ya'ni birlanchi umurtqa pog'onasidagi o'zgarishlar. Yelka kamari va qo'llardagi og'riq alomatlari (braxialgiya bilan pleksitlar)ning ko'philigi umurtqalar orasidagi disklarda yuzaga kelgan o'zgarishlarga bog'liqdir. Bo'yin bo'limidagi umurtqalararo disklerning zararlanishi natijasida shu bo'g'imdalar suyak o'simtalari paydo bo'ladi. Bu o'simtalalar umurtqalar orasidan orqa miya nervlarining ildizlari o'tadigan teshiklami toraytirib q'yadi.

Bo'yin bo'limidagi orqa miya nerv ildizlarining zararlanishi asosan 40 yoshdan oshgan odamlarda, ko'proq erkaklarda uchraydi. Bo'yin radikuliti bilan og'riqan benorlar ish vaqtida bo'yin mushaklarini taranglashtiruvchi, boshni engashtirib va burib, qo'llari bilan bir xilda harakat qiladigan odamlarda ko'proq uchraydi (suvoqchilar, bo'yogchilar to'quvchilar va boshq.).

**Klinik manzarasi.** Benorlar bo'yin va qo'l sohasi og'rib turishidan shikoyat qiladi. Ko'pincha boshini ma jburan bir tomoniga yoki oldinga engashtirib turadilar. Bemorni tekshirganda og'riq bo'yin qismida bo'ladi. Paypaslab ko'rilmaga og'riq paravertebral nughtalarda kuzatiladi. Agar og'riq qo'lga o'tsa, u vaqtida yana og'riq o'mrov ustini hamda ostida, qo'lting tagida bo'ladi. Bo'yin radikulitida qo'lda, bilak va yelka mushaklarida gipotoniya, atrofiya kuzatiladi. Qo'ldagi bilakni yozuvchi va bukuvchi suyak ustini reflekslari pasayadi yoki yo'qoladi. Sezgi bo'yin segmentlari sohasida va qo'lda yo'qoladi (gipesteziya). Umurtqa pog'onasini rentgenogrammasida umurtqa tanalarining chetlarida suyak o'simtalari borligi ma'lum bo'ladi.

### **Ko'krak radikuliti**

Umurtqa pog'onasi ko'krak bo'limida orqa miya nerv ildizlarini zararlanishida og'riq ko'krak sohasidagi umurtqalarda hamda ko'krak qafasida bo'ladi. Agar og'riq ko'krak qafasining chap tomonida bo'lsa, unda klinik jihatdan biroz qiyin bo'ladi. Chunki bemorda hamma vaqt yurak kasalligini inkor etishimiz kerak. Ko'krakdag'i og'riq va uning chap qo'lga berilishi ko'pincha radikulitga o'xshaydi. Bu, aksincha, stenokardiya va infarkt miokardda ham kuzatilishi mumkin. Shuning uchun bunday benorlarni dastlab, albatta, yuragini tekshirishdan o'tkazish zarur. Ko'krakning yugori qismi mushaklarining ko'p qismini bo'yindagi nerv ildizlari ta'minlaydi, shuning uchun qattiq og'riq bo'lmaydi. Juda ko'p kasalliklarda - sil spondiliti, aortalar anevrizmi, Bexterev kasalligi, orqa

miya o'smalari va stenokardiyada umurtqa pog'onasining ko'krak bo'limida og'riq paydo bo'lishi mumkin. Agar yurak sohasida o'zgarishlar bo'lmasa, unda ko'krak radikuliti deb davolashimiz mumkin.

**Klinik manzarasi.** Bemorni tekshirganda ko'krak umurtqa sohasining o'ng va chap tomonida – paravertebral nuqtalarda og'riq hamda shu segment sohasida sezgining pasayishi yoki yo'qolishi kuzatiladi. Ko'krak radikuliti boshqa radikulitlarga nisbatan kam uchraydi, chunki ko'krakning o'zi kam harakat qiladi.

**Davosi.** Bo'yin va ko'krak radikuliti og'rigan bemorlarga analgetiklar (analgin, sedalgin, aspirin, beralgin, diklofenak), vitaminlar B<sub>1</sub>, B<sub>12</sub>, diiodinamik toklar, umurtqa pog'onasining bo'yin bo'limiga novokain bilan qilinadigan elektroforez, uqalash, vodorod sulfidli yoki rodonli vannalar tavsiya etiladi.

### **Tirsak nervining nevriti**

Bemor to'rtinchchi va beshinchchi barmoqlar sohasida uvishish va bijirlashishdan shikoyat qiladi. Tekshirganda bemor IV–V barmoqlarni buka olmaydi, qo'l barmoqlarini bir-biriga yaqinlashtira olmaydi va bir-biridan uzoqlashtira olmaydi. Paralich yoki parez periferik nerv falaji xilida bo'ladi. Gipotenor sohasida atrofiya, IV–V barmoqlarning ichki va tashqi qismida sezgi pasayadi. Bemorning qo'l panjasasi «qush panjasasi»ga o'xshab qoladi. Bemor royal, pionina chala olmaydi, to'pni ushlay olmaydi.

### **Bilak nervining nevriti**

**Sabablar.** Odam qattiq uhlaganda qo'lining boshi ostiga qo'yib yotganda yoki qo'li tana tagida qolib ketishi natijasida, qattiq charchab uhlab qolgandan keyin, spirtli ichimliklar ichgandan keyin paydo bo'ladi. Bu falajlikka «uyqudagi falajlik» deb ataladi. Ba'zi hollarda turli xil zaharlanishlar (qo'rg'oshin, alkogol, ayrim kasalliklar: gripp, zotiljam) ham sabab bo'ladi.

**Klinik manzarasi.** Bemor qo'l panjasasi osilib qolganligidan, uyuishishidan, o'griqdan shikoyat qiladi. Tekshirilganda harakat sohasida o'zgarishlar bo'lib, qo'l panjasasi osilib qolgan. Shu mushaklar atrofiya va gipotoniya bo'ladi. Tirsakni yozuvchi reflekslar yo'qoladi. Sezgi sohasida I–II qisman III barmoqlarning ustki tomonida sezgi yo'qoladi.

### **Oraliq nervining nevriti**

**Sabablar.** Qo'l yelka qismining ochiq va yopiq jarohatlarida, vena qontomiridan ukol qilinganda, ba'zi yuqumli kasalliklarning asorati natijasida paydo bo'ladi.

**Klinik manzarasi.** Bemor yelkasini ichkariga burish, bosh barmog'ini boshqa barmoqlarga qarshi qo'yish harakatlarini bajara olmaydi. Bosh

barmoqni sinchalakka tekkiza olmaydi. Qo'l panjasini musht qila olmaydi. Qo'l barmoqlarida qattiq kauzalgik og'riq bo'lib, bu og'riq bilakning ichki yuzasiga targaladi. Qo'l kaftning tashqi yuzasida va bilakning tashqi yarmida teri sezgisi yo'pladi.

### **Quymich nervining nevriti**

**Sabablari.** Turli xil umumi yuqumli kasalliliklar, jarohatlar va zaharlanishlardan keyin paydo bo'ladi.

**Klinik manzarasi.** Kasallikning dastlabki belgilari son bilan boldimingga orga-tashqi yuzasida nerv yo'li bo'ylab og'riq bo'ladi. Kasallik kuchayganda bemor tizza va boldir-panja bo'g'imlarini, oyoq panjasini bukishi qiyinlashadi. Sezgi butun boldir va oyoq panjasi terisida yo'qoladi. Kasal tomonda Axill refleksi yo'qoladi.

Quymich nervining tarmog'i - kichik boldir nervi (n. peroneus) jarohatlanganda oyoq panjasi pastga osilib qoladi. Bemor oyoq panjasini va barmoqlarini yugoriga buka olmaydi. Bemor oyoq panjasining qolgan qismini yerga taqamasdan turib, tovonini bosib tura olmaydi. Bunday kasallikka uchragan bemorlar yurish vaqtida oyog'ining uchi yerga tegib golmasligi uchun tizzasini baland ko'tarib, oyoq panjasini oldinga tashlagandek qilib yuradi. Ikkala nerv zararlanganda bemorning yurishi o'zgarib qoladi. Bunday yurish «xo'roz yurish» deb ataladi. Quymich nervi tarkibida vegetativ asab tolalari ko'p bo'lgani uchun bemorlar achishtiruvchi, kuydiruvchi qattiq og'riqdan shikoyat qiladilar. Bunda bemorlar og'riq azobidan yaxshi u الخلأا olmaydilar, besaranjom, tajang bo'lib qoladilar. Bunday og'riqlarga kauzalgiya og'riqlari deyiladi. Sovudan og'riq kamayadi, shuning uchun bemor oyog'ini ho'l sochiqqa o'rabi qo'yadi yoki oyog'ini souvq suvga solib o'tiradi.

### **Yuz nervining nevriti**

**Sabablari.** Yuz nervining zararlanishi ko'pincha yuqumli kasalliliklar natijasida, qulogning yiringli kasalliklaridan keyin, souvq qotish, shamollash, bosh miya jarohatlari, yuz nervining qisilib qolishi, har xil allergik holatlardan keyin paydo bo'ladi.

**Klinik manzarasi.** Yuz nervining nevritida yuzning qaysi tomonidagi nerv zararlangan bo'lsa, shu yuzning yarim tomonidagi mimik mushaklarning falajlanishi kuzatiladi. Bunda bemorning yuzi asimetrik bo'ladi. Masalan, o'ng tomonda yuz nervining periferik nervi zararlansa shu tomonda yuz nervining periferik falajik bo'ladi. Bunda tinch holatda kuzatganimizda o'ng tomonda yuz asimetriyasi, ya'ni yuz bir xil emas, o'ng tomonda peshona ajinlari silliqlashgan, qosh biroz pastda, ko'z oralig'i kengaygan, burun-lab qatlami silliqlashgan va og'iz burchagi pastga tushgan. Agar mimik sinovlarda kuzatganimizda o'ng tomonda qoshni ko'tara olmaydi, achchiqlana olmaydi, ko'zni yuma olmaydi, qovoqlar to'liq yumilmaydi (Bella belgisi),

tirjaytinganda burun-lab qatlami tashqariga ketmaydi, og'iz burchagini sog' tomonga tortib ketadi, lunjni shishira olmaydi, hushtak chala olmaydi. Bulardan tashqari, vegetativ o'zgarishlar (ko'z yoshining oqishi), korneal va konyuktival reflekslar zararlangan tomonda pasaygan bo'ladi.

**Davosi.** Yuz nervining nevriti kelib chiqish sabablariga qarab antibiotiklar (penitsillin, ampitsillin, eritromitsin), shishlarni kamaytirnish uchun (diakarb, laziks) buyuriladi. Mimik mushak faoliyati tiklanishining birinchi belgilari paydo bo'lishi bilan uqalash, parafin, shifobaxsh badantarbiya mashqlari tavsiya etiladi. Asab o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun prozerin, galantamin, oksazil, kalimin, dibazol 0,02 g dan kuniga 3 mahal, bu dorilar kasallik boshlanganidan bir haftadan keyin beriladi. B guruhli vitaminlar, nikotin kislota, askorbin kislota beriladi. Kasallikning o'tkir davrida UVCH, UFO, solluks va ultratovush buyuriladi. Qovoqlar to'liq yumilmay qolganda, ko'z shox pardasi kasallikkha chalimasligi uchun ko'zga albusid tomizib turish kerak. Refleksoterapiya ham yaxshi samara beradi. Agar yuz mushaklarida kantraktura boshlansa, finlepsin yoki tegritol tavsiya etiladi. Kasallik vaqtida davolansa 3-4 haftada to'liq tuzalib ketadi.

### Inyeksiyanidan keyingi quymich nervi nevriti

Ko'pchilik dori moddalar mushak orasiga inyeksiya qilinadi. Hamshiralarning bilmasdan noto'g'ri inyeksiya qilishi natijasida quymich nervining zararlanishiga olib keladi. Bunda quymich nervi zararlanib, oyoqlaming harakat qilish faoliyati buziladi. Nati jada, benorlами nogironlikka olib keladi. Buning uchun hamshiralar quymich nervining anatomiysi, topografiyasini yaxshi bilishlari lozim. Quymich nervi dumg'aza chigali ildizlaridan boshlanib, chanoq suyagidan tashqariga chiqadi. Mushak orasiga in'eksiya qilishda dumba sohasining to'rt tononini teng to'g'ri to'rtburchakka bo'lish kerak. Burda yugori tashqari, yugori ichkari, pastki tashqari va pastki ichkari to'g'ri to'rtburchakka bo'linadi. Quymich nervi pastki ichki va pastki tashqari to'g'ri to'rtburchakdan o'tadi (19-rasm).

Hamshiralar dori moddalarini inyeksiya qilishda, asosan, yugori tashqi to'g'ri to'rtburchakka inyeksiya qilishlari kerak. Agar bilmasdan boshqa to'g'ri to'rtburchakka inyeksiya qilgan taqdirda quymich nervining falajlanishiga olib keladi. Chagaloqlar, chala tug'ilgan bolalar, gipotrofiya bo'lgan bolalarda inyeksiyanidan keyingi quymich nervi zararlanishi ko'p uchrashi mumkin. Bunday bolalarda teri yog' qatlamining juda kam rivojlanishi, bolaning ko'p yig'loqi bo'lishi, asabi tarang bolalarda va hamshiraning inyeksiya qilishda noto'g'ri igna tanlashi, ya'ni juda katta igna bilan inyeksiya qilishi natijasida ro'y beradi.

**Klinik manzarasi.** Kasallik o'tkir vaqtida inyeksiya qilingan joyda og'riq, uvishish, bijirlash va o'sha tomonda oyoq harakatining butunlay pasayishi yoki yo'qolishi kuzatiladi. Keyinchalik esa falajlangan oyoq panjasining tashqariga qarab qolishi, katta yoshdag'i bolalar oqsoqlanib yurishi, oyoq

mushaklarida atrofiya va gipotoniya boshlanishi mumkin. Pay reflekslaridan tizza va Axill reflekslarining yo'qolishi, sezuvchanligining pasayishi, vegetativ o'zgarishlar kuzatiladi.

**Davosi.** Tashxis aniq qo'yilsa, og'riq goldiruvchi dorilar, vitaminlaming B guruhni, galantamin, prozerin, lidaza, ATF, pirogenal, nikotin kislotasi, fizioterapiya muolajalari, elektroforez, - 4 % mo'miyo, galantamin bilan parafin, uqlash, refleksoterapiya, shifobaxsh badantarbiya tavsiya etiladi.

## **Nevralgiyalar**

Nevralgiyalar biror nerv yo'li bo'ylab og'riq paydo bo'lishi bilan xarakaterlanadi. Qaysi nerv zararlanishiga qarab nevralgiyalar har xil nomlar bilan ataladi.

### **Uch tamoqli nervning nevralgiyasi**

**Sabablari.** Nevralgiyaning kelib chiqishida uch shoxli nerv tamoqlari ning suyak kanallarida va kalla bo'shilg'idan yuz skeletiga chiqish joylaridagi teshiklarda siqilib qolishi muhim ahamiyatga ega. Uch tamoqli nervning nevralgiyasi har xil infeksiyalar (bezgak, sil, brusellyoz), moddalar almashinuvining buzilishi (padagra, diabet), tish kasalliklari, burunning qo'shimcha bo'shilqlari sohasidagi yallig'lanishlar, bosh miya qontomir kasalliklari, ko'z osti va pastki jaq' osti kanallarining torayishi asosiy sabab bo'lishi mumkin.

**Klinik manzarasi.** Uch tamoqli nervning nevralgiyasi bemorning yuzida vaqt-i-vaqt bilan qattiq sandadigan, achishtiradigan, xurujsimon og'riq bo'lib turishi bilan xarakterlanadi. Og'riq xurujlari to'satdan boshlanib, bir necha soniya yoki daqiqagacha davom etib, keyin yana to'satdan to'xtab qoladi. Xurujlar orasida og'riq bo'lmaydi. Uch shoxli nervning qaysi tarmog'i zararlanishiga qarab, og'riq shu sohalarbo'ladi. Xuruj vaqtida og'riq nerv tamoqlari bo'ylab yuzning bir tomoniga targaladi. Ba'zan og'riq nervning bir tarmog'idan boshqasiga o'tishi mumkin. Og'riq xurujlari, asosan, vegetativ o'zgarishlar (yuzning qizarib ketishi, ko'z yosh va so'lakning oqishi, ter chiqishi, burundan shilimshiq oqishi) va yuz mimik mushaklarining reflektor qisqarishi bilan kechadi. Og'riqlar qulqoq, ko'z, bo'yin va ensaga berilishi mumkin. Og'riq paytida bemor xuddi qotib qolgandek qimirlashga qo'rqiib qoladi. Og'riq xurujlari to'satdan, sababsiz yoki biron bir ta'sirlardan keyin, biron narsa chaynaganda, sogol-mo'ylovni olganda paydo bo'ladi. Asosan, og'riq II-III nerv tamoqlarida paydo bo'ladi. Xurujlar oralig'ida kasallikning belgilarini topib bo'lmaydi. Xuruj vaqtida yoki keyin uch tamoqli nervning chiqish joylari bosib ko'rildganda bezillab turadi va shu joylardagi teri sohalarida sezgi ko'payadi (giperesteziya).

**Davosi.** Uch tamoqli nervning nevralgiyasini keltirib chiqaruvchi sababni aniqlash va unga qarab tegishli davo qilish zarur. Og'riqni

goldiruvchi va xurujga qarshi finlepsin (tegretol, carbamazepin) 0,1 g dan kuniغا 2 mahal berishdan boshlanadi. Keyin har kuni 0,1 g dan oshirib, zarur bo'lsa 0,6–0,8 g gacha yetkaziladi, bunda kuniغا 3–4 mahal ichiriladi. Davo boshlangandan 1–3 kun o'tgach, bemorning ahvoli yaxshilanib qoladi. Og'riq yo'qolib ketgandan keyin dorining asta-sekin kuniغا 0,2 g–0,1 g gacha tushiriladi. Bu dorini uzoq muddat 2–3 haftadan 2–3 yilgacha ishlatib boriladi. Nojo'ya ta'siri (ishtaha yo'qolishi, ko'ngil aynish, bosh og'riq, mudroq bosish, ataksiya) bo'lsa, dorini dozasi kamaytiriladi yoki vaqtincha ichishga ruxsat berilmaydi. Bulardan tashqari FiBS, aloe, giyohvand bo'lмаган analgetiklar butadion, aspirin, fenatsetin berish, B guruhli vitaminlar, nikotin va askorbin kislotasi beriladi. Og'riq qoldirish uchun 5–10 % anestezinli surtma surtish, xuruj paytida og'riydigan joyga issiq qo'yish, UFO, UVCH, ultratovush yaxshi natija beradi. Og'riq biroz pasaygandan so'ng og'riq nuqtalariga kalsiy xlor yoki novokain bilan elektroforez tavsiya etiladi. Kasallikning tiklanish davrida balchiq, parafin, ozokerit mahalliy qo'llaniladi. Refleksoterapiya yaxshi natija beradi.

### **Ensa nervining nevralgiyasi**

**Sabablari.** Turli xil o'tkir va surunkali kasalliklar, sovuq qotish, shamollahlar muhim ahamiyatga ega.

**Klinik manzarasi.** Bemor boshining orga qismidagi og'riqdan shikoyat qiladi. Kasallikning xarakterli belgilari – ensada vaqt-i-vaqt bilan og'riq tutib qolishi, uning bo'yin bilan orqaga o'tib turishidir. Og'riqi kamaytirish uchun bemor boshini majbouran ma'lum bir holatda tutishga harakat qiladi. Paypaslab ko'rulganda so'rg'ichsimon o'simta bilan yuqori bo'yin umurtqasining orasi bezillab turadi. Ba'zan boshning sochli qismi sohasida giperesteziya (ensa sohasidagi terida og'riq va yogimsiz hidlar borligi) seziladi.

**Davosi.** Ichish uchun analgetiklar, B guruhli vitaminlar, ensa sohasiga kалиy yodid bilan elektroforez, refleksoterapiya, ug'lash yaxshi natija beradi.

### **Qovurg'alararo nervlarning nevralgiyasi**

**Sabablari.** Bu xildagi nevralgiyani uzoq vaqt o'tkazilgan infeksiyalar (gripp, bezgak, brusellyoz), umurtqa pog'onasi kasalliklari (qovurg'alar singanda), ko'krak bo'shlig'i kasalliklari (plevra, o'pka kasalliklarida) chiqaradi.

**Klinik manzarasi.** Qovurg'alararo nervlar yo'li bo'ylab doimiy yoki xurujsimon og'riqlar paydo bo'ladi. Bu og'riqlar bemor chugur nafas olganda, yo'talganda, aksirganda, harakat qilganda zo'rayadi. Tegishli qovurg'a orasi paypaslab ko'rulganda og'riq kuchayadi, giperesteziya shu teri sohasida kuzatiladi.

**Davosi.** Og'riq xurujlarida analgetiklar va asosiy kasalliklarga davo o'tkazish tavsiya etiladi.

## **Periferik asab tizimi kasalliklarini davolash**

1. Og'riq qoldiruvchi va yallig'lanishga qarshi dorilar: analgin 50 % 2,0 ml kuniga bir marta besh kungacha, agar og'riq juda qattiq bo'lsa, baralgin 5,0 ml mushak orasiga, har kuni 1 martadan 5-10 kungacha, diklofenak 3,0 ml, reopirin 5,0, tramal 1,0 ml har kuni 1 mahal mushak orasiga beriladi. Valtaren 0,025 tab, indometatsin, sedalgin ibobrufen, brufen 1 tabletkasigan 3 mahal ichiriladi. Mushak – tonik og'riq alomatlarida nimesil, sirdalud va midokalm buyuriladi.

2. To'qimalardagi shishlarga qarshi dorilar: bu dorilar kasallikning 1-kunidan boshlab, qattiq og'riq xurujlarida beriladi. Furosemid 40 mg ertalab 1 mahal, laziks 2,0 ml mushak orasiga, diakarb 0,25 g ertalab 1 marta 3 kun beriladi, 3 kun tanaffus keyin yana 3 kun ichiriladi.

3. Psixotrop dorilar qattiq qo'rqish, vahimlar paydo bo'lganda beriladi. Eglonil 200 mg dan, ksanaks 0,25 mg, magne – B<sub>6</sub> ichishga tavsiya etiladi. Glitsin 1 tabletkadan til ostiga 2-3 mahal, novopassit 1 tabl. 3 mahal ichishga, amitriptillin, fenazepam 1 tab. 2 mahal ichishga, sonapaks 1 tab dan ertalab, kechqurun 10 kun ichiriladi. Uyqusizlikda ivadal 10 mg dan kechasi uyquga ketishdan oldin beriladi. Galoperidol 0,5 mg dan 2 mahal 15 kun, aminazin 2,5 % 2,0 ml mushak orasiga har kuni yoki tabletkasidan 1 tadan 2 mahal ichib turiladi.

4. Qattiq og'riq vaqtida novokainli blokada qilish tavsiya etiladi. Bunda og'riqan joyga nerv ustuni bo'ylab novokainni teri orasiga limon po'stlog'i hosil bo'lgunicha 5 martagacha har kuni 1 martadan qilinadi.

5. Fizioterapiya usullari: birinchi kunlari qattiq og'riq bo'lgarda, solluks, kvars nurlari, og'riq sal pasayganidan keyin UVCH, diodinamik tok qo'yish, novokain, kaliy yoddid, prozerin bilan elektroforez 10 kungacha, parafin, ozokerit tavsiya etiladi.

6. Og'riq va yallig'lanish biroz pasaygandan keyin, vitaminlar B<sub>1</sub> – 6 % 2,0 ml, B<sub>6</sub> 5 % 2,0 ml, B<sub>12</sub> 200 – 500 g, askorbin kilotasi 5 % 3,0 ml dan mushak orasiga qilinadi.

7. Agar mushaklarda atrofiya, gipotoniya bo'lsa, galantamin 1,0 ml, prozerin 0,05 % 1,0 ml, ertalab, ATF 1 % 1,0 ml qo'llaniladi.

8. Kasallikning o'tkir davri o'tgandan keyin aloe 2,0 ml, gumizol 2,0 ml, FiBS 2,0 ml, shishasimon tana 2,0 ml dan mushak orasiga qilinadi. Ugalash, shifobaxsh badantarbiya mashqlari ham buyuriladi.

9. Kasallik surunkali turga o'tgandan keyin, undan 6 oy va 1 yildan keyin shifobaxsh oromgohlarga yuborish tavsiya etiladi.

10. Uch shoxli nervning nevralgiyasida tegretol yoki finlepsin 0,2 g sxema bilan beriladi. 1-kuni 2 ta, 2-kuni 3 ta, 3-kuni 4 ta, 4-kuni 5 ta, 5-kuni 6 ta, 6-kuni 5 ta, 7-kuni 4 ta, 8-kuni 3 ta, 9-kuni 2 ta, 10-kuni 1 ta tabletka beriladi.

## **Polinevritlar**

**Polinevrit** – bu qo'l va oyoqlardagi ko'p nerv tolalarining simmetrik holda zararlanishi. Polinevrit alomatlari bemon qo'l va oyoqlarining distal qismida kuchsizlik, periferik asab xilidagi falajlik bilan og'riq, qo'llarda «qo'lqopsimon», oyoqlarda esa «paypoqsimon» sezgining kamayishi yoki yo'qolishi kuzatiladi. Nerv ustunlari va shu joydagi mushaklar bosib ko'rildi. Zararlangan sohada ko'p terlash, qo'l va oyoq panjasida teri va timoqlarning trofik buzilishlari kuzatiladi. Qo'l va oyoq mushaklari zaiflashib, ularning barmoqlarida harakat yo'qoladi, harakat yo'qolgan mushaklarda esa atrofiya boshlanadi. Bu mushaklarda elektr o'tkazuvchanlik buziladi. Pay va periostal reflekslar susayadi yoki yo'qoladi. Polinevritlarda mushaklar falajlanadi, harakat va sezuvchanlik buzilishlari simmetrik holda bo'ladi. Periferik nerv oxirlari bilan birga orga nerv ildizlari ham zararlanasa, unda *poliradikulonevrit* deb ataladi.

**Sababliari.** Polinevritlar, asosan, alkogol, simob, qo'rg'oshin, mishyak, ba'zi antibiotiklar, sulfanilamidlar, meprobamat, izoniazid bilan uzoq vaqt davolanishdan keyin ham kelib chiqadi. Turli virusli va bakteriyali kasalliliklar, ichki kasalliliklar (jigar, buyrak, oshgozon osti bezi), ichki sekretsiya bezlari kasalliklari (diabet, gipotireoz) dan hamda ba'zi zardob va vaksinalar yuborilgandan keyin ham paydo bo'ladi.

## **Difteriya polinevriti**

Difteriyaning o'tkir belgilaridan 2–3 haftadan keyin asab tizimida zararlanish belgilari namoyon bo'ladi. Difteriyadagi polinevritda periferik asab tolalarining zararlanishi chegaralangan mononevrit yoki tarqalgan polinevritlar kabi kechadi. Polinevritning rivojlanishida difteriya kasalligidan yaxshi davolarnagan yoki juda og'ir turi sabab bo'ladi. Difteriyadagi polinevrida periferik asab tolalarining zararlanishi bilan birga kalla bosh miya nervlari (III–IV–VII–X juftlar) ham zararlanadi. Bemor dimog'i bilan manqalanib gapiradi, yutinishi buziladi, suyuq ovqat burundan qaytib tushadi. Bemor yaqindan yomon ko'radi, ko'rishi xiralashadi, pay va Axill reflekslari susayadi, ataksiya, qo'l va oyoq panjalarida paresteziya, kuchsiz og'riq, sezgining kamayishi (og'riq, harorat, taktil hamda bo'g'im – mushak sezgisining gipesteziyasi) distal qismlarda bo'ladi. Sayyor nervni ikki tomonlama zararlanasa, afoniya, nafas olish o'zgaradi, yurakda o'zgarishlar, taxikardiya yuzaga keladi. Natijada, yutinishi buzilib og'ir aspiratsiyali zotiljanga olib keladi.

**Davosi.** Difteriya polinevritda birinchi belgilari boshlangandan difteriyaga qarshi antitoksin zardobidan 15000 TB dan 25000 TB gacha Bezredko usuli bo'yicha mushak orasiga yuboriladi. Zardob yuborishdan 0,1 ml zardob teri orasiga yuboriladi. 30 daqiqadan keyin yana 0,2 ml, qolgan dozani 1 soatdan keyin yuboriladi. Kasallik qaytish davrida esa organizmning umumiy

guvvatini oshirish maqsadida guruhi vitaminlar B, ATF, kokarboksilaza beriladi. Asab-mushak o'tkazuvchanligini yaxshilash maqsadida galantamin, prozerin, oksazil beriladi. Bulardan tashqari fizioterapiya muolajalari, uqalash, falajlangan mushaklarga parafin va balchiq hamda shifobaxsh badantarbiya mashqlari tavsiya etiladi.

**Parvarish qilish.** Difteriya polinevritida yutinish buzilganligi sababli bemor o'z vaqtida ovqatlana olmaydi. Buning uchun bemorni ovqatlanayotganda suyuq ovqatlar nafas yo'llariga o'tib ketmasligini ta'minlash, agar yutinishing iloji bo'lmasa, bemorni zond orgali ovqatlantirish talab etiladi.

### **Alkogol polinevriti**

**Sabablari.** Surunkali ichkilik ichish ta'siridan organizmning zaharlanib borishi natijasida bu kasallik avj ola boshlaydi. Alkogol polinevritni rivojlanishida vitamin B<sub>1</sub> almashinuvining buzilishi ham katta ahamiyatga ega.

**Klinik manzarasi.** Bemorlar kechayu kunduz qattiq chidamsiz og'riqdan shikoyat qiladilar. Kasallik asta-sekin avj olib, avval bemorning oyoqlari tez charchab qoladi. Boldir suyaklari og'rib, oyoq barmoqlari tortishib turadi. Bu og'riqlar nerv ustunlar bosib ko'rilmaga zo'rayadi. Qo'l-oyoqlarning distal qismlarida – parezlar boshlanadi. Pay va perioral reflekslar oshgan, mushaklar tonusi pasaygan, mushak-bo'g'im sezgisi pasaygan yoki yo'qolgan bo'ladi. Sezgi sohasida qo'l va oyoqing distal qismlarida qo'llarda «go'lqopsimon», oyoqlarda esa «paypoqsimon» sezgi kamayadi. Shu joylarda vegetativ o'zgarishlar (qo'l va oyoq terisi rangi va harorating me'yori buzilgan, ko'p terlash, shish) bo'ladi.

**Davosi.** Alkogol ichimlik ichishni to'xtatish lozim. Bemorni tinch joyga yotqizib, organizmni zaharli moddalardan tozalash kerak. Buning uchun gemodez, reopoliglukin, 0,9 % natriy xlor, 5 % glukoza, Ringer eritmasi va boshqa suyuqliklardan tomir ichiga quyish: dimedrol, tavegil, suprastin, pipolfen, diazolin; B guruh vitaminlar, og'riqga qarshi dorilar, nikotin va askorbin kislotasi, kasallikning tuzalish davrida fizioterapiya muolajalari tavsiya etiladi.

### **Diabet polinevriti**

Diabet polinevropatiyasida asab tolalarining yallig'lanishi bo'lmaydi, balki zaharlanish hollari yuz beradi. Shuning uchun polinevropatiya deb ataladi.

**Sabablari.** Polinevritning bu turi qandli diabet bilan og'riqan bemorlarda uchraydi. Polinevrit qand kasalligi boshlangandan so'ng bir necha yil o'tgach yuzaga chiqishi mumkin. Polinevrit alomati qand kasalligi bilan og'riqan bemorlarning deyarli yarmida kuzatiladi. Kasallik rivojlanishida moddalar almashinuvining buzilishi tufayli asab tolalaridagi degenerativ va metabolik o'zgarishlar muhim o'rinn tutadi.

**Klinik manzarasi.** Ba'zi bemorlar oyoqlarining uvishishidan, bijirlashi-dan shikoyat qiladi, lekin parez-paralichlar bo'lmaydi, sezgi buzilgan bo'ladi, reflekslar chaqirilmaydi. Bu bemorlarda hamma vaqt ko'z nervining zararlanish belgilari kuzatiladi. Polinevritning klinik kechishiga qarab, ularning bir necha turlari tafovut qilinadi. Kasallikning birinchi turida vibratsiya sezgisi va Axill refleksi yo'qoladi. Bu hol ko'p yillar davom etishi mumkin. Ko'pincha son, quymich, tirsak, oraliq nervlari, bosh miya nervlaridan III-V juft kbm nervlari yallig'lanadi. Shu nervlar ta'minlay-digan mushaklarda qattiq og'riq paydo bo'ladi va shu sohalarda sezuv-chanlik yo'qolib, falajlik yuz beradi. Boshqa turida esa oyoq-qp' llardagi juda ko'p nervlar yallig'lanishi tufayli falajlik paydo bo'lib, shu sohalarda sezgi yo'qoladi. Og'riqlar issiq va sovuq ta'sirida avj oladi. Ko'pincha vegetativ asab buzilishi tufayli bemor terisining ayrim sohalari qora rangga kirib, shu yerlarda chidab bo'lmaydigan og'riq paydo bo'ladi. Juda ko'p hollarda shu schalar qattiq qichishadi.

**Davosi.** Polinevritning bu turida diabetni davolash bilan birga organizmning umumiy quvvatini oshiradigan dorilar buyuriladi. Bu dorilardan berlitton – 300 kuniga 600 mg dan 4 oy davomida ichiriladi, instenon, eufillin, etamivin, geksobendin tavsiya etiladi.

#### **Poliradikulonevropatiya (Giyen-Barre alomati)**

Bu kasallik fransuz nevropatologlari Giyen va Barre tomonidan 1916-yili bayon etilgan. Kasallikni keltirib chiqaradigan viruslar shu davrga qadar hali to'liq aniqlanmagan. Kasallik juda ko'p hollarda o'tkir yuqumli jarayondan so'ng rivojlanadi. Shuning uchun kasalliklarni filtrlanuvchi viruslar paydo qiladi, degan taxminlar bor, ammo shu kunga qadar bu virus ajratib olimmagani tufayli juda ko'p tadqiqotchilar kasallikning rivojlanishida allergyaning o'mi bor degan fikri o'rta ga tashlamodalar.

**Klinik manzarasi.** Kasallik o'tkir boshlanadi, lekin harorat ko'pincha ko'tarilmaydi. Kasallik damron qurishi kabi umumiy holsizlanish bilan boshlanib, tana harorati subfebril ko'tariladi, qo'l va oyoqlarda og'riq paydo bo'ladi. Qisqa vaqt sezgi sohasida o'zgarishlar: paresteziya, giperesteziya, qo'l va oyoqlarning distal (pastki) qismida og'riq, uvishish bilan birga qo'l-oyoqlarda toliqish, kuchsizlik bo'lib, parezlarga o'tadi. Ko'pincha parezlar tananing bir tomonidan boshlanib, ikkinchi tomoniga ham targaladi. Keyinchalik qo'l-oyoqlardagi periostal va pay reflekslari susayadi yoki yo'qoladi, mushaklarda esa atrofiya boshlanadi. Parez va paralichlar asta-sekinlik bilan kuchayib boradi. Asab yo'li ustunlarida, ildizlarda og'riq kechasi kuchayadi, palpatsiya qilib ko'rilmarda og'riq asab ustunlarida bo'lib turadi. Sezgi buzilishlari (paresteziya, giperesteziya, anesteziya) qo'l va oyoqlarning pastki qismida – qo'llarda «qo'lqopsimon», oyoqlarda «paypogsimon» sezgi buzilishlari bo'ladi. Og'ir holatlarda chugur sezgi buzilishlari ham kuzatiladi. Ba'zan uvishish og'iz atroflari va tilni ham

gamrab olishi mumkin. Yuz mushaklarining bo'shashishi va boshqa miya nervlari faoliyatining buzilishi kabi holatlarda paydo bo'ladi. Bulbar nervlar faoliyatining buzilishi bemorni o'limga olib kelishi mumkin. Harakat buzilishlari avval oyoq mushaklarida paydo bo'ladi, keyinchalik qo'l mushaklariga ham tarqaladi. Ba'zan faqat proksimal bo'lim mushaklari falajlanishi tufayli kasallikning klinik manzarasi miqpatiyani eslatadi.

Vegetativ buzilishlar paydo bo'ladi: bular oyoq va qo'llarning distal bo'limlarida sovuq gotish, qaltirash, ko'karish, haddan tashqari terlash, timoqlar mo'rt bo'lib qolishidir. Qonda leykotsitoz, ECHT (eritrotsitlaming cho'kish tezligi) oshgan bo'ladi. Orqa miya suyuqligida ogsil-hujayra dissotsiatsiyasi (bunda ogsillar soni sitozlar soniga nisbatan bir necha marta oshgan) bo'ladi.

Kasallik ikki – to'rt hafta mobaynida rivojlanadi va sog'ayish davrida buzilgan faoliyatlar asli holiga qayta boshlaydi. Kasallikning o'tkir turidan tashgari yarim o'tkir va surunkali turi ham farqlanadi. Kasallikka o'z vaqtida davo qilinsa, bemor butunlay sog'ayib ketadi.

**Ko'tarilib boruvchi Landri falaji.** Kasallik o'ta o'tkir, tana haroratining yugori ko'tarilishi bilan boshlanib, qo'l-oyoglarda og'riq paydo bo'ladi. Avval oyoqlarda falajlik boshlanib, keyin birdan qo'llarga o'tadi. Falajlik qo'l va oyoqlarda periferik asab xilida bo'ladi va soat sayin pastdan yuqorida ko'tarilib boradi. Tetraplegiya, nutq buzilishlari bilan birga yutinish, nafas va yurak faoliyatida buzilishlar kuzatildi. Natijada, bulbar falaji boshlanib, kasallik 2–3 kun ichida kuchayib boradi va bemorni o'limga olib keladi.

**Davosi.** Benorlami albatta shifoxonalarda, o'rinda yotish tartibiga rioya qilgan holda davolash lozim. Kasallikning o'tkir davrida penitsillin 1 ml n TB dan har 6 soatda mushak orasiga yoki seporin 500 ming TB dan kuniga 4–6 marta qilish lozim. Kasallikning birinchi kunidan boshlab prednizolon bir kunda 60 yoki 100 mg gacha, ichiladi yoki tomir orasiga yuboriladi, keyinchalik dozani klinik belgilar o'zgarishiga qarab 1–1,5 oygacha davom ettirish kerak. Gidrokortizon 1,0 ml dan 2–3 marta kuniga, 4–5 kun berilib, keyin dozani pasaytirish lozim. Gormonlami kunning birinchi yar-mida berish kerak. Urotropin 40 % 5–7 ml 40 % glukoza bilan tomir ichiga yuboriladi, glitseram 0,005 g kuniga 2–4 mahal, ovqatdan 30 daqiqa oldin 1 oygacha ichiriladi. Antigistamin dorilar (dimebrof, suprastin, diazolin, tavegil), analgin 2,0 ml dan kechasi beriladi; diakarb, furasemid 1 ta tab. dan ertalab, gipotiazid 100 mg 2–3 kun yoki laziks 2,0 ml dan mushak orasiga; ruhiy bezovtalikda aminazin 2,5 % 1,0 ml, seduksen 2,0 ml, tizersin yoki pipolfen mushak orasiga qilinadi; immunomodulin 1,5 mkg/kg har kuni 7–10 kungacha, gammaglobulin 1,5 ml m/o 2–3 kun, askarutin, kalsiy dorilari, B guruh vitaminlar, askorbin kislotosi, kokar-boksilaza buyuriladi. Vegetativ-trofik o'zgarishlarda ATF, glutamin kislota 0,5 g 3 mahal, retabolil 1,0 ml haftada bir marta, og'riq bo'lgan hollarda analgin 50 % 2,0 ml, dimebrof 1 % 1,0 ml, reopirin 5,0 ml, ortofen, diklofenak 3,0 ml mushak orasiga qilinadi. Kasallikda, asosan, asab-mushak

o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun prozerin 0,005 % 1,0 ml yoki galantamin 0,5 % 1,0 ml dan m/o buyuriladi. Tiklanish davrida dibazol 0,005 g, oksazil, sermion, trental, nikotin kislotasi, aloe, vitaminlar, pantokrin, jenshen, elektrofarez, 4 % mumyo, parafin, ozokerit, ugalash, ignaterapiya, badantarbiya mashqlari tavsiya etiladi.

### **Toksik polinevritlar**

**Sabablari.** Toksik polinevritlar qo'rg'oshin ishlatiladigan kimyo korxonalarida, tarkibiga qo'rg'oshin qo'shiladigan dori-damonlar ishlab chigaradigan korxonalarda, laboratoriya da bevosita qo'rg'oshin bilan mulogotda bo'ladigan kishilarda uchraydi.

**Klinik manzarasi.** Qo'rg'oshin bilan o'tkir zaharlangan odamning ko'ngli ayniydi, ichi ketadi, boshi og'riydi, qornida qattiq og'riq turadi. Ko'p o'tmay teriga toshma toshadi, qoramtilor dog' paydo bo'ladi, teri po'st tashlaydi, timoglар noto'g'ri o'sadi, tish va timoglarda o'ziga xos ko'ndalang oq yo'llar (Miyesa ko'ndalang yo'llari), qontamirlarda trofik o'zgarishlar paydo bo'ladi. Qattiq og'riq tufayli bemor qo'l-oyoqlarini majburiy holda o'ziga tortib yotadi. Qo'rg'oshin bilan surunkali zaharlanish oqibatida umumiyoq darmonsizlik, ishtahaning yo'qolishi, qorin dam bo'lishi kabi belgilar paydo bo'ladi. Keyinchalik oyoq panjalarida noxush sezgilar yuzaga kelib, qattiq og'riydi. Oq'ir hollarda esa qo'l-oyoq uchlari quvvatsizlanib, harakat faoliyati buziladi. Kasallik sununkali kechadi, oyilar, hatto yillarga ham cho'zilishi mumkin.

**Davosi.** Birinchi bo'lib zaharlanish manbaini yo'qotish kerak. Oq'ir hollarda bemorga bir kunda 150 mg dan penitsillinamin buyuriladi. Penitsillinaminning dozasi asta-sekin ko'paytirib boriladi (5-7 kun mobaynida 750 mg gacha yetkaziladi). Bir hafta davo kursidan keyin dam olinadi.

### **Nazorat savollari**

1. Orqa miya ko'krak qismining ko'ndalang kesimi yarmida klinik belgilar o'tkir boshlansa, siz nima haqida o'ylaysiz?
2. Polinevritlami keltirib chigaruuchi sabablardan qaysilarni bilasiz?
3. Polinevritlarning nevralgiyalardan farg'ini aytинг.
4. Bilak va tirsak nevritlari bir-biridan qanday farqlanadi?
5. Laseg va Dejerin belgilari qaysi kasallarda ko'rildi?
6. Bemorning yuz nervi nevritida klinik belgilar va davolash choralarini aytинг.

### **Markaziy asab tizimining yuqumli kasalliklari. Meningitlar**

**Meningit** – bosh va orqa miya yumshoq pardalarining o'tkir yallig'lanshi. Meningitlar, asosan, yuqumli kasalliklar qatoriga kiradi. Chaqirilishiga

qarab birlamchi va ikkilamchi meningitlarga bo'linadi. Birlamchi meningit kasalligini to'g'ridan-to'g'ri pnevmokokklar, meningokokklar, stafilakokk va viruslardan keyin kelib chiqadi. Ikkilamchi meningitlar esa ba'zi kasalliklardan keyin qulqoq, burun-halqunning yiringli kasalliklari, tif, zaxm, silkasalliklarining asorati sifatida paydo bo'ladi. Yallig'lanish jarayoniga va orqa miya suyuqligining tarkibiga qarab yiringli va seroz meningitlarga bo'linadi.

Hamma meningitlarda quyidagi meningial belgilar kuzatiladi: 1. Bosh og'riq – bu miya pardalaridagi sezuvchi retseptorlarning ta'sirlanishidan kelib chiqadi. Bosh og'riq hamma vaqt boshning barcha tomonida, ko'proq ensa va peshona qismida bo'ladi. Bosh og'riq V-X juft km nervlarining toksik yoki mexanik ta'sirlanishi (bosh miya bosimining oshishi) dan keyin paydo bo'ladi. 2. Qusish – markaziy xarakterga ega bo'lib qusish ovqat yeyishga bog'liq bo'maydi. 3. Giperesteziya – bemorlar yong'likni, tovushni, shovqinni juda yomon his qiladi. 4. Ensa mushagining tarangligi – bo'yin mushaklarining tarang tortilib qolishi. Bu narsa orqa miya ildizlarining ta'sirlanishi natijasida kelib chiqadi. 5. Kernig va Brudzinskiy (yugori, o'rta, pastki) belgilari. 6. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda katta ligildoq tarangligi. 7. Lessaj (osiltirish) belgisi – bolani qo'ltig'idan ko'targanda oyoqlarini bukib tizzasini qorniga tekkizadi. 8. Uch oyoq belgisi – bemor qo'lini orgasiga qilib o'tirgan vaqtida oyoqlarini tizzasidan bukib oladi (20-rasm).

### **Yiringli meningit**

Qo'zg'atuvchilar meningakokk, pnevmakokk, stafilakokk, streptakokk, salmonellalar, ichak tayochalaridir. Bolalarda ko'proq uchraydi, sababi gematoensefal barer to'liq yetilmagan bo'ladi. Bu meningitlarning qo'zg'atuvchilar yugori nafas yo'llari orgali organizmga kirib, u yerda ko'payadi va yugori nafas yo'llarining yallig'lanish belgilarini namoyon qiladi. Keyinchalik limfa tugunlarida ko'payib, qon orgali bosh miya pardalariga boradi. Meningit boshqa surunkali kasalliklar (otit, zotiljam, abscess, sepsis) dan keyin ham paydo bo'ladi. Kasallikning yashirin davri 3–5 kun davom etadi.

**Klinik manzarasi.** Kasallik to'satdan, o'tkir boshlanib tana haroratini 39 – 40°C gacha ko'tarilishi, qusish, titrash, yosh bolalarda sababsiz bagirib yig'lash paydo bo'ladi, katta yoshdagilar kuchli bosh og'riqdan shikoyat qiladilar. Bemorning hushi karaxt, ruhiy bezovtalik, alahsirash va og'ir hollarda hushning yo'polish holatlari bo'ladi. Agar yallig'lanish miyaning tepa qismida (konveksital) bo'lsa, qaltirash belgilari meningial belgilarni bilan kechadi. Qaltirash belgilari ko'proq yosh bolalarda uchraydi. Kasallikning 2–3 kunidan boshlab meningial belgilarni paydo bo'ladi (ensa mushagi tarangligi, Kernig, Brudzinskiy belgilari). Bemor boshni orqaga tashlab, oyoqlarini qorin bo'shlig'iga yaqinlashtirib yotadi. Yosh bolalarda katta ligildoq taranglashgan bo'ladi. Giperesteziya, pay reflekslari oshgan, III–IV–VII–VIII–XII juft kalla bosh miya nervlarining zararlanishi kuzatiladi.

Agar yallig'lanish miyaning asosida bo'lsa, unda bemonlarda g'ilaylik, ko'zga narsalaming, ikkita bo'lib ko'rinishi, yugori qovoqning osilib qolishi, yuz mushaklarida asimetriya kuzatiladi. Bu mahalliy miya belgilari fagaqt miya shishgan vaqtarda paydo bo'ladi. Bemorning rangi ogargan, og'iz atrofi ko'kangan, nafas olishi va tomir urishi tezlashgan, qon bosimi biroz ko'tarilgan, ishtahasi yo'qolgan bo'ladi. Ba'zi bemonlarning oshgozon-ichak yo'llarida buzilish bo'lib, jigar va taloq kattalashadi, siyidikda ogsil va silindrlar ko'p midorda ajralib chiqadi.

Yosh bolalarda sababsiz bezovtalik, qichqirib yig'lash, tana haroratini ko'tarilishi, ich qotish meningitning asosiy belgilari hisoblanadi. Qon tarkibida leykotsitoz neytrofillar hisobiga ko'paygan, ECHT tezlashgan bo'ladi. Orqa miya suyuqligida bosim oshgan, rangi loyqa, sariq-ko'k rangda, ogsil 0,66 dan 6 g/l gacha va undan ham yugori bo'ladi. Pandi, Nonne-Apelt reaksiyasi musbat, sitoz 1000–10000 gacha  $1\text{ mm}^3$ , shundan neytrofillar 80–100 % ni tashkil etadi.

**Davosi.** Bemorni tezda shifoxonaga yotqizib davolash zarur. Birinchi kundan boshlab penitsillinni bolalarga 400–500 tb/kg har 3–4 soatda mushak orasiga, kattalarga 18–24 mln tb dan kuniga har 4 soatda mushak orasiga, 5–7 kungacha qilinadi. Levomitsitin suksinat 100 mg/kg kuniga 4 mahal 7–10 kun, seporin 1 g dan har 6 soatda mushak orasiga qilinadi. Sulfamonometoksin birinchi kuni 2 ta tabletkadan 2 mahal, ikkinchi kundan boshlab 2 ta tabletkadan 1 mahal 5–9 kungacha beriladi. Bosh miyadagi shishlarni olish uchun mannit, plazma, laziks, furatsemid, magneziy sulfat, diakarb, gidrokortizon 7–12 mg/kg, tutqanoqqa qarshi fenobarbital, benzonal, geksamedin, difenin, depakin, finlepsin buyuriladi. Toksikozga qarshi natriy xlor 0,9 %, glukoza 5–10 %, gemodez, reopoligukin, kokarboksilaza, kavinton 0,5 mg/kg t/i har kuni 10 kungacha, solkoserial, aminazin, gammaglobulin va burun orgali kislrorod berib turish zarur.

**Parvarishqilish.** Qat'iy to'shk tartibi, tez-tez yengil ovqatlantirib turish, meningitlarda bosh miyada gipertensiya belgilari bo'ladi. Bunda bemon shovqin, yorug'likni yoqtimaydi. Shuning uchun bemonlarni alohida tinch, unchalik yorug' bo'limgan xonaga yotqizish, xona havosini toza havo bilan ta'minlash, yumshoq yostiq bo'lishi, ko'rpa-to'shaklari ozoda bo'lishi kerak.

### Sil meningiti

**Sil meningiti** barcha yoshda, ko'proq bolalar va o'smirlarda uchraydi. Kasallikning paydo bo'lishidan oldin boshqa a'zolarda sil jarayoni (o'pka sili, bronxial bezlar yoki boshqa a'zolar sili) bilan og'rib o'tgan bo'lislari kerak.

**Klinik manzarasi.** Sil meningiti ko'pincha asta-sekin avj olib boradi. Kasallikning dastlabki belgilari o'tkinchi bosh og'riq, umumiy holsizlik, lanjlik, damonsizlik, tajanglik, ishtaha yo'qolishi, o'qish saviyasining

yomonlashishi, doimiy bo'lmagan tana haroratning  $37,2 - 37,8^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tarilishi. Keyinchalik bosh og'riq kuchayib boradi. Uyqu buzilishi, nafas tutilishi, yorug'likdan qo'rqish, kichik yoshdagi bolalarda ich ketish va behushlik, yugori tana harorati, teri rangi oqarib, bemorning ko'ngli aynib, qayt qilib turishidir, katta yoshdagilarda toliqish, ish qobiliyatining keskin kamayishi yoki yo'qolishi, asabiyashish, tajanglik kuzatiladi. Mana shu alomatlarning hammasi 1-2 hafta davom etib, keyin meningial belgilar kuchayib boradi. Bunda bemorlarda umumiyl lohaslik belgilari kuchayadi, ozish, doimiy yugori bo'lgan tana harorati, parishonlik yoki hushsizlik, anglash va so'zlash qobiliyatining buzilishi, uyqularlik, savollarga xohishsiz javob qaytarish, kuchaygan davomli bosh og'riq, sababsiz ko'ngil aynish yoki quisish, alahsirash, tirishish, umumiyl og'rioni sezish va turli xildagi gallutsinatsiyalar kuzatiladi. Bemomi tekshirganda meningial belgilar: ensa mushagini tarangligi, Kernig va Brudzinskiy belgilari, pay reflekslarining kuchayishi yoki yo'qolishi, Babinskiy, Oppengeym, Gordon, Rossolimo patologik reflekslarining borligi, miya asosidan chiquvchi 12 juft kbm nervlarida o'zgarishlar kuzatiladi. II juft ko'ruv kbm nervi zararlanganda ko'rishni pasayishi, ko'z tubida o'zgarishlar kuzatiladi; III juft ko'zni harakatlantiruvchi kbm nervi zararlanganda yugori qovoqning osilib qolishi, tashqariga qarab qolgan g'ilaylik, ko'z qorachig'inining kengayishi, ko'z olmasining o'ynoqligi va narsalarning ikkita bo'lib ko'rinishi; VI juft ko'zni tashqariga harakatlantiruvchi kbm nervi zararlanganda ichkariga qaragan g'ilaylik, doimiy bo'lgan diplopiya; VII juft yuz kbm nervi zararlanganda yuz mushaklarining falaji, og'iz burchagi pastga tushgan, burun-lab burmasi silliqlashgan, peshona burmalari silliqlanishi natijasida ko'z tirqishi bekilmaydi (logoftalm); XII juft til osti kbm nervi zararlanganda til og'iz bo'shilg'idan chiqarilganda zararlangan tomonqa qilyshaygan bo'ladi. Vegetativ o'zgarishlar ham kuzatiladi: yurak urishini sekinlashishi, yuz rangini vagti-vagti bilan qizarishi yoki oqarishi, kech paydo bo'ladigan turg'un qizil, yoyilgan demografizm.

Sil meningiti 3 ta klinik shakldan iborat: 1. Sil meningitining bazillar shaklida meningial belgilar bilan barcha 12 juft kbm nervlarining zararlanish alomatlari kuzatiladi. 2. Meningoensefalit shaklida meningial belgilar bilan bir qatorda bosh miya to'qimasining o'choqli jarohatlanishi (*afaziya* – nutq buzilishi, *afoniya* – ovozning bo'g'ilishi, *afagiya* – ovqatni yuta olmaslik yoki qalqib ketish, qo'l-oyoclarda gemiparez alomatlari kuzatiladi. 3. Serebro-spinal shaklida, miya to'qimasining pardalarining zararlanish belgilar bilan birga orga miya ildizlarida periferik asab falajligi belgilar va chanq a'zolari faoliyatida ham o'zgarishlar kuzatiladi. Sil meningitida orga miya suyuqligini olish uchun maxsus xonada aseptik va antiseptik qoidalarga rioya qilgan holda punksiyani bajarish zarur. Punksiyani bajaruvchi shifokor q'llarini zararsizlantirilgan cho'tka vasov bilan yuvib tozalaydi, so'ngra zararsizlantirilgan salfetka bilan artib quritadi va spirt-yod-spirt bilan tozalaydi, ayniqsa bamogqlarni. Boshini ko'krak

qafasiga va oyoqlarini qorin tarafga eggan, gorizontal holatda yotgan bemorning bel umurtqa sohasini spirt-yod-spirt bilan artiladi. III–IV–V umurtqa pog'onasi oralig'ini (asosan, III–IV) maxsus mandrenli igna bilan punksiya qilinadi (bolalarda oddiy qontomirga dori yuboradigan ignani ishlatish mumkin). Orqa miya suyuqligi 3 ta shisha idishga 3 ml dan kam bo'lмаган мидорда олинади. 1 ва 2 shisha idishlar umumiy tahlil – oqsil, hujayralar, qand, xloridlar miqdorini aniqlash uchun va bakterioskopik tekshirish uchun laboratoriyaга yuboriladi, 3 chi shisha idish esa o'rgim-chak inisimon pardanining hosil bo'lishini kuzatish uchun (12 soat) xonada qoldiriladi. Agarda parda hosil bo'lsa, uni darhol, chayqatmasdan bakterioskopik usul bilan tekshirishga yuboriladi. Bemor punksiyadan keyin 2 soat davomida tepaga qarab yotishi kerak va hech qanday ovqat hamda dori vositalari buyurilmaydi. Orqa miya suyuqligi tiniq, sarg'ish, sal tovlaniб turadigan bo'ladi. Suyuqlik tarkibida oqsil va limfasitlar ko'p miqdorda uchraydi. Orqa miya suyuqligida 24–28 soatdan keyin yupqa parda paydo bo'lib, shu pardadan sil tayoqchalari topilishi mumkin. Mana shu davrda bemorning tana harorati 38–39°C ga ko'tariladi. Es-hushi vaqt-i-vaqti bilan karaxt bo'lib turadi.

**Davosi.** Sil meningiti bo'lган bemorlar darhol shifoxonaga yotqizilishi kerak. Shifoxonada o'rtacha turli xil shakliga qarab 6 oydan 1 yilgacha davolanadilar. Shifoxonada davolanish vaqt-i tugagandan so'ng, bemorlar sil sihatghida to'liq davolanishi davom ettiradilar. Bu joydan davolanib chiqqandan keyin bemorlar yashash joydagi silga qarshi kurashish dispanseri nazoratida kuzatiladi va keyingi o'tkaziladigan davolash, oldini olish choralar olib boriladi. Hamma sog'aytirilib uyga chiqarilgan bemorlar dispanser shifokori tomonidan, kasallikning qaytalanmasligi maqsadida, 5 yildan kam bo'lмаган nazorat kuzatuvida bo'ladi.

Bemorlarga tarkibida oqsillar, yog'lar va vitaminlarga boy bo'lган yugori kaloriyalı oziq-ovqatlar berish kerak. Antibakterial dorilar: rifampitsin (tibinil R) (0,15 g) 3–4 dona kapsulasi katta kishilarga och qoringa 1 mahaldan 3–4 oygacha, streptomitsin 0,5–1,0 g 3–4 oygacha, tubazid (izoniazid) 10 % 5,0 ml dan tomir ichiga, bundan 15 daqiqa oldin vitamin B<sub>6</sub> 5 % 2,0 ml qilish tavsiya etiladi yoki izoniazid 0,6–0,9 g kuniga 1 mahal ichishga beriladi; pirazinamid 0,5 g dan 3 mahal kuniga, ftivazid 1,5–2,0 g, etambutal 0,4 g dan 2 mahal ichishga beriladi; siyidik haydovchi dorilardan magniy sulfat 25 % 7–10 ml 2,0 ml 0,5 % novokain bilan mushak orasiga yuboriladi 10–15 kun, furotsemid yoki laziks, mannit 15 % 200,0 ml tomir ichiga 4–6 kun; tutqanoqqa qarshi dorilar benzonal, fenobarbital buyuriladi. Falaj bo'lган holatlarda dibazol kuniga 0,05 g 3–4 hafta, galantamin 0,5 % 1,0 ml dan 30 kun, prozerin 0,05 % 1,0 ml kuniga 2 marta 20 kun (dibazol va prozerinni bir vaqtning o'zida ishlatish mumkin emas). Og'ir holatlarda antibakterial davoni 3–4 kundan boshlab, yallig'lanishga qarshi prednizolon kattalarga 7,5 mg (1,5 tabl) 2 mahal 7 kun beriladi. Agar og'riq bo'lsa, og'riq qoldiruvchi dorilar – analgin,

baralgin, agar falajlik kuzatilsa, qo'l-oycqqlami fiziologik vaziyatga keltirib, kontrakturalarning oldini olish uchun bo'g'img' larda yumshoq shakldagi yostiqchalar qo'yilishi kerak. Og'riq kamaygandan so'ng yengil ugalash, bu to'qimalarda qon aylanishni yaxshilash, shishlarni kamaytirish va yotoq yaralaming oldini olish uchun tavsiya etiladi.

### **Zaxm meningiti**

**Zaxm kasalligi** bilan og'rib yurgan bemorlarda zaxm meningiti kelib chiqishi mumkin. Kasallik meningial belgilar bilan boshlanadi. Bunda bosh og'riq, bosh aylanish, ko'ngil aynishi, qusish va haroratning ko'tarilish belgilari asta-sekin kuchayib boradi. Zaxm meningitida miya asosining pardasi ko'proq zararlangani uchun II-III-VI juft kbm nervlarining zararlanish belgilari kuzatiladi. Bosh og'riq kechalari bilan zo'rayadi, qo'l-oycqqlari zaiflashib boradi, pay reflekslari o'zgaradi, patologik reflekslari paydo bo'ladi. Tashxis qo'yishda qon va likvor tahlil qilinadi. Vaserman reaksiyasi musbat bo'lsa, tashxis to'g'ri qo'yilgan bo'ladi.

**Davosi.** Zaxmga qarshi dorilar qo'llaniladi.

### **Ensefalit**

**Ensefalit** – bosh miya to'qimalarining o'tkir yallig'lanishi. Ensefalitlar har xil infeksiyalar (virus va mikroblar), ba'zi bir yuqumli kasallikkardan keyin ham kelib chiqadi. Birlanchi ensefalitlarni neyrotrop viruslar keltirib chiqarsa, umumi yuqumli kasalliklar (qizamiq, bezgak, zotiljam) dan keyin bosh miya yallig'lanishi ikkilanchi ensefalit bo'ladi.

### **Epidemik (letargik) ensefalit**

Bu kasallikning **epidemik ensefalit** deb atalishiga sabab, 1917-1928 yillarda u jahoning butun mamlakatlariga epidemiya holida targalgan. Bu ensefalitning letargik yoki uhlatadigan ensefalit deb atalishiga esa kasallikda bemor ko'p uhlaydigan bo'lib qoladi (21-rasm).

**Sabablar.** Epidemik ensefalitni filtrlanuvchi viruslar qo'zg'atadi. Ensefalit o'tkir va surunkali turda kechadi.

**Klinik manzarasi.** Kasallikning yashirin davri 2-14 kungacha, ba'zan bir necha oygacha davom etishi mumkin. Kasallikning o'tkir davrida bemorning tana harorati 38°C gacha ko'tarilib, 15-20 kungacha davom etadi. Bemorning darmoni quriydi, boshi og'riydi, ko'ngli buziladi. Bemor uyquchi bo'lib, kechayu kunduz ko'zini ochmasdan uhlaydi. Ularni ovqat yoki dori berish uchun zo'rg'a uyg'otish mumkin. Bunday hol 2-3 hafta davom etishi mumkin. Keyinchalik esa uyqu kelmaydi, natijada, bemor kechasi uholmasdan, kunduz kunlari uyguga ketadi. Bemorlarni ko'p esnash bezovta qiladi. Ensefalitda aksariyat bemorlarning ko'z olmasini

harakatlantiruvchi va uzoqlashtiruvchi nervlar zararlanadi. Bunda ko'zning yugori, qovoqlarning pastga tushib qolishi, narsalarning ko'zga ikkita bo'lib ko'rinishi, ko'z qorachiqlarning katta-kichik bo'lishi (anizokoriya) kuza tiladi. Ba'zi hollarda vestibulyar belgilar (bosh aylanishi, ko'z oldining gorong'ilashishi, ko'ngil aynishi) hamda vegetativ o'zgarishlar (so'lak oqishi – gipersalivatsiya, bosh, qo'l-oyoq panjalarining me'yordan ortiq terlashi, yog' bezlari faoliyatining kuchayishi) paydo bo'ladi.

Epidemik ensefalitning o'tkir davri 2–4 kundan 4 oygacha davom etadi. Kasallikning ikkinchi davri bir necha oy, hatto yildan keyin avj olib boradi. Kasallikning bu davri surunkali kechadi va parkinsonizm alomatlari paydo bo'ladi. Bunda bemorlar sustkash, kam harakat bo'lib qoladi. Bemorning mimikasi kam ifodali bo'lib qoladi, yuzi qotib qolgandek bo'lib turadi. Bemorning nutqi tushunarsiz, ovozi past chiqadi. Mushaklar tonusi kuchayib, harakatlar esa kamayib boradi. Bemor boshi bilan tanasini oldinga bukkan holda, qo'llarini gavdaga yaqinlashtirib va tirsakdan bukib, mayda qadam tashlab yuradi. Bemorning qo'l barmoqlari, panjasni, boshi o'z-o'zidan qimirlab turadi. Ko'pincha og'izdan so'lak oqib turadi. Parkinsonizm miya qontomirlari aterosklerozi keyin ham kelib chiqadi. Kasallikning bu davrida xotiraning pasayib qolishi va ruhiy o'zgarishlar yuzaga keladi.

**Davosi.** Kasallikning o'tkir davrida bemor o'midan turmay yotishi kerak. 40 % 5,0 ml urotropinni 40 % 15,0 ml glukoza eritmasiga qo'shib, har kuni tomir ichidan yuboriladi. Miya shishlariga qarshi mannitol, furotsemid; antigistamin dorilar (tavegil, suprastin, diazolin, dimedrol) tavsiya etiladi. Antibiotiklar (penitsillin, ampitsillin, oksam, sefamezin, gentamitsin), kasallikning o'tkir davrida prednizolon 1–2 mg/kg dan kuniga bir mahal tomir ichiga yuboriladi. Organizmning umumiyy quvvatini oshiruvchi dorilar vitamin B guruhi, ATF, kokarboksilaza, solkosерil, aktovegin, sermion, kavinton, askorbin kislotasi va suyuqlikni ko'proq ichish tavsiya etiladi. Kasallikning ikkinchi davrida mushaklar tonusi va umumiyy taranglikni kamaytiruvchi dorilardan L – DOFA, artan, nakom, romparkin (0,005 g dan kuniga 3 mahal), siklodol (0,002 g yoki 0,005 g dan kuniga 3 mahal), midokalm (0,05 g 2 tabletkadan kuniga 3–4 mahal) tavsiya etiladi.

### **Kana ensefaliti**

Bu ensefalitni filtrlanuvchi viruslar qo'zg'atadi. Bu virus neyrotrop viruslar guruhiга kirib, bosh miya to'qimalarining o'tkir yallig'lanishi bilan kechadi. Kasallikni asosan kemiruvchi hayvonlar va ba'zi qushlar targatadi. Kasal hayvonlarning qonini so'rib olgan kana odamni chaqqanida unga kasallikni yuqtiradi. Bu kasallik odamga to'g'ridan-to'g'ri yuqmaydi. Kasallikni targatuvchi kana bahor va yoz oylarida zo'r berib ko'payadi, shuning uchun bu fasllarda kasallik ko'p uchraydi. Kana ensefaliti oziq-ovqat mahsulotlaridan ham yugishi mumkin. Shu kasallik bilan og'rigan hayvonlar go'shti yoki suti iste'mol qilinganda yugishi mumkin.

**Klinik manzarasi.** Dastlabki alomatlar kasallik yugandan 3–8 kundan keyin paydo bo'ladi. Kasallik birdan boshlanib, avval bosh og'riq, lanjlik, darmon qurishi, ko'ngil aynish va qayt qilish belgilari namoyon bo'ladi. Keyinchalik tana harorati 38–40°C gacha ko'tarilib, 6–10 kungacha davom etadi. Bemorning yuzi va tomog'i qizarib ketadi. Ba'zan tanasiga toshma toshadi. Yugori nafas yo'llarining yallig'lanishi, ba'zida zotiljam paydo bo'ladi. Meningial belgilar kuzatiladi: ensa mushaklarining taranglashuvi, Kernig belgisi shular jumlasidandir. Odamning es – hushi aynab turadi. Kasallangan joy ko'pincha orqa miya yugori bo'yin segmentlarining oldingi shoxlarida joylashgan bo'ladi, shu munosabat bilan bo'yin mushaklarida ilvillangan, atrofik falajlar boshlanadi – bosh «osilib qoladi». Ilvillangan, atrofik falajlari yelka kamari, qo'l mushaklarida ham paydo bo'lib, ba'zi bosh miya nervlari yadrolarining shikastlanishi bilan birga davom etadi. Kana ensefalit bilan og'rigan bemorning qanday bo'lmasin biror guruh mushaklari doim tortishib turadi.

**Davosi.** Bemorlarni shifoxonaga joylashtirish lozim. Ularga 5–6 kun davomida har kuni: gammaglobulindan 5–10 ml dan mushaklar orasiga yuboriladi. Lozim bo'lsa, yurakni quvvatlaydigan dorilar buyuriladi. Tomir ichiga 20–30 ml dan 40 % glukoza eritmasi yuborib turish buyuriladi. Vitaminlardan B<sub>1</sub>, B<sub>12</sub>, C, AIF, galantamin inyeksiyalari qilinadi. Umuman, quvvatga kirgizadigan davo, yaxshi parvarish qilib borish o'rini. Fizioterapiya vositalaridan kaliy yodid bilan beriladigan ionoforez, diatermiya qo'llaniladi, shifobaxsh badantarbiya bilan shug'ullanish va uqalash buyuriladi.

**Oldini olish choralar.** Kasallikning oldini olish maqsadida eng asosiy choralaridan biri kanalarni qirib yo'gotishdir. Kasallik yuqib qolish xavfi bor joylarda ishlaydigan odamlar badanlarining ochiq joylarini kana chiqishdan saqlashlari kerak.

### **Ikkilamchi ensefalitlar**

Ikkilamchi ensefalitlar gripp, salmonellyoz, dizenteriya, parotit, revmatizm, skarlatina, qizamiq, OITS kabi umumiylu yuqunli kasalliklarning asorati tufayli ro'y beradi. Ba'zan esa AKDS, antirabik vaksinalar qilingandan keyin ham ikkilamchi ensefalitlar kelib chiqadi.

**Vaksina ensefaliti.** Kasallikning birinchi belgilari bola emlangandan keyin 7–12 kun o'tgach paydo bo'ladi. Ikkilamchi ensefalit, asosan, bola birinchi marta emlangandan keyin yoki qayta emlangandan so'ng kelib chiqishi mumkin. Kasallik o'tkir, tana haroratining 39–40°C gacha ko'tarilishi bilan boshlanadi. Bolaning boshi og'riydi, hushdan ketadi, ba'zan shaytonlab qoladi. Ayrim hollarda meningial belgilar ham paydo bo'ladi. Markaziy falajliklar monoplegiya, gemiplegiya, paraplegiyalar sifatida yuzaga keladi. Po'stloq osti tugunlarining yallig'lanishi tufayli bolalarda turli ixtiyorsiz harakatlar va harakat mutanosibligining buzilishi kuzatiladi.

**Davosi.** Bunday kasal bolalar darhol shifoxonaga yotqizilishi kerak. Organizmi desensibilizatsiya qilish uchun dimedrol, pipolfen, suprastin, kalsiy xlor, gormonlar buyuriladi. Miya shishining oldini olish uchun suyuqlik haydovchi va tutganogga qarshi, tana haroratini pasaytiradigan dori-darmonlar tavsija etiladi.

### **Gripp va uning asab tizimini zararlashi**

**Gripp** – o'tkir virusli infeksiya bo'lib, yugori nafas yo'llarining zararlanishi bilan o'tadi. Gripp viruslari, asosan, havo-tomchi yo'llari orgali yugadi. Kasallik gripp bilan og'riqan bemorlar yo'talganda, aksa urganda sog'lom odamlarga o'tadi.

**Klinik manzarasi.** Yashirin davri 1–3 kungacha, ba'zan qisqa vaqt bir necha soat bo'lishi mungkin. Kasallik o'tkir, birdan tananing sovuq qotishi, qo'l va oyoqlarning uvishishi hamda bosh og'riq bilan boshlanadi. Keyinchalik tana harorati birdan 39–40°C gacha ko'tariladi. Bunda bosh og'riq, asosan, peshona va peshona – chekka qismida ko'proq bo'ladi. Butun mushaklar, bo'g'imlar va suyaklarning qoqshab og'rishi, qovoq va ko'z kosasi atrofida og'riq, bosh aylanish, yorug'likka qaray olmaslik, umumi giperesteziya, anoreksiya, qusish va qisqa vaqt hushdan ketish holatlari kuzatiladi. Bunda tashqari, nistagm, bosh va quloglarda shovqin, mushaklar va nerv ustunlari paypaslab ko'rilmaga og'riq, yengil meningial belgilari kuzatiladi. Kasallikning birinchi kunidan boshlab tomoq qurishi, burundan issiq shilimshiq oqishi, quruq yo'tal, teri rangining oqarishi, labning ko'karishi, tomoq yo'llarining qizarishi, bradikardiya belgilari kuzatiladi. Qon tekshirilganda leykopeniya, neytopeniya, ECHT me'yorda bo'ladi.

**Grippdan keyingi meningit.** Bunda qisqa vaqt meningizm belgilari paydo bo'ladi. Bosh miya yumshoq pardalarida shish, qontomirlar to'laqonligi va mahalliy mayda-mayda qon ketishlar kuzatiladi, bular miya to'qimalarini ham egallaydi. Bunda kasallik og'ir o'tadi, bosh og'riq, ko'ngil aynish, qusish, bosh aylanish, yorug'likni yoqtirmaslik, umumi giperesteziya belgilari namoyon bo'ladi. Benormi tekshirganda meningial belgilari (ensa mushaginiq tarangligi, Kernig, Brudzinskiy yugori va pastki) va kalla bosh miya nervlari chiqish joylarida og'riq, ko'z tubi vena qontomirlarida dimlanish, giperemiya yoki so'rg'ichida dimlanish bo'ladi. O'tib ketuvchi ko'z olmasining parezi, nistagm, yuz asimetriyasi (VII juft kkm nervining markaziy falaji), yengil muvozanatning buzilishlari, pay reflekslarining anizorefleksiyasi, tizza va tovon reflekslarining pasayishi, noaniq oyoq panjasining patologik reflekslari uchraydi. Orqa miya suyuqligi tekshirilganda bosimi yugori 250–300 mm suv ustuni, hujayralar, oqsillar, qand, xloridlar soni me'yorda bo'ladi. Uhing yengil va o'rtacha og'ir shakllarida astenik alomatlar bir necha oygacha davom etishi mumkin.

**Grippdan keyingi ensefalit.** Ensefalitning bu turi gripp epidemiyasi vaqtida ko'p uchraydi, asosan, yosh bolalar o'rtasida kuzatiladi. Ensefalit

bilan og'riqan bola aqliy va jismoniy rivojlanishda o'z tengurlaridan orgada qoladi. Grippdan keyingi ensefalit asab tizimining toksik-infektion zararlanishi tufayli sodir bo'ladi, gripp avjiga chiqqanda rivojlanadi. Bunda bemor harorati 39–40°C ga ko'tariladi.

**Klinik manzarasi.** Grippga xos belgilar bilan bir qatorda miya faoliyatiga aloqador boshqa alomatlar yuzaga keladi, bosh og'riyi, bosh aylanadi, ko'ngil ayniydi, es-hush turli darajada buziladi. Ensefalitning bu turida miyaning qaysi bo'limi ko'proq zararlanishiga qarab tegishli belgilar paydo bo'ladi. Miya ustuni zararlanganda bosh miya nervlariga tegishli belgilar, vestibular apparat yallig'langanida bosh miya aylanishi, qusish kabi belgilar kuzatiladi. Ba'zi bemorlarda esa meningial belgilar, parezlar, falajliklar, har xil turdag'i afaziyalar paydo bo'lishi mumkin.

Yengil turida bosh og'riq, bosh aylanish, ko'ngil aynish, ba'zan qusish, mushak va bo'g'imirlarda hamda asab yo'llari bo'ylab og'riq, qo'l-oyoqlarning distal qismalarida uvishish, qisqa vaqt hushdan ketish holatlari yuz beradi. Tekshirganda anizokoriya, nistagr, yuz nervining markaziy falaji, gemigipesteziya yoki giperesteziya, pay reflekslarining anizorefleksiyasi, teri refleksining asimetriyasi yoki yo'qolishi, doimiy bir yoki ikki tomonдан oyoq panjasining patologik reflekslari, orol avtomatizm refleksi va yengil meningial belgilar kuzatiladi.

O'rtacha og'ir shaklida o'qtin-o'qtin bosh og'riq, ko'ngil aynish, qusish, bosh aylanish, qo'l-oyoqlarning uvishishi va sovuq qotishi, ba'zan bosh va quloglarda shovqin paydo bo'lishi kuzatiladi. Bunda bemorlar ko'proq uyquchan yoki qo'zg'aluvchan bo'lishadi. Yengil gemiparez, pay reflekslari osghan, patologik reflekslari va giperkinezlar paydo bo'ladi.

Og'ir shaklida kuchli, ba'zan chidab bo'lmaydigan bosh og'riq, qayta-qayta qusish natijasida, bemor tezda hushdan ketadi va sopor, keyinchalik koma holatiga tushadi. Bunda ruhiy qo'zg'alishlar, tutqanoq xurujlari, gemiparez, gemilegiya, qorin reflekslari yo'qolgan, mushaklar tonusi pasaygan, patologik reflekslari hamda meningial belgilar, og'ir koma holatlarida deserebratsion o'zgarishlar paydo bo'ladi.

**Grippdan keyin meningamiyelopoliradikulitda** ko'proq orga miyaning ko'krak qismi zararlanadi. Bunda miya to'qimalari, qontomir devorlari shishadi, mayda qontomir devorlarida spazm, mayda-mayda qon quyilishlar kuzatiladi. Orga miya zararlanishi natijasida ildizlarga xos bo'lgan belgilar – oyoqlarning tez charchab qolishi, toliqishi, uvishib qolishi yuz beradi. Tekshirganda teri va pay reflekslar pasayib, oyoq panjasida patologik reflekslari paydo bo'ladi. Og'riq ildizlarga xos nerv ustunlari bo'ylab va paravertebral nuqtalarda bo'ladi. Tortilish belgilari ijobjiy bo'lib, meningial belgilar ham kuzatiladi.

**Grippdan keyin periferik asab tizimining zararlanishi.** Bunda ko'proq ko'rav nervi zararlangan bo'ladi: ko'z oldi qorong'ilashadi, xira ko'radi va narsalar ko'zga ikkita bo'lib ko'rindi. Yuz nervi zararlanganda: qulogning orga tomonida kuchli og'riq, tilning oldingi 2/3 qismida ta'm buzilishi,

yuzning bir tomonida mimik mushaklarning zararlanishi kuzatiladi. Uch shoxli anerv nevralgiyasida uning chiqish joylarida og'riq, bu joylardagi nuqtalar bosib ko'rilmaga yuzdag'i og'riq kuchayadi. Og'riq ba'zan xurujsimon, gipesteziya yoki giperesteziya, og'riq asta-sekin kamayib boradi. Ishioradikulopatiya ko'proq 25–45 yoshdagi odamlarda uchraydi. Bunda beldagi og'riq chidamsiz bo'lib, sonning orqa yuzasiga, tizza va oyoq panjasigacha boradi. Harakat og'riq tufayli kamaygan, giperesteziya yoki gi-perpatiya, tizza va Axill reflekslari susaygan. Tananing orqa mushaklarida mushaklarning reflektor ravishda tonusi oshgan, oyoqlarda nerv ustuni bo'ylab og'riq seziladi va vegetativ o'zgarishlar: sovuq qotish, oyoq terisining oqarishi, gipergidroz yoki terining qurishi. Polinevropatiyada paresteziya, qo'l va oyoqlarning distal qismalarida og'riq, keyinchalikerez va mushaklarda atrofiya paydo bo'ladi. Tekshirganda taktil va og'riq gipesteziyasi qo'l-oyoqlarning distal qismalarida, pay reflekslari va mushaklar tonusi pasaygan, yengil vegetativ o'zgarishlar kuzatiladi.

**Grippdan keyingi leptomeningit.** Gripp viruslari bosh miyaning qaysi qismalari zararlanishiga qarab: orqa miya chugurchasi, bazal qismi (optikoxiazmal va miya oyoqchalari) va konveksital qismalarni zararlaydi. Optikoxiazmal leptomeningitda bosh og'riq ko'proq ko'z kosasi va peshona qismalarda, ko'zda ko'rishning kamayishi, gemanopsiya, ko'z oldining qorong'ilashuvi, ko'rav maydonining kamayishi bo'ladi. Tekshirganda ko'z tubida shish, so'rg'ichda giperemiya va dimlanish, mayda-mayda qon quyilishlar kuzatiladi. Orqa miya chugurchasi leptomeningiti surunkali kechadi. Umumiy miya belgilari – bosh og'riq ko'proq ensa sohasida bo'ladi va ko'z kosasi tomon beriluvchan bo'ladi. Bosh og'riq bezvota qilganda bemorda quisish va ko'ngil aynish kuzatiladi.

**Davosi.** Kasallikning o'tkir davrida asosiy kasallikka davo qilinadi. Grippni davolash, asosan, uyd'a o'tkaziladi. Og'ir va asoratli hollarda esa shifoxonaga yotqiziladi. Kasallikning birinchi kunidan boshlab, bemorni alohida xonaga yotqizish shart. Idishlar, sochiq va boshqa narsalari alohida bo'lishi kerak. Benorga sut va ko'proq suyuqliklar ichiriladi. Grippga qarshi remantadin katta kishilarga 1-kuni 300 mg, 2–3 chi kunlari esa 50–100 mg dan 4–5 kun beriladi va antigrippin ichiriladi. Burun bo'shlig'iga 0,25 % oksalin mazi surtish yoki interferon tomizish kerak. Og'ir hollarda gripp yoki qizamiqqa qarshi gammaglobulin 3–5 ml dan qilinadi. Yo'talga qarshi soda bilan tomoq yo'llariga ingalatsiya, pektussin, bromgeksin dorilaridan berish tavsiya etiladi. Agar zotiljam boshlansa, antibiotiklar – oksam, seporin, sefamezin, gentamisin, dezintoksikatsion terapiya-plazma, reopoliglukin, gemodez, 5 % glukoza eritmalaridan tomir ichiga quyiladi. Og'ir hollarda gomonlar buyuriladi.

Grippdan keyin asab tizimida asoratlar bo'lsa, unda penitsillinni 12 mln ED dan kuniga, 40 % 8–10 ml urotropin, birinchi kundan boshlab askorbin kislota, rutin, kalsiy dorilaridan beriladi. Agar grippdan keyin meningoensefalitlarda qon ketish bo'lsa, vikasol 1 % 1,0–2,0 ml, 5 %

100,0 aminokpron kislota, miya shishlarida laziks, manitol, diakarb buyuriladi. Qaltirashga qarshi dorilar seduksen 2,5 % 1,0–2,0 ml dan, fenobarbital, benzanol, finlepsin; kuchli bosh og'riqqa baralgin, analgin, pentalgin; quisishga qarshi platifillin, aminazin; bosh miyada metabolik jarayonlami yaxshilash uchun aminalon, serebrolizin, ensefabol, piratsetam, aktovegin, agapurin, oksibral, glutamin kislota, nimotop 1 ta tabletkadan 2–3 mahal ichishga, vitamin B guruhi, nikotin kislota beriladi. Astenik holatlarda retabolil 5 % 1,0 ml haftada 1 mahal 3–4 marta, ksanaks 0,25 mg, glitsin, fitin, umumiy quvvat va mushaklar tonusini oshiruvchi dorilar qo'llaniladi. Uyqusizlikda valium, elenium, rudentol, trioksazin bilan birga novopassit, glitsin 1 ta tabletkadan 2 mahal beriladi. Serebral leptomeningitta boshlang'ich davrida gormonni qisqa muddatda berish bilan birga antibiotiklar, desensibilizatsiyalovchi dorilar: dimedrol, tavegil, askorbin kislota, kalsiy yallig'lanishga qarshi bioxinol, vitamin B guruhi, nikotin kislota, aloe, FiBS, shishasimon tana, gumizol 1,0 ml, lidaza 64 ED kunaro m/o; gipertenzion-gidrotsefal shaklida magneziy sulfat, 40 % 20,0 ml glukoza askorbin kislota bilan t/i; galantamin 0,5 % 1,0 ml, kokarboksila-za, AIF, elektroforez kalsiy xlor bilan ensa sohasiga, uqplash, shifobaxsh badantarbiya tavsiya etiladi.

**Oldini olish choraları.** Grippga qarshi barcha aholini emlashdan o'tkazish, epidemiya bo'lgan vaqtida burun ichiga 0,25 % oksalin mazidan surtish yoki interferon tonizish, remantadin ichirish kerak. Ish joylarida va ko'chada niqoblar taqib yurish tavsiya etiladi. Barcha aholiga gripp kasalligi xatarli ekanligi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish lozim.

**Qizamiqdan keyingi ensefalit.** Bu kasallik o'tkir boshlanib, infektion-allergik ensefalitlar guruhiga kiradi.

Qizamiqdan keyingi ensefalit o'tkir boshlanadi, ko'proq toshma paydo bo'ladi, kundan keyin 3–5 kun o'tgach rivojlanadi. Ensefalit boshlanishida tana harorati me'yorida bo'lishi, ba'zan bexosdan yupri darajaga ko'tarilib ketishi mumkin. Es-hushi kirarli chiqarli bo'lib qoladi. Bemorda meningial belgilar, har xil parezlar, falajliklar, harakat mutanosibligining buzilishi ixtiyorsiz harakatlar, II–III–VII–juft bosh miya nervlarining zararlanishi kabi belgilar paydo bo'ladi. Ayrim hollarda esa bemorda sezuvchanlik buziladi, chanoq a'zolarining faoliyati buziladi.

**Davosi.** Miya shishining oldini oladigan, tana haroratini pasaytiradi-gan, organizmni desensibilizatsiya qiladigan, tutqanoqqa qarshi dori-darmonlar buyuriladi.

#### **Revmatik ensefalit**

Revmatizm bu infektion-allergik kasallik bo'lib, uning ta'sirida bir qancha ichki a'zolar va asab tizimining zararlanishi kuzatiladi.

**Sababları.** Asosan, betta-gemolitik A-guruhidagi streptokokklar hisoblanadi. Angina va tonsillit bilan kasallanib yurgan bemorlarda kelib chiqadi. Bunda bemorlarning asab va ruhiy tizimida o'zgarishlar bo'ladi. Bosh va orga miya

to'qinalari, po'stloq osti tuzulmalari, pardalari, qontomirlari hamda periferik asab tizimida ham degenerativ yallig' lanishlar kuzatiladi. Asab tizimi yallig' lanishiga qarab: po'stloq osti tugunlari zararlanishi *kichik xoreya* yoki *revmatik ensefalit* deb ataladi. Bularidan tashqari meningit, meningoensefalit, miyelit, nevrit, polinevrit, diensemfalit, leptomeningit, tik va tutqanoq xurujlari ko'rinishida bo'ladi. Shulardan eng ko'p tarqligani *kichik xoreya*dir. Xoreya fanga birinchi bo'lib Parasels toronidan kiritilgan. 1686-yili angliyalik snifokor Sidengam xoreyaning klinik belgilarini aytib o'tgan.

**Klinik manzarasi.** Kichik xoreya 6–15 yoshdagи bolalarda, asosan qiz bolalarda ko'proq uchraydi. Kasallik, asosan, bosh og'riq, damonsizlik, tez charchab qolish, bezotalik, xotiraning pasayishi va o'zi bilmagan holda har xil ixtiyorsiz harakatlar qilishi bilan boshlanadi. Bunda xoreyasimon giperkinezlar-qp'llarda majburiy harakatlar, yurishing o'zgarishi, bemor bola bir daqiqa ham tinch tura olmaydi, ixtiyorsiz xarakatlar kuchayadi. Bu harakatlar ko'proq qp'llarda, yuzda va tilda kuzatiladi. Bemorlar o'zi mustaqil ovqat yeya olmaydilar, nutqi tushinarsiz, uyqusi va yozishi buzilgan bo'ladi. Uyqu vaqtida giperkinezlar to'xtaydi. Bemorlar tekshirilganda mushaklar tonusi pasaygan, pay reflekslari chaqirilmaydi, muvozanatda tura olmaydi. Filatov (ko'z-til) belgisi – bemor ko'zini yungan holatda uzoq vaqt tilini chiqarib tura olmaydi. Revmaensemefalitning boshqa xillari quyidagilar: paralitik shakli – ko'proq maktabgacha bo'lgan bolalarda uchraydi. Bunda harakatning buzilishlari, ya ni mushaklar tonusining birdan pasayishi natijasida bemorlar ixtiyoriy harakat qila olmaydilar, bu psevdoparalich deb ataladi. Bemorning qo'l va oyoqlari falajlangan holda bo'ladi, harakatlar chegaralangan, pay reflekslari pasaygan bo'ladi. 10–15 kundan keyin esa giperkinezlar paydo bo'ladi, 2–3 haftadan keyin esa yo'qoladi. Bilinmaydigan yoki yengil shakli – emotsional buzilishlar bilan birga yuzaki uyqu, yengil nutq buzilishlar, xoreyasimon giperkinezlar-qovoqning uchiishi, yuz mushaklarida fibrillar qatlirashlar va III–VII–XII– juft km nervlarini harakat faolligida o'zgarishlar bo'ladi. Psevdosterik shakli – bu juda kam uchraydi, lekin damonsizlik, tez charchab qolish, yig'logi, ruhiy o'zgaruvchanlik, qo'rqish, apatiya, duduqlanish, tez jahl chiqishi, giperkinezlar, klonik qatlirashlar, atetoid harakatlar va isterik xuruj ko'rinishi bilan birga davom etadi. Psixotik shakli – bu o'tkir psixozlar ko'rinishi bilan boshlanadi. Bunda ruhiy qo'zg'aluvchanlik, gallutsinatsiya, hushning buzilishi, alahsirash va fikr buzilishlari bilan kechadi. Kichik xoreyada gipertenzion belgilari ham kuzatiladi. Bular bosh og'riq, ko'ngil aynish bilan va quisish, yorug'lik va shovqinni yoqtirmaslik, ko'z tubida yengil o'zgarishlar (ko'nuv nervi so'rg'ichida shish) kuzatiladi.

**Davosi.** To'shakda yotish, parhez ovqatlar vitaminlar va oqsilga boy bo'lishi kerak. Hamma shakllarida antibiotiklar: penitsillin 600–800 tb dan kuniga 3–4 mahal 12–14 kun davomida keyin bitsillin – 3 haftada 1 mahal 6–7 marta qilinadi; askorbin kislotasini uzoq vaqt berish; prednizolon 1 mg/kg, kokarboksilaza, ATF, vitamin B guruhi, glitsin 1–

2 tabl. dan til ostiga 1 oygacha, rutin, nikotin kislota, kalsiy dorilaridan tavsiya etiladi. Antigistamin dorilari dimedrol, tavegil, diazolin, suprastin; revmatizmga qarshi dorilar: indometatsin, butadion, aspirin; giperkinez-larga natriy brom, valerian, fenobarbital 0,02–0,05 g kunduzi va kechasi, aminazin 0,01–0,025 g kuniga 1–2 mahal qisqa vaqt davomida berish tavsiya etiladi. Giperkinezlar 3–4 haftadan keyin yo'qolishi mumkin. Umumiy davo kursi 2–2,5 oyga cho'ziladi.

### **O'tkir poliomiyelit**

Markaziy asab tizimining yuqumli kasalligi bo'lib, bosh miyaning turli bo'limlari va orqa miya kul rang muddasining oldingi shoxlarini zararlaydi. Bu kasallik ko'proq yosh bolalar (4–5 yoshgacha)da uchraydi. Poliomiyeliti filtrllovchi viruslar keltirib chiqaradi. Kasallik bemor bola yoki shu kasallik virusini tashib yuruvchilardan o'tadi. Viruslar oshpozon, ichak, nafas yo'llari orgali organizmga kirdi. Bu joydan limfa to'qimalariga borib joylashib ko'payadi. Keyin qon orgali orqa miya kul rang muddasining oldingi shoxiga boradi va shu joyni zararlaydi. Kasallikning yashirin davri 10–14 kun. O'zbekiston Respublikasida 1–1,5 : 100000 har bolaga bir yilda to'g'ri keladi.

Kasallikning birindagi falajlikdan oldingi davri.

Abortiv shaklida kasallik o'tkir boshlanib, haroratning ko'tarilishi, bosh og'riq, yugori nafas yo'llarining yallig'lanish belgilari bilan kechadi. Bunda yo'tal, tumov, tomoq og'rishi bo'lsa, boshqa bemorlarda qorinda og'riq, ko'ngil aynish, quşish, ishtaha yo'qolishi, ich ketish belgilari namoyon bo'ladi. Bu shaklida bola 3–7 kunda sog'lom bo'lib ketadi. Meningial shakli bunda poliomiyelit viruslari serozli meningit kasallik belgilarini namoyon qiladi. Kasallik birdan o'tkir boshlanib, harorat yugori ko'tariladi, bemor 2–3 marta qayt qiladi, bosh og'riq xuruji paydo bo'ladi. Meningial belgilar esa mushagi tarangligi, Kernig va Brudzinskiy belgilari kasallikning 2–3 kunlari paydo bo'ladi. Orqa miya suyuqligi bosimi me'yorida yoki biroz ko'tarilgan, rangi tiniq bo'ladi. Bemor bo'yin va tanasining orqa tomonida hamda qo'l-oyoglardagi mushaklarda og'riq, ko'p yig'lash, bezvatalik, tez charchashdan shikoyat qiladi. Tekshirganda nistagm yoki nistagmoid topiladi. Pontin shakli to'satdan boshlanib, yuz nervining periferik asab falajlanishi kuzatiladi. Bulbar va orqa miya (spinal) shaklida orqa miya bilan birga bir necha kalla bosh miya nervlarining (IX–X–XII juft nervlari) zararlanishi oqibatida nafas va yurak faoliyatini buzilib, og'ir asoratlari qoldiradi.

Bemorning harorati 38–39°C ga ko'tarilib, ko'pincha haroratning egri chizig'i ikki o'rakchli bo'ladi. Birinchi ko'tarilish 1–4 kun bo'lsa, so'ngra pasayib 2–3 kun me'yorida bo'ladi. Keyin yana harorat ko'tarilib ketadi.

Kasallikning ikkinchi falajlik davri 6–7 kunlari qo'l yoki oyogda, ba'zan bir tomonda hamda bo'yin, yuz mushaklarida bo'ladi. Falajlanish ko'proq ertalab–bola uyg'ongan paytlari kuzatiladi. Bunda falajlanish periferik asab

xilida bo'ladi. Mushaklar tonusi pasaygan, pay reflekslari yo'qoldi. Bir necha haftadan keyin qo'l va oyoqlarning proksimal qismlarida mushaklar atrofiyasi kuzatiladi. Sezuvchanlik va chanoq a'zolarning faoliyati buzilmaydi.

Kasallikning uchinchini harakat tiklanish davri. Bunda falajlik boshlangandan bir necha kun o'tgach, ba'zi mushaklarda harakatlar tiklana boshlaydi va 3 – 4 oygacha tiklanish juda tez boradi. Bunga sabab orga miyaning kulrang muddasidagi zararlangan joyda shishning qaytib ketishidir (22-rasm).

Kasallikning to'rtinchi davri kasallik asoratlari bo'lib, bir yildan keyin boshlanadi. Bunda zararlangan qo'l yoki oyoq o'sishdan orqada qoladi. Turg'un falajlik, mushaklar, atrofiyasi ba'zan esa qo'l yoki oyoqda, oyoq panjalarida mushak kontrakturasi boshlanib, qo'l yoki oyoq shakli o'zgarib qoladi (deformatsiya).

**Davosi.** Bemor tinch, o'midan turmasdan yotishi kerak. Yuqumli kasalliklar shifoxonasida alohida xonada yotishi lozim. Kasallikning o'tkir davrida gammaglobulin 3,0 ml mushak orasiga, askorbin kislotosi katta dozada, dimedrol, kalsiy xlor, 40 %li glukoza, og'riqqa qarshi analgin, reopirin, diklofenak natriy, tinchlantiruvchi dorilardan 3 % natriy brom qo'llaniladi. Yutinish qiyinlashib qolsa, zond orgali suniy ovqatlantirish, nafas olishi buzilgan bo'lsa sun'iy nafas oldirish lozim. Antibiotiklar fagat zotiljam boshlansa buyuriladi. Falajlangan qo'l yoki oyoqni to'g'rilib, har 2–3 soatda bemor joyini almashtrib turish, issiq tutish, solluks, parafin, ozokerit tawsiya etiladi. Harakat tiklangan davrida UVCH zararlangan segment sohasiga 12 kun qo'yiladi (yugori chastotali tok bilan). Bir oydan keyin UVCH yana qaytariladi. Kasallikning erta tiklanish davrida yoki 3–4 haftadan so'ng galantamin, nivalin, prozerin 0,005 % 1,0 ml m/o 20–30 kun beriladi va 2–3 oydan keyin bu muolaja qaytariladi. Vitaminlardan B<sub>1</sub> – B<sub>12</sub>, dibazol 0,005 g kuniga 3 mahal, glutamin kislota beriladi. 1–2 haftadan keyin falajlangan qo'l yoki oyoqni uqalash, shifobaxsh badantarbiya, kontraktura va deformatsiyaning oldini olish uchun qo'l yoki oyoqi to'g'ri holatga op'yish lozim.

**Oldini olish.** Mamlakatimizda profilaktik emlashlar taqvimi 2002-yil 11-avgustdagisi 0132-02-sonli buyrug'iga, asosan, poliomiyelitga qarshi emlash bolaning 2–5 kundan boshlab OPV-0 o'tkaziladi. Keyinchalik esa 2 oyligida OPV-1, 3 oyligida OPV-2, 4 oyligida OPV-3, 16 oyligida OPV-4, 7 yosh (1 sinf)da OPV-5 emlashlari o'tkaziladi.

## Miyelit

O'tkir miyelit – bu orga miya oq va kulrang muddasining zararlansishi. Sabablari: birlamchi miyelitni neyrotrop viruslar (poliomiyelit, gripp, qutirish) keltirib chiqarsa, ikkilamchi – miyelit yuqumli kasalliklardan keyin (qizamiq, ko'k yo'tal, tif) paydo bo'ladi. Ba'zi zaharli muddalar (mishyak, alkogol) ta'siridan keyin ham yuzaga keladi.

**Klinik manzarasi.** Birlamchi miyelit haroratning ko'tarilishi, bosh og'riq, toliqish, butun mushaklarda og'riq bilan boshlanadi. Qo'l-oyoglarda uvishish,

qo'l-oyoq va belda og'riq bo'lib, keyinchalik bu og'riq kamayib boradi va orqa miyaning zararlanish belgilari paydo bo'la boshlaydi. Eng ko'p zararlangan joy ko'krak qafasining o'rta qismi, keyin pastki qismidir. Orqa miyaning bel-dung'aza, bo'yin bo'limganlarda zararlanish kamroq uchraydi.

Agar orqa miya bo'yin kengligining yugori qismi zararlangan bo'lsa, unda bemorda tetraplegiya ikkala qo'l va oyoqda spastik falajlik xilida, ya'ni markaziy neyron zararlangan bo'ladi. Bo'yin kengligi zararlanganda ham tetraplegiya bo'ladi. Faqat qo'llarda falajlik periferik asab xilida, oyoqlarda esa markaziy asab tizimi falajligi kuzatiladi. Agar orqa miyaning ko'krak qismi zararlansa oyoqlarda spastik falaj bo'lib, markaziy asab tizimi falajlanish belgilari paydo bo'ladi. Bemor siyidik va axlatni tuta olmaydi. Agar orqa miyaning bel kengligi zararlansa faqat oyoqlarda periferik asab tizimi xilida falajlik bo'ladi. Bemorda siyidik va axlat ushlanib qolishi yoki tutolmaslik belgilari paydo bo'ladi.

**Davosi.** Bemorni o'midan turg'iznay, to'g'rilab taxta ustiga yotqizib qo'yish shart. Kasallikning o'tkir davrida antibiotiklar, vitaminlar  $B_1$ - $B_6$ - $B_{12}$ , askorbin kislotasi beriladi. Kasallikning birinchi kundan boshlab prednizolon, gidrokortizonni yugori dozadan boshlash zarur. Kasallik belgilari to'xtagandan keyin gormonlarni pasaytirish tavsiya etiladi. Zararlangan joyga birinchi kundan boshlab UVCH, yengil badantarbiya, iliq margansovkali yoki sovunli suvga 5 daqiqa oyoqlami solib turish tavsiya etiladi. Erta tiklanish davridan boshlab vitamin  $B_1$  va  $B_{12}$  navbat bilan qilib turish kerak. Mushaklar tonusi pasayganda 2-3 haftadan keyin prozerin, galantamin, dibazol buyuriladi. Mushaklarda spastika kuchayganda midokalm, melliktin, kichik dozada transkvilizatorlar beriladi. Faol tiklanish davrida pirogenal, lidaza, elektroforez kaliy yod, kalsiy xlor, prozerin bilan bel sohasiga qo'yiladi. Spastik falajda parafin, ozakerit, iliq vannalar hamda faol badantarbiya, kech tiklanish davrida 4-6 oydan keyin serovodorod, balchiq bilan davlash (bo'shashgan falajlar-da uglekisiyli, spastik falajda serovodorod) tavsiya etiladi.

**Parvarish qilish.** Birinchi kundan boshlab bemorni taxta ustiga yotqizib qattiq tiralgan holda 90° boldirga nisbatan fiziologik holatda bo'lishi kerak. Oyoq terisini iliq suvda sovunlab yuvish, har kuni 2-3 marta kamforali spirt bilan artish, birinchi kundan boshlab siyidik pufagiga kateter solib, furatsillin yoki rivanol yordamida yuvish kerak. Trofik yaralar bo'lmasligi uchun bemorni o'ng yoki chap tomonga navbat bilan yotqizib qo'yish, dumba va kurak sohalarini oblipexa hamda baliq moyi bilan artib tozalab, ugjalab turish tavsiya etiladi.

### Leptomeningit

Leptomeningit bosh miya qattiq va yumshoq padasining yallig'lanishidir.

**Sabablar.** Leptomeningitning kelib chiqishiga turli xil infeksiyalar (gripp, zotiljam, sil), zaharlanishlar, jarohatlar va boshqa kasalliklar (gaymorit, frontit, otit) sabab bo'lishi mumkin.

Kasalllik o'tkir, o'rtacha o'tkir va surunkali turda kechadi.

**Klinik manzarasi.** Leptomeningit bosh miyaning tepe qismida bo'lsa, mahalliy miya belgilari Jekson ko'rinishdagi tutqanoq xurujlari kuzatiladi (bunda alohida mushaklar guruhida klonik qaltirashlar bo'ladi). Bu xurujlar keyin katta tutqanoq xuriji va hushdan ketish bilan davom etadi. Leptomeningit bosh miya ensa chuqurchasida bo'lsa, mahalliy miya belgilaridan miyacha ataksiyasi, mushaklar tonusining pasayishi, adidoxokinez, dizmetriya, bosh aylanish, nistagm paydo bo'ladi. Urumiya miya belgilari ham uchraydi. Ko'rish nervining so'rg'ichida dimlanish, bosh og'riq, qusish bilan davom etadi. Leptomeningit miyacha-ko'prik burchagida bo'lsa, unda V-VII-VIII kbm nervlarining zararlanish belgilari kuzatiladi. Optiko-xiazmal leptomeningitda qattiq bosh og'riq bilan birga ko'rishning pasayishi, ko'rnuv nervining so'rg'ichida dimlanish kuzatiladi. Ko'rish maydoni toragan bo'lib, oq va boshqa ranglarni sezish kamagan bo'ladi. Ba'zi bemorlarda ko'zni harakatlantiruvchi nervning zararlanishi, ko'zga narsalarning ikkita bo'lib ko'rinishi, g'ilaylik, yugori qovoqning pastga tushib qolishi belgilari namoyon bo'ladi. Bemorda haroratning biroz ko'tarilishi, bosh og'riq, ko'z olmasida og'riq, titrash, butun tananing qoqshab og'rishi, oyoglarda holsizlik, yurakning tez urishi, leykotsitoz, ECHT baland bo'ladi. Orga miya suyuqligi tarkibi o'zgarmagan bo'ladi.

**Davosi.** Antibiotiklar, urotropin 40 % 3–5–10 ml tomir ichiga glukoza bilan yuboriladi. Vitaminlar C, B guruhi, nikotin kislota, magneziy sulfat, glutserin, laziks, diakarb, lidaza, shishasimon tana, biyoxinol buyuriladi. Og'riq va qaltirashga qarshi dorilar qo'llaniladi. Konservativ davo yordam bermasa, jamrohlik yo'li bilan (kista, chandiq) davolanadi. Kasalllikning tiklanish davrida radonli vannalar, ozokerit, balchiq bilan davolash, shifo-baxsh badantarbiya, ug'alash tavsiya etiladi.

## OITS

**OITS** (ruscha SPID, inglizcha AIDS, fransuzcha SIDA) – orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi. Bu kasallik virusi birinchi bo'lib, 1983-yilda fransuz olimi Montane va AQSH olimi Gallo tomonidan topilgan. Virusni jinsiy alopada shu bemor bilan bo'lган kishilardan topdilar. Virus elektron mikroskop orgali ko'rulganda tashqi muhitga chidamsiz, ya'ni 57°C issiq, spirt, aseton, efir tez o'ldiradi. Viruslar asosan, hujayralar, limfotsitlar, spermatozoidlar ichiga kiradi, genetik apparatga ta'sir qilib, uni buzadi. Bu kasallik butun dunyoda juda keng tarqalgan.

**Yuqish yo'llari.** OITS bilan kasallangan, bemorlar bilan jinsiy alopada bo'lganlar, fohishalar, gonoseksualistlar (bir xil jinsdagi kishilarning jinsiy alop qilishi), narkomanlar, donorlar, agar teri zararlangan bo'lsa teri orgali o'tadi.

**Klinik manzarasi.** Yashirin davri 1 oydan 1 yilga hatto 10–15 yilgacha. Kasallik o'tkir boshlanadi, haroratning ko'tarilishi, damonsizlik, ishtaha yo'qolishi, ozib ketish, 10–20 % bemorlarda limfa bezlari kattalashgan

bo'jadi. Asosan bo'yin, umrov usti va qo'ltiq tagidagi limfa bezlar kattalashgan bo'jadi. Bemorlarda bosh og'riq, uyqu buzilishi, ich ketish kabi holatlar kuzatiladi. Tanasiga har xil toshmalar chiqadi. Ahvoli kundan-kunga og'irlashib, zotil jam boshlanadi. Bemor kun sayin ozib ketadi. Ko'pchilik bemorlar boshida, tanasida, og'iz bo'shlig'ida, ichki va tashqi jinsiy a'zolarda o'smalar hosil bo'jadi. Bu o'sma *Kaposh* o'smasi ham deyiladi. Buning rangi och qizil yoki qizilroq, teridan biroz ko'tarilgan holatda bo'jadi. Asosan virus odam organizmidagi immun xususiyatni pasaytiradi, shuning uchun ham organizmda kuzatiladigan og'ir o'zgarishlar orqaga qaytmaydi.

**OTTSning asab tizimini zararlashi.** OTTS organizmning hamma joyiga ta'sir qiladi, shu jumladan, asab tizimini ham zararlaydi. Bu zararlash dastlab miya pardalarida bo'lib, meningitlami keltirib chiqaradi. Bunda bemorning ahvoli og'ir bo'lib, hushi karaxt, qattiq bosh og'riq, quisish, barcha meningial belgilar ijobjiy bo'jadi. Orqa miya suyuqligi tekshirilganda bosimi baland, rangsiz tiniq, hujayralar soni limfatsitlar hisobiga ko'paygan, chunki yallig'lanish seroz xarakterga egadir. Ko'p hollarda yallig'lanish bosh miya to'qimasiga ham o'tadi, bunda meningoensefalit belgilari kuzatiladi. Bu vaqtida meningial belgilari bilan birga kalla bosh miya nervlarining yallig'lanishi, gemiparez yoki gemiplegiya va ataksiya kuzatilishi mungkin. Bunda ham orqa miya suyuqligi seroz xarakterga ega bo'jadi. Ba'zan esa bosh miya pardalari, to'qimasi bilan birgalikda orqa miya ham zararlanadi, unda meningoensefalomyelit belgilari kuzatiladi. Bunda yugrida ko'rsatilgan belgilarga orqa miya zararlanish belgilari op'shiladi. Qo'l va oyoqlarda para yoki tetraplegiya, chanq a'zolarining buzilishi holatlari paydo bo'jadi. Ko'pincha bir vaqtida bosh miya, orqa miya bilan birgalikda periferik asablar ham, ildizlar ham yallig'lanadi. Bunda pardalar, bosh miya, orqa miya zararlanish belgilariiga periferik asab tizimi yallig'lanish belgilari ham op'shiladi. Qo'l va oyoqlarda og'riq bilan birga tortilish belgilari (Lasseg, Vasserman, Neri) ham ijobjiy bo'jadi. Bunda meningoensefalomyelopoliradikulonevrit deb tashxis qo'yildi. Kasallik kechishi juda ham og'ir bo'lib, asta-sekin bemorning ahvoli yanomlashib boradi va o'limga olib keladi.

**Davosi.** Hozirgacha bu kasallikning davosi topilmagan, lekin butun dunyo olimlari izlanish olib bormoqdalar.

**Oldini olish yo'llari.** Giyohvandlik va giyohvandlikga qarshi tushuntirish ishlarini olib borish, chet eldan keladigan emigrantlarni, donorlar qonini OTTS ga tekshirish. Har bir bemorga bir martalik shpritslardan foydalanish tavsija etiladi.

#### ***Nazorat savollari***

1. Epidemik ensefalit nima uchun letargik deb ataladi?
2. Epidemik ensefalitning o'tkir va surunkali kechish turlarini tushuntiring.
3. Kana ensefaliti klinik belgilaringin boshqa ensefalitlardan farqi nimada?
4. Sil meningitining boshqa meningitlardan farqi nimada?
5. O'tkir sholning klinik belgilari va oldini olish choralarmini aytинг.

6. Benoming xushi bo'lmasa, lekin Kernig belgisi bo'lsa, siz qanday fikr qilasiz?
7. Meningial bengilar qanday kelib chiqadi va ular qaysilar?

### **Bosh va orqa miyada qon aylanishlarning buzilishlari**

Bosh va orqa miyaning qon bilan ta'minlanishi. Bosh miya, asosan, ikki juft qantomir bilan ta'minlanadi: ichki uyqu arteriyasi va umurtqa arteriyasi.

Ichki uyqu arteriyasini boshqa nom bilan *karotit tizim* ham deyiladi. Bu tizim orgali 70 % qonni bosh miya oladi. Qolgan 30 % qonni esa umurtqa arteriyasi olib keladi (23-rasm).

Karotit tizim, o'z navbatida, quyidagi shoxchalarga bo'linadi: I. Umumiyluyqu arteriyasi chap tomonidan aorta yoyidan, o'ng tomonidan esa o'mrov osti arteriyasida boshlanadi. Ichki uyqu arteriyasining shoxchalarasi: 1) ko'z arteriyasi – ko'z to'rsimon pardasini, ko'z nervining so'rg'ichini qon bilan ta'minlaydi. 2) orqa qo'shuvchi arteriya – xiazmani, ko'rish yo'li do'mboqchasini, gipofizni, gipotalamusni qon bilan ta'minlaydi. 3) oldingi arteriya – Mindalev tanani, gipokamp egatini, dumli yadroni, oq sharlarni, ichki kapsulaning orga tomonini, tashqi tizzali tanani, ko'rav do'm bog'ini qon bilan ta'minlaydi.

Bundan tashqari, karotit tizim 2 ta katta shoxdan iborat: 1. Oldingi miya arteriyasi – bu arteriya bosh miya peshona qismining ichki tomonini, peshonaning yugori, asosini hamda chakka qismalarini, qadoqsimon tanani qon bilan ta'minlaydi. 2. O'rta miya arteriyasi – bu arteriya, asosan, po'stloq osti tuzilmalarni, skarlupani, dumli yadroni, ko'rav do'm bog'ini, oq sharlarni va asosan, ichki kapsulani qon bilan ta'minlaydi. Bu arteriyaning boshqacha nomi «qon ketuvchi arteriya» deb ataladi.

II. Umurtqa arteriyasi o'mrov osti arteriyasidan boshlanadi va quyidagi shoxchalarga bo'linadi. Bu soha vertebrobazillar tizim deb ataladi. 1. Orga miya arteriyasi – bu arteriya orqa miyani qon bilan ta'minlaydi. 2. Oldingi orga miya arteriyasi – bu ham orga miyani qon bilan ta'minlaydi. 3. Pastki orga miyacha arteriyasi – bu arteriya uzunchoq miyani, miyachani qon bilan ta'minlaydi. 4. Asosiy arteriya – «bazillar arteriya» 2 ta umurtqa arteriyasi – Vorolev ko'prigi ustida birlashadi. A. Oldingi pastki miyacha arteriyasi – bu, o'z navbatida, 8 juft nervlarning yadrosini, ichki qulogni qon bilan ta'minlaydi. B. Miyacha tepe arteriyasi – Vorolev ko'pirigini, miya oyoqchalarini, 4 tepalikning orga tepachasini, o'rta miyachuning oyoqlarini, 3 va 4-qorinchalami qon bilan ta'minlaydi. V. Orga miya arteriyasi esa o'rta miyani, 4 tepalikning oldingi tepachalarini qon bilan ta'minlaydi. Chuqur shoxchalar talamusni, qadoqsimon tanani, Lyusova tanani, gipofizni, tizzali tanani, yon qorincha chigalini qon bilan ta'minlaydi. Karotit va vertibrobazillar qontomirlar tutashgan joy *Villizov aylamasi* deb ataladi.

Bosh miyada qon aylanishining buzilishini keltirib chigaruvcchi asosiy sabablar quyidagilar: 1. Xafaqon (gipertoniya) kasalligi. 2. Bosh miya qontomirlarining aterosklerozi. 3. Ulaming birgalikdagi uchrashuvi.

Bosh miyada qon aylanishi buzilishining asosiy moyilliklari: 1. Yoshi. 50 yoshdan keyin 3–7 marta ko'p uchraydi. 2. Nasl moyilliigi. 3. Moddalar almashinuvi (colesterin) ning buzilishlari. 4. Qon bosimi ko'tarilishi. 5. Qon kasalliklari. 6. Qand kasalligi. 7. Gipokineziya – kam harakatchanlik. 8. Spirtli ichimliklar ichish va chekish. 9. Ish joyida, uuda, shaxsiy hayotda bo'ladigan ruhiy holatlar.

Bosh miyada qon aylanishning o'tkir buzilishlari *insultlar* deb ataladi.

### **O'tib ketuvchi bosh miyada qon aylanishning buzilishi**

**Sabablari.** Xafagon kasalligi va bosh miya qontomirlarining aterosklerozi natijasida bosh miya qontomirlari zararlanadi. Bosh miyada qon aylanishining o'tkinchi yetishmovchiligidagi barcha asab sohasidagi klinik belgilar qisqa vaqt ichida (24 soatgacha) o'tib ketadi. Agar bu belgilar o'tib ketgan bo'lsa, tekshirganda asab tizimidan hech qanday belgilarni topa olmaymiz. Shu vaqtda esa kalla bosh miya nervlarining markaziy falaji, gemiparez yoki gemiplegiya markaziy xarakterda bo'ladi. Bu belgilarning kelib chiqishining asosiy sababi bosh miya qontomirlarining qisilishi (angiospazmi) yoki qontomirlar ichida mikrotrontorlar hosil bo'lishidir.

**Klinik manzarasi.** Umumiy miya belgilari: bosh og'riq, ko'z olmasida og'riq bo'lib, ko'zni harakatlantirganda bu og'riq kuchayadi. Bemorda bosh aylanish, ko'ngil aynish, qusish, bosh va qulogda shovqin bo'lishi, paresteziya paydo bo'ladi. Bemorning hushi qisqa vaqt yo'qolishi yoki karaxt, nuiy qo'zg'alishlar, tutqanoq xurujlari, vegetativ o'zgarishlar, issiqlik sezish, titrash, tez-tez siyb turish va meningial belgilar bo'lishi mumkin. Orga miya suyuqligining bosimi yugori, ko'z tubida ko'ruv asabining diskida shish va mayda-mayda qon ketishlar bo'ladi. Mahalliy miya belgilaridan paresteziya – yuz va qo'l-oyoqlarda, ba'zi hollarda, yugori labda, tilning yarmida, bilakning ichki tomonida, qo'l va oyoq panjalarida (4–5 barmoqlar) kuzatiladi. Tekshirganimizda sezgining kamayishi, harakat sohasida falajlar ko'proq qo'l va oyoq panjalarida yoki barmoqlarda, til, mimik mushaklarida paydo bo'ladi. Teri va pay reflekslarida o'zgarishlar, patologik reflekslar yuzaga keladi. Nutq o'zgarishlari sensor yoki motor afaziyalari, praksiya va ko'ruv maydonida o'zgarishlar bo'ladi.

**Davosi.** Bemorlarga ruhiy tinchlik berish tavsiya etiladi. Bosh miyada qon aylanishini yaxshilash uchun eufillin 2,4 % 10,0 ml, 40 % glukoza yoki natriy xlordan tomir ichiga, qontomirlarni kengaytirish maqsadida 2 % 2,0 ml papaverin, noshpa, stugeron yoki sinnarizin 0,025 1 ta tabletkadan 3 mahal, ksantinol-nikotinat 0,15 g 1 ta tabletkadan 3 mahal yoki 2,0 ml dan mushak orasiga, teonikal, bu dorilar kapillardagi qon oqishini kuchaytirib, kislorod bilan ta'minlaydi. Mikrotsirkulatsiya va to'qimalardagi metabolizmni yaxshilaydigan dorilar: kavinton 10–20 mg yoki 1–2 ml, 500 ml natriy xlor bilan tomir ichiga yuboriladi yoki 0,005 g tabletkadan 3

mahal, sermion, trental 5–10 ml ni 250–500 ml natriy xlor yoki 5 % glukoza bilan tomir ichiga yuboriladi.

**Vertebro-bazillar yetishmovchilik.** Vertebro-bazillar yetishmovchilik o'tkir va surunkali umurtqa va bazillar arteriyasida qon aylanishning buzilishlaridan keyin kelib chiqadi.

**Sababları.** Bo'yin osteokondrozi, deformatsiyali spodilez (umurtqalararo disklerda degenerativ o'zgarishlar, osteofitlarning o'sishi, umurtqa arteriyasining bosilib qolishi natijasida paydo bo'ladi).

**Klinik manzarasi.** Bosh aylanish, mastga o'xshab yurish, qulogda shovqin, ko'zga narsalarning ikkita bo'lib ko'rinishi, boshni ensa sohasi hamda bo'yining orga qismida og'riq bo'lishi kuzatiladi. Tekshirganda nistagn, yengil ataksiya, eshitishning kamayishi, dizartriya, o'tib ketuvchi tetraparez, pay reflekslari jonlangan bo'ladi.

**Davosi.** O'tkir buzilishlarda bemorni to'shakka yotqizish lozim, bemorlarni yorug'lik va shovqindan saqlash kerak. Sitramon 1–2 tabletka va aeron 1 tabletka kuniga, glukoza 40 % 20,0 ml t/i, pipolfen 2,5 % 1,0 ml yoki aminazin 2,5 % 1,0 ml, atropin 0,1 % 1,0 ml t/o, platifilin, kofein qilinadi. Bo'yining orga sohasi, ensaga hamda oyoqlarga xantal, isitgich qo'yish tavsiya etiladi. Bundan tashgari reopoligukin 250,0 + kavinton 2,0 ml t/i, belloid 1 ta tabletka kuniga 3–4 mahal beriladi.

**Dissirkulator ensefalopatiya.** Bosh miyada qon aylanishining surunkali buzilishi dissirkulator ensefalopatiya deb ataladi.

**Sababları.** Ateroskleroz, arterial gipertoniya va ularning birgalikda uchrashishi, diabet, revmatizm, qon kasalligidan keyin kelib chiqadi. Bu kasallik aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilarda ko'proq uchraydi. Dissirkulator ensefalopatiya bosh miyaning surunkali gipoksiyasi natijasida bosh miyada venadan qon oqishining qiyinlashuvi, angiospazmi, mikrotromb va mayda-mayda qon quylishlar kuzatiladi.

**Klinik manzarasi.** Kasallik, dastlab, nevrastenik alomatlar bilan boshlanadi. Bular xotiraning pasayishi, simillaydigan bosh og'riq, bezotalik, tez jahli chiqish belgilari namoyon bo'ladi.

Yengil shaklida dastlab xotiraning buzilishi bo'ladi. Bunda bemorlar bo'lib o'tgan voqe va hodisalami, o'tgan kunlami eslay olmaydilar. Eslab qolishi buzilishidan bemorlar ko'pincha yozib yuradilar, ularning ish qobiliyati pasayadi. Bemorlarda ko'proq simillaydigan bosh og'riq, bosh va qulogda shovqin bo'lishi, bosh aylanish, mudrab yurishdan shikoyat qiladilar. Uyusni buzilgan, ishtaha va kayfiyati yo'qolgan, jinsiy moyillik susaygan bo'ladi. Dissirkulator ensefalopatiyada 3 ta asosiy belgilari kuzatiladi: xotiraning **buzilishi**, bosh og'riq, bosh aylanishdir. Asab schasini tekshirganda, asosan, mizoz, qorachiqlarning yorug'likka reaksiyasi sustlashgan, kalla bosh miya nervlarining asimetriysi, pay reflekslarining jonlanishi va anizorefleksiysi, barmoqlarning titrashi, paresteziya va vegetativ o'zgarishlar kuzatiladi.

O'rtacha og'ir shaklida esa bemorlarda hali faollik bo'ladi, lekin tez charchab qoladilar. Ish qobiliyati pasaygan, ko'p gapiradi, xotira, diqqat-

e'tibor susaygan, kunduz kunlari ko'p uhlaydilar. Xulq-atvor buzilishlari, o'z-o'ziga tanqidchilik pasayadi. Asab sohasida bosh og'riq, bosh aylanish, boshda shovqin bo'lishi, oral avtomatizm refleksi rivojlanganligi, kalla bosh miya nervlarida o'zgarishlar borligi, pay reflekslari oshganligi, patologik reflekslarining paydo bo'lishi. Bundan tashqari, muvozanat buzilishlari, ko'rishning pasayishi kuzatiladi. Harakatning sekinlashuvi, mayda qadam-chalar bilan yurish, nutq buzilishlari hamda bosh va qo'llarda titrash bel-gilari namoyon bo'ladi.

Og'ir shaklida miyacha faoliyatining buzilishlari, parezlar, nutq buzilishlari, xotiraning chuqur buzilishlari, doimiy bosh og'riq, bosh aylanish, boshda shovqin bo'lishi, aqlipastlik, xulq-atvorming pasayishi va tutqanoq xurujlari paydo bo'ladi. Bunda og'ir ruhiy o'zgarishlar va psevdobulbar falajlar, oral avtomatizm reflekslari juda rivojlangan bo'ladi, majburan kulish va yig'lash kuzatiladi.

Tashxis qo'yishda, asosan, subyektiv shikoyatlar: bosh og'riq, bosh aylanish, boshda va qulogda shovqin bo'lishi, xotiraning pasayishi, ko'z yosh kelishi kuzatiladi. Obyektiv belgilari: taropq serebral belgilaming asta-sekin kuchayib borishi namoyon bo'ladi.

**Davosi.** Bosh miyada qon aylanishini yaxshilash maqsadida – papaverin, no-shpa, eufillin, komplamin, sermion, etimizol, indap, dilseron, stugeron, kavinton, instenon; bosh miyada metabolik jarayonlami yaxshilash uchun – oksibral, aminalon, aktovegin, nimotop, serebrozin, vitamin B guruhi beriladi; antiskleroz dorilardan liprimar, diasponin, miskleron, prodektin, kaliy yodid 3 % 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal ovqatdan keyin ichish uchun tavsiya etiladi; sedativ dorilar natriy brom 1-3 % li 1 osh qoshiqdan kuniga 3 mahal, ekstrakt valeren 1 ta tabletka 2-3 mahal, glitsin, navopassit; trankvilizatorlardan – seduksen, elenium, valium; parkinson alomatlarida – nakom, modaper, siklodol dorilaridan tavsiya etiladi.

### **Ishemik insultlar**

Ishemik insult – boshqacha miya infarkti ham deyiladi. Ishemik insult, asosan, 45–50 yoshdan keyin ko'proq qariyalarda uchraydi. Bu kasallik kelib chiqishining asosiy sabablari, bosh miya qontomirlari aterosklerozi, xafaqon kasalligi, bosh miya qontomirlarining yallig'lanishi, qon bosimning pasayishi, bosh miya qontomirlaming anevrizmlaridir. Ishemik insultning kelib chiqishi asosan bosh miya qontomirlarining qisilishi, ya'ni angiospasmidir. Turli xil gemodinamik o'zgarishlar har xil ruhiy holatlar bosh miya qontomirlarining qisilishiga olib keladi va u yerdan qonning o'tishi sekinlashadi. Bunda bosh miya to'qimasida yunshashish holati yuzaga keladi.

Qon tomirlari ichida tromb hosil bo'lishi, bunda bosh miya qontomirlarida qonning sekin aylanishi tufayli qontomirlar devorida qonning shaklli elementlari cho'ka boshlaydi. Nati jada, qonning o'zidan tromb hosil bo'ladi. Tromb hosil bo'lishiga yana qonning biokimyoiy o'zgarishi,

ya'ni uni ivishining buzilishidir. Bundan tashqari, kalla suyagi tashqarisidagi ekstrokranial qontomirlarining qisilishi ham ishemik insultga olib keladi.

**Klinik manzarasi.** Ishemik insult bo'lishidan oldin bir necha hafta yoki oylar oldin belgi beradi. Bu belgilar: bosh aylanishi, qisqa vaqt hushning yo'qolishi, ko'z oldining qorang'ilashishi, umumiylar damonsizlik, o'tib ketuvchi paresteziyalar yoki qo'l-oyog'dagi parezlardir. Kasallik ko'pincha asta-sekin boshlanadi. Kechasi yoki ertalabga yaqin kuzatiladi. Buning asosiy sababi kechasi tinch yotganda bosh miyadagi qon aylanishi sekinlashadi va tromb hosil bo'lishiga moyillik ko'payadi. Ertalab uyqudan turgandan keyin bemor, asosan, hushini yo'gotmaydi, bemor o'ng yoki chap tomonida qo'l-oyog'ining harakati kamligi yoki yo'qolganligidan shikoyat qiladi. Ishemik insult bo'lganda bemorning hushi saqlangan bo'lib, bosh og'riq bo'lmaydi yoki juda kam rivojlangan bo'ladi. Yuz terisi og'rgan, tomir urishi pasaygan, qon bosimi pasaygan, tana harorati bir meyorda saqlangan yoki subfebril bo'ladi. Asab sohasida juda rivojlanmagan meningial belgilar, kalla bosh miya nervlari VII-XII juftida markaziy falajlanish faqat qarama-qarshi tomonda kuzatiladi. O'ng yoki chap tomonda gemiparez yoki gemiplegiya markaziy xarakterda tonusi baland, trofikasi buzilmagan. Pay reflekslarining anizorefleksiysi, 1-3-4-kunlari pay reflekslari pasaygan bo'ladi yoki umuman chaqirilmasligi mumkin. Keyinchalik patologik reflekslari paydo bo'ladi (Babinskiy, Ras-solima).

Sezgi sohasining chap yoki o'ng tomonida gemigipesteziya kuzatiladi. Gipergidroz, ba'zan bemorning hushi karaxt, tezda muloqotga kirisha olmaydi, savollarga javob berishi qiyin kechadi. Motor afaziyasi – bemor gapga tushunadi, lekin gapira olmaydi. Sensor afaziyasi – bemor gapga tushunmaydi hamda gapira olmaydi. Bosh miyaning oldindi arteriyasi zararlanganda bemorning yuzida gemispazm – yuzning bir tomona tortilib turishi, gemiparez ko'proq oyoqlarda, gemanesteziya, ataksiya – muvozanatning buzilishi, giperkinez – ixtiyorsiz harakatlar kuzatiladi. Ruhiyatning buzilishi (eyforiya, o'z-o'ziga tanqidchilikning pasayishi). Bosh miyaning orqa arteriyasi zararlanganda esa ataksiya, gemanopsiya, alternashgan belgilar (ptoz, tashqariga qarab qolgan g'ilaylik chap tomonda, gemiplegiya, gemanesteziya esa o'ng tomonda) kuzatiladi.

Ishemik insultning vertebrobazillar qontomirlar sohasida (umurtqa, bazillar arteriyalar va orqa miya arteriyasi) zararlanish bo'lsa, bemor bosh aylanishi, ko'ngil aynish, qusish va muvozanatning buzilishi (mastga o'xshab yurish), qulog'da shovqin bo'lishidan, ensa va bo'yinning orqa sohasidagi og'riqdan shikoyat qiladi. Asab sohasini tekshirganimizda nistagm, diplopiya, ataksiya (statik va dinamik), nutq o'zgarishlari, ko'rish va eshitishning pasayishi, dizartriya, o'tkinchi tetraparezlar hamda hushning o'tkinchi buzilishlari kuzatiladi. Ishemik insultlar ko'proq gari yoshdag'i odamlarda uchraydi. Bosh miya qontomirlar aterosklerozi, arterial gipotensiya, stenokardiya, infarkt miokard va boshqa kasalliklar natijasida kelib chiqadi.

## **Gemorragik insult**

Gemorragik insult, boshqacha aytganda bosh miyaga qon quyilishdir. Asosiy keltirib chiqaruvchi sabablar: xafaqon kasalligi, bosh miya aterosklerozi, ularning birgalidagi uyg'unlashishi, bosh miya qontomirlarining anevrizmlari, bosh miya jardhatlari, vaskulitlar, leykoz, qand kasalligi va boshqalar. Bosh miyaga qon quyilishiga ikkita asosiy sabab bo'ladi. Birinchidan, qontomirlarining yorilib ketishi bo'lsa, ikkinchidan, qontomirlar o'tkazuvchanligining buzilishi, bunda qontomirlar yorilmaydi.

**Klinik manzarasi.** Gemorragik insult ko'proq kunduz kunlari, bemor ruhiy holatidan keyin qattiq xafachilik, noxush xabarlar, juda kuchli haya jonlanishdan keyin boshlanadi. Kasallik ko'pincha to'satdan boshlanib bemorning hushi yo'qoladi va bemor yiqiladi. Bemorda kuchli bosh og'riq, yuzning qizarishi, qusish, tana harorati ko'tarilgan bo'lib, sopor yoki koma holatiga tushadi. Urumiy ahvoli juda og'ir bo'lib, burun-lab atrofi ko'kargan nafas olishi tez yuzaki tovush bilan xirillab chiqadi. Qon bosimi baland – 220/140 simob ustuniga teng yoki undan ham oshgan, tomir urishi tezlashgan. Asab sohasi tekshirganimizda meningial belgilar (ensa mushagi tarangligi, Kernig, Brudzinskiy) juda rivojlangan, chunki bosh miyada shish borligi uchun, yuzi asimetriya, burun-lab qatlami silliqlashgan, og'iz burchagi pastga tushgan, ko'z qoradig'i anizokoriysi, qorachiqning yorug'likka javob reaksiyasi susaygan yoki yo'qolgan. Yutinish va gapirish yo'qolgan, o'ng yoki chap tomonda qo'l-oycqning falajlanishi, oyoq panjasni tashqariga buralib qolgan, qo'llarmi ko'tarib tashlaganda falajlangan qo'l «qamchisimondek» tezda tushib ketadi, oyoqda ham shunday bo'ladi. Qo'l-oyoglarda mushaklar tonusi pasaygan – gipotoniya, pay reflekslari pasaygan yoki chaqirilmaydi, patologik reflekslari uchraydi. Sezgi kamayadi yoki yo'qoladi. Falajlanish hamma vaqt markaziy xarakterda bo'lgani uchun asta-sekinlik bilan mushaklar tonusi oshib boradi, pay reflekslari baland, gapirishi noaniqdizartriya, motor va sensor afaziyalar kuzatiladi. Agar qon miya qorinchalariga quyilsa, bunda kasalning ahvoli juda ham og'ir – koma holatida, nigoh qarash, qusish, yurakning tez-tez urishi, nafas olishning qiyinlashishi va tutqanoq xuruji klonik va tonik qaltirashlar kuzatiladi. Bir yilgacha – tiklanish davri, bir yildan keyin esa qoldiq davri deyiladi.

## **Pardalar orasiga qon quyilishi**

Pardalar orasiga qon quyilishi – boshqacha *subaraxnoidal qon quyilishi* deyiladi. Bunda qon miya pardalarining orasiga qontomirlarining yorilishi natijasida quyiladi. Miyaning asosi va ustki qismalarida qon quyiladi. Bemor qattiq bosh og'rishidan, ko'ngil aynishidan va qusishdan shikoyat qiladi. Asab sohasida meningial belgilar kuzatiladi. Bemor yorug'likka, tashqi ta'sirotlarga juda ham ta'sirchan bo'ladi. Tutqanoq belgilari bosh miyaning ustki (konveksital) qismida qon quylganda klonik-tonik qaltirashlar kuza-

tiladi. Agar miyaning asosi (bazillar)da qon quyilish bo'lsa, bunda II–III–IV–VI kalla bosh miya nervlarining zararlanishi kuzatiladi. Qo'l va oyoqlarda falajlanish bo'lmaydi, gipotonus, giperrefleksiya, giperesteziya, bemorda ruhiy qo'zg'alishlar kuzatiladi.

Qorinchalar ichiga qon ketganda nafas olish va yurak ish faoliyatining buzilishlari, yuz terisi ko'kargan, hushi yo'qolgan, tana harorati 39°C va undan ham yugori bo'ladi. Miyacha yarim sharlariga qon quylganda bosh aylanish, quish, ensa va bo'yining orqa tomonida og'riq, nistagn, ataksiya holatlari kuzatiladi. Miya ustunida qon quylsa, kalla bosh miya nervlarining yadrolari va ularning yo'llarini zararlaydi. Bunda alternashgan alomatlar (yuzning bir tomonida kalla bosh miya nervlarining falajlanishi bo'lsa, qarama-qarshi tomonda esa gemiparez) kuzatiladi. Bosh miya to'qimalariga qon quylsa, ko'proq ichki kapsula, o'rta miya arteriyasida bo'lsa, umumiyl miya belgilari, mahalliy miya belgilari bilan birgalikda keladi. Bosh miya po'stlog'iga yaqin joyda qon quylsa, mutq buzilishlari motor yoki sensor afaziya bo'ladi. Meningial belgilar bunda kamroq uchraydi, orqa miya suyuqligida qon bo'lmaydi. Agar orqa miya suyuqligida qon bo'lsa, unda aralash qon ketishi kuzatiladi.

Subaraxnoidal qon ketish 50 yoshgacha bo'lgan bemorlarda uchraydi. Bunga sabab bosh miya qontomirlar anevrizmlari 50 %ni tashkil etadi. Kamroq holatlarda arterial gipertenziya va bosh miya qontomirlari aterosklerozi sababchi bo'ladi.

**Klinik manzarasi.** Unda meningial va umumiyl miya belgilari juda rivojlangan bo'ladi. Mahalliy miya belgilari bo'lmaydi yoki kam rivojlangan bo'ladi. Qon ketish to'satdan boshlanadi. Bemorda birdan bosh og'riq, ensa mushagining tarangligi, Kernig, Brudzinskiy belgilari rivojlangan bo'ladi. Bosh og'riq kuchli bo'lib, uning ta'siridan bemorlar qichqirib yuboradi, qo'llari bilan boshini ushlaydi, bosadi. Yuzi qizargan, ruhiy qo'zg'alishlar, gochishga harakat qiladilar, to'shakda yotolmaydi, tana harorati baland bo'ladi. Orqa miya suyuqligida qon bo'ladi. Og'ir hollarda bemorning hushi bo'lmaydi, sopor yoki koma holatda bo'ladi. Mahalliy miya belgilaridan – q'ilaylik, diplopiya va yengil gemiparezlar bo'ladi. Qorinchalar ichiga qon ketganda kasallik birdan boshlanib, hushning yo'qolishi, nafas olish shovqinli bo'lib, bemor xirillab nafas oladi. Sopor va koma holatiga tezda tushib qoladi. Bemorning tana harorati 39–40°C, sovuq qotganday titrash, tomir urishi tezlashgan, sovuq ter bosish, orqa miyani punksiya qilganda orqa miya suyuqligida qon bo'ladi. Mahalliy miya belgilari kam rivojlangan bo'ladi. Mushaklarda tonik tirishish, gipotoniya bilan almashinib turadi.

**Davosi.** Tibbiyot hamshiralari insult bilan og'rigan bemorlarni juda ehtiyyotlik bilan qarashlari talab etiladi. Bemor boshini tana qismidan biroz baland ko'tarib qo'yish, harakat qilishlariga yo'l qo'ymaslik lozim. Kasallikning o'tkir davrida bemorni tinch qo'yish, og'zida tish protezlari bo'lsa, olib qo'yish lozim. Og'iz atrofi va ichini so'lak va qusuq qoldiqlaridan tozalab, toza havo kirishini ta'minlash, pastki jag'ni ushlab turish, tilini orgaga tortib ketmasligi va nafas olishini yaxshilash uchun havo o'tkazgich

qo'yish, yugori nafas yo'llarini elektrotsos yordamida tozalash, oshgozonga zond qo'yish talab etiladi. Miyada qon aylanishini yaxshilovchi dorilar – eufillin 2,4 % 5–10 ml tomir ichiga, magneziy sulfat 25 % 5–10 ml mushak orasiga novokain bilan, papaverin 2 % 2 ml, dibazol 1 % 2–4 ml mushak orasiga qilinadi. Bemorga birinchi kuni shirinchoy, meva sharbati keyinchalik yutinish bo'lmasa, zond orgali kuniga 5 marta ovqatlantirish talab etiladi.

Umumiy davolash (nedifferensial davo)	Qiyoisy davolash (differensial davo)	
	gemorragik insult	ishemik insult
Nafas olish faoliyatini yaxshilash:yuqori nafas yo'llarini tozalash, erkin nafas olishga yo'l qo'yish; boshni biroz yuqoriga ko'tarish; og'iz ichini so'lak va qusquq massalaridan tozalash; pastki jag'ni ushlab turish; havo o'tkazgich qo'yish; tilning orqaga ketib qolishiga yo'l qo'ymaslik; burun orqali kateter qo'yish.Yurak-qon tomir faoliyati buzilishlarda: qon bosim pasayganda: kofein 20% 2,0 ml t/o, mezaton 1% 2,0 ml m/o, gidrokortizon 50 mg, prednizolon 60 mg, kokarboksilaza 100 mg t/i. Qon bosim ko'tarilganda; dib 2,0 m/o; magneziy sulfat 25% 5–10,0 ml m/o; raunatin 1 tatab.dan 2 mahal, sinopril 10 mg 1 marta, enalapril-N.S (ednit) kuniga 10—20 mg, Enap—N kuniga 1—2 tatabl. kapoten 25 mg 2 marta, enam 2,5 mg, indap 2,5 mg ichishga. Yurak etishmovchili gida; kordiamin 25% 1—3 ml m/o; kofein 2,0; strofantin 1,0 ml+ 4% 20 ml glyukozab/n; bular natija bermasa, KKB 100 mg, AÖF 1ml. Miya shishlari boshlanganda: Bobrov apparatida kislorod terapiya 30% spirtli eritma bilan o'tkazish 20—30 daqiqa berib, 15—20 daqiqa tanaffus qilinadi. Furasemid yoki laziks, kiyli xlor, panangin, eufillin, giserol 1 g/kg meva sharbati b/n, mannnitol 200,0 ml t/i. Ruhiy qo'zg'alishda: seduksen, sibazon yoki relanium, glitsin, aminazin, GOM K qilinadi. Gi poksiyaga qarshi piratsetam (nootropil), serebrolizin, aminalon, gammalon.	kislorod terapiya; askorbin kislota 5% 5,0 ml t/i; kalsiy xlor yoki kalsiy glukonat 10% 5—10,0 ml t/i aminokpron kislota 5%—100,0 ml tomchilab t/i har 4—6 soatda qaytarish kerak. qon, plazma, disinson 2,0 ml yoki vikasol 1,0 ml m/o	no-shpa 2,0 ml, papaverin 2,0 ml m/o, kavinton 20 mg yoki trental 5,0 ml NaCL b-n nikotin kislota 1% 1,0 ml, stugeron 1 ta tab. 3 mahal, gemodez 400,0 ml va reopoligukin 400,0 ml, aktovegin, tromb yoki trombemboliya bo'lsa 1chi 6 soat ichida fibrinolizin 20—30 ming ÖB, heparin 5—10 ming ÖB dan 250,0 ml NaCL b-n har 1 daqiqada 25 tomchidan t/i yoki kuniga 4—6 marta 3—5 kun m/o yoki t/i. keyinchalik qon ivishi tekshirilib heparinni 5 ming ÖBdan t/i yoki m/o har 6 soat daqdi.

**Parvarish qilish.** Bemorni qimirlatmasdan, nafas olishini yaxshilab, boshini biroz baland ko'tarib, kiyimlarini yedhib yotqizish kerak. Agar bemor qusgan bo'lsa, og'zini tozalab qo'yish lozim. Zotiljam bo'lmasligi uchun bemorni o'ng va chapga yonbosh qilib yotqizib turish, orgasiga, ko'krak qafasiga xantal va bankani kunaro qo'yish kerak. Antibiotiklar buyuriladi. Dumba, kurak sohalariga oblipexa yoki beliq moyidan surtib turish lozim. Bemorning siydiqi tutilib qolsa, kateter qo'yish bilan siydirib olish kerak. Kasallikning birinchi


kunidan boshlab gemiparez yoki gemiplegiya bo'lsa, kontrakturalaming oldini olish uchun falaj bo'lgan qo'l-oyoqlarni fiziologik holatga keltirish, ulaming tagiga yostiq qo'yib, yelka bo'g'imi bilan bir xil balandlikda bo'lishini ta'minlash zarur. Falaj jangan qo'lning bir necha marta tanasidan uzoglashtirib qo'yish, qo'lni ichini yugori (spinasiya) holatga qo'yish, barmoqlami to'g'rilib ochib qo'yish lozim. Bularga qum xaltachalardan foydalansa bo'ladi. Qo'ltiq ostiga valik yoki yostiqchani 30 daqiqagacha qo'yish kerak. Oyoqni to'g'rinishda tizza bo'g'imiga va oyoq panjasiga qum xaltachalar qo'yish kerak bo'ladi. Bemor hushiga kelgan kundan boshlab, yengil ugplash, nafas mashqlari hamda sust harakatlari qilish tavsiya etiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Ishemik insultning klinik belgilarini aytинг.
2. Nima sababdan bosh miyada qon aylanishining o'tkinchi buzilishlari deb ataladi?
3. Gemorragik insultning klinik belgilarini aytinig.
4. Subaraxnoidal qon ketish sabablarini tushuntiring.
5. Pastki paraplegiya to'satdan kelib chigsa, nima haqida o'ylaysiz?

1-chizma

### **Bosh miya qontamiri buzilishlari algoritmi**



## **Markaziy asab tizimining o'smalari**

Bosh miya o'smalari juda keng targalgan kasallik. Bosh miya o'smasi odam yoshiba bog'liq bo'lмаган holda paydo bo'ladi. Ular erkaklar va ayollarda bir xilda uchraydi. Hamma o'limlar ichida 1 % bosh miya o'smaga to'g'ri keladi.

O'smalardagi klinik manzara 3 xil ko'rinishda bo'ladi: 1. Umumiy miya belgilari. II. Dislokatsiya, ya'ni bosh miyadagi o'smaning boshqa to'qimalarga qisilishi. III. Mahalliy miya belgilari, bunda o'sma bosh miyaning qayeri zararlanishiga bog'liq bo'ladi.

I. Umumiy miya belgilari. 1. Bosh og'riq – ba'zan juda qattiq, boshning hamma joyida, bosuvchi, og'irlik beruvchi tarzda bo'ladi. Bosh og'riq boshni qimirlatganda, egilganda kuchayadi. Miyada qon va likvor aylanishi buzilishi natijasida paydo bo'lган bosh og'rig'i miya o'smasining dastlabki belgisi hisoblanadi. Bosh og'riq, asosan, kechasi yoki ertalab zo'rayib ketadi. Og'riq ertalab bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etadi. Bemor ertasiga ham davom etadigan bosh og'riq bilan uyg'onadi. Avval bosh og'riq chegaralangan schada bo'ladi, keyinchalik og'riq doimiy bo'lib qoladi. Bosh og'riq, asosan, jismoniy zo'riqishda, hayojonlanganda, yo'talganda, aksa urganda, qayt qilganda yoki boshni oldinga egganda zo'rayadi. 2. Qusish – bosh og'riq kuchayganda bemor qusadi, qusish ovqat iste'mol qilishiga hamda tana holatining o'zgarishiga bog'liq bo'lmaydi. Miyaning ichki bosimi oshganda bemor qayt qila boshlaydi. Bosh miya o'smalarida qayt qilish ko'proq nahorda kuzatiladi. 3. Bosh aylanish – o'smalar ko'proq bosh miyaning qaysi qismida o'sishiga bog'liq bo'ladi. Bosh aylanish dastlab kamroq, qisqa vaqt davom etsa, keyinchalik o'sma kattalashgan sayin ko'proq kuzatiladi. 4. Ruhiy o'zgarish – bosh miya o'smalarida boshda suyuqlik bosimining oshishi ruhiy o'zgarishlarga olib keladi, bemorning o'z-o'ziga tarqidining pasayishi, karaxtligi, kayfiyatning buzilishi, depressiya holatiga olib keladi. Tutqanoq xurujlari ham kuzatiladi. 5. Ko'rish nervining so'rg'ichida qon tutilib qolishi hamda bosh miya bosimining oshishi o'smaning toksik ta'sirida paydo bo'ladi. Bu belgilarning paydo bo'lishi, asosan, o'smaning qayerda joylashganiga bog'liq. Bu belgi miyacha, IV qorincha, chakka bo'limirada kuzatiladi. Bunda ko'z oldining qoron-q'ilashuvi, ko'rish o'tkirligining pasayib ketishi, ko'rish nervida qon to'planligidan darak beradi. Kasallik kuchaygan sari ko'rav nervi atrofiyalanib boradi, keyinchalik bemor umuman ko'rmay qolishi mumkin. Ko'z tubida ko'rav nervining dimlanishi, qontomiridagi qonning turib qolishi, tomirlarning kengayishi natijasida yuzaga keladi. 6. Bosh miya xavfsiz o'smalar ta'sirida bemorda uzoq yil davomida tutqanoq xurujlari klonik-tonik ko'rinishda bo'ladi. Xavfli o'smalarining boshlanishida tutqanoq xurujlari bilan birga hushdan ketish va ruhiy o'zgarishlar kuzatiladi. 7. Orqa miya suyuqligi tarkibining o'zgarishi – bunda suyuqlik bosimi baland, rangi o'zgarmagan tiniq, tekshirganda, asosan, oqsillar soni ko'p bo'ladi. 8. Bosh

miyaning kalla suyagini rentgenografiya qilganda gipertenzion belgilar: qontomirlar ko'rinishining bo'rtganligi, barmoqlar izi va turk egarining silliqlashishi yoki yemirilishi kuzatiladi.

Bosh og'riq, qayt qilish va ko'rish asab so'rg'ichining dimlanishi – shu uchta belgi 60 % bosh miya o'smalarida uchraydi. O'smalar paydo bo'lган vaqtida mahalliy miya belgilari ular qayerda joylashishiga va qanday o'sishiga bog'liq. O'smalar o'sishiga, joylashishiga qarab, ekstroserebral – bosh miyadan tashqaridagi o'smalar, introserebral – bosh miya ichida o'sadigan o'smalarga bo'lindi.

Agar meningo ma miyaning ustki qismi (konveksital)da bo'lsa, unda bemorda bosh og'riq, bosh aylanish hamda tutqanoq xurujlari, Jekson xilida, ya'ni yuz, qo'l-oyoqda klonik qaltirash kuzatiladi. Ayrim hollarda qaltirash qisqa vaqt ichida bo'ladi va 2–3 daqiqa davom etadi. Ba'zan esa tonik-klonik qaltirash bo'lib, benor hushini yo'qtadi, tilini tishlab oladi, tagiga siyib yuborish holatlari kuzatiladi. Ba'zi hollarda qo'l yoki oyoqda monoparez markaziy xarakterda, har doim qarama-qarshi tomonda bo'ladi.

Agar o'smalar miya asosida bo'lsa, unda mahalliy miya belgilari ko'zning ko'rishi pasayishi yoki yo'qolishi, hidhi bilmaslik, ko'zga narsalaming ikkita bo'lib ko'rinishi, ichkari va tashqariga qarab qolgan g'ilayliklar, nistam kuzatiladi. Agar o'sma bosh miyaning peshona qismida o'ssa, unda parezlardan tashqari ruhiy o'zgarishlar – karaxtlik, hech narsaga qiziqmaslik yoki xursandchilik, ko'p qilgan ishlariga javob bermaydi, o'z-o'ziga tangid pasaygan bo'ladi. Agar o'sma ichki kapsula sohasida bo'lsa, unda VII–XII juft kalla bosh miya nervlarining markaziy falajlanishi, gemiparez markaziy xarakterda, gemianesteziya o'tkazuvchanlik xilida bo'ladi. Agar o'smalar qorinchalar ichida o'ssa, unda qattiq bosh og'riq, quşish, boshni ma'lum xilda ushlab turish, chunki o'sma suyuqlilar yo'lini to'sib qo'yadi.

II. Dislokatsiya, ya'ni bosh miya o'zagining siljishi yoki bosh miyadagi o'smaning boshqa to'qimalarga qisilishi.

O'smalar uchun eng asosiy belgilar: 1. Tana haroratining ko'tarilmasligi. 2. O'tkir boshlanmaydi. 3. Umumiyligi va mahalliy miya belgilari astasekinlik bilan rivojlanadi. 4. Orqa miya suyuqligida oqsil miqdori ko'p bo'ladi. 5. Ko'z tubida dimlanish bo'ladi.

Agar bosh miyada o'smalarga xos belgilar kuzatilsa, unda bosh miyani quyidagi tekshirishlardan o'tkaziladi. EEG, EXO, kalla suyagini rentgenografiya qilish, kompyuter tomografiya, angiografiya, ko'z tubini, orqa miya suyuqligini tekshirish zarur.

**Davosi.** O'smalarning palliativ va radikal davo usullari mavjud. Palliativ davolashda dori-darmonlar bilan birga gormonlar hamda rentgenoterapiya usullari qo'llaniladi. Rentgenoterapiya usullarida radiaktiv izotoplar (palladiy, ittriy, oltin) bilan davolash yaxshi natija beradi. Hamma o'smalarga siyidik haydovchi dorilar –mannitol, gipotiazid, furosimid, diakarb 0,025 mg 1 ta tabletkadan kuniga 2 marta berish lozim. Laziks 2,0 ml dan, magneziy sulfat 25 % 10,0 ml mushak orasiga qilinadi. Siyidik haydovchi dorilarni

uzoq vaqt ishlatish natijasida organizmda tuz va suv muvozanati buzilishiga olib keladi va organizmning suvsizlanishi ro'y beradi. Shuning uchun fizologik eritma 0,9 %, glukoza 5 %, elektrolitlar, kaliy xlor, vitaminlar, tana harorati ko'tarilgan bo'lsa, litik aralashmalar tavsiya etiladi. Bundan tashqari, tutqanoq xurujiga qarshi finlepsin, fenobarbital, benzonal 0,1 g 1 ta tabletkadan 3 mahal ichishga beriladi. Radikal usulda jarrohlik yo'li bilan o'sma olib tashlanadi. O'smalar qancha erta aniqlansa, bemorning ahvolida umumiy va mahalliy miya belgilaring kuchayishiga yo'l qo'yilmaydi. Jarrohlik usulining iloji bo'lmasa, bemorga rentgen nurlari bilan davolash tavsiya etiladi.

**Parvarish qilish.** O'sma jarrohlik usuli bilan olib tashlangandan keyin bemorni parvarish qilish katta ahamiyatga ega. Chunki bunda bemor bezovtalaniib, har xil harakatlar qilishi, ruhiy tushunklikka tushishi mungkin. Ayrim bemorlarda talvasa xuruji bo'lib turadi. Kalla operatsiya qilingandan so'ng bemorni operatsiya qilingan tomonqa qarama-qarshi tomon bilan chalgancha yoki yorbosh qilib yotqizilishi kerak. Bunda yutish faoliyatini buzilgan bemorlarning og'iz bo'shlig'iga so'lak yig'ilib qoladi. Natijada, so'lak yuqori nafas yo'llariga yig'ilib qoladi. Bunday bemorlar og'iz bo'shlig'ini kuniga 4-5 marta tozalab turishi tavsiya etiladi. Bemor kallasiga bog'langan bog'lamni olib tashlamasligi uchun uni mahkam bog'lash kerak. Jarrohlik aralashuvidan bir kun oldin bemorni tayyorlash va yengil ovqatlantirish tavsiya etiladi. Agar bemorlarni og'riq bezovta qilsa, unda og'riq qoldiruvchi dorilar buyuriladi. Operatsiyadan keyin bemorlarni oz-ozdan, tez-tez ovqatlantirish talab etiladi.

### Bosh miya abssessi

Bosh miya abssessi (xo'ppoz) – bu bosh miya to'qimalarida bo'shliq bo'lib, yiring ajralgan holda, ya'ni chegaralangan bo'ladi.

**Sabablar.** Bosh miya abssessi har doim ikkilamchi bo'lib, boshqa a'zolarning yiringli kasallik asoratidir. O'rta va ichki qulogning yiringli yallig'lanishi, burun – tomoq yo'llarining yallig'lanishi, bosh miya jarohatlari va o'pkaning yiringli kasalliklaridan keyin paydo bo'ladi.

**Klinik manzarasi.** Umumiy va mahalliy miya belgilari yuzaga keladi. Kasallikning o'tkir davrida bosh og'riq, qusish, bosh aylanish, ko'ngil aynishi, haroratning ko'tarilishi, bradikardiya, hushi karaxt bo'ladi. Bemor bo'shashgan, holsiz va kam harakat bo'lib, uyqusi buzilgan (uyquchan) bo'ladi. Meningial belgilardan ensa mushagi tarangligi bo'lsa-da, lekin Kernig belgisi bo'lmasligi mungkin. Abssess joylashishiga qarab, bosh miya chakka sohasining chap tomonida bo'lsa, bunda amnestik yoki sensor afaziya, gemianopsiya, tutqanoq xuriji, eshitish, hid va ta'm bilish hamda muvozanat buzilishlari kuzatiladi. Mahalliy miya belgilaridan Veber belgisi – ko'z olmasini harakatlantiruvchi asabning o'choq tomonda zararlanshi, qarama-qarshi tomonda esa piramid yo'lini zararlanishi (gemipa-rez) kuzatiladi. Ba'zi hollarda ikki tomonlama ko'z olmasini harakat-

lantiruvchi nerv bilan birga piramid yo'lining zararlanishi bo'ladi. Abscess miyachada bo'lsa, muvozanatning statik va dinamik buzilishlari, gemitaksiya, mushaklar tonusining pasayishi, dizdiadoxokinez belgilari paydo bo'ladi. Bunda bemor orqaga yoki zararlangan tomonga yiqiladi, o'choq tomonda nistagm, dizartriya, gemi – yoki monoparez, tonik qaltirash hamda VII–IX–X–XII juft kbm nervlarining zararlanishi kuzatiladi. Abscess bosh miyaning peshona qismida bo'lsa, Jekson qaltirashi, mono-yoki gemiparez, motor afaziya, ruhiyatning o'zgarishi, dizartriya, apraksiya qo'l-oyoglarda, ataksiya, nistagm, katalepsiya, ushslash reflekslari yo'goladi. Bosh miyaning tepe va ensa qismlarida abscess kam uchraydi. Qon tekshirilganda leykotsitlar soni ko'paygan (leykotsitoz), ECHT kuchaygan, ko'z tubida o'zgarishlar bo'ladi, orqa miya suyuqligi biroz ko'tarilgan, oqsillar soni 1 g/l gacha, bosh miya rentgen suratida gipertenzion belgilar bo'ladi. Tashxis qo'yishda EXO, EGG, kompyuter tomografiya, angiografiya va lumbal punksiyadan foydalanildi.

**Davosi.** Jarrohlik yo'li bilan miya to'qimasidagi yiring olib tashlanadi. Antibiotik, sulfanilamid dorilar beriladi.

### **Miyaning parazitar kasalliklari**

Bosh miyaning eng ko'p uchraydigan parazitar kasalliklari sistitserkoz, exinokokkoz va toksoplazmozdirdir.

**Sistitserkoz.** Sistitserk cho'chqa solityori rivojlanishining ilk bosqidi – finna. Bu kasallik ifloslanib qolgan ovqat bilan birga hazm yo'liga gijja tuxumlari tushib qolganida kelib chiqadi. Gijja tuxumlari qon o'zanidan miyaga borib, shu yerda o'tirib qolishi mumkin. Odatda, bosh miya bir talay sistiserlar bilan zararlangan bo'ladi.

**Klinik manzarasi.** Kasallik ko'pincha bosh miya o'smalariga o'xshab ketadi. Kasallikning alomatlari juda xilma-xil bu, asosan, kasallik o'chog'ining miyada qanchalik ko'pligi va qaysi joyda o'rin olganiga bog'liq bo'ladi. Gipertenzion belgilar (bosh og'riq, qusish, ko'ruv nervining so'rg'ichida dimlanish) kuchayib boradi. Tutqanoq xurujlari ko'pincha Jekson xuruji ko'rinishida bo'ladi. Xuruj boshlanishi o'zgarib, goh o'ng yoki chap tomondan, goh qo'l yoki oyogda qaltirash belgilari namoyon bo'ladi. Ruhiy buzilishlar: qo'zg'alish, depressiya, gallutsinatsiyalar, Karsakov alomati belgilari ko'rinishida bo'ladi. Brunsa belgisi – bunda sistitserk VI qorinchada bo'lsa, bemor boshini birdan yon tomonga burganda kuchli bosh aylanish tufayli bemor yiqiladi, umumi yiya belgilari: bosh og'riq, qusish, hushning qorong'ilashuvi, tonir urishning sekinalashuvi, birdan teri rangining oqarib ketishi, ko'p terlash holatlari kuzatiladi. Sistitserkozga tashxis qo'yish maqsadida bir necha serologik reaksiyalar qo'llaniladi. Orqa miya suyuqligida Vozn reaksiyasining musbat bo'lishi, ko'z tubi, kalla suyagi rentgenografiyası, kompyuter tomografiya xulosalariga asoslanadi. Orga miya suyuqligida hujayralar sitoz – limfotsitlar hisobiga

ko'paygan, ba'zan eozinofiliyalar uchraydi. Oqsillar soni me'yorida yoki 0,5 g dan 2 g/l gacha ko'payishi mumkin.

**Davosi.** Simptomatik davolar va ba'zan jarrohlik usullari qo'llaniladi.

**Oldini olish choralar.** Gigiyyena qoidalariga amal qilish, meva va sabzavotlarni yaxshilab yuvish, ovqatdan oldin qo'llarni sovunlab yuvish talabetiladi.

**Exinokokkoz.** Bosh va orqa miya exinokokkozi kam uchraydigan kasallik bo'lib, kichkina lentasimon gjija – Taenia echinococcus embrioni miyaga o'tib qolganida vujudga keladi, bu gjijjaning shu embrioni miyada finna davrini o'taydi. Exinokokning lentasimon shakli it va bo'riling ichagida yashaydi. Odam kasal itga yaqin yurganida, tabiiy suv havzalaridan xom suv olib ichganida, yuvalmagan mevalarni yeganida o'ziga shu gjija tuxumini yuqtirib oladi. Odam me'dasiga tushgan tuxunlar pardasi yemiriladi; ajralib chiqqan embrion me'da ichak yo'lining qon va limfa tomirlariga o'tadi. Qon oqimi bilan ular turli a'zolarga, ko'pincha, jigar va o'pkaga borib qoladi. Turli a'zolarning to'qimalarida embrion pufakcha shakliga (finnaga) aylanadi, uning so'rg'ich va ilmoqchalari bilan ta'minlangan boshchasi bo'ladi. Pufak bo'shlig'i sarg'ish tiniq suyuqlik bilan to'lib turadi. Bosh miyada ko'pincha bir kamerali exinokokk uchraydi. U qat-qat parda bilan o'ralgan kattakon pufakdir. Bu pufakda rivojlanayotgan qiz pufaklari va uchinchi tartib pufaklari bo'lishi mumkin. Shunday qilib, suyuqlik bilan ko'p bo'shligli kista hosil bo'ladi.

Bosh miya exinokokkozi uchun, xuddi bosh miya o'smasida bo'lgani kabi, kalla ichki bosimining ko'tarilishi belgilari bilan o'choq belgilaming birga uchrashi xarakterlidir. Talvasa tutqanoqlari, parezlar kuzatilishi mumkin. Orqa miya exinokokkozida xuddi o'smalardagiga o'xshash belgililar ko'rildi.

Boshqa a'zolarda (jigar, o'pka va boshq.) exinokokkoz borligi, qonda lateks – agglutinatiya reaksiyasining musbat bo'lib chiqishi to'g'ri tashxis qo'yishga yordam beradi. Tashxisni aniqlash uchun teri ichiga allergik reaksiya qo'yib ko'rilganida (Kassoni sinamasи) ko'pincha organizmning umumiyligi allergik reaksiysi ko'rildi.

**Davosi.** Jarrohlik: exinokokk pufagi olib tashlanadi.

**Toksoplazmoz.** Odam kasal hayvonlarning go'shti va sutini iste'mol qilganda yoki kasal hayvonlarga yaqin yurganda (so'lagi orgali) organizmiga Toxoplasma gondi parazitining tushib qolishi turli a'zolarning: yurak mushaqiga, o'pka, jigar, limfa tugunlarining zararlanishiga sabab bo'ladi. Parazitning plasenta orgali o'tishi nati jasida ona qornidagi homila ham kasallanishi mumkin. Toksoplazmoz ko'pincha asab tizimini zararlaydi. Bemorlarda toksoplazmoz serebral leptomeningit, ensefalit, ensefalomiyelit ko'rinishida kuzatiladi. Toksoplazmoz serebral leptomeningitida ko'p uchraydigan belgililar gipertenzion alomat va talvasa tutqanoqlaridir. Toksoplazmoz ensefalitining alomatlaridan biri gipotalamik alomatdir. Kasallikka tashxis qo'yishda o'tkaziladigan immonologik tekshirishlar: komplementni biriktirish, immunofluoressensiya,

bilvosita gemagglutinatsiya reaksiyalari, toksoplazmin bilan teri ichiga qo'yiladigan allergik sinama hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**Davosi.** Xloridin (0,025 g dan kuniga 2 mahal), sulfadimezin (1 g dan kuniga 2 mahal) buyuriladi, bular 2 hafta oralab, 5 kun, 5 kundan davom etadigan 3 kurs davomida ishlataladi. 1–1/2 oy oralab 3–4 davo kursi o'tkaziladi.

### **Nazorat savollari**

1. Bosh miya absesssi bo'lsa, qanday klinik belgilarni topamiz?
2. Kalla ichki bosimi oshganda qanday tekshirish o'tkaziladi?
3. Bemorda bosh og'riq, ko'z tubining dimlanishi, tutqanoq xurujlari bilan birga sensor afaziyasi bo'lsa, siz nima haqida o'ylaysiz?
4. O'smalarga xos klinik belgilarni aytib bering.
5. Agar miyachada o'sma bo'lsa qanday klinik belgilarni beradi?

### **Bosh va orqa miya shikastlanishi**

Bosh va orqa miya shikastlari hozirgi zamonda tinchlik vaqtida ham ko'p uchraydi. Bu kasalliklarining kelib chiqish sabablari turli – tuman bo'lib, bular avtomobil, temir yo'lfdagi avariylar, ishdagi va oilada bo'ladigan janjallardir. Turli xildagi bosh va orqa miyaga taassurotlar natijasida ham kelib chiqadi, masalan, sportdagi shikastlar.

Bu kalla bosh miya shikastlari keyinchalik og'ir oqibatlarga va nogironlikka olib kelishi mumkin. Kalla bosh miya shikastlari ikki xil bo'ladi. 1. Ochiq kalla bosh miya shikastlari – bunda bosh miya kalla suyagi bir butunliliği buziladi, ya'ni kalla suyagi yoriladi va bosh miya to'qimalarida zararlanish alomatlari kuzatiladi. 2. Yopiq kalla bosh miya shikastlarida suyak bir butunligi buzilmagan, ya'ni sirmagan bo'ladi. Bunda yumshoq to'qimalar kesilgan, yorilgan, ko'kargan, ezilgan bo'ladi.

Kalla bosh miya shikastlari quydagilarga bo'linadi:

- Bosh miyaning chayqalishi – Commocio cerebri;
- bosh miyaning lat yeishi yoki ta'sirlanishi – Contuzio cerebri;
- bosh miyaning ezilishi yoki bosilishi – Compressio cerebri;
- bu bosh miya shikastlari orasida eng ko'p uchraydigan bosh miya chayqalishi bo'lib, u 75–80 % ni tashkil etadi.

**Bosh miya chayqalishi.** Bosh miya chayqalishi eng yengil bosh miya jarohatlari hisoblanib, bosh miya to'qimalarida qontomirlarning kengayishi, mayda-mayda qon ketish va qontomirlarning o'tkazuvchanligi oshib ketishi natijasida bosh miya to'qimalarida shish bo'lishi, kalla bosh miya ichida bosimning oshib ketishi bilan xarakterlanadi. Bosh miya chayqalishda miya pardalarining to'lagonligi, venalardagi to'lagonlilik, miya to'qimasining shishi va mayda-mayda qon quyilishlar kuzatiladi.

**Klinik manzarasi.** Hushdan ketish 90 % bemorlarda uchraydi, 10 % bemorlarda hushi karaxt bo'lib qoladi. Hushdan ketish bir necha daqiqa-

gacha davom etadi. Qusish bir yoki bir necha marta takrorlanib, shu vaqtning o'zida ko'ngil aynish bilan xarakterlanadi. Retrograd ameziya – jardhatdan oldin bo'lib o'tgan voqealarni bemonlar eslay olmaydi. Bemon bir necha kun o'z ismi familyasini, manzilini, oila a'zolarini hamda birga ishlaydiganlarini eslay olmaydi.

Mana shu uchta belgi yosh bolalarda bir vaqtda uchramaydi. Ko'proq ko'ngil aynishi, bosh og'rishi, qulogda shovqin bo'lishi, bosh aylanishi, ko'p terlashi va teri rangining oqarish belgilari bilan davom etadi. Bemon o'ziga kelgandan so'ng ko'proq bosh og'rishi, bosh aylanishi, umumiy holsizlik, ko'p terlash hamda uyqu buzilishlaridan shikoyat qiladi. Asab sohasi ko'rulganda pay reflekslarining asimetriysi, nistagm, yengil Kernig va ensa mushagi tarangligi belgilari kuzatiladi. Kasallik 3 kundan 7 kungacha davom etadi. Bundan tashqari vegetativ o'zgarishlar kuzatiladi. Bularga qon bosimining o'zgarib turishi, dastlab bradikardiya, keyin taxikaridiya bilan almarshib turadi, tana haroratining  $37,2 - 37,8^{\circ}\text{C}$  gacha ko'tarilishi, kaftrning ko'p terlashi va titrashi hamda sovuq qotishi kuzatiladi. Ruhiy tomonidan esa kasal karaxt, ruhiyati past, tezda mulogqtda bo'la olmaydi, ba'zan bemonlarda ko'rish va eshitish gallutsinatsiyasi bo'lishi mungkin. Eng asosiy o'zgarishlardan muvozanatning buzilishi kuzatiladi. Bunda bemonlarda ataksiya, burun – barmoq sinovini bajarish qiyinlashuvi kuzatiladi va Romberg holatda chaygaladi.

**Bosh miyaning lat yeyishi.** Bu holat bosh miya chaygalishiga nisbatan og'irroq bo'lib o'tadi va bosh miya to'qimasi, miya pardalari ko'proq zararlanadi, qantomirlari uziladi, qon pardalar orasiga chiqishi natijasida meningial belgilari paydo bo'ladi. Bosh miyada qon va bosh miya suyuqligi aylanishi buziladi, miya to'qimalarida nekroz paydo bo'ladi.

Bosh miya jarohatlaridan keyin hushdan ketish bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etadi. Bunda asab tizimiga taalluqli belgilari 2 guruhga bo'linadi. 1. Umumiy miya belgilari – bosh og'riq, ko'ngil aynish, qusish, bosh aylanish, bular miya ichidagi bosimning oshib ketishi natijasida sodir bo'ladi. 2. Mahalliy miya belgilari. Bular yengil anizokoriya, nistagm, parezlar, nutq buzilishlari va qaltirashlar bilan kechadi.

Yengil shaklida umumiy miya belgilari ko'p rivojlanmagan, mahalliy miya belgilari esa miya chaygalishidagidan ko'ra ko'proq saqlangan bo'ladi. Yuzda asimetriya, nistagm yoki nistagmoid, gapirishning buzilishi, mushaklar tonusining oshishi, meningial belgilari paydo bo'ladi, kasallik 2–3 haftagacha davom etadi. Hushdan ketish bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etadi.

O'rta og'ir shaklida hushdan ketish bir necha daqiqadan 4–6 soatgacha davom etadi. Bunda bosh og'riq juda kuchli bo'lib, qusish ko'p marta takrorlanib turadi. Ruhiyatning buzilishi bir necha kungacha davom etadi, retrograd ameneziya kuzatiladi. Umumiy miya belgilari rivojlangan bo'ladi (bosh og'riq, qusish), mahalliy miya belgilari esa miya ustunining zararlanishidan kelib chiqadigan belgilardir. Bularga ko'z qorachig'i

reflekslarining buzilishi, mioz yoki midrioz, komial reflekslarining pasayishi, nistagn, qo'l oyog'dagi reflekslarning anizorefleksiysi kuzatiladi. Vegetativ o'zgarishlarda qon bosimining ko'tarilishi, bradikardiya yoki taxikardiya, teri rangining oqarishi, nafas olishning tezlashishi hamda tana haroratingning biroz ko'tarilishi kuzatiladi.

Og'ir shaklida hushning yo'qolishi bir necha soatdan bir necha haftagacha davom etadi. Bunda bradikardiya 40 marta 1 daqiqa da, qon bosimining ko'tarilishi, nafas olishning tezlashishi 40–50 martagacha 1 daqiqa da yoki kamayishi 8–10 marta 1 daqiqa da, tana haroratining yuqori bo'lishi – gipertermiya kuzatiladi. Mahalliy miya belgilarida ko'z olmasining o'ynab turishi, nigohning bir tomonga qarab qolishi, ikki tomonlama mioz yoki midriaz, yutinishing buzilishi, mushaklar tonusining ko'payishi yoki kamayishi belgilari kuzatiladi. Bulardan tashqari pay reflekslarining yo'qolishi, parez, paralichlar bo'ladi, tonik qatlirash belgilari hamda bosh miyada suyuqlik oshib ketadi. Diensefal xilida hushning yo'qolishi bilan birga isitmaning baland bo'lishi 40–41°C gacha, bunda isitma markaziy xarakterda, nafas olish tez, yuzaki, yurak urishi tezlashgan, ipsimon bo'ladi. Kasalning umumiy ahvoli juda og'ir bo'lib, koma holatda bo'ladi.

**Bosh miyaning ezilishi.** Bunda bosh miyaning to'qimalari qisilib, ularda organik o'zgarishlar paydo bo'ladi. Miyaga qon quyiladi. Bu qon miya pardalarida qon quyilish epidural gematoma bu qattiq miya pardasi va suyak orasida bo'ladi. Dastlab, klinik manzara bo'lmasligi mumkin. 12–36 soatdan so'ng, gematoma kattalashgandan keyin, 4–5 sm bo'lgach klinik manzara kuzatiladi. Bunda bosh og'riq, qusish, hush karaxt bo'lib, bemorni sovuq ter bosadi. Gematomalar joylashishiga qarab oldingi peshona-chakka qismda, o'rtangi peshona – tepa qismda va orga peshona – chakka – ensa qismda hamda miya asosida bo'lishi mumkin. Umumiy miya belgilaridan tashqari mahalliy miya belgilarining barchasi kasallangan tomonda qorachiqning kengayishi (midriaz) kuzatiladi. Keyinchalik gematoma kattalashgan sayin miya to'qimalari ezilib, juda qo'pol mahalliy miya belgilari kuzatiladi. Bular gemiparez yoki gemiplegiya, shu joylarda sezgining buzilishi, anizorefleksiya, bir tomonlama midriaz (midriaz gematoma tomonda bo'ladi) kuzatiladi. Qarama-qarshi tomonda gemiparezning kuchayishiga Knapp belgisi deyiladi. Bundan tashqari, bradikardiya 40–50 marta 1 daqiqa, epipripadka, nistagn, rivojlangan gipotoniya, qon bosimining ko'tarilishi, nafas olishning buzilishi, hushning yo'qolishi, qayta qusish va ruhiyatning o'zgarishi, anizokoriya, ko'z tubida dimlanish, isitmaning baland bo'lishi 39–40°C gacha bo'ladi.

**Subdural gematoma** – bunda subdural bo'shliqqa qon venalardan va qontomirlardan quyiladi. Bu gematoma ba'zan kechroq 4–14 kundan keyin yuzaga keladi. Bu gematomalar bosh miya usri qismida joylashadi. Bunda umumiy miya belgilari – qusish, bosh og'riq bilan birga mahalliy miya belgilar – bemorda tutqanoq va keyinchalik gemiparez yoki gemiplegiya (bular hamma vaqt qarama-qarshi tomonda) kuzatiladi.

**Subaraxnoidal** – pardalar orasiga qon quyilish. Bemorlar qattiq bosh og'riq, qusish, bezotalik, umumiyoq'zg'alish, gallutsinatsiya, yong'likdan va shovqindan bezvotta bo'ladiilar. Bunda hamma meningial belgilari paydo bo'ladi. Orqa miya punksiya qilinganda suyuqlikning katta bosim bilan chiqishi, rangi qizil bo'lishi kuzatilib, shunga qarab tashxis qo'yiladi. Tashxis qo'yishda: EEG, EXO, kompyuter tomografiya va kalla suyagini ikki tomonidan rentgenografiya qilish tavsiya etiladi. Bunda gipertenziya belgilari, turk egarining silliqlanishi, barmoq izlарини rentgenografiyada ko'rishimiz mumkin. Bosh miyada qon quyilishi bo'lsa, lumbal punksiya tavsiya etiladi. Ko'z tubida bir haftada qontomirlarning kengayishi, keyinchalik dimlanishi paydo bo'ladi.

Yopiq bosh miya shikastlari hamma vaqt o'zidan asorat qoldiradi. Bular turli xil bo'ladi: shikastdan keyingi ensefalopatiya, shikastdan keyingi leptomeningit. Astenonevrotik ko'rinishdagi bemorlarda bosh og'riq, bosh aylanish, sababsiz yig'lash, tez charchash, uyqusizlik kuzatiladi. Asab sohasini tekshirganimizda qo'llarda titrash, qo'rqish, vahima, talvasa, bezotalik bilan birga nistagn, anizorefleksiya, ataksiya asoratlari qolishi mumkin. Yoki bosh miyada shikastdan keyingi talvasa xurujlari, gipertenzion alomatlar bo'lishi mumkin.

**Davosi.** Hamma vaqt bemorlar to'shakda yotishi kerak. Yengil shakllarida 10–14 kun, o'rta og'ir shaklida 3–4 hafta, og'ir shaklida 1,5–2 oy davomida to'shakda yotish tavsiya etiladi. Simptomatik davolar tavsiya etiladi. Bosh og'riqga qarshi analgin, fenatsetan, paratsetamol, baralgin; bosh aylanishiga bellaspox, torikan, betaserk, bellataminal; qusishga qarshi aminazin, diprazin, pipolfen, galoperidol; uyqusizlikka qarshi ivadal, dimedrol, roginpol, fenobarbital; bosh miyadagi suyuqlikni kamaytirish maqsadida siydiq haydovchi dorilardan – laziks, magneziy sulfat, diakarb, furatsemid,mannitol 1 g/kg, triampur 1/2 kuniga 2 mahal ichishga beriladi; bularidan tashqari askarbin kislota katta dozada, 40 % glukoza tomir ichiga, askarutin, kalsiy xlор 5–10 % 1 qoshiqdan uch mahal ichishga, kokarboksilaza, AIF, vitaminlar B<sub>1</sub>, B<sub>12</sub>, B<sub>6</sub> tavsiya etiladi. Qaltirashga qarshi benzonal, fenobarbital, finlepsin; qon ketganda vikasol, ditsinon, aminokapron kislota 5 % 100 ml har 6 soatda tomir ichiga quyish tavsiya etiladi. Bosh miyada qon aylanishini yaxshilash maqsadida eufillin 2,4 % 5–10 ml dan tomir ichiga, kavinton, trental, sermion, agapurin, stugeron 0,025 g 1/2 tabletka dan kuniga 2–3 marta ichishga beriladi. Keyingi vaqtarda oksibral, aktovegin 2,0 va 5,0 ml dan mushak orasiga. Kasallikning hamma shakllarida nootropil 0,2 g dan kuniga 3 mahal, aminalon, glutamin kislota 2–3 haftadan 2–6 oygacha beriladi. Og'ir hollarda piratsetamni 20 % 20–30 ml gacha, serebrolyzini 10,0 ml dan natriy xlор 250,0 ml ga qo'shib tomir ichiga sekinlik bilan yuboriladi. Ruhiyat buzilishida trankvilizatorlar, neyroleptiklar, barbituratlar, og'ir shakllarida gormonlar beriladi. Zotiljam bo'lmasligi uchun antibiotiklar qo'llaniladi. Kasallikning 8–10 kunidan boshlab aloe, FiBS, shishasimon tana, lidaza

beriladi. Bosh miya jarohatlarining asoratlariga natriy brom, gumizol, kofein, amitriptilin, sonapaks, frenalon, bioxindol, serebrolizin, nootropil, aminalon, glutamin kislota va fizioterapevtik muolajalar, elektroforez 3 % kaliy yodid, 4 % mumiyo eritmasi bilan ensa sohasiga buyuriladi. Ugalash, davo mashqlari hamda iglorefleksoterapiya muolajalari tavsiya etiladi.

### **Orqa miya shikastlari**

Orqa miya shikastlari ham ochiq va yopiq shikastlarga bo'linadi. Yopiq orqa miya shikastlarida yot jism orqa miyani jarohatlash bilan birga orqa miya kanaliga kirmaydi. Ochiq orqa miya shikastlarida esa orqa miyani hamda orqa miya kanali ichini bir vaqtning o'zida jarohatlaydi. Orqa miya shikastlari 3 turga bo'linadi.

**Orqa miya chayqalishi.** Bunda orqa miya moddasi bilan orqa miya pardalarida shish bo'lib, asosan, kulrang moddasining ayrim joylariga mayda-mayda qon quyilish bo'ladi. Jarohatlangandan so'ng bemorning oyoqlari darmonsizlanib, harakat kamayadi, kuchsizlanadi. Orqa miya chayqalishing og'ir hollarida, qaysi joy jarohatlanishiga qarab, tetraplegiya yoki paraplegiya paydo bo'ladi. Qisqa muddatda siyidik tutilib, tizza va Axill reflekslari yo'qoladi, sezuvchanlik unchilik buzilmaydi.

**Orqa miya lat yeishi.** Bunda orqa miyaning ayrim qismlari nekrozga uchrashi, yumshab qolishi va qon quyilishi kuzatiladi. Ularning ogibatida orqa miya o'z vazifasini bajamaydi, natijada, falajlik paydo bo'ladi. Sezuvchanlik va chanoq a'zolarining ishi buziladi. Kasallik asta-sekinlik bilan tuzala boshlaganida orqa miyada organik zararlanishga xos belgilar paydo bo'ladi. Bunda mushaklar tonusi, pay reflekslarining baland bo'lishi bilan birga patologik reflekslari ham paydo bo'ladi. Orqa miyaning o'z tomirlaridan qon quyilishi – *gematomiyeliya*, pardalar tomirlaridan qon quyilishi – *genotoraxis deb ataladi*.

Gematomiyeliya orqa miyaning markaziy kanal va shox sohasining kulrang moddasida bo'ladi. Bunda orqa miyaning zararlanganligiga xos belgilar birdan paydo bo'lib, keyinchalik yo'qolib ketishi mumkin. Orqa miyaning oldingi shoxiga o'tish natijasidaerez va plegiyaga olib keladi. Dissotsiyalashgan tipdag'i sezuvchanlik buzilgan bo'ladi, ya'ni chuchur sezuvchanlik bilan taktil sezuvchanlik saqlanib, og'riq va harorat sezuvchanligi buzilgan bo'ladi. Genotoraxisda qon qattiq miya pardasidan ichkariga (subdural va subaraxnoidal) va tashqariga (epidural) qon quyilishlar kuzatiladi. Genotoraxis jarohatlangan vaqtidan boshlab, klinik manzaralar paydo bo'lguncha oradan bilinmay turadigan vaqt (kasallikning yashirin davri) o'tishi xarakterlidir. Bu vaqt bir necha daqiqdadan bir necha soatgacha davom etadi. Subaraxnoidal qon quyilishida miya pardasining ta'sirlanishiha xos belgilar (ensa mushagining tarangligi, Kernig, Brudzinskiy belgilari) kuzatiladi. Umurtqa pog'onasi singanida umurtqa chiqib ketadi, natijada, orqa miya uzilib ketadi. Bunda jarohatlangan joydan pastda falajlik,

to'la anesteziya, terida dag'al trofik o'zgarishlar (yotoq yaralar, oyoq-qo'llarda shishlar) paydo bo'ladi, siydiqning tutilib qolishi xarakterlidir. Buning natijasida bemorda piyelonefrit, urosepsis belgilari kuzatiladi. Orqa miya bir tomondan bosilib qolganda Broun-Sekar alomati paydo bo'ladi. Bu orqa miya ko'ndalang kesimining yarmi zararlanganda kuzatiladi. Natijada, zararlangan tomonda parez yoki paralich bilan birga chuqur sezgining buzilishi, qarama-qarshi tomonda esa og'riq va harorat sezgisining buzilishi kuzatiladi. Orqa miya jarohatlanganda bemorning umurtqa pog'onasini rengenografiya qilish zarur. Bundan tashqari, orga miyani lyumbal punksiya qilib, orga miya suyuqligini tekshirib turish kerak.

**Davosi.** Birinchidan, umurtqa pog'onasini qimirlatmaydigan qilib quyish (immobilizatsiya) zarur. Benomi taxta yoki ustil qattiq zambilda qorni bilan yoki chalgancha yotgan holatda shifoxonaga olib kelish kerak. Jarrohlik usuli bilan davolash bilan birmalikda og'riq qoldiruvchi analgin, promedol dorilar qo'llaniladi. Yallig'lanishga qarshi dorilar, antibiotiklar, siydiq haydovchi, qon to'xtatuvchi dorilar va desensibilaydigan dorilar qo'llaniladi. Agar bemorning siydiqi tutilib qolsa, kuniga 3-4 mahal qovugqa kateter solib, kerak bo'lsa doimiy qo'yib qo'yiladi. Ich qotib qolganda tozalovchi huqqa qilinadi, yotoq yaralar paydo bo'lganida Vishnevskiy malhami va baliq moylari bog'lanadi. Tiklanish davrlarida esa fizioterapiya muolajalari bilan birmalikda vitaminlar, prozerin, lidaza qo'llaniladi. Shifoxonadan chig'yanidan keyin sog'lomlaشتirish orqongohlarida davolash tavsija etiladi.

**Parvarish qilish.** Qat'iy to'shak tartibini ta'minlash, og'iz bo'shlig'ini kuniga bir necha marta tozalab turish shart. Chunki ko'p so'lak og'iz bo'shlig'iga yig'ilib qoladi, bu esa nafas yo'llariga tiqilib qolishi munkin. Siydiq tutilib qolsa kateter solish yoki siydiqni ushlab turolmasa, siydiqdon qo'yish kerak. Bemor bezovta bo'lsa, tinchlantiruvchi dorilar beriladi. Hushiga kelgan bemorlarni ovqatlantirish, agar hushida bo'lmasa zond orgali ovqatlantirish kerak. Uzoq yotgan bemorlarda yotoq yaralari paydo bo'lmasligi uchun kamfora spirti surtish, ugalash lozim.

### **Nazorat savollari**

1. Bosh miya chayqalishi va lat eyishi bir-biridan qanday farq qiladi?
2. Retrograd amneziya nima?
3. Bosh miya jarohatlarining asoratlarini aytib bering.
4. Bemorda jarohatdan keyin tetraplegiya, siydiq tutilib qolish belgilari bo'lgan. Zararlangan joy qayerda?

### **Asab tizimining irsiy-degenerativ va zo'rayib boradigan kasalliklari**

**Zo'rayib boradigan mushaklar distrofiyasi. Psevdogipertrofik. Dushen turi.** Bu kasallik birinchi bo'lib, 1868-yil fransuz nevropatolog Dushen tomonidan ko'rsatib o'tilgan. Kasallik irsiy-degenerativ bo'lib, miqatiyalar guruhiга kiradi. U fermentlar faoliyatining (asosan, uglevodlar almashinuvi)

buzilishi natijasida paydo bo'lib, tanadagi mushaklarning zararlanishiga olib keladi. Bu qo'l va oyoqlarning proksimal qismlarida mushaklarning simmetrik atrofiyanishi bilan kechadi. Kasallikning birinchi belgilari 2–5 yoshdan boshlanib, unda chanoq va oyoqlarning yugori mushaklarida toliqish, tez chardhab qolish belgilari paydo bo'ladi. Mushaklar atrofiyanishi, mushak tolalari o'miga yog' to'qimasi rivojlanadi, natijada, soxta giperstrofiya paydo bo'ladi. Bemorning yurishi o'zgarib, yurish vagtida gavdani ikki yon tomona tashlab «o'rdak yurish»ga o'xshab yuradi. Kasallik asta-sekin rivojlanib boradi, yelka va chanoq mushaklarning atrofiyanishi, boldir mushaklari kattalashib, qattiqlashib qoladi. Natijada, boldir mushaklarida psevdogipertrofiya paydo bo'lib, bemorlaming zinadan chiqishi qiyinlashib qoladi. Pay va Axill reflekslari asta-sekin yo'qola boshlaydi. Sezgi sohasida o'zgarishlar bo'lmaydi. Bemor o'tirgan holda birovning yordami bilan yoki yonidagi biror narsaga osilib, qo'llarini tizzasiga qo'yib tik tura oladi. Og'ir hollarda yotgan bemorning joyidan turishi qiyin bo'lib qoladi. Bunda, asosan, o'mnidan turish uchun bemor ag'darilib, qo'llariga tayanib, tizzalarini qo'llari bilan ushlab, oyog'ini yerga bosib to'g'irlab tik holatga keladi. Bunga «narvon belgisi» deyiladi. Bu kasallik nasldan-naslga X-xromosomalar tipida retsessiv yo'li bilan o'tadi. Ko'proq o'g'il bolalar kasallanadi. Kasallik rivojlangan sari bemorning aqli zaifligi ham kuchayib boradi. Bulardan tashqari suyak – bo'g'im, qontomir va neyroendokrin tizimida ham o'zgarishlar bo'ladi. Umurtqa pog'onasining bel qismida giperlordoz kuzatiladi. Bemor 14–15 yoshga borib, umuman harakat qilmay qo'yadi (24-rasm.).

#### **Zo'rayib boradigan mushaklar distrofiyasining yuvenil Erba-Rot turi.**

Bu kasallik birinchi bo'lib, nemis olimi 1882-yilda Erba va 1890-yilda rus olimi Rot tomonidan bayon etilgan. Kasallik o'smirlik yoshida (14–15 yosh) boshlanib, autosom-retsessiv turda, ota-onadan bittadan gen bo'lganda o'tadi. Kasallik asta-sekin rivojlanib, chanoq va oyoqlarning proksimal qismlaridagi mushaklarning atrofiyanishi yuz beradi. Bemor tez chardhab qoladi va quvvatsizlik paydo bo'ladi, o'rdak yurishiga o'xshab yuradi. Bel va qorin mushaklarida atrofiya boshlanib, natijada, umurtqa pog'onasida qiyshayish, qanotsimon kuraklar hosil bo'ladi. Pay reflekslari yo'qoladi.

**Yelka-ko'krak-yuz turi.** 1884-yilda fransuz olimlari Landuzi va Dejerin kasallik belgilarini bayon etgan. Kasallik autosom-dominant turida nasldan-naslga o'tadi. 20–25 yoshdan boshlab kasallik belgilari paydo bo'ladi. Bunda mushaklar quvvatsizlanib, atrofiya avval yuz mushaklarida, keyinchalik yelka, ko'krak mushaklarida boshlanadi. Bemorning yuzida harakatlar kamayib, peshona silliqlashadi va ko'z to'liq yumilmaydi, lablar galinlashib ketadi. Yelka mushaklarida psevdogipertrofiya paydo bo'ladi, pay refleksiysi susayadi, aqli saqlangan bo'ladi.

**Davosi.** Mushaklardagi ulglevod almashuvini, oziqlanishini yaxshilash uchun retabolil, neyrobolil, piratsetam, AIF, vitamin E, kokarboksilaza, glutamin kislota, metionin, askorbin kislotasi, vitaminlar B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, buyuriladi. Asab-mushak o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun prozerin, galantamin,

oksazil, dibazol, to'qimalami kislород bilan ta'minlash va kapillarda qon aylanishni yaxshilash uchun trental, teonikal, nikotin kislotasi tавсиya etiladi. Fizioterapiya va ug'alash muolajalari buyuriladi. Organizm qувватини oshiruvchi dorilardan pantokrin, eleutorokok, elektroforez, 4 % мумиyo bilan birga ug'alash va shifobaxsh badantarbiya mashqlarini bajarish tавсиya etiladi. Parhez ovqatlar va vitaminlarga boy bo'lган ovqatlами kuchaytirish, tarkibida yog' va uglevodlar bo'lган ovqatlами chegaralash lozim.

### Neyrogen mushaklar distrofiyasi

**Verning-Goffman spinal amiotrofiyasi.** Bu kasallikni nemis olimlari 1891-yil Verning va 1893-yil Goffman ta'riflab bergan. Kasallikda orqa miyaning oldingi shoxlaridagi hujayralarda degenerativ o'zgarishlar bo'ladi. Bu juda og'ir asab-mushak kasalligi bo'lib, bolaning homiladorlik davrida yoki bir yoshidan boshlab kasallik belgilari boshlanadi. Kasallik autosom-retsessiv yo'li bilan nasdan-nasnga o'tadi. Ona qormida homila harakatlarining susayishi yoki bola tug'ilgandan keyin mushaklar tonusining pasayishi, mushaklar kuchi kamayishi, toliqish belgilari paydo bo'ladi. Bu toliqish ko'proq qo'l va oyoq mushaklarining proksimal qismalarida bo'ladi. Pay reflekslari pasaygan, chaqaloq past ovozda yig'laydi, yemish va yutinish reflekslari susaygan, yuz mushaklarida harakat kam bo'ladi. Bemorning tilida fibrillar qaltirash, yurakning tez urushi, boshni kech tutishi, umurtqa pog'onasi qiyshayishi, ko'krak qafasining shakli o'zgarishi mumkin. Bular kasallikning tug'ma turida uchraydi. Erta boshlangan turida esa dastlabki belgililar bolaning olti oylik yoki bir yarim yoshidan keyin paydo bo'ladi. Bola vaqtida boshini tutadi, o'tirib turadi. Lekin ba'zi kasalliklardan so'ng bolada parezlar avval oyoqlardan boshlanib, keyin tana va qo'l mushaklariiga tez tarqaladi. Mushaklar tonusi va pay reflekslari susayib boradi va yo'qoladi. Natijada, mushaklar atrofiyalanib, fibrillar qaltirash kuzatiladi. Kasallikning kech davri uch yoshdan keyin boshlanadi. Shu vaqtgacha bola sog'lon bo'lib o'sadi, harakatlari yaxshi saqlangan bo'ladi. Kasallik asta-sekin boshlanib, yurishi o'zgaradi, tez-tez yiqilib turadi, oyoqlarini tizzadan ko'tarib bosadi. Falaj oyoqing proksimal qismalarida boshlanadi, sekinlik bilan qo'l va tana mushaklariga o'tadi. Bunda mushaklarda fassikular va fibrillar qaltirashlar bo'ladi. Pay reflekslari yo'qoladi. Bemor 12 yoshga borib umuman yurmay qo'yadi.

**Davosi.** Asab to'qimalarini oziqlantiruvchi dorilar – serebrolizin, aminalon, ensefabol, retabolil, AIF, vitaminlar, fizioterapevtik muolajalar, ug'alash va badantarbiya mashqlari tавсиya etiladi.

**Tomson miotoniysi.** Bu kasallik dastlab ingliz snifokori Tomson tononidan 1876-yilda ta'riflangan bo'lib, sezilarli oilaviy va irlsiy xarakterga egadir. Asosiy belgilari: harakatlarning izdan chiqishi. Mushaklar zo'r berib qisqarganida keyin bo'shashuv qiyinlashib qoladi. Odamning musht qilib tugilgan bamoglari yozilmaydi. Takroriy harakatlar erkinroq bajariladi.

Mushaklar tizimi yaxshi rivojlangan, ammo ularning kuchi birmuncha pasaygan bo'ladi. Benor asab tizimini tekshirish o'tkazib ko'rilmaga qanday bo'lmasin biror kasallik o'chog'i topilmaydi. Mushaklarda qo'zg'aluvchanlikning kuchayib ketishi xarakterli belgidir; bolg'acha bilan urib ko'rilmaga o'rnida ancha vaqtgacha chuqurcha yoki ko'tarilib turgan mushaklar qoldi, tizza refleksi yuzaga keltirib ko'rilmaganida refleks yo'qolib ketganidan keyin ham boldir yozilgancha qolaveradi. Miotoniya taraqqiyotida ionlar bilan mediatorlar almashinuvining izdan chiqishi ahamiyatga ega, mushaklarda asetilxolin bilan kaliy ionlarinig miqdori ko'payib ketgan, xolineresterafa faolligi susayib ketadi. Bu kasallik autosom-dominant tipda nasldan-naslga o'tadi.

**Davosi.** Tomson miotoniyasining yengil va o'rtacha og'ir shakllarida davoning hojati yo'q. Odam sovuq qotishi va jismonan zo'riqishdan o'zini ehtiyyot qilishi kerak. Kasallikning og'ir shakllarida kalta-kurs (5–10 kungacha, kuniga 2–4 mahal xinin ichib yurish buyuriladi (har bir kursdan keyin oradan 5 kundan tanaffus qilib boriladi). Kalsiy xlorid yoki kalsiy glukonat 10 % 10,0 ml tomir ichiga sekinlik bilan yuboriladi. Retabonil 5 %-1,0 ml.m/o. hor 5 kunda jami 5 marta yuboriladi.

**Miasteniya.** Kasallik, asosan, 20–30 yoshda uchraydi, mushaklarda tez-tez charchash bo'lib turadi. Kasallikni zararlaydigan joyi ko'ndalang targ'il mushaklardir. Miasteniya asab-mushaklar kasalligi bo'lib, asosiy belgi mushaklar zaifligi va ulaming kasallik natijasida charchaydigan bo'lib qolishidir. Takroriy harakatlarda mushaklar zaifligi keskin kuchayib, ba'zan falaj darajasigacha borib yetadi. Odam dam organidan keyin yana harakat qila oladi. Miasteniya bilan og'rigan kasallarda asabdan mushakka impuls o'tkazib berish uchun zarur bo'lgan asetilxolinni tez parchalab yuboradigan xolineresterafa ferment ko'payib ketadi.

Miasteniyaning har xil shakllari kuzatiladi, chaynash, yutish, nutq izdan chiqishi bilan o'tadigan bulbar shakli: narsalaming ikkita bo'lib ko'rinishi, g'ilaylik, qovoqlarning yumilib qolishi (ptozi) singari ko'zga aloqador kamchiliklar bilan o'tadigan ko'z shakli; ko'krak qafasi va qorin mushaklarining zaifligi bilan o'tadigan spinal shakli shular jumlasidandir. Bu kasallikning kelib chiqishi yetarlichcha o'rganilgan emas. Ko'pchilik hollarda (60 % yaqin kasalliklarda) ayrisimon bezda o'sma yoki giperplaziya ko'rinishidagi o'zgarishlar topiladi. Gripp, boshqa yuqumli kasalliklardan hamda turli zaharlanishlardan keyin benorlarning ahvoli og'irlashib qoladi. Miasteniya uchun prozerin bilan o'tkaziladigan sinamaning musbat bo'lib chiqishi xarakterlidir: 1,5–2 ml 0,05 % prozerin eritmasi teri ostiga yuborilib, so'ngra (20–40 daqiqa o'tkazib turib) 0,5 ml 0,1 % atropin eritmasi inyeksiya qilinganidan keyin kasallikning barcha belgilari sezilarli darajada kamayib qoladi, ba'zida esa butunlay yo'qolib ketadi; 2–3 soat o'tganidan keyin kasallik belgilari yana qaytalanadi.

**Davosi.** Kasallik kelib chiqishiga qarab xolinerestazani parchalaydigan dorilar beriladi; ovqatdan 30 daqiqa oldin 0,015 g dan kuniga 3 mahal

prozerin ichiriladi yoki 0,05 % eritmasi 1,0 ml teri ostiga inyeksiya qilinadi (prozerin ayniqsa, inyeksiya qilib yuboriladigan bo'lsa, ancha tez – 15–20 daqiqadan keyin foyda beradi, lekin ta'siri uzoq cho'zilmaydi, ko'pi bilan 2–3 soat davom etadi), 0,06 g dan kuniga 3–4 mahal mestinon (kalimin) tabletkali, ovqatdan bir soat oldin 0,01 g dan kuniga 3–4 mahal oksazil berib turiladi (oksazil ichilganida 1–2 soatdan keyin ta'sir qildi, ta'siri uzoq davom etadi). Antixolinesteraz vositalar bilan qilinadigan davo kaliy dorilar va 0,025–0,5 g dan kuniga 2–3 mahal veroshperon berib turish bilan birga davom ettirib boriladi. Katta dozadagi gormonal dorilar bilan ham davolanadi (40–80 ml dan kunora prednizolon berib turiladi). Ayrisimon bezda giperplaziya yoki o'sma bo'lsa, jarrohlik usuli qo'llaniladi, ayrisimon bez olib tashlanadi yoki ayrisimon bez sohasiga rentgenoterapiya buyuriladi.

**Siringomielyiya.** Bu kasallik orqa miya, kulrang muddasining o'rtasida bo'shliqlar hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Neyrogliya o'sib ketib, keyin uning yemirilishi natijasida shunday bo'shliqlar yuzaga keladi. Bunday bo'shliqlar ko'pincha orqa miyaning bo'yin va ko'krak bo'limlarida joylashgan bo'ladi. Bo'shliq orqa miyaning kulrang muddasini yemirib, orqa miya markaziy kanalining oldidan o'tib boradigan (oldingi bitishma sohasida) og'riq va harorat sezgilarini o'tkazuvchi yo'llarni zararlantiradi. Shu segmentlar davomiga to'g'ri keladigan mushaklarda atrofiya boshlangan hollarda bo'g'imir o'zgarib qolishi – artropatiyalar ro'y berishi mumkin.

**Klinik manzarasi.** Taktil sezuvchanlik saqlanib qolganini holda ko'pincha og'riq va harorat sezuvchanligi buziladi, bunga *sezuvchanlikning dissotsiyalashgan buzilishi* deb aytildi. Qo'llar, oyoqlar va gavda terisi sezuvchanligining buzilishi orqa miyaning qaysi bo'limi zararlanganiga bog'liq va segmentar xarakterga ega bo'ladi. Benorlar og'riqni ham, yugori haroratni ham sezishmaydi. Bu ko'pincha badanning qattiq kuyib qolishiga olib keladi. Benorlar tekshirib ko'rulganda badanning oldin kuyib qolgan izlarini ko'rish mumkin. Bo'shliq orqa miya oldindi shoxlarini yemirib yuborgan bo'lsa, qo'l mushaklari zaiflashib, atrofiyaga uchrab qoladi. Bundan tashqari, siringomielyiyada ko'pincha vegetativ-trofik o'zgarishlar kuzatiladi: sezuvchanligi o'zgargan joylaming terisi dag'al bo'lib, ko'karib qoladi, quruq bo'lib turadi. Bunday joylarda absesslar paydo bo'lishi mumkin. Terida uncha katta bo'lmagan dog'lar bo'lsa-da, tez bitavermaydigan yaralar paydo bo'ladi.

Umurtqa pog'onasi ko'zdan kechirilib ko'rilganida orqa miya yon shoxlarining zararlanishi munosabati bilan umurtqa pog'onasi shaklining o'zgarib qolganligi (kifoz, skolioz singari deformatsiyasi) topiladi. Kasallikning o'tishi surunkali bo'lib, uzoq cho'ziladi. Kasallik asta-sekin uzunchoq miyaga tarqalganida (siringobulbiya) bosh miya asablarning yadrolari zararlanadi.

**Davosi.** Rentgenoterapiya qo'llanilsa, ba'zan bo'shliqning yana ham kattalashuvini to'xtatib qo'yish mumkin bo'ladi. Davoning bu turi kasallik endi boshlanib kelayotganda yaxshi naf beradi. Umuman quvvatga kirgizadigan davo, fizioterapiya, uplash, shifobaxsh badantarbiya, umurtqa

pog'onasiga UVCH berib davolash, vodorod sulfidli va radonli vannalar o'rinnlidir; prozerin, dibazol, vitaminlar B<sub>1</sub>, riboflavin berish, askorbin kislota qo'shilgan glukozani tonir ichiga yuborish tavsya etiladi. Og'riq turganida diklofenak, analgin, baralgin buyuriladi. Harorat va og'riq sezuvchanligi buzilganligi tufayli bemonlarni parvarish qilishda, shuningdek, ularga suv bilan davolash handa boshqa muolajalarni buyurishda badanlarining kuyib qolishi va boshqa biror tarzda shikastlanishi mungkinligini esda tutish zarur. Bemonlar og'ir jismoniy ish, ochiq olov, suyuqlangan metall buyumlar bilan ishlash va boshqalardan ozod etilishiga muhtoj bo'lleshadi.

**Yonlama amiotrofik skleroz.** Bu kasallikda orga miyaning yon ustunlari, kulrang moddasining oldindi shoxlari (aksari bo'yin bo'limi) va boshqa miya ustunida joylashgan ba'zi (V-VII-IX-X-XI-XII juft) bosh miya nervlarining yadrolari zararlanadi. Yon shoxlarining atrofiyaga uchragan joylarida glioq to'qima o'sib ketadi.

**Klinik manzarasi.** Benoming qo'llarida ilvillagan, atrofik falajlar paydo bo'lib, pay reflekslari bilan periostal reflekslari kuchayib ketadi, oyoqlar spastik Perez yoki falajga uchraydi, mushaklar fibrillar tortishib turadi, shuningdek, bulbar tuzilmalarning zararlanishiga aloqador o'zgarishlar bo'ladi: nutqning qiyinlashib qolishi, yutishning buzilishi, qalqib ketish, ovqatning nafas yo'llariga tushib qolishi, mangalanib gapirish shular jumlasidandir. Kasallik sekinlik bilan o'tib, o'rtta hisobda 3-4 yil davom etadi va o'lim bilan tugallanadi. Kasallik sababi uzil-kesil aniqlangan emas.

**Davosi.** Dorilardan prozerin, AIF, vitaminlar B<sub>1</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>, E, retabolil, aktovegin inyeksiyalari buyuriladi. Bemonlarni sindchiklab parvarish qilib borish, ugash, vanna qabul qilish tavsya etiladi. Qo'llari juda damonsiz bo'lganligidan ko'pincha ovqatni o'zları yeya olmaydilar. Bulbar tuzilmalarining zararlanishiga aloqador o'zgarishlari bo'lganda ularni ehtiyyotlik bilan ovqatlantirish kerak. Ovgatni oz-ozdan va shoshmasdan berib turish lozim, chunki bemon salga qalqib ketib, ovqat nafas yo'liga tushib qolishi mumkin.

**Gentington xoreyasi (irsiy xoreya).** Gentington xoreyasi autosomal dominant tipda nasldan – naslga o'tadi. Kasallik bir necha oila a'zolarida uchrashi mumkin. Erkaklar bilan ayollar bir xilda kasallanadi. Gentington xoreyasi zo'rayib boradigan surunkali kasallik bo'lib, harakterli belgilari xoreosimon giperkinez va zo'rayib boradigan aql pastlikdir. Bu kasallik nasldan-naslga o'tadigan bo'ladi va bitta oila turli bo'g'imirida uchraydi. Gentington xoreyasida oqsillar almashinivi (beta va gamma-globulin fraksiyalari o'zgaradi) va ba'zi mikro elementlar (mis va temir) almashinivi buziladi va bosh miya yarim sharlari peshona-chakka bo'limlaridagi ganglioz hujayralar halok bo'ladi. Bu kasallik odam voyaga yetgan davrida, ko'pincha, 30-40 yoshdan boshlanadi. Odatda, avval giperkinez, undan keyin aql pastlik boshlanadi, Gentington xoreyasi kamdan kam uchraydigan kasallik bo'lib, kasallik 100 000 aholi orasida 3-5 kishida uchraydi. Birinchi navbatda xoreosimon giperkinezda-qo'llar, oyoqlar, bosh, yuz, til

mushaklarining ixtiyorsiz ravishda tez-tez harakat qilib turishi diqqatni o'ziga jalb qiladi. Benorlar aftini buriştiradi, yurganida gandiraklab, lapanglab yurib, qo'llarini keng yozib harakat qiladi. Ularning nutqi qiyinlashib qolgan bo'ladi, benorlar gapirganida ortiqcha tovushlar chiqaradi. Ixtiyorsiz harakatlarini kasallar irdoga zo'r berib, vaqtincha bosib turishi, mustaqil holda yurishi, o'zini uddalashi, ovqatlana olishi, kiyinishi mumkin. Hayajonlanishi vaqtida ixtiyorsiz harakatlar zo'rayadi, uyu mahalida to'xtab qoladi. Bemorlarda mushaklar tonusi bir qadar pasayadi, pay reflekslari o'rtacha zo'rayadi. Gentington xoreyasi uchun ruhiy faoliyatning sezilarli darajada buzilishi xarakterlidir. Odamning xotirasi diqqatni adashtiradi, kun yoki oy nomlarini arang eslaydi, oddiy arifmetika vazifalarini qo'pol xatolar bilan bajaradi, matal va magollarning ma'nosini tushurnaydi. Bilimlar hajmi kichik, o'y-fikrlari ko'p bo'ladi. Odam o'zining ahvoliga tangidiy ko'z bilan qaramay qoladi. Shu bilan bir vaqtida bemorlar salga tajang, serzarda bo'ladi.

**Davosi.** Seduksen yoki elenium bilan birligida triftazin yoki stellazin hamda rezerpin, dopegit, galoperidol qo'llaniladi.

**Gepatoserebral distrofiyasi (Wilson-Konovalov kasalligi).** Gepatoserebral distrofiya zo'rayib boradigan og'ir kasallik bo'lib, unda jigar zararlanishi bilan bir qatorda markaziy asab tizimi, asosan, po'stloq osti tugunlari ham zararlanadi. Bu kasallikka, asosan, oqsillar almashinuvining buzilishi, qon zardobining tarkibida mis bo'ladigan oqsil-seruloplazmin sintezning yetishmasligi sabab bo'ladi (seruloplazmin misni biriktirib olib, organizmdan chiqarib turadi). Mana shu narsa qonda seruloplazmin bilan birikmagan mis miqdori ko'payib ketishiga, uning jigar, miyada, ko'zning shox pardasida, buyrak, taloqlarda ortiqcha to'planib qolishiga olib keladi. Misning organizmda to'planib qolishi hujayralar hayot faoliyatini izdan chiqaradi. Bu kasallik 10–15 yoshdan boshlanadi, mushaklar tonusining kuchayib borishi, qo'l-oyoqlar, boshning titrab turishi, dizartriya bilan xarakterlanadi. Ruhiy faoliyat buziladi: xulq-atvor, diqqat-e'tibor susayib ketadi, kasal to'satdan qahru g'azabga kiradigan, vahimaga tushadigan bo'lib qoladi, uzoq davom etadigan eyforiya yoki depressiyalar bo'lib turadi. Jigarning kattalashib, bezillab turgani ma'lumbo'ladi, jigar yetishmovchiligiga xos belgilar topiladi. Ko'z shox pardalarining chekkalarida tarkibida mis bo'ladigan tillarang-yashil yoki yashilmamo-jigarrang pigment to'planadi, Krayzer-Fleysher halqasi deb shunga aytildi. Siydikda mis miqdori ko'paygan bo'ladi. Bu kasallikning autosom-retsessiv xili nasldan-naslga o'tadi (kasalning ota-onasi sog'lom, lekin bittadan mutant geni bo'ladi).

**Davosi.** Misni biriktirib oladigan va uning organizmdan chiqqib ketishini yengillashtiradigan dorilar qo'llaniladi. Mushaklar orasiga yuborish uchun untiol buyuriladi (5 % eritmasi kunora 5,0 ml dan, davo kursi mobaynida 15 ta inyeksiya qilinadi, 1 oydan keyin davo kursi takrorlanadi). Penitsillamin yaxshi naf beradigan davo vositasidir (kuniga 0,45–2 g miqdorida, ovqatdan keyin 0,15 g ichiriladi). Dori miqdorini asta-sekin

oshirib boriladi. Penitsillamini butun umr bo'yni muntazam ichib turish zarur. Penitsillamin bilan davolashda ko'pchilik kasallarda asab sohsidagi o'zgarishlar kamayadi yoki butunlay yo'qolib ketadi.

### **Chaqaloqlarda asab tizimi kasalliklari**

Chaqaloqlarda asab tizimi kasalliklari bolaning ona qornida rivojlanish davrida, tug'ilish jarayonida bosh miyasida o'zgarishlar bo'ladi. Bular bolani bosh miya falajligi, oligofreniya, mikrosefaliya, epilepsiya kasalligiga olib keladi. Chaqaloqni tekshirganda uning umumiy ahvoliga e'tibor berish kerak. Hushida bo'lmasa, bola ko'zini yumib, ingrab yotadi. Ahvoli og'ir bo'lsa ko'rav, eshituv, taktil ta'sirlarga javob bermaydi. Bunda tana mushaklari tonusi pasaygan, reflekslar susaygan yoki yo'qolgan bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda mushaklar tonusi baland bo'ladi. Bola qo'llari bilan oyoglarini tanasiga tortib, boshini orqaga egib yotadi. Bolaning katta liqildog'i odatda kattalashgan, biroz tarang bo'ladi. Boshda gipertenziya belgilari bo'lsa, choklar ochilgan bo'ladi, bola chingirab, boshini orqaga qaratib tirishadi. Engan sutini qaytarib tashlaydi, klonik-tonik talvasa xurujlari bo'ladi. Grefe belgisi-bosh harakatlari vaqtida ustki qovoq, ko'z gorachiqlarini bekitib turmaydi (25-rasm.).

Chaqaloqlar birinchi yilida bo'ladijan tug'ma reflekslar: 1. Oral reflekslar so'rish, qidirish, og'iz-bosh reflekslaridan iborat: a) So'rish refleksi yo'qligi yoki zaifligi bosh miyaning qattiq jarohatlanishini ko'rsatadi; b) qidirish refleksni tekshirish uchun bolaning pastki labining tashqi burchagiga qo'l tekkizilganda uning lablari ta'sir berilayotgan tomoniga qarab cho'ziladi. Benor bolada bu reflekslar zaiflashadi; v) qo'l kaftlarining terisi ta'sirlangan-ganda chiqaloqning lablari bilan boshi ta'sirlanayotgan kaft tomoniga qarab cho'ziladi (boshi biroz oldinga egiladi). Oral reflekslarining zaiflashuvi miya ustuni zararlanganidan darak beradi. Shu bilan birga oral reflekslarining faol bo'lishi bolaning ikki yoshida, sog'lom bolada bu refleks yo'qolib ketadigan davrda, ular yorqin namoyon bo'ladi. Bu esa bosh miya yarim sharlaringin jarohatlanishini bildiradi. 2. Hinoya refleksi (Robinson refleksi): bola qorni bilan yotqizib qo'yiladi, nafas olish uchun boshini buradi. Bosh miya jarohatlangan bo'lsa, bu refleks susaygan yoki yo'qolgan bo'ladi. 3. Emaklash refleksi: qorni bilan yotqizib qo'yilgan bolani oyoq kaftlariga bosib ko'rilsa, u emaklashga harakat qiladi. Agar miya kasallangan bo'lsa, bu refleks zaif bo'ladi yoki bo'lmaydi. 4. Chiqaloqning tayanish refleksi: bolani qo'ltiqlari tagidan ushlab turilsa, tayanib oladi. Bolaning dastlabki 3 oyida sog'lom bolalar oyog'inинг kaftiga tayanib turadi. 3-4 oylik davrida qisqa muddat oyoq uchlariga tayanib turadi. Agar asab tizimi zararlangan bo'lsa, bola oyoglarini bukib, tutib turilgan qo'llarga osilib oladi yoki 4-5 oylik davrida oyoglar uchiga tayanadi. Oyoq mushaklari, sonning yozuvchi mushaklarida tonus oshgan bo'ladi, oyoglarini chalishtirib oladi. 5. Chiqaloqlarning qadam qo'yish harakatlari: Bolani qo'ltiqlaridan ushlab

oldinga harakatlantirilsa, u qadam tashlash harakatlarini qila boshlaydi. Bu harakatlarni orga miya nazorat qiladi. 6. Kaft-og'iz refleksi (Babkin refleksi): chaqaloq kaftni barmoq bilan bosganda chagaloq og'zini ochadi va boshini biroz oldinga egadi. Bu refleks 2 oydan keyin yo'qoladi. 7. Ushlash refleksi: bolaning kaftiga barmoqni yoki biron narsani bosganda darrov mahkam ushlay oladi va uni qo'yib yubormaydi. Qo'l panjasining mushaklari kuchsiz bo'lsa (parez), u narsani ushlab olmaydi yoki butunlay ushlamaydi. Bu refleks 3-4 oygacha davom etadi. 8. Perez refleksi: chaqaloqni yuzini pastga qilib yotqiziladi va ko'rsatkich barmoq bilan dung'aza umurtqa pog'onasidan bo'yin umurtqa pog'onasigacha silansa, chaqaloq chingirab, boshini ko'tarib harakat qiladi, tanasi va qo'l-oyoqlarini bukadi. Agar bu refleks bo'lmasa yoki sust bo'lsa, bosh miyada qon quyilish alomatlari borligidan darak beradi. Bu refleks 3-4 oygacha davom etadi. 9. Moro refleksi: chaqaloq yotgan holatda uning bosh qismidan 15 sm uzog'da qattiq urilganda u qo'l va oyoqlarini yozadi – birinchi faza, bir necha daqiqadan so'ng oldingi holatga qaytadi, bu ikkinchi faza. Agar chaqaloq qo'l-oyoqlarini yozib, o'z holiga kelishi sekin bo'lsa yoki butunlay bo'lmasa, chaqaloqning bosh miyasiga qon quyilish alomatlaridan biri gemiparez bo'ladi. Bu refleks 4-5 oygacha davom etadi. 10. Galant refleksi: chaqaloqning umurtqa pog'onasi yuzasi bo'yicha silansa, u ta'sir qilgan tamonga egiladi, qo'l va oyoqlar bo'g'imdardan yozila boshlaydi. Bu refleks 3-4 oygacha davom etadi. 11. Bauer refleksi: chaqaloqni qomi bilan yotqizilib, oyoq panjasiga sekinlik bilan qo'l bilan bosganda, u oldinga harakat qila boshlaydi. Bu refleks 4 oygacha davom etadi. 12. Xartum refleksi: bolaning labiga barmoq tekkizilganda labdag'i mushaklar qisqara boshlaydi. Bu refleks 2-3 oygacha davom etadi.

I. Agar chaqaloqning bosh miyasida zararlanish alomatlari bo'lsa, spastik tetra yoki gemiparez, kalla bosh miya nervlarining zararlanishi, qaltirash belgilaridan tashqari qidirish refleksining asimetriysi, so'rish, xartum reflekslarining yo'qolishi kuzatiladi.

II. Agar chaqaloqning orga miyasi bo'yin qismida zararlanish bo'lsa, unda qo'llarda bo'shashgan para yoki monoparez bilan birga kaft-og'iz, ushslash, Robinson, Moro va himoya reflekslari birinchi navbatda kamayadi yoki yo'qoladi.

III. Agar chaqaloqning orga miya bel yo'g'onligida zararlanish bo'lsa, pastki bo'shashgan para yoki monoparez bilan birga tayanch, avtomatik yurish, Perez, Bauer reflekslari yo'qoladi.

### **Ensefalopatiya**

Miyadagi kasallik belgilarini chaqaloqlar hayotining dastlabki birinchi haftasidan boshlab, organik belgilar turg'un bo'lguncha tug'ilish bilan bog'liq bo'lgan gipoksiq ensefalopatiya deb tashxis qo'yiladi.

**Sabablar.** Homiladorlik vaqtida taksikozlar, tug'ruq jarohatlari, gipoksiya yoki asfiksiya, chala tug'ish va vaqtidan o'tib tug'ish,

zaharlanishlar, yugunli kasalliklar, onaning kasalliklari (kamponlik, yurak-qon tomir kasalliklari, nefropatiya), tug'ruqning asoratli kechishi (tug'ruq davrining sustligi, uzoq suv kelmay turishi), kindikning o'ralib qolishi yoki qisilib qolish va boshqa sabablar nati jasida kelib chiqadi.

Ensefalopatiyada gipoksiya oqibatida bosh miya likvor va mayda qontomirlarida qon aylanishning buzilishi nati jasida, bosh miya to'qimalarida metabolik asidozi yuzaga keladi. Nati jada, miya shishi yuzaga kelib, hujayralarning nobud bo'lishiga olib keladi. Dastlab yangi tug'ilgan chaqaloqlarda nafas olish buziladi. Nafas harakatlarining tezligi, chuqurligi, xarakteri, maromi o'zgarib, 110–140 martagacha boradi, ba'zan esa sekinlashib qoladi. Og'ir hollarda nafas ingraganga o'xshab shovqinli, xirillagan bo'lib qoladi. Tomir urishi dastlab bradikardiya, 90–100 marta 1 daqiqa da, keyinchalik taxikardiya bilan almashadi. Yurak tovushi bo'g'iq bo'ladi. Teri rangi oqarib ketadi, tarqoq sianoz, mushaklar tonusi, tug'ma reflekslar va harakat faolligi o'zgaradi. Dastlab, mushaklarda gipotoniya, keyinchalik yozuvchi mushaklarda gipertoniya bilan almashadi, ya'ni qo'l va oyoq mushaklari taranglashib, uzatilgan holda tarang bo'lib turadi, boshi orgaga tashlangan, orqa yozuvchi mushaklar ham taranglashgan bo'ladi. Bolada qidirish, so'rish, yutish, reflekslari sust bo'ladi yoki bu reflekslar uzoq vaqt davomida bo'lmaydi. Bola ko'krakni olmaydi yoki bo'shashib so'radi. Changallash, kaft-bosh, ushslash, emaklash reflekslari sust yoki bo'lmaydi. Bolaning ovozi zaif yoki miyaga xos chingiroq bo'ladi. Harakat faolligi susayib, harakat avtomatizmlari, tremor, talvasa, nistagm, anizokoriya paydo bo'ladi. Katta liqildog tarang bo'lib turadi. Bolada Grefe, «botayotgan quyosh» belgilari, esnoq, hiqichoq bo'lib turadi. Bolaning uyqusi buzilib, qisqa muddatli bo'lib qoladi, ko'zlarini katta ochib, bir nuqtaga qadab yotadi yoki har zamonda yumib-ochadi. Tana harorati ba'zan pasayib yoki sababsiz ko'tarilib ketadi. Og'ir hollarda siyidik 24 soatgacha tutilib qolishi mumkin.

Yengil turi. Bunda miya qon aylanishining buzilishida quyidagi alomatlar kuzatiladi. Ya'ni vaqtinchalik mushaklar gipotoniysi, nafas olishning buzilishi, begaror sianoz, ba'zan tremor (ko'proq tremor qo'l va iyakda bo'ladi), so'rishning pasayishi, uyquning buzilishi va bola bezovta bo'lishi kuzatiladi. Turg'un bo'lмаган nistagm, g'ilaylik, harakat faoliyatidagi o'zgarishlar (mushaklar tonusining asimetriyasi, pay reflekslarining oshishi) ro'y beradi. Likvor tekshirilganda bosim oshgan bo'ladi. Bolada 3–4 haftadan so'ng klinik belgililar to'liq o'tib ketadi.

O'rtacha og'irlikdagi turi. Bunda bo'shashgan holat qo'zg'alish bilan almashadi, bola ingrab nafas oladi, doimiy sianoz, mushaklar gipotoniysi gipertoniya bilan almashinadi. Bu davorda zotiljam kasalligi avj oladi. Faol so'rish 4–5-kunlari paydo bo'ladi, bolaning vazni kamayadi, tremor, klonik talvasa, esnash, nistagm, uyqu buzilishlari, chingirib baqirish, iyakda titrash, uchish belgilari kuzatiladi. Bu turda kasallik bosh miya faoliyatining susayishi, gipertenzion yoki gidrosefal, tutqanoq alomatlari bilan kechadi.

Asab sohasida ptoz, g'ilaylik, nistagn, pay reflekslarining asimetriysi bo'lib, bola emishga qiynaladi. Katta liqildiq taranglashib, ichki bosimning oshishi natijasida bosh miya choklarining bir-biridan qochishi kuzatiladi. Grefe belgisi topiladi, likvor bosimi ortadi, ko'z tubida qontomirlar kengayadi, mayda qon quyilish o'choqlari bo'ladi. Bu belgililar bosh miyaning shishgarligini ko'rsatadi, klinik belgililar ikki oygacha davom etadi.

Og'ir turi ko'pincha koma oldi va komatoz holati bilan o'tadi. Ba'zan bolaning chingirgan ovozi arang chiqadi yoki chiqmaydi. Og'riq reaksiyalari kamayib, mushaklar gipotoniysi yoki atoniysi paydo bo'ladi. Bolada umumiy behollik, bo'shashish, harakatsizlik, taxikardiya yoki bradikardiya belgilari yuzaga keladi. Asab holati tekshirib ko'rilmaga bunday bolalaming III–IV–VI–VII juft bosh miya nervlarida o'zgarishlar, pay – periostal reflekslarining so'nishi, so'rish, yutish reflekslari susaygan yoki 10–15 kungacha bo'lmaydi, nistagn, ko'z olmasining qalgib turishi, midriaz yoki anizokoriya, og'ir hollarda ko'z qorachiqlari toraygan, yorug'lukka reaksiyasi sust yoki bo'lmaydi, korneal reflekslar susaygan bo'ladi. Bunda nafas maromi buzilgan, tez-tez apnoe bo'lib turadi, sianoz, bradiaritmiya, talvasalar tez-tez qaytalanib turadi. Kasallik oqibati komaning qay darajada rivojlanishiga bog'liq. Bunday holatlar bosh miyada diffuz shish jarayoni kechayotganini bildiradi. Bolaning og'ir ahvoli 1,5–2 oygacha davom etadi. Benor sog'ayadi yoki unda turli asoratlari qoladi.

Kasallikning tuzalish davrida turli alomatlar: astenonevrotik, vegetativisseral, gidrosefaliya va talvasa alomatlari yuzaga keladi. Kasallik oqibati bosh miyaning qay darajada zararlanganligiga, tegishli davo choralarining qanchalik barvaqt boshlanganligiga ko'p jihatdan bog'liq. Kasallik ko'pgina hollarda sog'ayish bilan tugaydi. Ko'pincha tutqanoq, oligofreniya, bolalar cerebral falajligi asoratlari qoladi.

**Davosi.** O'tkir davrida kalla ichiga qon quylganda bolani tinch qo'yish, boshini biroz ko'tarib, tez-tez sovuq narsa bosish yoki muz qo'yib turish lozim. Kasallikning dastlabki kunlarida qon to'xtatuvchi dorilardan vikasol 0,002 g 2 mahal yoki 1 % 0,2–0,3 ml 2 mahal mushak orasiga 3–4 kun, rutin 0,005 g 2–3 mahal, kalsiy xlor yoki kalsiy glukonat 5–10 % 1 choy qoshiqda 3 mahal, askorbin kislotasi 5 % 1,0 ml, glukoza 10–20 % 15,0 ml tomir ichiga, furosemid 1–3 mg/kg 2–3 ga bo'lib tomir ichiga yoki 1/4 tabletka 2 mahal ichishga, panangin, asparkam, magneziy sulfat 25 %-0,2–0,3 ml/kg, gemodez, peopaglukin, mannit, plazma, 10 %li glukoza tomir ichiga, suyuqlikning umumi yiqdori 90–140 ml bo'lishi kerak. Metabolik asidozga qarshi 4 % natriy bikarbonat eritmasi beriladi, kokarboksilaza 8–10 mg/kg, gidrokortizon 5–10 mg/kg, degidratatsiya va tutqanoqning oldini olish uchun laziks, glitserin 1,0 g/kg ichishga, magne B<sub>6</sub>, fenobarbital 0,001 g/kg 2–3 mahal ichishi mumkin, benzonol, konvuleks, finlepsin, seduksen, GOMK buyuriladi. Nafas izdan chiqsa, 1,5 % 0,2–0,3 ml etimizol 2–3 mahal mushak orasiga qilinadi. Yurak faoliyatini yaxshilovchi dorilar korglukon yoki strofantin, bolaning qon

bosimi pasayib ketganda gidrokortizon, prednizolon, deksametazon beriladi. Vitamin B<sub>6</sub> 5 % 1,0 ml bilan ATF 1 % 1,0 ml, glutamin kislota 50 mg/kg 2–3 mahal, bola bezovtalansa, natriy brom 1 % 1 choy qoshiqda 3 mahal va fenobarbital buyuriladi. Yallig'lanishga qarshi va zotiljamning oldini olish maqsadida antibiotiklar, harakat o'zgarishiga dibazol 0,001 mg 2–3 mahal, mushaklar tonusi oshganda midokalm 1/4 yoki 1/2 2 mahal, ishtaha pasayganda apilak 1 mg/kg 7–14 kun, retabolil, aloe, serebrolizin, ensefabol, pirasetam buyuriladi. Tiklanish davrida uqalash, shifobaxsh badantarbiya, parafin, fizioterapiya muolajalari tavsiya etiladi.

### **Chagaloqlarda bo'yin va yelka chigalining jarhatlanishi**

Bo'yin va yelka chigali tug'ilish jarayonida jarhatlanadi, bu akusherlik falajlari deb ataladi. Bunga sabab bolaning ona qormida noto'g'ri joylashishi, homilaning rivojlanish davrida suyak bo'g'im sohasiga turli xil ta'sirlar: homilaning sekin kechishi, og'ir toksikoz, yoshi 30 dan oshiq, ona chanoq suyagining torligi, chaqaloqning og'irligi 4000 g dan oshgan bo'lsa, chaqaloqning yelkalari keng bo'lsa, kasallikning asosiy sabablari hisoblanadi.

**Dushen-Erba turi** yoki yugori pleksitda C<sub>5</sub> – C<sub>6</sub> segment ildizlarining jarhatlanishi natijasida deltasimon, yelka, qo'lning ikki boshli va supinatsiya mushaklari zararlanigan bo'ladi. Qo'lning proksimal qismida harakat buzilgan. Bunda yelkani tashgariga va tana tomonga harakatlantirish, bilakni bukish va supinatsiya qilish, kaftni yozish mungkin bo'lmay qoladi. Bolaning qo'li tanasiga yopishganday bo'lib, yelkasi oldinga keltirilgan, kafti bukilgan holda bo'ladi. Qo'lning proksimal qismlarida mushaklar gipotoniyasi, gipotonus, pay reflekslari yo'qoladi. Kaft-og'iz, ushslash va Moro reflekslari yo'qoladi.

**Djerin-Klumke turi** yoki pastki pleksitda C<sub>–</sub> D<sub>1</sub> segment ildizlari ning jarhatlanishi natijasida bilak va qo'l panja mushaklarida zararlanish bo'ladi. Bamoglar harakati qiyinlashadi, bilak-kaft bo'g'imida qo'lni bukib bo'lmaydi, bilakni yozish qiyinlashadi, lekin yelka bo'g'imi zararlanmaydi. Bolaning qo'li osilib qolganday bo'ladi, kaft yozilgan holda turadi. Distal bo'limlarda gipotonus kuzatiladi. Preganglionar tolalarining zararlanishi natijasida Klod-Bernar-Gorner belgisi (ptoz, mioz, enoftalm) paydo bo'ladi. Kaft-og'iz, ushslash, Moro reflekslarini chaqirib bo'lmaydi.

Aralash yoki total pleksitda qo'l-yelka sohasining butunlay falajlanishi kuzatiladi. Ba'zan yugori va total turlarda diafragmaning chegaralangan falajlanishi natijasida nafas qiyinlashadi, bola ko'karib, qisqa vaqt nafasi to'xtashi mumkin, bu esa bolaning ahvolini og'irlashtirib qo'yadi (26-rasm).

**Davosi.** Bemor o'z vaqtida, to'liq, muntazam davolansa yaxshi natija ga erishiladi. Mushaklar kontrakturalari, bo'yin qiyshayishlarining oldini olish uchun ortopedik usullar qo'llaniladi. Bemor har 2–2,5 oyda qaytadan davolani turishi lozim. Suyaklar osteoporoz bo'lsa, kaliy oratat, retabolil, keyinchalik 4 % mo'myo eritmasidan ionoforez tavsiya etiladi.

Davolash usullari	Kasallik davri		
	O'tkir davri1 oygacha	Tiklanish davri	
		erta tiklanish 1 oydan 1 yoshgacha	kech tiklanish1 yoshdan 3 yoshgacha
Dori dar	Kasallikni birinchi kunnidan boshlab laziks 1—3 mg/kg 5—6 kun davomida beriladi. Qon to'xtatuvchi dorilar kalsiy xlor, askorbin kislotasi, vikasol buyuriladi. Ikkinci haftadan boshlab vitamin B <sub>1</sub> 6% 0,5 ml, B <sub>6</sub> 1% 0,5 ml, B <sub>12</sub> 30 mkg, dibazol 0,0005 g glutamin kislotasi 0,5 mg 15 kun beriladi.	Dibazol 0,001 g, B <sub>6</sub> 6% 1,0 B <sub>1</sub> 1% 1ml, B <sub>12</sub> 50—75 mkg k/o, glutamin k-ta 6 oylikdan boshlab prozerin 0,05% 0,3 —0,5 ml, galantamin 0,5% 0,3—0,5. gumizol 0,5 ml, ATF 1% 0,3—0,5 ml m/o	B <sub>1</sub> 6% 1,0 B <sub>6</sub> 5% 1ml, B <sub>12</sub> 100 mkg, prozerin 0,05% 0,5 —1,0, galantamin 0,5% 0,5—1,0, gumizol 0,5—1,0 ATF 1% 0,5—1,0 aloe 0,5—1,0 shishasimon tana 0,3 —0,5 ekstrakt platsenta 0,3—0,5 lidaza 24 ed k/o
Fizioterapiya muolajalari	To'qimalardagi shish va gematomalarni olish maqsadida: UVCh yelka chigaliga 7—10 seans, solluks yoki M anin lampasi 10—15 daqiqa kuniga ikki marta	Parafin, ozokerit aplikatsiyasi, elektroforez 1—2% eufillin, 1—5% kaliy yodid, 0,5% galantamin, lidaza bilan yelka ustiga 10—15 daqiqa dan 10—15 kun k/o elektrostimulyatsiya refleksoterapiya, Yelka, qo'l va bo'yin sohasiga 2—3 oygacha yengil uqalash.	Parafin, ozokerit, elektroforez, antixolinesteraz dorilar bilan, elektrostimulyatsiya, refleksoterapiya.
Uqalash	M umkin emas	Yelka, qo'l va bo'yin sohasiga 2—3 oygacha yengil uqalash.	Yelka mushaklari va qo'llarni uqalash.
Davo mashqlari	Yengil mashqlar	Faol va sust harakatlar falajlangan to-monga	Faol va sust harakatlar falajlangan to-monga, suv bilan davolash.

### Bolalar serebral falajligi

**Sabablari.** Bolaning ona qornida rivojlanish davrida, onadan tug'ilayotgan vaqtida va hayotining dastlabki oylarida bola organizmiga har xil endo va ekzogen taassurotlar – infeksiyalar, bosh miya gipoksiyasi, turli xil zaharlanishlar, asab tizimining ko'pgina tug'ma kasalliklari nati-jasida bolalar serebral falaj kasalligi kelib chiqadi. Bundan tashqari, jarohatlar, onaning kasalliklari, autoimmun jarayonlar, bolaning genolitik kasalligi, ona qonining rezus manfiy bo'lishi ham sabab bo'ladi. Bu kasallik klinik manzarasining asosi harakatning har xil tarzda buzilishi falajlar, giperkinez, ataksiya, nutq buzilishlari, tutqanoq xurujlari va ruhiy o'zgarishlardan iborat bo'ladi. Bu kasallikning dastlabki belgilari – bolada tug'ma harakat reflekslari susaygan yoki umuman bo'lmaydi. 1. Himoya refleksi – qorni bilan yotqizib qo'yilgan bola nafas olishga og'zini

bo'shatish uchun boshini burmaydi. 2. Tayanch reaksiyasi – bola tik turib ushlab turilganida, oyoqlarini tayanchga tiramaydi va odamning qo'llariga osilib qoladi. 3. Chagaloqning qadam harakatlari – tik holatda ushlab turilgan bola mayda-mayda qadam qo'ya boshlaydi. 4. Emaklash refleksi – sog'lom bola qorni bilan yotqizilib, tovonlariga bosib ko'rilsa, u emaklay boshlaydi, lekin kasal bola bunday qila olmaydi. Bolalar serebral falajligi bolaning ona homiladorlik davrida boshlangan bo'ladi. Dastlabki belgilari – mushaklar gipotoniyasi, gipotrofiyasi, tana orqa qismi mushaklarining bo'shashishi natijasida kifoz, skolioz va son – chanoq bo'g'imida displaziya rivojlanadi. Bola tug'ilganida barmoqlari kaftiga yopishgan, kaftini musht qilib olgan bo'ladi, bola boshini ushlab tura olmaydi, tug'ma reflekslar yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Bola oyoqqa qo'yilganda oyoqlarini bosa olmaydi yoki oyoqlarini chalishtirib oladi. Bo'yin-tonik, labirintli reflekslar yuzaga kela boshlaydi. Bola kam harakatli, ovozi past, mangalanadi, tili ham kam harakat, nutqi yaxshi rivojlanmagan, yaxshi yuta olmaydi, so'rish qobiliyati past, og'zidan doim so'lak oqib turadi. Bolalar serebral falajligining 5 ta turi bor:

1. Spastik diplegiya yoki Littl kasalligi – bunda qo'llar oyoqlardan ko'ra kamroq darajada zararlangan bo'ladi. Bunday bolalar qo'llarini bemalol harakatlantira oladi, ular rasm chizish, yozish, qoshiqni o'zları ushlashlari mumkin. Oyoqlarda esa spastik paraparez, gipertonus, giperrefleksiyalar kuzatiladi. Oyoq bo'g'imirida kontrakturalar, qiyshayishlar, bo'g'imirining joyidan chiqishi belgilari namoyon bo'ladi. Bel-dumba mushaklarining bo'shashi natijasida umurtqa pog'onasi qiyshayib, lordoz yuzaga keladi. Ba'zan tonik tortishlar, qisqa muddatli absanslar, nihiy va nutq rivojlanishidan org'ada qolish belgilari namoyon bo'ladi. Kasallikning bu shakli bilan og'rigan 70 % bolalarda dizartriya kuzatiladi. Bir necha yil davomida muntazam to'g'ri muolaja qilib borilsa, bolalarda hech qanday asoratlar qolmaydi.

2. Ikki tomonlama gemiplegik turi. Kasallikning bu shaklida miya yarim sharlari qattiq jarohatlanishi tufayli mushaklar tonusi ortib boradi. Qo'llar oyoqlardan ko'ra ko'proq zararlangan bo'lib, bola qo'llarini mutlaq ishlata olmaydi. Bola tik tura olmaydi, o'tira olmaydi, yura olmaydi. Mushaklar tonusi ko'proq distal qismlarda ortishi natijasida bola oyoppa qo'yilganda oyoqlarini chalishtirib oladi, pay reflekslari kuchaygan, refleksogen sohalar kengaygan, patologik reflekslari yuzaga kelgan bo'ladi. Oyoq va qo'l bo'g'imirida kontrakturalar rivojlanadi. Mushaklar parezi ovoz paylariga ta'sir qilib, nutqida dizartriya alomatlari paydo bo'ladi. Dizartriya psevdobulbar turga ega bo'lib, yutish qiyinlashadi, bola og'ziga solingan ovqatni mustaqil chaynay olmaydi, ko'pincha so'rib yutadi, og'zidan so'lak oqib turadi. Bunday bolalarda imbesillik yoki og'ir debillik darajasidagi oligofreniya hambo'ladi.


3. Giperkinetik turi. Ko'pincha bilirubin ensefalopatiya ona bilan homila qonining rezus jarayoni va qon guruhining bir-biriga to'g'ri kelmasligi tufayli, tug'ruq jarohatlarida dumli tana sohasiga qon quyilib qolishi natijasida kuzatiladi. Har xil tipdag'i giperkinezlar (xoreatetoz, qo'shaloq

atetoz, ballizm, xoreosimon giperkinez va boshq.) parez yoki falajlar bilan uchraydi. Kasallikning dastlabki kunlarida mushaklar tonusi pasayadi, bextiyor harakatlar til mushaklariga, bo'yin, yuz mushaklariga targaladi. Bo'yining asimmetrik tonik refleksi kuzatiladi. Kasallik rivojlangan sari bolaning harakatlari qiyinlashadi, ataksiya qo'shilib, bola bir tekis yura olmaydi. Nutq va ruhiy o'zgarishlar kamroq bo'lganligi uchun bola 3–4 yoshda so'zlashga moyil bo'ladi (27-rasm).

4. Geniparetik turi. Bunda tananing bir tomonida gemiparez rivojlanishi natijasida bola Vernike-Mann vaziyatini oladi, Qo'1 ko'proq zararlanib, tirsak bukilgan holda bo'lsa, oyogda yozuvchi mushaklarning tonusi ortishi natijasida bemor oyog'ini tizza bo'g'imidan buka olmay, aylantirib sudrab bosadi. Kasallikning bu turida nutq o'zgarishlari miyaning qaysi yarim shari zararlanishiga qarab (motor, sensor afaziya, dizartriya), stereognoz, praksis buzilishlar hamda tutqanoq alomatlari kuzatiladi. Bunday bolalar qaysar, jahdor, bir so'zli bo'lib qoldilar.

5. Atonik-astatik turi. Ko'proq miyada zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Pay va periostal reflekslar kuchaygan bo'ladi. Bolaning qo'llari qaltiraydi, yura boshlashi bilan gandiraklaydi, tez-tez qoqilib yigiladi, oyoq oralarini katta ochib qadam tashlaydi, bolada harakat muvozanati buziladi. Dismetriya, gipermetriya alomatlari bo'ladi. Bola 2–3 yoshdan gapira boshlaganida nutqida miyacha dizartriysi, tutqanoq va gipertenzion alomatlari kuzatiladi. Gipertenzion alomatlar bola ayniqsa bir oylik paytida zo'rayadi.

**Davosi.** Kasallikning erta davrida tug'ilishdan keyin bir necha oy mobaynida bosh miyada likvor va qon aylanishni yaxshilash, yallig'lanishga qarshi dorilar, moddalar almashuvini yaxshilash, talvasa va gipertenzion alomatlarga qarshi dorilami berish tavsiya etiladi. Kasallikning dastlabki kunlarida vitamin B guruhi, antibiotiklar, laziks yoki furasemid, magneziy sulfat, pirogenal, pirasetam buyuriladi. Miya qobiqlarida chandiq bo'lgan hollarda lidaza 8–16 tb, FiBS; asab to'qimalarining funksional faoliyatini yaxshilash maqsadida nootropil, ensefabol, profizon, cerebrolyzin (shaytonlash alomatlari bo'lmasa), pirasetam; tonuslarni pasaytirish maqsadida levodop, sikladol, nakom, modopar, midokalm qo'llaniladi. Miyelin hosil bo'lishini kuchaytiradigan dorilar B<sub>6</sub> 2,5 % 2–3 ml, pirogenal 2,5 mpb dan sxema bo'yicha beriladi. Og'ir hollarda deksametazon, prednizolon beriladi. Nutq va ruhiy rivojlanish orqada qolishining oldini olish uchun maxsus nafas mashqlari, artikulatsiya apparatini nuqtali va tartib bilan ugalash, mimik, til osti va bo'yin mushaklarini ugalash, nutqni rivojlanti-ruvchi mashqlarni o'tkazish lozim. Harakat faoliyatini yaxshilash, qiyshayish, kontrakturalarning oldini olishda ugalash, shifobaxsh badan-tarbiya mashqlari, fizioterapeutik nuolajalar bilan birga ortopedik mashqlar olib borish zarur. Bemorlarga parafin, ozokerit, balchiq bilan davolash, gips qo'yish yaxshi naf beradi.



### ***Nazorat savollari***

1. Nasl va irsiy kasalliklarning qaysilari dominant yo'li bilan o'tadi?
2. Psevdogipertrofiya boldir mushaklarda bo'lsa, qaysi kasallik belgisi hisoblanadi?
3. Sirengonielyi bilan kasallangan benorlarda klinik belgilari va davolash usullarini aytинг.
4. Miopatiyada zararlangan joyni aytинг.
5. Prozerin sinamasi nima uchun va qanday qo'yiladi?
6. Chaqaloglarda gipertenzion belgilari qanday aniqlanadi?

### ***Vegetativ asab tizimi kasalliklari***

Barcha tizim va a'zolarning ish faoliyatini vegetativ asab tizimining simpatik va parasimpatik asab tizimi boshqarib turadi. Ana shu ikkalasi birligida silliq mushaklarni, qontomirlami, ichki a'zolarni, limfa bezlarni va goneostazni idora qiladi. Ayrim hollarda shu ikki tizimdan bittasi ko'proq vazifani bajarib kasallanadi. Unda ikkita klinik manzara hosil bo'ladi.

1. Agar simpatik asab tizimi ustunlik qilsa, unda teri rangi ogargan, oyoq-qo'llarda sovug qotish, ko'z qorachiqlarining kengayishi, taxikardiya, taxipnoye, qon bosim ko'tarilishi va ich qotish belgilari kuzatiladi. Bunday odamlar ishchan ayniqsa, kechqurunlari, lekin ular esda saqlay olmaydilar, vahimachi, quyoshni, issiqni, tovushni, kofeni yomon his etadilar va uyqusi buzilgan bo'ladi.

2. Agar parasimpatik asab tizimi ustunlik qilsa, ular vagotoniklar deyiladi. Bunda bradikardiya, bradipnoye, ko'p terlash, ko'z qorachiqlarining torayishi, so'lakning ko'p oqishi, qon bosimning pasayishi kuzatiladi. Bundan tashqari, benorlarning ruhiyati past, hamma narsalarga befarq, e'tiborsiz, qiziqishi kambo'ladi. Bularda ertalabki ish qobiliyati ko'p bo'ladi.

### ***Vegetativ qontomirlar distoniyasi***

Vegetativ qon-tomirlar distoniyasi kelib chiqishi sabablari ko'p va turli-tuman bo'lib, bular surunkali ichki a'zolarning kasalliklari, ichki sekretsiya bezlari faoliyatining buzilishi, nasl moyilligi allergiya va nevrozlardir.

**Klinik manzarasi.** Bunda benorlar, asosan, bosh og'riq, bosh aylanish, uyqusizlik yoki ko'p uqlash, umumiyl holsizlik, tez charchab qolishdan shikoyat qiladilar. Bundan tashgari yurak atrofida noxush sezgilar paydo bo'lishi yoki og'riq, og'izdan so'lak oqishi yoki og'iz qurishi, ishtaha kamayishi, qusish, ich ketish yoki optish, qarin damlanishi, tez-tez siyishdan, nafas olishning tezlashishi, havo yetishmaslik, ba'zi benorlar o'pkasiga to'liq havo bormasligidan noliydarlar. Benorlarda har xil parezteziyalar, bel, dung'aza, dum va kuraklar oralig'ida og'riq bo'lib turishi, ish qibiliyatining pasayishi, boshda og'irlilik sezish va xotiraning kamayish holatlari kuzatiladi. Asab sohasini tekshirganimizda pay reflekslarining kuchayishi yoki kamayishi, qo'l barmoqlarida titrash, demografizm o'zgarish, pilomotor reflekslar

susaygan yoki kuchaygan, Ashner belgisi, ortostatik yoki klinostatik sinovlarining buzilishi, qon bosimining o'zgaruvchanligi, ter ajralishi, tana harorati subfebril yoki gipotermiya, akrosianoz, op'l-oyoq panjalarining sovuq qotishi kuzatiladi. Bemorlar issiqlikni yomon sezadilar, ob-havo o'zgarishi ularga kuchli ta'sir qiladi.

**Vegetativ paroksizm.** Vegetativ paroksizmning uchta turi mavjud:

1. Simpatik – adrenalin turi birdan boshlanadi, kunning qaysi vaqtiga bog'liq emas, ko'proq his-tuyg'u, aqliy va jismoniy charchashdan keyin boshlanadi. Bunda bemorlarning qon bosimi oshgan, yurak urishi tezlashgan, harorati yugori – gipertermiya, bosh va yurak atrofida og'riq, sovuq qotish, op'rqish, qondagi qand miqdorining ko'payishi bilan birga xuruj oxirida ko'p miqdorda siyidik ajralish bilan yakunlanadi.
2. Vagoinsular turida esa qon bosimning pasayishi, yurak urishi sustlashgan, ko'ngil aynish, umumiy holsizlik, nafas olishga qiynalish, ko'p terlash, bosh aylanish va bemor behushlik holatiga tushib qolishi bilan yakunlanadi.
3. Aralash turida esa har ikkala turidagi klinik manzara almashib turishi bilan davom etadi.

Vegetativ qontcmirlar distoniysi kelib chiqish sabablari ko'p va turli-tuman bo'lib, klinik manzaralar ham har xil ko'rinishda bo'ladi. Keltirib chigaruvcchi jarayonlardan biri naslning moyilligi, bunda yurak urushi va qon bosimning o'zgarib turishi, ko'ngil aynish, haroratning bir oz ko'tarilishi, ko'p terlash, teri rangining o'zgarib turishi hamda aqliy va jismoniy mashqlarni yomon his qilishidir.

**Davosi.** Hamma vaqt asosiy kasallikni davolashga qaratilgan, keyingi davo esa kasallikning turiga qarab bo'ladi. Xuruj vaqtida tinchlantiruvchi dorilar, trankvilizatorlardan – elenium, diazepam, seduksen, rudentel, radidorm; simpatik-adrenalin turida dibazol, papaverin, aminazin; vagoinsular xurujida kofein, kordiamin; bosh og'riq, bosh aylanishga bellapon, betatserk, bellataminal 1 tabletidan 3 mahal beriladi. Vitaminlar, psixotrop dorilar: amitriptilin, sonapaks; astenik depressiyada glitsin, mel-lipramin 0,025 1 ta tabletidan 3 mahal kuniga, nuredal; bulardan tash-qari retabolil, ATF, nikotin kislota buyuriladi. Desensibillovchi dorilardan diazolin 0,05 g, tavegil 1 ta tabletidan 3 mahal, ovqatdan keyin buyuriladi. Tinchlantiruvchi dorilar natriy brom, valerian dorilari tavsiya etiladi.

**Oldini olish choralar:** dam olish, ovqatlanish va ishlash rejalariga riyoq qilish, oilada, ishda aqliy va jismoniy mehnatni to'g'ri yo'lga qo'yish, chekish va ichishga yo'l qo'ymaslik hamda badantarbiya mashqlari bilan shug'ullanish tavsiya etiladi.

## Migren

Migren juda keng targalgan kasallik bo'lib, xurujsimon bosh og'riq (ko'pincha boshning bir tomonida) bilan birga qusish va teri rangining oqarishi bilan xarakterlanadi. Migren 6 % aholi o'rtasida uchraydigan kasallik, ko'proq xotin-qizlarda kuzatiladi, asosan, nasldan autosom – dominant xilida o'tadi.

Kasallik kelib chiqish sababi miyadagi qontomirlaming disfunksiyasidir. Bular 4 fazaga bo'linadi: 1) qontomirlarining qisilishi; 2) qontomirlarining kengayishi; 3) qontomirlarining devorlarida shish paydo bo'lib, mo'rt bo'lib qolishi; 4) orgaga qaytish fazasi. Migrenning kelib chiqish sabablari: miya qontomirlaridagi o'zgarishlarga bosh miyadagi bosim oshishi va biokimyoiy o'zgarishlar, ya'ni serotonin, gistamin, asetilxolinning ko'payishi, bular qontomirlaming o'tkazuvchanligini oshirib yuboradi. Natijada bosh miya va uning pardalaridagi miya qontomirlari shisha boshlaydi. Bu kasallik, asosan, balog'atga yetgandan keyin ko'proq uchraydi. Kasallik boshlanishidan oldin aura, ya'ni dastlabki belgilari paydo bo'ladi. Bularda ko'z oldida har xil narsalaming paydo bo'lishi, qo'l va oyoglarda sovuq qotish, har xil paresteziya kuzatiladi. Xuruj qattiq bosh og'riq bilan boshlanib, boshning yarmida ko'proq chakka qismida, ko'zlarda, peshona – ensa qismida bo'ladi. Og'riq qattiq bo'lib, bemor yorug'likka, tovushga nisbatan bezovta bo'ladi. Bemorning kayfiyati yomon bo'lib, bir o'zi qorong'ilikda yotishga harakat qiladi. Xuruj vaqtida ko'ngil aynishi, yuzi, ko'zlari qizargan bo'lib, xuruj qusish bilan yakunlanadi. Bemor uqlashga harakat qiladi. Xuruj vaqtida mahalliy miya belgilari topilmaydi, faga vegetativ asab tizimida o'zgarishlar bo'ladi. Xuruj bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etadi.

Migrenning turlari: 1. Ko'z xilida ko'z oldida har xil narsalar paydo bo'ladi. Bunda ko'z oldi turan bilan qoplanib, bosh og'riq xuruji bilan o'tadi. Bu xuruj 6 soatgacha davom etadi. 2. Oddiy xili 85 %gacha uchraydi. Bu xuruj 1 soatdan 1–2 kungacha davom etadi. Bunda bemorning kayfiyati yomonligi, bezovtalik, ish qobiliyatining pasayishi, uyquchanlik, tez jahl chiqishi bilan birga bosh og'riq ko'proq ertalablar bo'lib o'tadi. 3. Assotsiyalashgan migrenda esa bosh og'riq bilan birga ko'proq miya belgilari kuzatiladi. Bunda III juft km nervining zararlanishi bilan birga gemiplegiya, ataksiya va nutq buzilishlari kuzatiladi. 4. Qorin shakli ko'proq bolalarda bo'lib, kindik atrofidagi og'riq, qo'l-oyoglarda sovuq qotish, bezovtalik, bosh og'riq qorindagi og'riq bilan kechadi. Bunda bemorlarining ich ketishi kuzatiladi. 5. Vestibular xilida bosh og'riq xuruji vistibular ataksiya, bosh aylanish, tura olmaslik, yura olmaslik belgilari bilan kechadi.

**Davosi.** Migren xurujida og'riq paydo bo'lganda, bemorni qorong'i xonaga tinch yotqizib qo'yish, oyoglariiga issiq isitgichlar, ensa sohasiga xantal qo'yish, issiq shirinchoy ichirish kerak. Xuruj paytida bemorning ahvolini yaxshilash maqsadida boshiga iliq, ba'zi hollarda sovuq kompresslar qo'yiladi. Ba'zan boshni issiq suuga yuvish, ro'mol bilan o'rash, oyoglarga issiq vannalar qabul qilish yaxshi yordam beradi. Og'riq qoldiruvchi dorilardan aspirin, baralgin, sitramon, tinchlantiruvchi dorilar; qontomirlarini kengaytinuvchi dorilar papaverin, no-shpa tavsiya etiladi. Xuruj vaqtida glukoza 40 % 20 ml tomir ichiga yuboriladi, strofantin, vitamin B<sub>6</sub>, qusishga qarshi torekan 1,0 ml teri ostiga, sirukal, etaperazin, triflazin, galoperidol buyuriladi. Ergotamin gidrotartrat 0,001 g til ostiga 20 daqiqadan keyin qaytalash, bir kunda 3 ta tabletkadan oshmasligi kerak, digidroergotamin 0,1 % 15–20 tomchidan

ichishga, kofetamin 1 tabletidan 3 mahal ichishga buyuriladi. Og'ir xurujlarda furosemid, prednizolon; yallig'lanishga qarshi ibuprofen, indometatsin, naproksen, nimesil 100 mg dan kuniga 2 mahal, dilseron ichishga beriladi. Xuruj orasida sinnarizin 0,025 g bir tabletidan 3 mahal 3 oygacha, metisergit 1/4 yoki 1/2 tabletidan ovqatdan keyin ichishga beriladi. Bundan tashqari, nikotin kislotosi, kavinton, semion, 1 ta tabletidan 3 mahal buyuriladi. Dam olish, ertalabki badantarbiya, toza havoda sayr qilish, ovqatlanishni yo'lga qo'yish zarur. Kechasi yotishdan oldin oyoqlarni iliq sunda vanna qilish kerak. Zararli odatlar – ichish va chekishi tashlash tavsiya etiladi.

**Kvinke shishi.** Alovida kasallik sifatida 1882-yilda Kvinke tomonidan aniqlangan. Shish birdaniga paydo bo'ladi, asosan, yoshlarda yuzda qo'l-oycqqlarda, ko'pincha, lablarda, qoshda, qo'l panjalarida paydo bo'ladi.

**Sabablarli.** Ayrim ovqatlari iste'mol qilganidan keyin kelib chiqadi. Har xil yoqmagan ovqatlardan keyin allergen sifatida paydo bo'ladi. Bu kasallikning kelib chiqishi qontomirlari o'tkazuvchanligining buzilishi, limfa ishlab chiqishi buziladi, ya'ni ko'payadi. Shuning natijasida atrofda shish paydo bo'ladi.

**Klinik manzarasi.** Bemorda birdaniga labida, ayniqsa, tepa labida shish paydo bo'ladi, bir necha daqiqa ichida kattalashadi, rangi sariq, barmoq bilan qattiq bosganda izi qolmaydi. Ba'zan butun yuzga shish targaladi. Bemor o'sha shish bo'lган joyda og'irlik sezadi, biroz qidish paydo bo'lada. Shunaga shishlar qo'llarda, oyoqlarda tanada ham kuzatiladi. Agar qizilo'ngachda shish paydo bo'lsa, bemorning yutinishi qiyin bo'ladi, tomoqda bo'lsa, ovoz o'zgaradi, xirillagan nafas eshitiladi. Ichki a'zolarda ham shish bo'lishi mumkin. Ichak, oshqozonda shish paydo bo'lsa, kasallik og'ir o'tadi. Bosh miyada shish hosil bo'lsa, unda meningial belgilari paydo bo'ladi. Bunda bemorda birdaniga bosh og'riq, quşish va qaltirash belgilari paydo bo'ladi. Kvinke shishi davolarmasa, shish bir necha soatdan bir necha kungacha saqlanishi mumkin.

**Davosi.** Shishni keltirib chiqaruvchi allergeni to'xtatish kerak. Buning uchun kalsiy xlor yoki kalsiy glukonat 5–10 % 5,0–10,0 ml tomir ichiga seklinlik bilan yuboriladi. Antigistaminlardan tavegil, diazolin, dimedrol, suprastin, og'ir hollarda gormonlar berish zarur.

### Anafilaktik shok

Organizmning yot jismlarga (antibiotik, vaksina, zardob, ferment, gormonlar, sulfamilamid dorilari va boshqa oziq-ovqatlarga) nisbatan sezgirligining oshib ketishi natijasida ro'y beradi. Birlamchi tushgan allergenga nisbatan organizmda unga qarshi antitello ishlab chiqariladi. Qayta allergen tushganidan keyin esa qonda biologik faol moddalar ishlab chiqariladi. Bularga gistamin, serotonin, asetilxolin, bradikinin kiradi, bu moddalar qontomirlarining falajiga, qontomirlari devoridagi o'tkazuvchanligining oshib ketishiga, silliq mushaklarning torayishiga olib keladi.

Natijada, umumiylar qonning butun tanada aylanib yurishi kamayib ketadi va to'qimalarning qon bilan ta'minlanishi buziladi. Buning natijasida to'qimalarda ishemiya yuzaga kelib, nekrozga aylanadi. Ayniqsa, buyrak ustilari bezlarining yetishmasligi alomatlari yuzaga keladi.

**Klinik manzarasi.** Quyidagi turlarda kechadi: 1. Asfiksiya turida bronxlar devorida spazm yoki halqumda shish paydo bo'lishi nafas olishni qiyinlashtiradi, nafas shovqinli bo'lib, bemon xirillab nafas oladi. O'pkadan quruq va ho'l xirillashilar eshitiladi. Og'izdan ko'piksimon moddalar keladi. Benorda yo'talish ko'payadi, terining rangi ko'kara boshlaydi. Tez-tez yuzaki nafas ola boshlaydi. 2. Genodinamik turida yurak qontomirlar yetishmovchiligi bo'ladi. Bunda yurak tovushi bo'g'iq, tomir urishi ipsimon, kuchsiz, qon bosim birdan tushib ketgan, teri rangi marmarsimon, sovuq ter bosish, akrosionoz va qon ketish belgilari kuzatiladi. 3. Abdominal turida qattiq xurujsimon qorin og'rig'i bilan birga qorinning dam bo'lishi, qusish, ichning suyuq ketishi, siyib yuborish va ichaklardan qon ketish belgilari kuzatiladi. 4. Serebral turida hushning yo'qolishi, nafas olishning buzilishi bilan birga bosh miyada shish ko'payib boradi va bemon koma holatiga tushadi, bunda midriaz, talvasa klonik-tonik holda kuzatiladi. Bu holat bosh miyaning organik buzilishlariga olib keladi. Bulardan tashgari, bemon anafilaktik shok holatiga tushganda, bemoning tili, qo'li, yuzi va boshida qichish paydo bo'ladi. Aksa urish, yo'talish, qo'rquv, birdan toliqish, bosh og'riq, yurak va qorin sohasida og'riq, bosh aylanish, qulqopa shovqin bo'lishi, teri rangining oldin qizarib, keyin oqarishi hamda sovuq ter bosish belgilari paydo bo'ladi. Bemoning qon bosimi birdan tushib ketadi, natijada yiqladi.

**Anafilaktik shokda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.** Birinchidan, allergenning organizma tushishiga yo'l qo'ymaslik va uni to'xtatish zarur. Agar allergen tusha 0,3–0,5 ml 0,1 % adrenalin +3,0–5,0 ml novokain bilan qo'shib, shu joyning atrofiga ineksiya qilinadi va joyga muz qo'yiladi. Bundan tashgari, adrenalin 0,1 % 0,2–0,5 ml mushak orasiga, platinfillin 0,2 % 0,5–1,0 ml teri orasiga, prednizolon 2–5 mg/kg, tana og'irligiga natriy bikarbonat 4 % 100,0 ml tomir ichiga tomchilatib quyiladi. Bronxspazm bo'lganda eufillin 2,4 % 10,0 ml + glukoza 20 % 20,0 ml tomir ichiga yuboriladi. Agar qon bosimi ko'tarilmasa, yana noradrenalin 0,2 % 1,0 ml yoki mezaton 1 % 1,0 ml, 5 % 100,0 ml glukoza tomir ichiga tomchilab quyiladi. Bulardan tashgari, reopoliglukin, antigistamin dori-lardan dimedrol, suprastin, pipolfen, askorbin kislotasi va kalsiy xlor 10 % 10,0 ml tomir ichiga sekinkilik bilan yuboriladi. Agar anafilaktik shok penitsillinidan keyin bo'lsa, unda shu joyning o'ziga penitsillinaza fermentidan 1 mln tb mushak orasiga qilinadi. Bulardan siyidik haydovchi, spazmolitik va talvasaga qarshi dorilar ham qo'llaniladi.

**Hushdan ketish.** Bu vegetativ qontomiri kasalligi bo'lib, bu bosh miyada qonning juda kam ta'minlanishi natijasida ro'y beradi. Hushdan ketish yoki sinkopal (grekcha *syncope* – kesmoq, qirqmoq so'zidan olingan) da qisqa vaqtda bosh miyaning qon bilan ta'minlanishi buzilib, hushning

yo'qolishi, mushaklar tonusining kamayishi bilan kechadi. Hushdan ketish ruhiy jarohat, og'riqli narsalardan keyin, qon ketish, yuqumli kasalliklardan, organizmning zaharlanishi natijasidan keyin kelib chiqadi. Ba'zan charchash, toliqish, ochlik, issiq joyga kirgandan keyin hamda qontomirlarini kengaytiruvchi dorilar ichgandan keyin kelib chiqadi.

**Klinik manzarasi.** Uchta turga bo'linadi: 1. Yengil turi hushdan ketish reaksiyasi yoki lipotimiya bunda kasallarda birdan kuchsizlik (zaiflik), kalla ichida shovqin, hech narsa yo'qdek, bo'm-bo'shlik, bosh aylanish, ko'z oldida qorong'ilik, qo'l va oyoqlarda uvishish, ko'p terlash, teri rangining oqarishi, charchash, tomir urishining tezlashishi, qon bosimining pasayishi bilan xarakterlanadi. Bunday xuruj 3–5 soniya davom etadi. 2. O'rtacha og'irlikdagi turida yugoridagi yengil shaklidagi aytilib o'tilgan belgilari 10 soniya davom etib, qon bosimi pasaygan, tomir urishi tezlashgan, nafas olish yuzaki, kamayishi bilan xarakterlanadi. 3. Og'ir turida qaltirash belgilari hamda yugorida aytilib o'tilgan belgilari birgalikda kechadi. Qaltirash klonik-tonik holda butun tanada, ko'z qorachiqlari kengaygan, nistagm, so'lak oqishi ko'paygan va ixtiyorsiz tagiga siyib yuborish kuzatiladi. Bunday xuruj bir necha daqiqagacha davom etadi.

**Davosi.** Hushdan ketish holatida bosh miyada qon aylanishini yaxshilash uchun benormi tezda yotqizib, bosh tononini pastga, oyoqlarini esa yugoriga ko'tarib qo'yish kerak. Benorming kiyimlarini yechib, toza havo kirishiga yo'l qo'yish lozim. Agar benor hushiga kelavermasa, unda amniak yoki nashatir spirtidan burunga hidlatiladi, yuziga sovuq suv sepiladi. Agar benorming qon bosimi pasayib ketgan bo'lsa, mezaton 1 % 1,0 ml, kofein natriy bezoat 10 % 2,0 ml, kordiamin 25 % 1–2 ml teri ostiga in'eksiya qilinadi. Benor organizmini chiniqtirish maqsadida toza havoda sayr qilish, shifobaxsh badantarbiya bilan shug'ullanish va dam olish kerakligi tavsiya etiladi.

#### *Nazorat savollari*

1. Qanday bosh og'riq mustaqil kasallikda uchraydi?
2. Shokning klinik belgilarini aytilib bering va unga qarshi birinchi yordamni ko'rsating.
3. Migran xurujida birinchi yordam ko'rsating.
4. Kvinke shishining kelib chiqish sabablarini tushuntiring.
5. Simpatik – adrenalin va vagoinsular turlari bir-birlaridan qanday farq qiladi?
6. Hushdan ketishning klinik turlari va qanday shoshilinch yordam ko'rsatiladi?

#### *Asab tizimining kasbga aloqador ba'zi kasalliklari va zaharlanish hollari*

**Vibratsion kasallik.** Vibratsion kasallik vibratsiya bilan uzoq vaqt ishlaydigan ishchilarda uchraydi. Kasallik asta-sekin rivojlanib boradi. Asosan, vegetativ va periferik asab tizimining nervlari vibratsiya ta'sirida ko'proq zararlanadi.

**Klinik manzarasi.** Bemorlar qo'l va oyoq panjalarida og'riq borligidan, sovuq vaqtarda barmoqlarning oqarib qolishidan shikoyat qiladilar. Bunda qo'l panjalar ko'kargan, ushlab ko'rilmaga, sovuq qotish, shish borligi kuzatiladi. Qo'l panjalarida sezuvchanlikning pasayishi, nerv ustunlari bosib ko'rilmaga, og'riq borligi ma'lum bo'ladi. Vegetativ asab kasalligi zararlanganda, dermografizm qizil rangda bo'ladi, tomir urishi va qon bosimining o'zgarib turishi, bosh og'riq, bosh aylanish doimiy bo'lmaydi.

**Davosi.** Vibratsiya bilan ishlaydigan bemorlarni ish joylaridan ozod qilish. Vitaminlardan B<sub>1</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>; bosh aylanishga qarshi bellloid, betaserk, bellataminal, bellospon; og'riqqa qarshi dorilar analgin, baralgin, indometasin, ibuprofen; periferik asablarda qon aylanishini yaxshilash uchun nikotin kislotasi, trental tavsiya etiladi. Bemorga ugalash, shifobaxsh badantarbibiya buyuriladi.

**Is gazidan zaharlanish.** Is gazi (uglerod I oksid)dan odamlar toshko'mir shaxtalarida (bu yerda gaz ishlanayotgan jinslardan yoki sekin cho'g'la-nayotgan ko'mir changidan chiqib turadi), ishlangan gazni tashib keluvchi haydovchilarning kabinalariga o'tirib qolishi natijasida, qozonxonada ishlaydigan ishchilarda mo'rilar buzilib qolsa, uy sharoitida gazlardan foydalanishni buzgan hollarda, is gazidan zaharlanib qolishlari mumkin. Is gazi qondagi genoglabin bilan oson birikib, karboksigenoglabinni hosil qiladi. Natijada, eritrotsitlarning kislorodni biriktirib olishi qiyinlashadi. Buning ta'sirida to'qimalarga kislorod borishi kamayadi. Markaziy asab tizimi, ayniqsa, bosh miya kislorodga o'ta sezgir bo'ladi. Zaharlanishda dastlab bosh og'riq, bosh aylanish, qulog shang'illashi, ko'ngil aynish, yurak o'ynashi, uyqu bosish, ko'rishning pasayish belgilari kuzatiladi. Bundan tashqari, og'ir zaharlanish hollari adinamiya, falajlanish, hushdan ketish, talvasa xurujlari, koma holati, nafas olishning buzilishlari va miya shishiga olib keladi. Bunday hollarda, bemor tezda o'lib qolishi mumkin. Bemor koma holatidan chiqqandan keyin karaxt bo'lib turadi. Ba'zan esa ruhiy qo'zg'alish, giperkinez, tutqanoq, spastik parezlar kuzatilishi mumkin.

**Davosi.** Darhol bemorni toza havoga olib chiqish va bir necha soat davomida to'xtovsiz kislorod berib turish lozim. Bemorga askorbin kislota 5 % 20–30 ml dan, 5 % 500 ml glukoza, 2 % 50 ml novokain tomir ichiga, eufillin 2,4 % 10 ml, laziks 2,0 ml, qon zardobi, heparin 5–10000 tb bir kunda yuborish kerak. Qo'zg'alish vaqtida aminazin 2,5 % 2,0 ml, dimedrol 1 % 1,0 ml, pipolfen 2,5 % 2,0 ml, promedol 2 % 1,0 ml mushak orasiga qilinadi. Nafas olish qiyinlashsa, sun'iy nafas olish bilan havo yuboriladi. Uzoq vaqt davom etadigan bo'lsa, bosh qism haroratini past haroratda ushlab turish (gipotermiya) yaxshi natija beradi. Bemorning orga miyasidan suyuqlik olib turish tavsiya etiladi.

**Metil spirtidan zaharlanish.** Odam metil spirtidan to'satdan zaharlanib qoladi. Etil spirti o'rniga bilmasdan metil spirti ichib qo'yganda, zaharlanish hollari yuz beradi. Odam ichgandan bir necha soat o'tib, bosh va qorinda og'riq boshlanib, ko'ngil aynib, qusadi, ko'zlar oldida jimirlash, qoron-

g'ilashish paydo bo'ladi. 2-3 kun o'tgandan so'ng, ko'rish xiralashib keyin mutlaqo ko'rmay qo'yadi. Oyoqlarda og'riq kuchayib boradi, bemorning og'iz atrofi qurib qoladi, kuchli changash natijasida badan terisi va shilliq pardalar quruglashib, ko'karib turadi. Ko'z qoradichqlari kengaygan, yorug'-likka javob reaksiyasi sustlashgan, tomir urishi tezlashgan va keyinchalik sekinlashadi, maromi buziladi. Qon bosimi avval ko'tarilib, keyin pasayadi. Es-hush buzilgan bo'lib, ruhiy qo'zg'alishlar, tutqanoq xurujlari, ensa mushagi tarangligi, qo'l-oyqdagi mushaklar tonusining oshishi, kollaps va koma holatlari namoyon bo'ladi. Ko'zning mutlaqo ko'rmay qolishi ko'z tubida ko'rav asabining diskida qon qo'yilish, shish va bundan keyin ko'rav nervini atrofiyaga uchrashi natijasida yuz beradi.

**Davosi.** Oshqozonni zond orgali tozalab yuvish, siydiq haydovchi dorilarni kuchaytirish, bemorni gemodializ qilish tavsya etiladi. Bemorga 100 ml 30 % etil spirti ichiriladi. Keyin 4-5 marta 2 soatdan oralatib, 50 ml spirtdan ichirib turiladi. Koma holatida etil spirt 5 % 1 ml/kg og'irlilikda tomir ichiga sekinlik bilan yuboriladi. Bundan tashqari, prednizolon, vitamin B<sub>1</sub> 5 % 5,0 ml, askorbin kislotasi 5 % 20 ml tomir ichiga, 20 % 200,0 glukoza bilan va 20,0 2 % novokain qo'shib, tomchilatib, tomir ichiga yuboriladi. ATF 1 % 2-3 ml mushak orasiga takrorlab turiladi.

**Fosfororganik birikmalardan zaharlanish.** Bu birikmalar xlorofos, karbofos, tiofoslardan iborat bo'lib, qishloq xo'jaligi va turmushda keng ishlatiladi. Xavfsizlik qoidalari buzilganda, baxtsiz hodisalar tufayli bu birikmalardan odamlar zaharlanib qoladilar. Bu birikmalar organizmga oshqozon-ichak yo'llari, nafas yo'llari va teri orgali kiradi. Natijada, markaziy va periferik asab tizimi sinapslaridagi xolinesteraza faolligini pasaytirib qo'yadi. Bunda nerv impulslarining o'tishi buziladi. Markaziy asab tizimi bo'limlarida qo'zg'alish holatlari paydo bo'ladi. Zaharlanish holatlari 3 bosqichda kuzatiladi: 1. Ruhiy qo'zg'alish, mioz (ko'z qoradich'ining torayishi), hansirash, ko'p terlash, qon bosimining ko'tarilishi kuzatiladi. 2. Ayrim joylardagi mushaklarda fibrillar qaltirash, giperkinez, nafas olishning buzilishi va koma holati namoyon bo'ladi. 3. Nafas markazi susayib qoladi, nafas mushaklari bilan qo'l-oyqdagi mushaklarning falajlanishi ro'y beradi, qon bosimi pasayadi, yurak urishi buziladi.

**Davosi.** Zaharlangan odamning oshqozonini bir necha marta qayta yuvish, tuz surgi ichiriladi. Birinchi bosqichda atropin 0,1 % 2-3 ml og'iz quriguncha, teri ostiga kuniga bir necha marta har 30 daqiqa takrorlab turiladi. Aminazin 2,5 % 2,0 ml mushak orasiga, magneziy sulfat 25 % 10,0 ml. Ikkinci bosqichda 40 % 20,0 ml glukozani 0,1 % 3,0 ml atropin bilan og'izda quruglik sezgisi paydo bo'lguncha, sekinlik bilan tomir ichiga yuboriladi. Qon bosimi ko'tarilganda, geksoniy 2,5 % 1,0 ml mushak orasiga, magneziy sulfat 25 % 10,0 ml, 4 % 1 l natriy bikarbonat tomir ichiga, xolinesteraza reaktivatori diproksim 15 % 1 ml teri ostiga takrorlab turish kerak. Uchinchi bosqichda o'pkaga sun'iy yo'l bilan havo berish kerak. 0,1 % 20,0 ml atropin eritmasidan tomir ichiga tomchilatib yuborish va

diproksim 15 % 1,0 ml teri ostiga takrorlab turish kerak, gidrokortizon 300 mg, antibiotiklar qo'llaniladi. Zaharlanishdan keyingi 3–7-kunlarda xolinesteraz faolligi past va yurak o'tkazuvchanligi buzilgan bo'lsa, bemor gonini almashtirish tavsiya etiladi.

**Antifrizdan zaharlanish.** Bemor antifrizni hidlaganda, yugori nafas yo'llari shilliq qavatlari zararlanishi va yengil mastlik holatiga olib keladi. Odam bilmasdan ichib qo'yganda, 30–60 daqiqadan keyin o'tkir zaharlanish belgilari boshlanadi. 1–2 soatdan keyin esa bemor koma holatiga tushadi. Bunda sianozning ko'payishi va koma holatining chuqurlashuvi teri ostiga qon ketishiga olib keladi. Bemorda qusish, ixtiyorsiz siyib yuborish, og'ir hollarda, 1–2 kundan keyin o'limga olib keladi. O'rtacha zaharlanish hollarida bemorda 5–10 kundan keyin buyrak faoliyatini buzilishi, siydikdan oqsil, silindr ko'p chiqib uremiya holatiga olib keladi.

**Davosi.** Birinchi kundan boshlab gemodializ, tomir ichiga glukoza, natriy gidrokarbonat, 5 % 100–200 ml etil spirti quyish yaxshi natija beradi.

**Benzindan zaharlanish.** Organizmga yugori nafas yo'llari, teri va shilliq qavatlar handa oshpozon ichak yo'llari orqali kiradi va zaharlanish belgilari yuzaga keladi.

**Klinik manzarasi.** Bemorda ruhiy qo'zg'alishlar, eyforiya, yurakning tez urishi, ko'ngil aynish, qusish belgilari kuzatiladi. Uzoq vaqt hidlaganda, hushdan ketish, pay reflekslarining oshishi, tonik va klonik qaltirash hamda spastik parezlarga olib keladi. 2–3 kundan keyin esa ichki a'zolarda zaharlanish belgilari paydo bo'ladi. Bular jigar sohasidagi og'riq, teri va shilliq qavatlarning sarg'ayishi hamda siydikda urobilinning paydo bo'lishi bilan kechadi. Benzindan surunkali zaharlanganda, astenonevrotik alomatlar: holsizlik, tez charchab qolish, qovoq va qo'llarda titrash, bosh og'riq, pay reflekslarining oshishi, vegetativ va emotsional buzilishlar, mastlik holatlari yuzaga keladi. Surunkali zaharlanish ham asoratsiz o'tadi, lekin sog'ayish davri bir necha oygacha cho'ziladi.

**Davosi.** O'tkir zaharlanish hollarida tinch joyga yotqizib, toza havo va kislород berish zarur. Tomir ichiga 40 % 30 ml glukoza bilan 0,06 % 1,0 ml korglukon yoki 0,05 % 0,5 ml strofantin eritmasidan yuborish zarur. Og'ir holatlarda sun'iy nafas berish lozim.

### **Botulizm**

Botulizm (lotinda «*botulus*» kolbasa degani) kasalligini keltirib chiqaruvchi bakteriyalar «*Clostridium*» botulihum zahari bilan zaharlangan ovqatni iste'mol qilish natijasida paydo bo'ladigan og'ir o'tkir kasallikdir. Botulizm qo'zg'atuvchilarini A, B, C, D, E, T va U turlari ma'lum. Ularning hammasi odamlarda kasallik paydo qilishi mumkin. Botulizm qo'zg'atuvchisi aniq anaerob, u havo kimaydigan joyda baliq, yog'li cho'chqa go'shtida, kolbasaning katta bo'laklari ichida yoki gemitik berk konserva bankalarda hosil bo'ladi.

**Klinik manzarasi.** Botulizm belgilari organizmga tushgan zahar miqdoriga ko'ra, 2 soatdan 3 soatgacha davom etadigan yashirin davrdan keyin yuzaga

keladi. Yoki 12–24 soatgacha cho'zilishi, hatto 10 kundan keyin ham paydo bo'lishi mumkin. Kasallikning dastlabki belgilari umumiy holsizlik, damonsizlik, bosh og'riq, og'izning qurib qolishi, oshqozon – ichek yo'llarida buzilishlar bo'ladi. Asab sohasida esa dastlab «ko'z alomat»lari – ko'zga narsalarning qo'shaloq bo'lib ko'rinishi, ko'rishning xiralashuvi, yugori qovoqning pastga tushib qolishi belgilari bo'ladi. Benorming hushi yo'qolmaydi, yurish nuvozanati buziladi. Yumshoq tanglay falajlanib, yutish buziladi, hisqildoga ovqat tushib, qattiq yo'tal tutadi. Nutq buziladi, tovush butunlay chiqmay qo'yadi. Tana harorati o'zgarmaydi, tomir urishi tezlashadi. Ko'z shaklida – diplopiya, ptoz, midriaz, amizokoriya, akskomodatsiya parezi, ko'z qoradig'inining yorug'likka javobi sustlashgan bo'ladi. Bulbar shaklida – bulbar falaj belgilari: disfoniya, afoniya, afagiya, anartriya, so'lak va ko'z yoshi oqishining buzilish belgilari bo'ladi. Nafas olish shaklida – nafas olish faoliyati buzilib, nafas qisib, nafas olishga qiyinlanadi.

**Davosi.** Davolashni imkonli boricha erta boshlash, botulizmga qarshi antitoksin zardobi yuborish kerak. Botulizmga qarshi antitoksin polivalent zardobning hamma turlariga qarshi har bir turdan 50000 AE dan ishlatish lozim. Zardobni 37–38°C dara jagacha qizdirib, keyin Bezredko usulida desensibilizatsiya qilinadi. Tezda natijaga, erishish uchun zardobni tomir ichidan yuborish kerak. Zardob yuborishdan oldin teri orasiga avval shu zardobni 1 : 100 nisbatda eritiladi. Shu eritilgan zardobdan har 20 daqiqada 0,5; 2,0; 5,0 ml dan qilinadi. Zardob bilan bir vaqtida boshqa shprisda bemorning boshqa joyiga anatoksin yuboriladi. Anatoksinni ham qo'zg'atuvchining hamma turiga qarshi 0,5 ml dan yuboriladi. Klinik o'zgarishlarga qarab, zardob va anatoksin yuborishni 5–10–24 soat o'tgach takrorlanadi. Zardobni dastlabki miqdorda, anatoksin esa har bir turiga qarshi 2 baravar ko'p miqdorda (1 mldan) yuboriladi. Aktivlangan ko'mir (1 l suvg'a 10–15 g ko'mir) beriladi yoki oshqozon qayta-qayta yuviladi. Sifonli klizma qilinadi. Oq'ir hollarda quruq plazma, 5 % glukoza, 0,9 % natriy xlor eritmasi tomir ichiga yuboriladi. Nafas faoliyati buzilganda, lobelin, sititon, strixni 0,1 % 0,3–0,5 ml tomir orasiga qilinadi.

**Oldini olish choralarini.** Kanserva sanoatida xomashyo sifatini va konservalarning sterilizatsiya rejimini qattiq nazorat qilish. Bombaj hosil bo'lgan bankalarni to'kib tashlash, uy sharoitida konserva yopishda e'tiborni kuchaytirish lozim.

#### **Nazorat savollari**

1. Vibratsion kasallikning kelib chiqish sabablarini ayting.
2. Is gazidan zaharlanishda qanday biokimoviy o'zgarishlar bo'ladi?
3. Metil spiritidan zaharlanganda, qanday yordam ko'rsatiladi?
4. Botulizmda kasallik belgilarini ayting va shoshilinch yordam ko'rsating.
5. Botulizmda bulbar belgilarini ayting.
6. Bezredko usulida zardob qanday yuboriladi?

## **Psixiatriya: (Ruiyi kasalliklar)**

### **Ruiyi kasalliklarning belgilari**

**I. Bilih faoliyatining buzilishi.** Bilih faoliyati 3 qisrdan iborat: Idrok, xotira va tafakkur. Idrokrning buzilishi ikkita bo'lib, bularga illuziya va gallutsinatsiya kiradi.

**Illuziya** – bu aniq narsalarni noto'g'ri idrok etish. Illuziyalar ko'rav, eshituv, hid bilish, taktik va ta'mbilish illuziyalariga bo'linadi. Illuziya sog'lom odamda ham uchraydi. Masalan, shisha idishdagi suvgaga solingan qoshiq xuddi, singandek ko'rindi. Ko'rav illuziyasida uyda osilib turgan to'n odam bo'lib ko'rindi va h. k. Illuziyalar ko'pincha, yugumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarda, turli xil zaharlanishlar oqibatida va juda jismoniyligi toliqgan odamlarda ham uchraydi.

**Gallutsinatsiya** – yo'q narsalarni bor deb idrok etish. Illuziyalarda chindan ham bor narsalar boshqacha bo'lib idrok etilsa, gallutsinatsiyalar da bemor yo'q narsalarni ko'radi, eshitadi, hidlaydi, sezadi. Ko'rav gallutsinatsiyasida bemorlarning ko'ziga odamlar, hayvonlar har xil mahluqlar ko'rinishida aks etadi. Eshituv gallutsinatsiyasida bemorning qulog'ida har xil tovushlar eshitiladi. Hid bilih gallutsinatsiyasida bemorning dimog'iga qo'lansa hidlar kiradi va bemor burun teshiklarini yopib oladi. Ko'rav gallutsinatsiyasi o'tkir psixozlarda, yugumli kasalliklarda, ichkilik vasvasalarida uchraydi. Hid bilih va eshituv gallutsinatsiyalari esa shizofreniyaning boshlang'ich davrida kuzatiladi.

**2. Xotiraning buzilishi.** Xotira hayot tajribasida esda qolgan ma'lumotlarni esda saqlash va takror aytib berishdir. Xotiraning buzilishi 3 ta:  
a) gipomeziya – xotiraning susayishi, bunda o'tmishdagi va yaqin vaqtidagi voqealar eslab qolunmaydi; b) gipermeziya – ancha vaqt o'tgan voqealarni xotirada saqlab qolish; v) amneziya – xotiraning yo'qolishi yoki eslay olmaslik. Retrograd amneziyada bemorlar kasallikdan oldin bo'lib o'tgan voqealarni eslay olmaydilar. Bu, ko'pincha, bosh miya lat yeyishi, chayqalishidan keyin kelib chiqadi. Anterograd amneziyada kasallik boshlangandan keyin ro'y bergen hodisalar bemor xotirasidan tushib qoladi va kundalik vogellarni eslab qola olmaydi.

Konfabulatsiya – xotiradan tushib qolgan vogelikni uydurma hodisalar bilan to'ldirish. Bemor ilgari hech qachon qilmagan ishlar bilan shug'ullanishini aytadi. Bemor 3 oyga yaqin shifoxonada yotgan bo'lsada, ikki kun ilgari chet el safaridan qaytib keldim, deb uydurma va yolg'on gaplari bilan ishortirishadi. Xotiraning bunday buzilishlari bosh miyaning organik kasalliklarida uchraydi (bosh miya qontomirlari aterosklerozi, bosh miya zaxmi va h. k.).

**3. Tafakkurning buzilishi.** Tafakkur (fikrlash) ning buzilishi xilma-xil bo'lib, uning tezlashuvi va sekinlashuvi kuzatiladi. Tafakkurning tezlashuvi moniakal-depressiv psixozning moniakal bosqichida bo'ladi. Bunda bemorning fikrlashi shu qadar tezlashib ketadiki, u fikrlarni so'z bilan ifodalashga ulgura olmay qoladi. Natijada, ba'zi so'z va jumlalarni tushirib

gapiradi. Bunda bemorning gapirgan gaplarini tushunish qiyin bo'lib qoladi. Moniakal-depressiv psixozning depressiv bosqichida tafakkurning sekinla-shuvi kuzatiladi. Bunda bemorning tafakkuriga biror tushuncha chuqur o'mashib qoladi. Bemor qisqa jumlalar bilan sekin-sekin cho'zib gapiradi.

**4. Xayoldan ketmaydigan holatlar.** Xayoldan ketmaydigan, miyaga o'mashib qolgan xotiralar vahimalar, shubha va istaklar hamda xatti-harakatlar shaklida namoyon bo'ladi. Bularning keraksizligini bemor biladi, lekin ulardan qutula olishning ilojini topa olmaydi. Bemor fikrlarini band qilib qo'yadigan holatlar nevrozlar, psixasteniya va shezofreniya kasalliklarida uchraydi. 1. Fobiyalar – miyaga o'mashib qolgan vahimalar. Bemor biror kasallik bilan og'rib qolishdan qo'rqish, ochiq joylarda yurishdan va yopiq binolar ichida yurishdan qo'rqish, quturish kasalligi bilan og'rib qolishdan qo'rqish natijasida quturgan it tishlab oladi, deb vahimaga tushib yuradi. 2. Miyaga o'mashib qolgan shubhalar. Bemor biror joyga ketayotib eshiklar yopildimi, chiroq o'chirildimi deb shubha qilaveradi. 3. Miyaga o'mashib qolgan istaklar. Bunday bemorlar ko'p qavatlari bino derazasidan o'zini tashlab yuborgisi kelaveradi, o'tib ketayotgan mashinalarga qo'lini tekizmogchi bo'laveradi. Bunda bemor bu istaklarning noto'g'ri ekanligini tushunadi va ulami bajarmaydi, lekin bu xayollardan qutula olmaydi. 4. Miyaga o'mashib qolgan xatti-harakatlar. Bunda bemorlar ba'zi xatti-harakatlarni qilaveradi. U uylaming derazasini, simyoq'ochlamni sanab chiqadi, o'tib ketayotgan mashinalarning nomerlarini bir-biriga qo'shib yuraveradi. Bunday xatti-harakatlar ba'zan yo'talish, ko'zlarini mahkam yumib olish va qo'llarni tez-tez yuvish bilan ifodalanadi.

**5. O'ta qimmatli fikrlar:** bu fikrlar real aniq shart-sharoitlar asosida paydo bo'ladi, lekin bemor fikriga to'g'ri kelmaydi. Bemor o'z xotinini menga xiyonat qilayapti yoki o'g'lim yomon ish bilan shug'ullanayapti, deb o'ylaydi. O'ta qimmatli fikrlar odamni hayojonga solib, butun fikrlarini egallab oladi va uni diqqinafa qilib qo'yadi. Bunday fikrlar aniq bor, real faktlar tufayli kelib chiqadigan bo'lishi bilan vasvasalardan farq qiladi. Vaqt o'tishi bilan bu fikrlar asta-sekinlik bilan yo'qladi.

**6. Vasvasalar** – kasallik tufayli bemor hayolida aqlga to'g'ri kelmaydigan noto'g'ri fikrlar, tangid, nasihat qilish yo'li bilan tuzatib bo'lmaydigan alahlashdir. Vasvasalar boshlansa, bemorni nohaq ekanligiga ishontirishga har qancha urinib ko'rilmasisin, o'sha fikrdan qaytarib bo'lmaydi. Vasvasalar bu ruhiy kasalliklar belgisidir. U quyidagi turlarga bo'linadi: 1) ta'qib vasvasasi – bemor orqamdan odam tushgan, u derazadan qarab turibdi, ko'chadan ketayotganimda poylab yurishadi, deb o'ylaydi. Bunday bemor ta'qibdan qochib, boshqa shaharlarga ko'chib ketadi; 2) jismoni y ta'sir vasvasasi – bunday bemor men maxsus mashinalardan berilayotgan nurlar yoki radioto'lginlar ta'sirida qoldim deb, bular salomatligimga zarar keltirayapti, deb da'vo qiladi; 3) munosabat vasvasasi – bemor atrofdagi hodisa va narsalarning menga aloqasi bor, deb da'vo qiladi. Biror odam gaplashayotgan yoki kulayotgan bo'lsa, u kishi faqat mening ustimidan gapiRAYapti yoki kulapti, deb o'ylaydi; 4) zaharlanish vasvasasi – bunda, bemor atrofdagi odamlar ovqatimga zahar solib qo'yishadi, deb o'ylaydi va ovqatni yemay

qo'yadi; 5) ipoxondrik vasvasa – bunday benorlar o'zini og'ir kasallikka uchragan, deb hisoblaydilar. Benorlar oshqozonim chirib borayapti yoki ichaginga suyak qadalib qoldi deb, da'vo qiladilar. Buxil vasvasa shizofreniya kasalligida uchraydi; 6) ulug'vorlik va buyuklik vasvasasi – bunda, benorlar o'zlarini ulug' lashkarboshi, olim yoki kashfiyotchi, o'zini bir talay puli, tillasi bor odamday badavlat hisoblaydilar; 7) ziyon-zahmat vasvasasi – bunda benorlar meni o'g'ri urib ketadi, deb ishonishadi, shundan keyin benorlar buyumlarini bekitib yurishadi. Natijada, benorlarning xotirasi buzilib, yashirib qo'yilgan buyumlarini joyini topolmaydi. Buning natijasida, benorlarda vasvasa kuchayib ketadi. Bunday benorlar shifoxonada o'rinn-to'shaklarini yig'ishtirib, tugun qilib, o'g'irlab ketishidan qo'rgib yuradilar; 8) o'z-o'zini ayblash vasvasasi – benorlar o'zini jinoyatchi, deb hisoblaydilar. Jamiyatga, oilaga katta ziyon yetkazib qo'ydim, deb hisoblaydilar.

**7. Aql pastlik yoki tentaklik.** Aql pastlik yoki tentaklik tafakkurning buzilishi bo'lib, bunda odamning hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni tushunish qobiliyati pasayib ketadi. Asosiy narsani ikkinchi darajali masaladan farq qila olmay qoladi. O'zining yurish-turishiga, fikrlariga tangidiy baho berolmaydi. Xotira susayib, tafakkur qilish pasayib ketadi. Xilq-atvor anda pasayib ketgan bo'ladi. Aql pastlik ikki turga bo'linadi. 1. Tug'ma aql pastlik (*oligofreniya*) – genetik o'zgarishlar tufayli bolaning ona qomida zararlanishi, go'daklik davrida kasal bo'lib qolishi natijasida bosh miyaning yetarlicha rivojlamay qolishidan kelib chiqadi. 2. Tumushda orttirilgan aql pastlik (*demensiya*) – katta yoshda bosh miyaning organik kasallikka uchrashi natijasida, bosh miyaning shikastlanishi, qarilik psixozi, bosh miya qontomirlari aterosklerozi va boshqa kasalliklar sababli paydo bo'ladi. Bunday benorlarning fikrlash doirasi past, ular atrofdagi vaziyatga to'g'ri baho berolmaydilar.

**8. His-tuyg'uning buzilishi.** His-tuyg'u (*emotsiya*) deb – shodlanish, xursand bo'lish, nafratlanish, xafa bo'lish, g'azablanish kabilarga aytildi. His-tuyg'u ilki turga bo'linadi. Salbiy va ijobjiy his-tuyg'ular. His-tuyg'u (g'azab, shodlik, g'anginlik, qo'rquv) lami to'lib-toshib namoyon qilish *affekt* deyiladi. Affekt vaqtida odamning es-hushi ham kirarli-chiqarli bo'lib turadigan bo'lsa, buni *patologik affekt* deyiladi. Mana shunday holatda odam og'ir jinoyatlar qilib qo'yishi mungkin. Benoming mimikasi (yuzning imo – ishorasi) aytayotgan gap-so'zлari, harakatlariga, moddalar almashinuvida ro'y bergen o'zgarishlarga, vegetativ reaksiyalarga qarab, his-tuyg'ular holati to'g'risida fikr yuritiladi. His-tuyg'ularda qondagi qand miqdori oshadi, qonning yopish-qoqligi o'zgarib qoladi, ichki a'zolarning qontomirlari kengayadi yoki torayadi, yurakurishi tezlashadi. His-tuyg'u po'stloq osti tugunlari bilan idora qilinadi. Turli nihiy kasalliklarda his-tuyg'uning kuchayishi yoki sekinlashuvi kuzatiladi. Eyforiya, depressiya, hayojonlanish, vahimaga tushish holatlari kuchaygan his-tuyg'ularga kiradi. Beparovlik, g'anginlik, loqaydlik emotsiyaning sekinlashuviga kiradi. Eyforiyada odamning kayfiyati yaxshi, har doim kulib, qunab-shodlanib har narsadan ko'ngli to'lib yuradi. Depressiyada esa benor ko'ngli g'am-g'ussaga botgan, harakatlari sustlashib qolgan, hamma narsalardan xafa

bo'lib, kayfiyati yomonlashib yuradi. Bular moniakal-depressiv psixoz kasalligida uchraydi.

**9. Iroda faoliyatining buzilishi.** Odamning ongli ravishda va ma'lum bir masad bilan qiladigan xatti-harakatlari irodaga zo'r berishdir. Ruhiy kasallarda iroda jarayonlarining buzilishi ikki turga bo'linadi. Bular: iroda (harakat) faoliyatining kuchayishi va susayishi. Moniakal holatda iroda faolligining kuchayishi, asosan, nutq va harakat qo'zg'alishi bilan namoyon bo'ladi. Bunda bemorlar ongli ravishda ko'p ishlami amalga oshirishga harakat qildilar, lekin bularni bajarishga jismoniy kuchlari yetmaydi. Nutq va harakat qo'zg'alishlari shizofreniyada ham kuzatiladi. Moniakal-depressiv psixozning depressiv shaklida iroda faolligi sekinlashadi. Bunda bemorlar bir necha soatlab bir maronda o'tiradilar, hedj narsa bilan ishlari bo'lmaydi. Bemorlar suhbat vaqtida asta-sekin qisqa jumlalar bilan javob berishadi. Iroda faolligining pasayib qolishi bosh miyaning organik kasalliklarida uchraydi (bosh miya o'smasi, bosh miya aterosklerozi va boshq.). Iroda faolligining susayishi stupor deb ataladi. Bunda harakat va nutqning sekinlashuvi, hatto, tildan qolish (mutizm) darajasiga boradi. Bunda bemor topshiriqlarni umuman ba jarmaydi, ularni eshitishni ham istamaydi (masalan, bemor qo'lini ko'tarib qotib turadi, to mushaklar bo'shashib o'zi tushib ketmaguncha). Iroda buzilishlari nevraste-niya va shizofreniya kasalliklarida uchraydi.

**10. Marazm** – ruhiy va jismoniy kuch-quvvatdan qolish (ma'naviy tushkunlik), aql kamayishi, tashqi muhit bilan bog'lanish xususiyatlarining yo'qolishi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsata olmaslik, so'zlashish, intilish va tushunchalarning yo'qolishi bilan kechadigan og'ir bir ahvol. Rivojlangan turlarida aql shunday darajada kamayadiki, hatto, bemorlar oq-qoranı, toza-iflosni, yaqin va uzog tanishlarini ajratib ololmaydilar, ochko'z, uyatsiz bo'lib qoladilar. Bemorlarda tashqi va ichki a'zolarda ham o'zgarishlar kuzatiladi, suyaklar mo'rt bo'lib qoladi, terida yaralar paydo bo'ladi.

### Ruhiy kasalliklarning asosiy alomatlari

**Es-hushning buzilishi.** Ong bosh miya po'stlog'ining eng zo'r faolligi natijasidir. Ongi sog'lom kishilar atrof-muhitni va o'z xatti-harakatlarini vaqtini to'g'ri baholaydilar.

1. Karaxtlik holati. Karaxtlik (gangib qolish) holatida bosh miya po'stlog'ining tomozlanishi natijasida, atrofdagi ta'sirlarga kuchsiz javob reaksiysi paydo bo'ladi. Javob olish uchun esa ancha kuchli ta'sir o'tkazish kerak yoki savolni bir necha marta qaytarish kerak. Bemor bunda sust javob beradi, harakatlari, imo-ishoralari kam bo'ladi. Oldingi bo'lib o'tgan vogealarni qiynalib esga oladi, qisqa-qisqa gapiradi. Karaxtlik holati bir necha daqiqadan bir necha soatgacha va bundan ham uzogroq cho'zilishi mumkin. Karaxtlik holati bosh miya shikastlanganida, miya o'smasida, uremiya, qandli diabet, zotiljam, tif va boshqa kasalliklarda uchraydi. Mana shu holat o'tib ketganidan keyin, bemorlar o'zlariga nima bo'lganligi to'g'risida qisqacha so'zlab berishlari mumkin.

2. Dovdirash alomati (*sopor*) – bunda, bemorning es-hushi kirarli-chiqarli bo'lib turadi va bu alomat birdan paydo bo'lib, birdan barham topadi. Bu ongning torayib qolishi bilan cheklanadi. Bemorlar o'zлari turgan sharoitga beparvo bo'ladilar, chaqirgan odamga javob bermaydilar, og'riqlarga kuchsiz javob beradi. Esning kirar-chiqar bo'lib turishi bir necha daqiqadan bir necha kungacha va hatto, bir necha haftagacha davom etishi mumkin. Bunda bemorlar nima bo'lganligini aytib berolmaydilar. Bu holat tutqanoq, isteriya va bosh miya shikastlanishida kuzatiladi.

3. Delirioz holati – bunda bosh, miya po'stlog'ida to'liq bo'lмаган тормозланыш бо'лади. Bemorlar besaranjom bo'lib qoladilar. Bu holatda es-hush aynib, gallutsinatsiya va illuziyalar aralash bo'lib turadi. Bemoring ko'ziga vahimali manzaralar ko'rindi, atrofdagi narsalarni tanimaydi. Delirioz holatidan so'ng bemorlar ko'rgan narsalarining ayrimlarini eslaydilar. Delirioz holati bir necha saatdan bir necha kungacha davom etadi, bu holat kechga borib zo'rayadi. Es-hushning delirioz holati turli yuqumli kasalliklarda, shikastlanishlarda va zaharlanishlarda kuzatiladi.

4. Oneyroid holati – bunda, es-hush buzilib, odamning xayolga botgandek yoki tush ko'rayotgandek bo'lib qolishidir. Delirioz holatidan farq qilib, bu holatda bemorlarning kechirmalari bilan yurish-turishlari o'rtasida bog'lanish bo'lmaydi. Bemorlar o'zlarini boshqa sayyoralarda, boshqa dunyoda yurgandek his qiladilar. O'zlarini bir vaqtning o'zida bir necha joyda his qiladilar. Bemoring o'zi xonada yotgan bo'lsa ham men Amerikada yuribman, deb boshqalarni ishontiradi. Bemor o'miga yotishdan bosh tortadi, qarshilik qiladi. Bu holat bir hafta va bir necha oygacha davom etishi mumkin. Bu holat shizofreniya kasalligida kuzatiladi.

5. Amentiv holat – bunda, bemor atrofdagi vaziyatni mutlaqo anglamaydi, o'zining kimligini bilmaydi. Bosh miya po'stlog'ida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining izdan chiqishi og'ibatida, amentiv holat yuz beradi. Bu holat bir necha haftagacha cho'ziladi, u o'tib ketgandan keyin, to'la amneziya kuzatiladi. Bu holat turli yuqumli kasalliklarda, zaharlanish va asab tizimining qattiq holdan toygan vaqtarda kuzatiladi.

6. Komatoz holati – bunda, bemor behush bo'lib, savollarga mutlaqo javob bermaydi, og'riq ta'sirlariga javob reaksiyasi bo'lmaydi. Ko'z qorachiqlari kengaygan, yorug'likka reaksiyasi bo'lmaydi. Bu holat bosh miya po'stlog'ining chuqur tormozlanishi natijasida paydo bo'лади.

**Harakatning buzilishi.** 1. **Stupor** – bunda, bemorlar harakat qilmasdan, bir joyda qotib qolishadi. Stupor quyidagi turlarga bo'linadi. A. Depressiv stupor – bu, moniakal-depressiv psixozning depressiv shaklida kuzatiladi. Bemorlar biror ish yoki harakatni bajara olmaydigan bo'lib qoladilar, savollarga qiyinchilik bilan javob berishadi. Bunday bemorlarga ovqat yedirib qo'yishga to'g'ri keladi. Bemor yuzida g'anginlik, xafadililik, ma'yuslik ifodasi bo'лади, bu holat yurak siqilishi bilan almashinib turadi. B. Psixogen stupor – bunda, bemorlar qimirlamay, hech indamasdan o'tiradilar. Bemorlar uzoq vaqt hech kim bilan gaplashmasdan, savollarga javob bermasdan jis yuradilar. Bunday bemorlarda stupoming keltirib chiqargan so'zlami eshitib qolsa,

bunda bemorda kuchli emotsional holat yuz beradi. Bunda bemorlarda kuchli hayajonlanish, yig'lash, qizarish yoki oqarish alomatlari yuz beradi. V. Katatonik stupor – bu, shizofreniya kasalligida uchraydi. Bunda bemorlar mutlago qimirlamay qo'yishadi, ba'zi hollarda esa mushaklar tonusining pasayishi bo'ladi. Bunga bo'shang stupor deyiladi. Bemor tanasiga biror holat berib qo'yilsa, shu holatda uzoq vaqt qotib turaveradi, buni o'zgartirish qiyin bo'ladi. Bemorlar stupor vaqtida ovqat yemay qo'yadilar, shuning uchun hamshiralarni bemorga zond orgali ovqat berib turishlari kerak. Stupor bosh miya po'stlog'ining harakatlantiruvchi bo'limlarida miyaning po'stlog osti va miya ustunida tormozlanish oqibatida paydo bo'ladi.

**2. Harakat qo'zg'alib turuvchi holatlar.** Bular uchta turga bo'linadi. A. Moniakal qo'zg'alishda bemor timmay harakat qiladi. Bunda bemorning xatti-harakatlari ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lsa-da, lekin ularning diqqat-e'tibori hamisha chalg'iyyeradi. Bunda bemorlar bironta ham ishni oxirigacha yetkaza olmaydilar. Bunday bemorlar juda ko'p va tez gapishtadi, ayrim so'z va jumlalarni tushirib goldirishadi. Bemorlarning juda ko'p gapishtishi natijasida ovozi bo'g'ilib qoldadi. Atrofdagi kishilarga doimo har xil savollar va takliflar bilan nurojaat qilishadi. Bu holat moniakal-depressiv psixiozda kuzatiladi. B. Katatonik qo'zg'alishda bemorlar hech bir maqsadsiz harakat qiladi, harakatlari bir xil, ularni nima maqsadda qilayotganini tushunib bo'lmaydi. Masalan, bemor oyoglarini mutlago qimirlatmagani holda qo'llari bilan harakat qilib, aftini burib turaveradi, ayrim so'zlarini bacirib-chagirib aytadi. Bemorning gaplari ma'nosiz bo'ladi. Bu holat shizofreniya kasalligida uchraydi. V. Gebefren qo'zg'alish – bunda, bemor har xil qiliqlar qilib, aftini burishtiradi, o'ziga-o'zi kulaveradi, gaplarining ko'pi safsatadan iborat bo'lib, so'zlarini buzib gapisadi. Bu holat shizofreniya kasalligida kuzatiladi.

**His-tuyg'u buzilishi.** His-tuyg'u (emotsiya) buzilishi uch turga bo'linadi: 1. Moniakal holatida bemorlar kayflari chog' bo'lib yuradilar, doimo xushchaqchaq, xursand, o'zlaridan-o'zlarini mammun bo'ladilar. Bemorlar o'zlariga yugori baho berib yuboradilar, har qanday ishlarni yengil va oson deb bilishadi. Tasavvurlar tez-tez almashinib turadi. Bemorlar qo'zg'alish holatida juda kam uqlashadi, shu bilan birga charchoqni sezishmaydi, serharakat bo'lib qolishadi. His-tuyg'uning shunday yengil darajada buzilishi gipomoniakal alomat deyiladi. Bu holat moniakal-depressiv psixioz kasalligida uchraydi. 2. Depressiv alomatda bemorlarning harakatlari kam, nutqi sekin sust bo'lib, dunyo ko'ziga qorong'u bo'lib ko'rindi. Bunday holatda bemorlarda o'zini-o'zi ayblash fikrlari paydo bo'lib, ovqat yeyishdan bosh tortib, yaxshi uqlay olmaydilar. Bunday bemorlar o'zini o'ldirishgacha yetib boradi. Depressiv alomatda g'anginlik holati ertalab kuchli bo'ladi, kechqurun bemorlarning ahvoli biroz yaxshilanadi. 3. Xavotirga soladigan – depressiv alomat, bunda bemorlarda ma'yuslik ustiga qanday bo'lmasin biror falokatni kutib, xavotirga tushish qo'shiladi. Bemor besaranjom bo'lib, hadeb gapira-veradi. Biror ish bilan shug'ullana olmaydi, ovqat yemay qo'yadi, uqlay olmaydi. Bunday bemorlar xavotirga tushib, o'z-o'zini o'ldirishgacha yetib boradilar. Bu holat presenil psixioz kasalligida kuzatiladi.

**Talvasa alomatlari:** Talvasa xuruji 2 xil bo'ladi: 1. Epilepsiya (quyanchiq) talvasalari – bunday talvasa epileptik tutqanoq deb ataladi. Boshqa kasalliklar – bosh miya jardhatlari, bosh miya qontomir aterosklerozi, bolalar bosh miya falajligi, miya zaxmida kuzatiladigan tutqanoqlar – *epileptiform tutqanoq*yoki *epileptik turdag'i tutqanoq* deb ataladi. Epilepsiya tutqanoq'i va epileptiform tutqanoq xuruji tutib qolgan vaqtida bemor to'satdan o'zidan ketib, yiqilib tushadi, rangi oqarib, so'ngra, ko'karadi. Bemor birdan hushi-dan ketadi va tonik, keyin klonik qaltirash xuruji boshlanadi. Bunda bemorning butun tanasidagi mushaklar vaqt-i-vaqti bilan qisqarib-bo'shashib turadi. Tonik talvasada mushaklar uzoq tortishsa, klonik talvasada esa mushaklar vaqt-i-vaqti bilan qisqarib, bo'shashib turaveradi. Bemordagi bu holat – talvasa tonik talvasa 30–40 soniyadan so'ng, klonik talvasa bilan almashinadi. Klonik talvasa 1–5 daqiga davom etadi va shu bilan tutqanoq xuruji tugaydi. Shundan so'ng, bemor uylab qoladi yoki karaxt bo'lib, qayerda yotgani, nima bo'lganligini anglab yetmaydi. Bunda bemorlarning asab tizimini tekshirib ko'rganimizda ko'z qorachiqlarning yorug'likka javob reaksiysi bo'lmaydi, reflekslar yo'qoladi. Bemorlar tutqanoq xuruji vaqtida yiqilib, har xil shikastlanishlar olishi mumkin. 2. Isterik talvasalar – bu, bemorlar biror tashqi ta'sirga uchrashi natijasida kelib chigadi. Bu tutqanoq epilepsiya tutqanoq'iga qaraganda, sekinroq bo'ladi. Bemor xuruj paytida qulay joyga yiqiladi. Bunda bemorning hech eri shikastlamsandan, es-hushini batamom yo'qotmasdan yiqiladi. Bemorlarni tekshirganimizda ko'z qorachig'i yorug'likka javob beradi, reflekslar chaqiriladi. Bunday xuruj saatlab davom etishi mumkin, epilepsiya xuruji uzoq davom etmaydi. Isterik talvasada epileptik tutqanoqdagi kabi oldin tonik keyin klonik tortishishlar bo'lmaydi. Ba'zan ongi torayadi, lekin isteriya xurujida bemor atrofdagilar diqqat-e'tiborini sezsa, isteriya uzoq vaqtgacha cho'zilishi mumkin.

**Korsakov (amnestik yoki xotiraning buzilishi) alomati** – bu, bemorlarda o'tmishtagi hodisalar xotirada saqlanib qolgani holda, hozir bo'lib turgan hodisalamining esdan chiqib qolishi bilan xarakterlanadi. Bemorning xotirasi pasayib ketadi, bugun nima ovqat yegani, kim bilan uchrashganini mutlaqo eslay olmaydi. Berilgan savollarga javob qaytarmaydi, eshitgan savollarini tez unutadi. Bunda bemorlar bir necha daqiga nima ish qilib turganini esdan chiqarib qo'yishadi. Bu alomat bosh miya aterosklerozi, qarilik psixozzi, bosh miya shikastlanishi, yugumli kasalliklar va zaharlanishlarda kuzatiladi.

**Galutsinato – paranoid alomat** – bunda, bemorlarda galutsinatsiya va vasvasalar bo'lib turadi. Bemorlar ko'pincha, kimir ulami ta'qib qilayotganini ularga ta'sir ko'rsatayotganini aytishadi. Masalan, bemor devor orgasida boshqa odamlar uni o'ldirish rejasи to'g'risida gapirayotganini eshitadi. Ba'zan bemorlar bundan gochishga urinishadi, eshiklами bekitib olishadi, boshgalami yordamga baqirib chaqirishadi. Bu holat shizofreniya, alkogol psixozlari, bosh miya zaxmi va boshqa kasalliklarda uchraydi.

**Aqli pastlik (tentaklik, esi pastlik) alomati** – bunda, bemorlarda aqliy qobiliyatning pasayishi, xotiraning susayishi kuzatiladi. Bemorlar yangi ma'lumotlarni qabil qila olmaydilar, eskilarini esa unutib yuboradilar. Zehn

va farosat juda pasayib ketadi. Bemorlar oddiy turmush masalalarini ham yechka olmaydilar. Mana shular tufayli ularning yurish-turishi va qiliqlari be'mani bo'lib qoladi. Bular bosh miyaning organik kasalliklarida uchraydi.

**Nevrasteniya alomati (nevrotik, astenik)** – bunda, bemorlar tashqi ta'sirlardan juda bo'shashib, holdan toyadigan bo'lib qolishadi. Tashqi ta'sirlar (ovozi, yorug'lik, issiq-sovuq)ga ortiqcha sezuvchanlik, har qanday hodisalardan ta'sirlanish (xfachilik yoki xursand bo'lismi), jismoniyligi toliqish oqibatida paydo bo'ladi. Bu holatga tushgan bemorlar tajang, betoqt, tez charchab qolish, xotiraning susayishi, asabiylashish, jismoniyligi toliqish, ish va aql qobiliyatining pasayishi va ruhiyatning tez-tez o'zgarib turishi bilan xarakterlanadi. Bunda bemorning uyqusi buzilib turadi, tezda uxlay olmaydi, barvaqt uyg'onib ketadi. Bunda bemorning uyqusi yuzaki, uyqudan keyin odam o'zini dam olgandek sezmaydi. Kunduz kunlari bemor bo'shashib, mudrab yuradi. Bunda bemorda bosh og'rishi, salga terlash, holsizlik, ishtahaning yo'polishi bo'lib turadi. Bu holat yuqumli kasalliklar, turli xil zaharlanishlardan so'ng va bosh miya aterosklerozi, shizofreniya, surunkali kasalliklar hamda nevrasteniyada kuzatiladi.

**Ipoxondrik (miyadan ketmaydigan) alomatlar** – bunda, bemorlar o'z salomatligining ahvolidan xavotirlanib, o'zlaridagi yo'q kasalliklami topib, davolarmasam, o'lib qolaman, deb o'ylashadi. Bemorlar ko'pincha, qorin va yuragi og'rib turishidan noliydi va kayfiyatni buzilib yuradi. Shifokor siz sog'lomsiz, hech qanday kasalligingiz yo'q, deb aytsa ham ular ishonishmaydi yoki bosha shifokorga borib uchrashadi. Ular bu kasallik to'g'risida turli xil kitoblarni o'qib chiqishadi. Miyadan ketmaydigan o'rinsiz shubha, xavotir va qo'rginchli fikrlar – *dismorfofobiya* deb ataladi.

**Isteriya alomati** – bunda, bemorlar qattiq ovoz bilan yig'lab yoki kulib, bu bilan atrofdagilar diqqatini tortishga harakat qiladilar. Bu holat tezlik bilan ikkinchi bir holatga o'tib turadi. Bemorlar o'zlarining xatti-harakatlarida aql-idrok bilan ish ko'may balki his-tuyg'ulariga qarab, ish ko'rishadi. Bemorlar o'zlariga ko'proq e'tibor berish, atrofdagilardan ajralib turish va ko'zga tashlanishga harakat qiladilar. Bunday bemorlar xom xayol bo'lishiga moyil bo'lishadi. Tashqi ta'sirlar tufayli talvasa xurujlari tutib turishi mumkin. Bu holat kalla bosh miya jarohatlarida, shizofreniya va zaharlanishlardan keyin kuzatiladi. Bu alomat bosh miya po'stloq osti sohasining zaiflashuvi natijasida kelib chiqadi.

**Kandinskiy-Klerambo alomati** (ruhiy avtomatizm, tashqi ta'sir, yotsirash, qamrab olish alomatlari) – bu, o'z shaxsiy ruhiy jarayonlarning o'zligiga yoki o'z shaxsiga tegishlikning yo'polishi. Ruhiy va jismoniyligi ta'sir vasvasaligi bilan birga namoyon bo'ladi. Ruhiy avtomatizm 3 turga bo'linadi: assotsiativ – bu turga mentizm – boshgarib bo'lmaydigan, ixtiyordan tashqari sodir bo'ladigan fikrlar, o'ylar, xayollarning beto'xtov oqishi mansubdir. Xayollar, fikrlar mazmuni juda og'ir bo'lib, ularidan bemorlar qutula olmaydilar, xayol va fikrlarni miyada yig'ib ololmaydilar. Ba'zan bemorlar ko'z oldiga har xil xayollarni keltirib, xuddi, ko'rib turgandek bo'ladi. Bu fikran ko'rinishlarning mazmuni o'ylangan xayollar mazmuniga mos keladi. Fikr

ochiqlik belgisi – bemorga atrofdagi odamlar uning fikrlarini bilayotgandek tuyuladi. Fikrlar jarangdorligi belgisi – bunda, bemorning fikrlari ichki nutqqa aylanadi. Bemorning xayol, fikrlari baland tovush bilan chiqayotganday bo'lib, bemorga atrofdagilar ulami eshitayotganday tuyuladi.

**Mayl buzilishlari.** Mayl instinkтив (tug'ma his-tuyg'u)lar asosida paydo bo'ladi va shakllanadi. Instinkтив xulq (ovqat qidirish, tashnalikni qondirish, jinsiy juft qidirish) va instinkтив harakatlar (ovqatlanish, ichish, jinsiy aloqlar) tafovut qilinadi. Faqat instinkтив harakatlar, ya'mi tugallash aktlari instinkтив hisoblanadi. Mayl – hayotiy muhim sharoitlarni istashga va ulardan qochishga undaydigan holat bo'lib, u shu sharoitlarda instinkтив harakat bilan yuzaga chiga olishi mumkin. Mayl qandaydir bir tug'ma holat emas. Mayl vaqtı-vaqtı bilan paydo bo'ladi va yo'qoladi. Maylning belgilari shakli har xil va ko'pincha, maylning qondirish tabiatiga bog'liq bo'ladi. Asosiy mayl – ochlik, tashnalik, jinsiy mayl. Eng oddiy ehtiyojlar: uyquga, harakatga bo'lgan ehtiyojlar va boshqalar.

Mayl buzilishlari turli-tuman bo'lib, ayniqsa, ovqatga bo'lgan mayl buzilishlari ko'proq uchraydi. Ishtahaning turg'un bo'lmasligi ovqatdan bosh tortish bilan kechadi, bu maylning susayishi bemomi juda holdan toydiradi, bunga anoreksiya deyiladi. Ovgatdan butunlay bosh tortishda zeharlanish vasvasa g'oyalariga yoki shu ovqat yeb bo'lmaydigan mahsulotlardan tayyorlangan, deb ishonch hosil qilishlari mumkin. Ovgatdan bosh tortish depressiv holatlarda, stupor, isteriyaning har xil turlarida uchraydi. Shuni e'tiborga olish kerakki, ko'p hollarda, anoreksiya himoya qiluvchi fiziologik holat bo'lib, organizm uning yordamida kasallikkarga moslashadi va uni yengadi. Hozirgi vaqtida psixiatriya analiyotida qo'llanilayotgan ochlik bilan davolash shunga asoslangan. Ovgatga maylning zo'rayishi – bulimiya, yeb to'ymaslik – akoriya, ko'p ovqat yeyish – polifagiya, bular progressiv falajlikda, idiotiyada, qarilik psixozlarida va ba'zi nevrozlarda uchraydi. Ovgatga bo'lgan maylning homilador ayollardagidek bo'lishi (kesak, tuz va boshqa narsalami yeyish) shizofreniya kasalligida uchraydi. Odatda, mayl buzilishlari diensefal sohaning kasalliklarida uchraydi. Bunda hech bosilmaydigan tashnalik (polidipsiya, potomaniya), bu vaqtida bemorlar bir kunda 20 l va undan ko'p suv ichadilar. Bemorlar organizmi sovitish yoki isitishga urinish, uyquchanlik va uyqudan, ovgatdan, suv ichishidan, siyishidan, hojatdan qanoatlanmaslik hamda havo yetishmaslikdan juda qiynaladilar, bu holat, odatda, qo'rqish hissi bilan kechadi.

#### ***Nazorat savolları***

1. Illuzya bilan gallutsinatsiya bir-biridan qanday farq qiladi?
2. Vasvasa turlarini aytib bering.
3. Nima uchun kasallangan affekt deyiladi?
4. Harakatning susayishi qachon yuz beradi?
5. Es-hush buzilishlarini tushuntirib bering.
6. Agar bemor koma holatida bo'lsa, qanday klinik belgilari bo'ladi?

## **Psixonevrologik yordamni tashkil etishning asosiy masalalari, shifoxonalarda va psixonevrologik dispanserda ruhiy kasalliklarni davolash, nazorat qilish hamda parvarish xususiyati**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-avgustdag'i 390-sonli «Ahолига psixiatriya yordami ko'rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori, Sog'liqni saqlash vazirining 458-sonli va 7.02.2000 yildaq'i 51-sonli buyruglari asosida ruhiy kasallikka chalingan bemorlarni ijtimoiy himoyalash va ularga malakali tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, bemorlarni erta aniqlash, nazorat qilish ishlarida bir qancha ko'rsatkichlarni yaxshilash ko'rsatib o'tilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining «Psixiatriya yordami to'g'risida» gi 2000-yil 31-avgustda chiqarilgan qonunning maqsadi ahолига psixiatriya yordami ko'rsatishni yaxshilashdir. Qonunda ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan tibbiy tekshiruvdan o'tkazish, ularni profilaktika qilish, tashxis qo'yish, davolash, parvarish qilish va tibbiy-ijtimoiy tiklashni ta'kidlangan. Ruhiy holati buzilgan shaxslarga psixiatriya yordami ko'rsatish davlat tomonidan kafolatlangan. Bularga shoshilinch psixiatriya yordami, kasalxonadan tashqari va statcionar sharoitda maslahat berish, tashxis qo'yish, davolash, psixoprofektika va tiklash yordamlari kiradi. Ruhiy holati buzilgan nogironlar va qariyalami ijtimoiy-maishiy joylashtirish, parvarish qilish, voyaga yetmaganlarni umumiylashtirish, kasb-hunar ta'limganlarning tashkil etish, mehnat terapiyasi uchun davolash ishlab chiqarish korxonalariga ishga joylashtirish qonunda belgilab qo'yilgan. Yana qonunda belgilab qo'yilganki, ruhiy holati buzilgan bemorlarning tashxisi, davolanishi va ruhiy sog'lig'i to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar shifokor va hamshiralardan sir saqlanishi lozim.

Psixoneurologiya yordamining hammasi kasalxonadan tashqarida ko'rsatilayotgan yordam bularga psixoneurologik dispanserlar, psixiatriya, shifoxonalarning dispanser bo'lmlari, unumsomatik shifoxonalari (poliklinika) va ulardag'i psixiatrlarning xonalari ko'rsatib boradi. Bulardan tashqari, psixoneurologik shifoxonalarda ham yordam ko'rsatiladi. Shahar va tumanlarda psixoneurologiya dispanserlari bor va har qaysi uchastkalarga shu dispanserning psixiatrlari xizmat qiladi. Psixoneurologiya dispanserlari quyidagilar bilan shug'ullanadi. Davolash profilaktika ishlari, bemorlarga ijtimoiy-huquq yordamini ko'rsatish va aholi o'rtasida psixogigiyena hamda sanitariya-maorifi ishlarini tashkil etish. Dispanserda bemorlar ambulatoriya yo'li bilan hamda uyda zarur davolash-profilaktika yordamini olishadi. Dispanserning boshqa shifoxonalardan farqi shuki, yordam so'rab kelgan har bir kishi, agar unda biror ruhiy kasallik belgilari topilsa, faol hisobga olinadi. Chunki kasal kishi qayta tekshirishga kelmay qolishi mumkin. Bunda dispanser shifokori bemorning kelishini kutib, turmasdan o'zi uning uyiga boradi va uyda davolashni tashkil etadi. Agar bemorni shifoxonada davolash zaruriyatiga tug'ilsa, uni borib joylashtirib keladi. Shuning uchun dispanser shifoxona bilan doimo alogada bo'ladi. Shifoxonadan chiqqan bemorlarning tibbiy

hujjatlarini ulaming turar-joylaridagi uchastka psixiatrlariga yuboriladi. Shu yo'l bilan bemorlar hisobga olinadi. Statsionardan chigganda, bemorlarga tutilgan kasallik varaqasidan ko'chirma olinib, kasallik tashxisi va davo choralaridan tashqari, bemorni keyinchalik qanday kuzatib borish, ambulatoriya yo'li bilan davolash yoki ishga joylashtirish tavsiya etiladi.

Ruhiy kasalliklar bilan og'rigan bemorlarning hamasi dispanser hisobida turadi. Chunki psixiatrlar bemorlami doim kuzatib boradilar va ko'rsatmalar beradilar. Shifokor buyurgen davolarni hamshiralalar muntazam amalgalashib borishlari, bemorlarning ahvolini nazorat qilishlari zarur. Hamshiralalar bemordagi barcha o'zgarishlar haqidagi kerakli ma'lumotlarni uning qarindoshlaridan yoki go'shnilaridan olib turadilar. Bular bemorning ahvolini yaxshilashga yordam berishda muhim o'rinni egallaydi. Dispanserda dordinamon bilan davolash, psixoterapiya va fizioterapiya usullaridan tashqari mehnat bilan davolash usullaridan ham keng foydalaniлади. Bunda bemorlarni hamshiralalar har kuni kuzatib boradilar. Ahvoli yaxshilanib qolgan bemorlar o'zlarining ish joylariga qaytishlari yoki o'zlariga yopadigan kasbi egallashlari mumkin. Asab-ruhiy kasalliklarning oldini olish maqsadida psixonevrologiya dispanserining shifokor va hamshiralari aholi o'rtasida, bemorlar va ularning qarindoshlari orasida sanitariya məorifi ishlarini olib borishlari kerak. Dispanserda bemorlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatiladi. Ishga joylashtirishda ularga yordam berish, nafaga oladigan bo'lsa, TMEK (tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi) dan qayta tekshiruvdan o'tkazish va kerakli muddatgacha uzaytirish lozim bo'lsa, yordam beradilar: Qonun oldida javob berolmaydigan ruhiy bemorlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish uchun vasiylikni rasmiylashtirish hamda vasiy tayinlashda dispanser shifokorlari ishtiroy etishadi. Uy sharoitida turadigan bemorlarni uchastka psixiatr hamshiralari muntazam kuzatib borishadi. Viloyat dispanserlari tuman aholisiga davolash-profilaktika yordamini ko'rsatadi. Shuning uchun shifokor va hamshiralalar tumanlarga chiqib, QVA (qishloq snifokorlik ambulatoriya-si), QVP (qishloq snifokorlik punkti) aholisiga yordam berishlari, ular o'rtasida ruhiy kasallarni erta aniqlash, davolash, oldini olish choralarini ko'rish, ruhiy kasallar atrofdagilar uchun xavf-xatar tug'dirsalar, ularni darhol statsionarga yotqizishni ta'minlashlari zarur. Bunday bemorlar depressiv kasallar bo'lib, ularda o'z-o'zini o'ldirish fikrlari paydo bo'ladi. Presenil psixozlari, shizofreniyaning ba'zi shakllari ichkilik jonsaraklarida kuzatiladi. Bunday bemorlarni yuda qoldirish xavflidir, chunki ularda ta'qib, zaharlanish, jismoniy ta'sir vasvasasi bo'lib, o'zlariga yoki atrofdagi kishilarga jarohat yetkazishlari mumkin. Bemorlarga yo'llanmani psixiatr yoki shoshilinch hollarda boshqa shifokorlar va hamshiralalar beradi. Yo'llanmada bemorning nima uchun shifoxonaga joylashtirilishi ko'rsatiladi. Bemorning ahvoli to'g'risida qisqacha yozib beriladi. Bemor shifoxonaning qabul bo'limida shifokor tomonidan psixonevrologik tekshirishdan o'tkaziladi. Bunda bemorni to'liq yechintirib, ko'zdan kechirish kerak. Chunki bemorning tanasida timalgan qon talashlar, suyak chiggan va boshqa jarohatlar bo'lganda, yordam

berish, kasallik tarixiga yozib qo'yish shart. Bu bemorning o'zi yoki qarindoshlari bilan janjal chiqmasligi uchun shunday qilinadi. Qabulxonada bemorning hamma narsalarini saqlab qo'yish kerak. Bemor yuvintirilgandan keyin, unga shifoxona kiyimlari beriladi. Bemorlarga kesadigan va sandhiladigan narsalar (ustara, sandqi, igna, shisha idishlar), dorilar berish qat'iyan man qilinadi. Shifokor bemorni ko'rib chiggandan keyin, u tegishli bo'limga boradi. Hozirgi vaqtida ruhiy kasallikkani davolashda aralash bo'lim tashkil etilgan. Turli ruhiy holatdagi bemorlar uchun alohida xonalar ajratilgan. Og'ir sonatik kasalligi bor ruhiy bemorlarga yoki jismoniy ahvoli og'ir, doimiy parvarishga muhtoj bemorlar, qarilik psixozlariga uchrangan bemorlar shu bo'limga joylashtiriladi. Yuqunli kasallikkha uchrangan bemorlar alohida xona (izolator)ga yotqiziladi. Bundan tashqari, bolalar bo'limlari hambo'lib, uzoq yotgan beror bolalarga o'qituvchilar kelib tegishli sinf darslarini o'qitib boradi. Bo'lim ichida mehnat bilan davolash uchun xonalar ajratilgan. Psixonevrologik dispanserda kunduzgi statsionar tashkil etilgan. Bunda bemorlar kunduzlari kelib, davolanib ketadi.

Alkogolizm va toksikomaniyalarga qarshi kurashni yanada kuchaytirish magsadida so'nggi yillarda narkologiya xizmati tashkil etilgan. Shu kasallikkha chalingan bemorlarni ambulatoriya yo'li bilan davolab boriladi. Ulami hisobga oladigan narkologiya dispanserlari va bemorlarni statsionar sharoitida davolaydigan narkologiya shifoxonalari tashkil etilgan.

### Ruhiy kasallikkarga qilinadigan parvarishlar xususiyatlari

Psixonevrologiya xizmatida ishlaydigan hamshiralarning ishlari boshqa shifoxonadagi xodimlardan farq qiladi. Bu yerda ko'pgina bemorlar o'zlarining kasal ekanliklarini tushunmaydilar, ba'zilari esa o'zilarni umuman kasal, deb hisoblanaydilar. Ba'zi bemorlar es-hushi aynib, ko'p harakatlar qilishadi. Bunda hamshiralalar hushyor, sabr-toqatli, shirinso'z, yaxshi muomalali bo'lishlari lozim. Ruhiy kasallami parvarish qilish, ulami kuzatib borish, kerakli joyda yordam berish hamshiralarning assosiy vazifalaridan biridir. Bemorlarning ism, familiyasi, qaysi xonada yotganligini, bo'limdagi bemorlar sonini, ba'zi bemorlarning bo'linda nima sababdan yo'qligini yaxshi bilishlari kerak. Alohida kuzatuv ostidagi bemorlarga ko'proq e'tiborni jalb qilishlari lozim. Hamshiralalar shifokor buyruqlarini o'z vaqtida bajarishlari shart.

Tibbiyot hamshiralari ozoda va o'ziga qarab yurishi kerak, xalati toza va yaxshi dazmollangan, hamma tugmalari qadalgan bo'lishi lozim. Boshga oq ro'mol o'rab, sochlarini ro'mol tagiga bostirib qo'yishi shart. Zirak, taqinchoqlar, to'g'nog'ich taqib yurishi mumkin emas. Bemorlar bezovta bo'lib qolganda, hamshiralalar navbatchi shifokorni chaqirib ko'rsatishi kerak. Hamshiralalar o'zlaricha dorilar berishi mumkin emas. Bemorlar oldida boshqa bemor sog'ligini muhokama qilish, uning kasalligi haqida gapirish, bemorlar ustidan kulish, hazil qilish mumkin emas. Bemorlarni aldash yo'li bilan statsionarga yotqizish mumkin emas, chunki bemorlar keyinchalik hamshira-

larga ishomay qo'yadilar, bemorlar to'g'risida ma'lumot olish qiyin bo'ladi. Bemorlar bilan nuomala qilishda ehtiyot bo'lish kerak, chunki vasvasa holatiga tushib qolgan bemorlar shifoxna xodimlari bilan janjallahib qolishlari mumkin. Bemorlar ko'pincha xat, ariza, shikoyatlar yozishadi. Bunday xatlami jo'natish oldidan shifokor va hamshiralalar o'qib chiqib, ma'nosiz fikrlar yozilgan xatlar ni jo'natishlari kerak emas. Bo'limga kelgan xat va qog'ozlarni ham bemorga berishdan oldin hamshiralalar o'qib chiqishlari kerak. Bemorning salomatligini yomonlashtirib qo'yadigan xabarlami berib bo'lmaydi.

Bemorga qarindoshlari olib kelgan mahsulot va buyumlarni yaxshilab tekshirish kerak. Chunki bemorga yoqmaydigan, uning hayoti uchun xavfli bo'lган narsalar (dori moddalar, spirtli ichimliklar, igna, ustara, yozuv qurollari, gugurtni berib bo'lmaydi. Hamshiralalar sanitarlarning vazifalarini yaxshi bilishlari va ularning qanday ishlayotganiga qarab borishlari kerak. Yangi al mashgan sanitarlarga hamshiralalar qaysi bemorlar qattiq kuzatuvda bo'lishini, parvarishga muhtoj ekanligini ko'rsatishlari lozim. Bunday bemorlarga depressiya holatiga tushganlar, gallutsinatsiyalar bo'lib, turgan bemorlar, vasvasaga (jismoni ta'sir, ta'qib), tez-tez epilepsiya xuruji, jismoni toliqgan bemorlar, ovqatdan bo'yin tovlagan bemorlar kiradi. Bu bemorlarni hamshiralalar doim hushyor bo'lib kuzatib borishlari kerak. Chunki ular o'zlarini o'ldirishlari, jardhat yetkazishlari, qochib ketishlari va atrofdagilarga xavf solishlari mumkin. Bemorning haroratini o'lchashda ehtiyot bo'lish lozim, bemor o'zini termometr bilan jarohatlashi yoki yutib yuborishi mumkin. Bemor hojatxonaga borganda, uning nimalar qilayotganligini sanitar kuzatib turishi zarur. Bemor yotadigan xona yetarlicha yong' bo'lishi kerak. Hamshiralalar dori berganda, bemor uni ichib bo'lmasunicha, uning oldidan ketmasliklari kerak. Chunki ular dorilami yig'ib, birdan ichib yuborishlari mumkin. Shuning uchun bemorlarning narsalarini va o'rinn-to'shaklarini ko'zdan kechirish shart. Ba'zi bemorlar o'zini o'ldirishni o'ylab, shisha bo'laklarini, mix, metal parchalarini yig'ib yuradilar. Ovgat vaqtida bemorga pichoq, sanchqi berilmaydi, fagat qoshiqdan foydalanadi. Pichoq va boshqa o'tkir narsalar qulflab bekitib qo'yiladi. Ovgatlana olmaydigan, yaxshi yutolmaydigan bemorlarni shoshmasdan, kam-kamdan ovqatlantirish, asosan, suyuq ovqat berib turish kerak. Ichagini bo'shatish uchun tozalovchi huqqa qilib turish kerak. Uzoq to'shakda yotgan bemorning tanasini haftada bir-ikki marta tekshirib turish zarur. Chunki dung'aza, dumba sohalarida yotoq yaralar paydo bo'lishi mumkin. Yotoq yaralar, teri qizargan bo'lsa, malhamlar surtib turish kerak. Bunday bemorlami hojatxonaga olib borish, siydiqi tutilib qolsa, kateter yordamida siydirib olish kerak. Og'iz bo'shlig'ini yuvish, sochlami kalta qilib olib qo'yish lozim.

Ovgatdan bo'yin tovlaydigan bemorlar, ko'pincha ba'zi kasalliliklarda bularga katatonik stupor, negativizm, vasvasalar (zaharlanib qolish, o'z-o'zini ayblash fikrlari) bemorga ovqat yema, deb buyurib turadigan imperativ gallutsinatsiyalardir. Bemorga nasihat qilib, ko'ndirilgandan keyin, bemor o'zi ovqat yeya boshlaydi. Ko'pincha, nahorga 12–16 tb miqdorda insulin

yuborilganda bemorda ochlik hissi zo'rayadi. Ovgatlantirishning iloji bo'lmasa, zond orgali sun'iy yo'l bilan ovgatlantirish lozim. Buning uchun quyidagilarni tayyorlab qo'yish kerak. 1) rezinali zond (teshigining diametri 0,5 sm); 2) zondning ochiq ichiga kiydiradigan voronka; 3) zond solish uchun oldindan unga surtiladigan vazelin yoki glitserin; 4) 500 g sut, 2 ta tuxum, 50 g qand, 30 g sariyog', 10 g tuz va vitamindan iborat ovqat aralashmasi. Bu aralashma iliq bo'lishi kerak; 5) 2 stakan qaynagan suv yoki choy; 6) toza rezinali ballon, gururt, og'iz kengaytirgich. Hamma narsalar taxtlangandan keyin, bemor kushetkaga chalgancha yotqiziladi. Agar bemor qarshilik qilsa, sanitarlar ushlab turadi. Zondning uchiga vazelin surtib zond burun orgali kiritiladi. Bemorda qusish harakatlari paydo bo'lsa, bemorga burundan nafas olib, yutinish taklif etiladi. Bemorning nafas olishi qiyinlashib, yuzi ko'karib ketsa, zondni tezroq chiqarib tashlash kerak. Zondni oshqozonga yetishi uchun 50 sm ichkariga kirgizish kerak yoki kindikdan burungacha zondni o'lchab olish kerak. Ovgat aralashmasini yuborishdan oldin zondni oshqozonda turganligini bilish uchun yonib turgan alanga lipillamay qoladi. Zond orgali havo yuborilsa, oshqozon sohasida shovgin eshitiladi. Ovgat berishdan oldin voronkaga yarim stakan suv yoki choy quyiladi. Keyin ovgat aralashmasi yuboriladi. Ovgat berib bo'lgandan keyin, bemorni kuzatib turish kerak. Chunki bemor o'zini qustirishi mumkin. Qusmaydigan bo'lishi uchun atropin 0,1 % 1,0 ml teri orasiga ovgatdan 10–15 daqiqa oldin qilinadi. Agar zondni burun orgali berishning iloji bo'lmasa (bunun qiyshiqligi, poliplar), uni og'izdan solish kerak. Zondni tishlari bilan qisib olmasligi uchun oldinroq og'iz kengaytirgich qo'yish tavsiya etiladi. Harakat qo'zg'alishlarida aminazin 2,5 % 200–400 mg kuniga mushak orasiga, triflazin, galopridol, tizersin buyuriladi. Magneziy sulfat 25 % 5–10,0 ml, geksenil 10 % 10,0 ml tomir ichiga sekinlik bilan yuboriladi. Hamshiralalar bemor bezovtalanib qolganda, sanitar qanday ushlab turishini ko'rsatib berishlarii kerak. Bemorni karavotga chalgancha yotqizib, qo'l va oyoqlari to'g'rilanadi. Karavotning ikki yon tomonida ikkitadan sanitar turib, uning ikkitasi bemorning yelkasi bilan bilagini ushlab tursa, qolgan ikkitasi esa oyoqlarini son bilan boldirdan ushlab turadi. Bemor boshini biror narsa urishga yoki atrofdagilarni tishlashga harakat qilsa, boshga bir sanitar bemorning bosh tomoniga turib, uning peshonasidan sochiq o'tkazib, boshini yostiqqa qattiq bosadi. Bemorni ushlab turganda, uning biror joyini og'ritish kerak. Bemorning qorin va ko'krak qismidan bosish yaramaydi. Chunki qovurg'alarni sindirib qo'yish mumkin. Agar bemor biror narsani o'qtab, hech kimni yaqinlashtirmaydigan bo'lsa, unda adyolni yoyib baland ko'targan holda oldinga tutib, bemorga yaqinlashish va adyolni bemor ustiga tashlab, ushlab olish kerak. Agar bemorni bitta sanitar olib boradigan bo'lsa, u bemorning orqasidan kelib, qo'llarini chalishtirib ushlab olishi va uning yonida yurishi kerak. Agar bemor qo'ldan chigib ketishga, kallasi bilan urishga harakat qilsa, uning qo'llarini yugoriga ko'tarib olish tavsiya etiladi. Bu esa yelka bilan boshning harakatlarini

zaiflashririb qo'yadi. Agar benor juda bezovta harakatlar qilsa, unda ikkita sanitarning har biri bemorning qo'lidan olib, panjasini va tirsak bo'g'imi ustidan yelkadan yaqinroq joydan ushlashi kerak. Bunda bemorning qo'llari yon tomonga uzatilgan bo'ladi.

Hamshiralalar doimo kundalik yozib borishlari shart. Bunda bemorlarni kun bo'yi kuzatib yuradi, ahvollaridagi o'zgarishlami yozib boradi. Kundalik bilan boshqa navbatchi hamshira va sanitarlar ham tanishib chiqadilar va bu bemorning ahvolini yaxshilashda ijobji natijalar beradi.

### **Ichki kasalliklar va yuqumli kasalliklarda uchraydigan ruhiy o'zgarishlar. Tug'ruqdan keyingi psixozlar**

Ba'zi somatik va yuqumli kasalliklar, zaharlanishlar, alkogolizm ruhiy o'zgarishlar bilan davom etadi. Somatik kasallikka aloqador ruhiy o'zgarishlar, asosiy kasallikning xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bu emotsiyal alomatlar (depressiya, xavotirlanish, vahimaga tushish, tajanglik, eyforiya bilan o'tadigan nevrozsimon kasalliklar) va es-hushning turli darajada buzilishi (karaxtlik, amensiya, deliriy, sopor, koma) hamda tutqanoq xurujiga o'xshash holatlar namoyon bo'ladi. Bularning kelib chiqishida umumiylar somatik kasalliklar, yuqumli kasalliklar va zaharlanishlar muhim ahamiyatga ega. Bunday psixozlar surunkali kasalliklar, yuqumli kasalliklar zaharlanish, alkogolizm va bemorning jinsi, yoshi, kasallikning og'irlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

**Klinik manzarasi.** Simptomatik psixozlar o'tkir va uzoq muddat davom etadigan turlarga bo'linadi. O'tkir psixozlardan keyin ko'pincha, asoratlar qolmaydi. Uzoq muddatli turida esa sog'ayishdan keyin qoldiqlar – psichoorganik asoratlar qolishi mumkin.

O'tkir simptomatik psixozlar qisqa vaqt davom etadi. Bunda astenik buzilishlar (bosh og'riq, lohaslik, harakat bezovtaligi, vahima, ruhiy tushkulik, uyqu buzilishi, giperesteziya) kuzatiladi. O'tkir psixoz bir necha soatdan bir necha kungacha davom etadi va karaxtlik, deliriy, amensiya, oneyroid, tutqanoq alomatlari bilan davom etadi. Oneyroid alomatlarida ko'pincha, ko'rish illuziyasi va gallutsinatsiyasi bo'ladi. Bunda katatonik alomatlar bo'lmaydi. Eshitish gallutsinozida tovush ta'siridan ko'rv, vahimalar paydo bo'lib, benor o'zini yo'qotib qo'yadi. Bularning ta'siridan benorlar o'ziga va atrofdagi kishilarga xavf solishlari mumkin. O'tkir psixoz o'tib ketganidan so'ng, serebrasteniya alomati – tez charchash, toliqish, jahl chiqishi, ish qobiliyatining pasayishi, uyquning buzilishi, kayfiyatning yomonlashuvi, giperesteziya belgilari kuzatiladi.

Uzoq muddatli simptomatik psixozlar 2 haftadan 2-3 oygacha saqlanib turadi. O'tish alomatlari uzoq vaqt davomli astenik holatlar bilan tugaydi yoki psichoorganik alomatga o'tishi mumkin. Uzoq muddatli simptomatik psixozlarning quyidagi turlari bor: 1. Depressiyalar – bu holatlar kuchqurunlari kuchayadi. Astenik holat bilan birga davom etadi. Bemorda ko'pincha, kuchqurun va tunda qisqa vaqtli deliriy holatlari paydo bo'ladi. 2. Depressiv-

vasvasa holatlari, bemorlami kuchli vahima, qo'rquv bosadi. Bunda tashqari, ayblash, ta'na qilish, vasvasa g'oyalari, illuziya va eshitish gallutsinatsiyasi bo'lib turadi. 3. Gallutsinator – paranoid holatlar. Bunda ta'qib qilish, vasvasa, eshitish gallutsinatsiyasi va illuziyalari, atrofdagi kishilarni yolg'on bilish bilan boradigan o'tkir paranoid holatlar bo'ladi. Bular apatik stupor (qimirlamay qolish, hamma narsalarga befarq qarash) bilan almashinib turadi. Agar bemor o'z turish joyini o'zgartirsa, bu, buzilishlar o'tib ketadi. 4. Moniakal holatlar – bu o'zgarishlar harakatsiz maniya, eyforiya va astenik buzilishlar bilan birga namoyon bo'ladi. Moniakal holatlar avj olganda, soxta paralitik alomatlar paydo bo'ladi. Bulardan tashqari. Karsakov alomati va konfabulyoz holatlari kuzatiladi. Karsakov alomati o'tganidan so'ng, bemor xotirasi tiklanadi. 5. Konfabulyoz holatda bemor xotirasi va es-hushi joyida bo'ladi. Bu holat birdan boshlanib birdan tugaydi. Bemorlar xaqiqatda bo'lмаган voqeа va hodisalar haqida gapiradilar. Bu holat tugaganidan so'ng, bemor o'zlariga nisbatan tangidiy munosabatda bo'ladir.

Uzoq vaqtga cho'zilgan psixozlardan keyin, asteniya holati paydo bo'ladi. Oq'ir yuqumli kasallikkordan va zaharlanishlardan, moddalar almashinuvi buzilishi bilan o'tadigan somatik kasallarda psixoorganik alomatlar paydo bo'ladi. Bu alomatlar har xil astenik eyforiya, apatik hollar tariqasida namoyon bo'ladi. Yurak kasali bilan o'rigan bemorlarda ularning kayfiyati buzilib, xavotirlik, besaranjomlik, vahima hissi paydo bo'ladi. Benorning es-hushi buzilib, gallutsinatsiyalar bo'lib turadi. Benorning ahvoli yaxshilanishi bilan, bu holatlar yo'qoladi. Revmatizm bilan o'rigan bemorlarda esa asab-ruhiy sohasida o'zgarishlar kuzatiladi. Bunday bemor tajang, sabrsiz, salga yig'layveradi, uyuqsi buzilib turadi, es-hushi aynib, tez-tez gallutsinatsiyalar bo'lib turadi. Xavfli o'smalar bilan o'rigan bemorlarda amentiv holatlar yoki deliriy paydo bo'ladi. Bu holat ko'pincha, bemor holdan ketgan paytlarda, kasallik o'irlashgan vaqtarda namoyon bo'ladi. Me'da ichak yo'li kasallarida esa tez chardash, uyuqdanlik, tajanglik, lanjlik qayd qilinadi. Gijja invaziyasida ko'pincha, bolalarda tutqanoq xurujlari, es-hushning vaqtivagi bilan aynib turishi, o'zidan ketib qolish holatlari kuzatiladi.

Depressiya holatlari ko'pincha, surunkali somatik kasallikkarda uchraydi. Bunda bemorda suisidal (o'zini o'zi o'ldirish) harakatlari paydo bo'ladi. Bunda po'stloq osti faoliyatini idora etuvchi oliy faoliyat pasayib qoladi. Zaharlanish bilan o'tadigan somatik kasalliklar (qandli diabet, uremiya) da bemorning es-hushi aynib, karaxt bo'lib qoladi. Ta'sirlar bemorning ongiga yetib bormaydi, qattiq tovushlarga bemor kuchsiz reaksiya ko'rsatadi, kuchsiz tovushlarga mutlaqo reaksiya ko'rsatmaydi. Atrofdagilarni tuman ichida ko'rayotgandek bo'ladi, yaxshi anglab yetmaydi, doimo mudroq bosadi, karaxtlik holati sopor, koma va o'limga olib keladi. Yuqumli kasalliklar (tif, bezgak, zotiljam) bemorlarda ruhiy o'zgarishlar bilan davom etadi. Bunda deliriy holati paydo bo'ladi, bemorning es-hushi aynib, vaqtini bilmaydi, lekin o'zining kimligini biladi. Bemorda ko'rvu gallutsinatsiyasi va illuziyasi paydo bo'ladi. Benorning ko'ziga har xil vahimali narsalar

ko'rindi. Yuqumli kasalliklarda deliriy, alahsirash, vasvasa fikrlari uzoq vaqt davom etmaydi. Bular harorat ko'tarilganida paydo bo'ladi va bir necha kundan keyin o'tib ketadi. Deliriydan keyin ruhiy zaiflik, bemornining tiliga har xil so'zlar kelib turadi. O'tkir yuqumli kasalliklar bilan og'riqan bemorlarning es-hushi aynib, illuziya va gallutsinatsiya va alahsirab har xil gaplar aytish bilan davom etadigan amentiv holat (esning birdan kirar-chiqar bo'lib qolishi) boshlanishi mumkin. Bunda bemor o'zining qayerdaligini, ismi va familiyasini ham aytib bera olmaydi.

**Tug'ruq psixozlari.** Tug'ruqdan keyin ko'proq amensiya, katatonik va maniya belgilari uchraydi. Og'ir hollarda, qonda biokimyoysi o'zgarishlar – giperazotemiya, albuminuriya, qon bosimning ko'tarilishi kuzatiladi. Tug'ruqdan keyin bemorlarda shizofreniya yoki maniakal-depressiv psixozlar va boshqa kasallar kelib chiqadi. Yoki bu kasalliklar birinchi marta tug'ruqdan keyin paydo bo'ladi. Hozirgi vaqtida tug'ruqdan keyingi psixozlar juda ham kam uchraydi. Bunday paytlarda bemorlar hamma vaqt hamshiralarning kuzatuvida bo'lishlari, hech qachon bir o'zini tashlab ketmaslik kerak. Agar tug'ruqdan keyin psixozlar kuzatilsa, tezda psixiatr shifokomi chagirib, psixiatriya shifoxonasiga o'tkazish tavsya etiladi.

**Davosi.** Birinchi simptomatik psixozning sababi bo'lgan asosiy somatik kasallikni davolash zarur. O'tkir simptomatik psixozlar somatik shifoxonada psixiatr kuzatuvi ostida davolanishi kerak. Bemomi boshqaplardan ajratib qo'yish, razorat qilib turish zarur. Uzoq vaqt cho'ziladigan psixozlar esa ruhiy kasalliklar shifoxonasida davolanishi lozim. O'tkir simptomatik psixozlarda neyroleptiklar – aminazin, kofein, kordiamin bilan birga harakat qo'zg'alishlarida diazepam, leponeks buyuriladi. Bemorlarga quvvatga kirgizuvchi dorilar – 40 % glukoza, askorbin kislotasi, nikotin kislotasi, magneziy sulfat, natriy xlor tomir ichiga yuboriladi. Delirioz, amentiv, gallutsinator paranoidlarida aminazinni kuniga 300–400 mg gacha berish zarur. Depressiv holatlarda amitriptillin, harakatsiz o'tadigan depressiyada melipramin buyuriladi.

Uzoq vaqt cho'ziladigan simptomatik psixozlarda frenolon, melliril, teralin, bular kor qilmasa, aminazin, galaperedol tavsya etiladi. Hamma psixotrop dorilar oz-ozdan berilib, keyin asta-sekinlik bilan dozasi oshirib boriladi.

### **Shizofreniya**

**Shizofreniya** yunoncha so'zdan olingan bo'lib, ruhning parchalanishi yoki bo'linishi degan ma'noni bildiradi. Shveysariyalik olim Bleyler bu kasallikning klinik manzarasini aniqlagan, shuning uchun Bleyler *kasalligi* deb ataladi. Shizofreniya ko'p uchraydigan ruhiy kasalliklardan biridir. Aholi o'rtasida 1–2 %gacha uchraydi va ko'proq 15–35 yoshdan boshlanadi. Kasallikni keltirib chiqanuvchi sabablardan biri virusli infeksiya va bosh miya jarohatlarining asoratlari natijasida yuzaga keladi. Bundan tashqari, irlsiy omillar ham muhim o'rinni egallaydi. Kasallikda bosh miya

po'stlog'i tomozlanishi natijasida qo'zg'aluvchanlik ortadi. Bunda po'stlog osti sohasi nazoratdan chiqib, qo'zg'aluvchanlik holati yuzaga keladi. Bosh miyaning bunday o'zgarishlariga asab hujayralarining zaifligi va oqsil almashinuvining buzilishlari sabab bo'ladi. Kasallik ko'pincha, astenik o'zgarishlar bilan boshlanadi. Bular damon qurishi, xavotirlanish, tez charchab qolish, atrofdagilarga shubha bilan qarash, yoqtirmaslik va har xil xatti-harakatlar qilish bilan davom etadi.

Shizofreniyaning klinik kechishi xilma-xil bo'ladi. 1. To'xtovsiz davom etib turadigan shakli. Bunda klinik belgilar asta-sekin kuchayib, zo'rayib borish bilan o'tadi. Bunda bemorning ahvoli yaxshilanib qolganini ko'rsatadigan belgilar bo'lmaydi. Kasallik davomida nevrozsimon vasvasali gallutsinator, gebefrenik va katatonik alomatlar kuzatiladi. 2. Vaqtı-vaqtı bilan bo'lib turadigan yoki sust kechuvchi shaklida kasallik to'satdan qisqa muddatda psixozlar boshlanib qoladi. Bundan keyin yana musaffolik davri boshlanadi. Bu shaklida shaxsiyat asta-sekin o'zgarib boradi. Bu shakl ko'proq o'smirlilik davridan boshlanadi. Dastlab asabiylashish, ortiqcha fikrlash va miyadan ketmaydigan xayollar paydo bo'lishi bilan kechadi. 3. Xurujsimon-progrediyyent shakli bunda kasallik xurujlar bilan bo'lib turadi va uzoqroq davom etadi. Xurujlar o'tib ketgandan so'ng, kasallik belgilari susayib qoladi va yo'qolib ketadi. Bu shaklida shaxsiyat o'zgarishi, aql pastlik tobra zo'rayib boradi. Kasallik vasvasalar va gallutsinatsiyalar bilan kechadi. Bu shakli 25 yosh va undan katta yoshdagilarda uchraydi.

Shizofreniyyada bemorlar fikrlari sayoz, nutq va yozuvi maqsadsiz, tartibsiz bo'ladi. Fikrlash qobiliyati pasayadi, bemorlar ezma, quruq safsataboz bo'lib qoladi. Avval nevrozsimon o'zgarishlar paydo bo'lib, bemorning kayfiyati o'zgarib turadi. Bunday bemorlar biror sabab bo'lmasdan, har joyi og'rib turishidan, tez charchab qolishidan shikoyat qiladi. Bemorning yurish-turishi va xatti-harakatlarida beparvolik, xudbinlik, kamaplik ko'zatiladi va unda atrofdagilardan qochib yurishga moyillik bo'ladi.

**Shizofreniyaning oddiy turida** – bemor beparvo, kamgap, serjahl va kam harakat bo'lib qoladi. Bu turda yakka qolish, xonalardan chiqmay, bir o'zi o'tirish istagi ko'proq bo'ladi. Kasallik o'smirlilik davrida boshlanadi va sust kechadi. Bunda gallutsinatsiyalar va vasvasalar bo'lmaydi. Bu turda bemorlar aytilgan gaplarning teskarisini bajarishga harakat qiladilar. Masalan, og'zingni och desa, u og'zini yopib oladi. Bunday holatga negativizm deyiladi.

**Shizofreniyaning katatonik turida** – bemorlar harakatida katatonik qotib qolish yoki katatonik qo'zg'aluvchanlik bo'ladi. Bemorlar bir joyda qimirlamasdan qotib turadi va bitta so'z yoki harakatni hadeb takrorlayveradi. Bemor so'zlamni, jumlalarni baqirib aytadi, gaplariga tushunib bo'lmaydi. Bemor oyoq qo'llarni bukkan holda, gavdaga yaqinlashtirib oladi va uzoq vaqt shunday tinch gapirmay o'tiradi, bu mutizm deb ataladi.

**Shizofreniyaning paranoid turi** – bunda bemorlar hech kimning gapiga ishonmaydi, hammaga shubha bilan qaraydi. O'ziga qarshi tashqaridan jismoniylar ta'sirlarni sezgandek bo'ladi. Bunday bemorlar, odamlar meni

o'ldiradi, ovqatimni zaharlab qo'yadi, deb shubha bilan yurishadi. Ba'zi bemorlar esa menga mashinalar radioto'lqin yuborayapti, deb o'ylashadi. Bu turdag'i vasvasalar ko'proq 20–30 yoshdan boshlab uchraydi. Ipoxonidrik vasvasalar bor bemor o'zining ichki a'zolarida o'zgarishlar sezadi. Bularga yuragim urishdan to'xtab qoldi yoki ichagim yorilib ketgan, deb takrorlayeradi. Kasallikning bu turida tez-tez gallutsinatsiyalar bo'lib turadi. Bemorlar turli ovozlar, buyruqlami eshitib, ulami bajamogchi bo'ladilar, bu *Kandinskiy-Klerambo alomati* deb ataladi.

**Shizofreniyaning gebefrenik turi** – bunda bemorlar quruq safsatabozlik, mantiqsiz qiliqlar qiladi. Bemorlar aftini burishtirib, so'zlarini, qiliqlarini sun'iy takrorlab turadi. Shizofreniyaning bir turi ikkinchi bir turiga almashib turadi. Gebefrenik turi va oddiy turlari og'irroq bo'lib kechadi. Katatonik turi esa yengil kechadi.

**Davolash usullari.** Shizofreniyani davolashda insulin, sulfazin, aminazin va gipnoz usullari keng qo'llaniladi. Insulin terapiyada moddalar almashinuvida ma'lum o'zgarish yasab, zaharlanishni kamaytirishdir. Insulin bilan davolashni boshlashdan oldin bemorlardan nahorda qon olib, qondagi qand miqdori tekshiriladi. Organizmga yuborilgan insulin qondagi qand miqdorini kamaytirib yuboradi. Me'yorda qondagi qand miqdori nahorda aniqlanganda, 9,0–11,0 g/l yoki 3,3–5,5 mmol/l ga teng. Insulin yuborilganda, qondagi qand miqdori anchagina kamayib ketadi, bu *shok holati* deb ataladi yoki gipoglikemik koma holati boshlanadi. Shokni keltirib chigaruuchi o'rtacha insulin dozasi 80–100 tb ni tashkil etadi. Ba'zi hollarda, 30 tb miqdorda insulin yuborilganda ham shok holati boshlanadi yoki 150–180 tb miqdorda insulin yuborilganda ham shok holati qayt etilmaydi. Shok holatini paydo qilish uchun esa asta-sekinlik bilan insulin dozasini oshirib borish tavsiya etiladi. Insulin teri ostiga avval 4–8 tb dan boshlab va har kuni 4 tb dan ko'tarib borish kerak. Bemorda shok holati paydo bo'lmaguncha, insulin dozasini oshirib borish kerak. Qaysi dozada shok holati boshlansa, shu dozada to'xtatiladi. Davo kursi 25–30 insulin shokidan iborat.

Shok holatiga tushganda, bemorlar tashqi ta'sirotlarga javob reaksiya ko'rsata olmaydi. Bemorlarning ko'z qorachiqlari kengayan bo'ladi, badani terlaydi. Shunday qilib, bemorlar 30–40 daqiqa shok holatida ushlab turiladi. Keyin esa 40 % 30–40 ml glukoza eritmasidan olib, tomir ichiga asta-sekin yuboriladi va shok holatidan bemorni chigariib olinadi. Shuncha glukoza eritmasi yuborilgandan keyin, bemor o'ziga kelib, 1–2 daqiqa ichida es-hushi joyida bo'lgandan keyin, 100–200 g qand eritib nonushta qilinadi. Hamshira bemorning ovqat yeyayotganini kuzatib turishi kerak. Ko'pgina bemorlar shok holatidan keyin ham karaxt bo'lib turadi va ovqatni yeyaolmaydi, og'zidan tushib ketadi. Agar bemorga glukoza eritmasi yuborilgandan keyin 20–30 daqiqa davomida o'ziga kelmasa, yana tomir ichiga 40 % 30–40 ml glukoza eritmasi yuborish kerak. Ba'zan esa teri osti 0,1 % 0,5–0,7 ml adrenal in eritmasidan in'eksiya qilinadi. Shok holatidan keyin bemorning ichki kiyimi almashtiriladi. Agar bemorning tomir ichiga glukoza

eritmasini yuborishning iloji bo'lmasa, unda qand sharbatini zond orgali yuborish tavsiya etiladi. Insulin shok holati boshlanishi oldidan ba'zi bemorlarda gavda, qo'l-oyoglarda va yuzdagи mushaklarda uchish, tortishib turish va epileptiform tutqanoq kuzatilishi mungkin. Bundan tashgari, kunning ikkinchi yarimida shok holati takroran bo'lib qolishi mungkin. Shuning uchun hamshiralalar har doim bemorlarning ahvolini nazorat qilib turish, ovqatlantirish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatishga tayyor turishlari kerak.

**Neyroleptiklar bilan davolash.** Katatonik va katatonik-paranoid holatlarda neyroleptiklar: majeptil (kuniga 60–80 mg dan), leponeks (kuniga 200–400 mg dan), ko'p miqdorda aminazin, stelazin, galoperidol dorilari beriladi. Qo'rquv affekti psixomotor qo'zg'alish bilan boradigan o'tkir paranoid holatlarda tomir ichiga galoperidolning stelazin, tizersin bilan birga ishlatiladi. Kasallikning surunkali kechishida, ya'ni vasvasalar kuchayib, klinik belgililar murakkablashib borayotgan hollarda stelazin (kuniga 40–80 mg dan), galoperidol (20–40 mg dan), etaperazin (150–200 mg dan) uzoq vaqt beriladi. Odatda, 2–3 neyroleptiklar birgalikda, tomir ichiga va mushak orasiga qilinadi, keyinchalik ichishga buyuriladi. Rispolept (risperidon) kuniga 2–4 mg dan 1–12 haftagacha, aminazin 2,5 % 1,0 m/o yoki ichish uchun buyuriladi. O'rtacha bir kunlik dozasi 300 mg dan iborat, davolash muddati 2–3 oygacha cho'ziladi. Aminazin olgan bemorlarning qon bosimi doimo o'lchab turiladi. Aminazin ba'zi bemorlarning olgandan keyin qon bosimi birdan tushib ketadi. Bunga ortostatik kollaps deb ataladi. Bunday paytda bemorlarni o'miga yotqizib, kordiamin 25 % 1,0–2,0 ml teri ostiga yoki adrenalin 0,1 % 0,5–1,0 ml tomir ichiga yuborish kerak. Davolash kursini daslabki davrida bemorlar o'rindan turmasliklari kerak. Bemorlarning qon bosimi har kuni o'lchab turiladi. Aminazin tabletkasi 25 mg dan 150–175 mg gacha (bir kunlik dozasi). Vasvasa holatlarida triflazin 1–5 mg va galoperidol 20–80 mg dan asta-sekin oshirib, 100 mg gacha (bir kunlik dozasi) 3–4 mahal beriladi. Davoni kasallik belgilari yo'qolguncha yoki ancha kamayib qolguncha shunday dozada davom ettirish kerak. Keyinchalik dozani 1–5 mg gacha kamaytirib borish kerak. Ruhiy qo'zg'alishlarni bartaraf etish uchun shu dorilardan mushak orasiga yoki tomir ichiga in'eksiya qilinadi. Vasvasa boshlanib, ko'ngilda xavotirlik paydo bo'lganda, tizersin 12–50 mg gacha (bir kunlik dozasi 100–400 mg gacha) buyuriladi. Depressiv alomatlarga qarshi amitriptilin va melliipramin buyuriladi. Miyadan ketmaydigan holatlarga – nozepam, seduksen, elenium va triflazin beriladi. Ipoxonidrik belgilarda – seduksen, tazepam, fenazepam qo'llaniladi. Irim-sirim harakatlari bo'lsa, uzoq ta'sir etuvchi neyroleptiklar-modditen depo 2,5 % 1,0–2,0 ml, bu dori oyiga 2–3 marta in'eksiya qilib turiladi. Isterik belgilarda sonapaks, teralin dorilaridan qo'llaniladi.

**Parvarish qilish.** Shizofreniya bilan og'rigan bemorlarni qarab borish kerak, ular parvarishga muhtojdirlar. Bemorlar ovqatdan bosh tortsa, ularmi ko'ndirish va o'zlari ovqat yeydigan qilish kerak. Buning iloji bo'lmasa,

bemorlami zond orgali ovqatlantirib turish tavsiya etiladi. Shizofreniya bilan og'igan bemorlar uzoq turib qoladigan bo'lsalar, ulami o'ringa yotqizishga harakat qilish va doimiy hamshiralalar nazoratida bo'lislari kerak.

### **Moniakal-depressiv psixoz**

Moniakal-depressiv psixozlar yosh odamlarda va ko'proq ayollarda uchraydi. Kasallik moniakal va depressiv xurujlar bilan kechadi hamda bu xurujlar takrorlanib turadi. Moniakal xuruj depressiv xuruj bilan almashinib turadi. Kasallik bir necha kundan bir necha yilgacha davom etadigan musaffolik davri bo'ladi. Xuruj 2 oydan 10 oygacha davom etadi. Kasallik depressiv xurujlar bilan boshlanadi. U bosh miya po'stloq osti sohasi – gipotalamusda qo'zg'aluvchanlik to'xtab sezuvchanlik oshishi, vegetativ o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Natijada, organizmda uglevod alma shinuvi buzilib, qondagi qand miqdori oshadi, sut kislota kamayadi va yog' almashinuvi kuchayadi.

**Moniakal (kayfiyatning ko'tarilishi) shaklida** atrofdagi narsalar bemorlarning ko'ziga yaxshi bo'lib ko'rindi. Bemorlarning kayfi chog' bo'lib, hamma narsalarga qiziqadi, hamma ishlarga aralashib yuradi. Ba'zi bemorlar savollarni ko'p beradigan bo'ladi, ko'p gapiradi. Bemorlar o'zlarining qobiliyatlariga ortiqcha baho beradilar. Masalan, tibbiyotga aloqasi bo'lmay turib, o'zlarining davolash usullarini taklif etadi. Bunday bemorlar o'z yoshiga to'g'ri kelmaydigan qiliqlarni qildilar. Ayol bemor yoshlari keksa bo'lsa ham lablarini qizil rangga bo'yab, sochlarni bo'yab yurishadi. Moniakal holatda bemor ko'p gapirishidan so'z va jumlalarni tushirib qoldiradi. Bunday bemorlarning gaplariga tushunish qiyin bo'ladi. Ayrim bemorlar maqsadsiz harakat qilishadi, biron ta ishni ham oxirigacha yetkazishmaydi. Kasallikning bu shaklida bemorlar kam uxlaydilar, 2–3 soatgacha charchoqpi bilmeydilar, serjahl bo'lib, salga janjal qilaveradilar.

Moniakal shakl quyidagi turlarga ega: 1. Xushchaqchaqlik maniyasi – bunda, bemorlarda xushchaqchaqlik, eyforiya (kayfi chog'lik) va o'zini katta tutish holatlari kuzatiladi. 2. Fikr o'zgaruvchanlik maniyasi – tasavvur, idrok etish va fikrlesh qobiliyatining o'zgarib turish holatlari kuzatiladi. 3. Ekspansiv maniyasi – bunda, bemorlar sababsiz ko'plab mablag' ishlataladilar va quruq va'dalar berib, pullarni bekorga sarflaydilar. 4. Asabiylashish maniyasi – bunda bemorlarning jahli tez bo'lib, ular atrofdagilar bilan sababsiz urishib, ko'proq janjallahib turiladi.

**Depressiv (tushkunlik) shaklida** bemorlarning kayfiyati pasaygan, g'amgin, har qanday tashqi ta'sirotlar ularning ko'nglini ko'tarmaydi. Bemorlar sekin ovoz bilan ohista gapiradilar, ko'p vaqt boshni egib, g'amgin bo'lib o'tiradilar. Bemorlarning yaqin kishilariga nisbatan munosabati o'zgarib, logayd, beparvo bo'lib qoladilar. Depressiv holatda bemorlarda vasvasa paydo bo'lib, o'zini o'zi ayplashga tushadi va o'z hayotini ko'zdan kechirib, yolg'iz o'zini aybdor, deb hisoblaydi. Bunday bemorlar o'zini

o'zi o'ldirishgacha borib yetadi. Shuning uchun, bunday bemorlarni shifoxonaga yotqizib, kuzatib turish kerak.

Depressiv shaklning quyidagi turlari bor; 1. Melanxoliya turida bemorlarning kayfiyatni pasaygan, g'amginlik holatlari kuzatiladi. 2. Ajitirlangan melanxoliya turida esa bemor o'zini g'amgin sezsa-da, u tormozlarmagan, balki qo'zg' algan bo'ladi. Bunday bemorlarda o'zini o'zi o'ldirish hissiyoti kuchli bo'ladi. 3. Ipoxonidrik turida – bemorlar tanalarida jismoniy yetishmovchilik va og'riq sezadilar. Tanadagi og'riqdan qutulish chorasini izlab, tanalariga har xil shikastlar yetkazadilar. 4. Vegetativ turi – bemorlarda vegetativ nevrotik buzilishlar kuzatiladi.

**Maniakal shaklini davolash:** bemorlarda qattiq qo'zg'alish davrida neyroleptiklar: xlorprotiksen 150–300 mg, aminazin 300–600 mg gacha, tizersin 150–300 mg, galoperidol 30–60 mg, majeptil 40–70 mg beriladi. Bezovtalik, qo'zg'alish kamayganida neyroleptiklar dozasini kamaytirish kerak. Davolash muddati 2–3 oyga cho'ziladi. Litiy karbonat (kuniga 900–2100 mg) bu qo'zg'alishlarda yordam beradi. Qo'zg'alishlar kamayganda, litiy karbonat miqdori haftasiga 300 mg dan kamaytirib boriladi. Agar bezovtalik, qo'zg'alishlar kamroq kuzatilsa, neyroleptiklar va litiy tuzlari kam miqdorda beriladi. Maniakal holatlar qaytarilmasligi uchun ko'proq litiy tuzlari ishlataladi. Uning qondagi miqdori 0,6–0,7 mmol/l ga teng.

**Depressiv shaklini davolash:** bemorlar kayfiyatini ko'tarish maqsadida, melliipramin 100–300 mg, pirazidol 200–400 mg, anafranil 100–200 mg Kasallikning dastlabki 1–2 haftasida dorilarni tomir ichiga tomchilatib yoki mushak orasiga yuboriladi. Agar depressiya holati affektiv hayajonlanish bilan kuzatilsa, bu vaqtida tinchlantiruvchi (sedativ) antidepressantlar: amitriptilin (kuniga 150–300 mg) buyuriladi. Qo'zg'atuvchi antidepressantlar bemor ahvolini og'irlashtiradi. Hayajonlanish yengil turda bo'lsa, insidon va azafen dorilarini beriladi. Agar hayajonlanish og'ir turda bo'lsa, tizersin 25–50 mg dan 75–100 mg gacha, kuniga 3–4 mahal beriladi. Dorilar ta'sir qilganda, bemorlar o'rinnarida yotishlari kerak, chunki bu dorilar qon bosimni pasaytirib yuboradi. Ipoxonidrik va paranoid o'zgarishlarda amitriptilin, diazepam, elenium qo'llaniladi. Depressiv holatdagi bemorlar doim hamshiralalar kuzatuvida turishi kerak. Bemorlar ovqat yemay qo'yan hollarda hamshiralalar ulami ovqatlantirishlari, agar iloji bo'lmasa, zond orgali ovqat berib turishlari kerak. Depressiya boshlanib, harakatlar kamayib qolsa, bularga melliipramin, tizersin 12–25 mg, teralin 25 mg gacha buyuriladi. Ajitirlangan depressiyada amitriptilin, nuredal beriladi. Depressiv holatlar qaytarilmasligi uchun antidepressantlar ko'p foyda bermaydi, shuning uchun litiy birikmalari tavsiya etiladi. Bu dorilar depressiya tugashi bilan tavsiya etiladi, chunki bemorga depressiya vaqtida berilsa, kasallik cho'zilib ketadi. Litiy karbonat 600–1800 mg dan, ovqatdan keyin, kuniga 3–4 mahal ichiriladi. Bu dorilar sedativ ta'sir ko'rsatib, xavotirga tushganda, bezovtalanganda va o'tkir psixotik holatlarda buyuriladi. Bunda bemorlarga 300–600 mg dan bir necha oygacha berib boriladi va qon zardobidagi litiy miqdori doimo tekshirib turiladi.

**Parvarish qilish.** Depressiv holatlarda bemonlar muntazam hamshiralar kuzatuvida bo'lishi lozim. Ularga muloyimlik, mehribonlik bilan muomala qilish kerak. Ba'zi bemonlar g'anginlik holatida bo'lsa, ularni bu holatdan chigarish va o'zini o'zi o'ldirishga yo'l qo'ymaslik chorasi ni topish zarur. Hamshira bemonlarning ovqat yegan yoki yemaganligini o'z vaqtida kuzatib turishi kerak.

### **Nazorat savollari**

1. Shizofreniya kasalligi qanday kelib chiqadi?
2. Shizofreniyaning oddiy turi boshqa turlaridan qanday farq qiladi?
3. Insulin bilan davolash qanday amalga oshiriladi?
4. Shizofreniya bilan kasallangan bemonlar qanday parvarish qilinadi?
5. Moniakal – depressiv psixozlarning kelib chiqish sabablari qaysilar?
6. Moniakal va depressiv psixozlar bir-biridan qanday farq qiladi?

### **Alkogolizm, alkogol psixozlar**

Alkogolizm (surunkali ichkilikbozlik, aroqxo'rlik) tez-tez va ko'p miqdorda spirtli ichimliklar iste'mol qilish tufayli paydo bo'lib, unga hirs qo'yish bilan kechadigan surunkali kasallik hisoblanadi. Bosh og'riqqa ehtiyoj, shaxsning o'ziga xos o'zgarishi somatik va ijtimoiy oqibatlar bilan o'tadi. Alkogolizm sabablari spirtli ichimliklar ichishdir. Alkogolizm rivojlanish davrida odamlarga xushchaqchaqlik, ruhiy kayfiyat, ko'tarinkilik, quvnoqlik beradi. Alkogol ichilganda, odamning markaziy asab tizimi faoliyatiga tez ta'sir qiladi, bunda oliv asab faoliyatini izdan chiqadi. Ichkilik ichgan odamda diqqat-e'tibor susayib, u harakatlarini yo'qotib qo'yadi. Bunda aqliy ish qobiliyat buziladi, gapirishlar qattiq bo'lib, maqtandoqlik qiladi. Bulaming hammasi oddiy mastlik holatiga olib keladi. Mastlik – bu, alkogol bilan o'tkir zaharlanish bo'lib, spirtli ichimliklarning psixotrop ta'siridan kelib chiqadi. Bu insonning ruhiy, vegetativ asab buzilishlariga olib keladi.

**Klinik manzarasi.** Mastlikning quyidagi turlari mavjud: I. **Oddiy mastlik holati** bo'lib, uning 3 darajasi bor. 1. Yengil darajasida kayfiyatning ko'tarilishi, tetiklik, mammunlik, shirin hayollar paydo bo'ladi. Bunda nutqning baland bo'lishi, tezlashishi, imo-ishoralaming jonlanishi, harakatda aniqlikning yo'qolishi bilan xarakterlidir. Bu darajadagi ichgan odamlar bajarayotgan ishning hajmi, sifati pasayadi. Vegetativ belgilardan yuzning qizarishi yoki ogarishi, jinsiy maylning oshishi namoyon bo'ladi. Mastlikning yengil darajasida barcha voqealar bemonning xotirasida saqlanib qoladi. 2. O'rtacha og'ir darajasi – bunda, ko'tarinki kayfiyat, jahldorlik, tajanglik, xafachilik bo'lib turadi. Mast kishi o'z qobiliyatini yugori baholaydi, o'z-o'zini tanqid qilish pasayadi, harakatning chuqrroq buzilishi, ataksiya va dizartriya namoyon bo'ladi. Fikrlashning susayishi, nutqning sekinlashuvi, bir so'zni qayta-qayta takrorlashi paydo bo'ladi. Bemonning diqqat e'tibori pasayadi. 3. Mastlikning og'ir darajasi – bunda, karaxtlik belgilari paydo bo'lib koma holatiga tushadi. Bunda bemonlarda muvozanat buziladi,

mushaklar atoniyasi, amimiya, dizartriya belgilari namoyon bo'ladi. Bemorlarda bosh og'riq, bosh aylanish, ko'ngil aynish, qusish, nafas olish va yurak qontomir faoliyatida o'zgarishlar bo'ladi. Natijada, qo'l-oyoglarning sovuq otishi, ko'karib qolishi, haroratning pasayishi, tutqanoq xurujlari paydo bo'lib, ixtiyorsiz tagiga siyib yuborish va axlat chiqishi kuzatiladi. Mastlik holatining bu darajasida kishi xotirasi butunlay saqlanmaydi.

**II. Oddiy mastlikning o'zgargan turi** – bu, asoratli mastlik bo'lib, bunda ruhiy buzilishlar kuchayib yoki pasayib ketadi. Oddiy mastlikning quyidagi o'zgargan turi mavjud. 1. Eksploziv turi – mastlikka xos baland kayfiyat kamroq bo'lib, qisqa vaqt bo'ladigan jahldorlik, norozilik bilan almashinib turadi. 2. Disforik turi – bunda, ruhiy taranglik, g'amginlik, jahldorlik, tushkunlikka tushish, atrofdagi kishilarga xavf solish paydo bo'ladi. 3. Isterik turida harakatning buzilishi bo'lib, qo'llarini qiyshaytirib, bezovtalanadi, bunda o'ziga yengil jarohat yetkazishi mumkin. Bemorda isterik tutqanoq xuruji paydo bo'lishi mumkin. 4. Depressiv turi-kayfiyatning pasayishi bo'lib, bemorlar ko'pincha, yig'laydilar, g'amginlik, bezovtalanish, o'ziga suiqasd qilish fikrlari paydo bo'ladi. 5. Somolensiya turi – qisqa vaqt ko'tarinki kayfiyatdan so'ng, uyqu kelishi va uxlab qolish mumkin. 6. Epileptoid turida epilepsiya xuruji va harakat ko'zg'alishlari kuzatiladi. 7. Paranoid turi – bunda, harakat va nutq qo'zg'alishi kuchayib, atrofdagi kishilami haqprat qiladi, urush va janjal qiladi.

**III. Kasallikka xos mastlik** o'ta o'tkir o'tkinchi psixoz bo'lib, spirtli ichimlik ichish natijasida paydo bo'ladi. Hushning qorong'ilashuvi, uyquga ketish, ruhiy yoki jismoniyligi toliqish bilan kechadi. Bu holat erkaklarda bo'lib, qaltis harakatlar bilan o'tadi va to'liq amzeziya bilan tugaydi.

Alkogolni tez-tez iste'mol qilish natijasida, odam unga o'rganib qoladi va surunkali alkogol kasalligiga olib keladi. Surunkali alkogol kasalligining quyidagi bosqichlari mavjud: 1. Asosiy belgisi ichkilikka xos moyillik (intilish) bo'lib, oddiy ichkilikbozlikdan kasallikka o'tishdan dalolat beradi. Birlanchi ichkilikka moyillik faqat ichkilik ichish bilan o'tadigan marosim paytida paydo bo'ladi. Bemorlar ichkilik ichish maqsadida, bunday marosimlarni o'ylab topadilar va tezlatadilar. O'zлari esa jonlanib ketadilar. Hamma ishlami tashlab, ichkilik ichishga shoshiladilar, agar bemorlar oldida to'siqlar paydo bo'lsa, ulaming ruhiyati, kayfiyati pasayib jahllanadilar, qoniqarsiz bo'lib qoladilar. Birinchi bosqichda bemorlar mast bo'lislari uchun ichkilik miqdorini 2-3 barobar oshirib ichadilar. Ichkilikka chidamlilikning oshishi qayt qilishning yo'golishi bilan kuzatiladi va mastlik holatiga olib keladi. Bemorlar bu mastlik holatidagi voqealarni xotirada saqlab qolmaydilar (giychvand amzeziya.) 2. Kasallikning birinchi bosqichdag'i belgilarning kuchayishi bilan abstinent belgi (bosh og'riq) paydo bo'ladi. Bunda bemorda mastlik tugashi bilan behollik va vegetativ o'zgarishlar kuzatiladi. Bosh og'riq, bosh aylanish, yurak urishi, yuz va ko'z olmasining qizarishi, tinka qurishi, lanjlik paydo bo'lishi bilan davom etadi. Bu holat

kechayu kunduz paydo bo'ladi. Agar bemor ozgina ichsa, uning ahvoli yax-shilanadi. Alkogolizm rivojlanib borsa, abstinent holati ham og'irlashib boradi. Bunda vegetativ o'zgarishlar bilan birga somatik o'zgarishlar ham qo'shiladi. Bularga yurak qon tomir urishining buzilishi, ishtahaning kamayishi, ich buzilishi, qayt qilish, qorindagi og'riqlar. Asab – ruhiy sohasida esa butun tanada titroq, xavotirlik, vasvasalar, o'z-o'zini ayblash, jahldorlik, ko'rolmaslik, yanon tush ko'rishlar, gallutsinatsiyalar paydo bo'ladi. Abstinent holati 2–5 kun davom etib, benorlar ertalabdan bosh og'riq uchun ichadilar. Bunda bemorni ichkilik ichishdan to'xtatib bo'lmaydi. Ichkilikka bo'lgan chidamlilik bir necha yil davom etadi. Benorlarda mastlik holati o'zgaradi, eyforiya davri qisgarib, psixopatsimon holatlar uchraydi. Ichkilikbozlikning doimiy turida benorlar har kuni hafta, oylar, yillar davomida ko'p ichadilar. Ichkiliklar orasi qisqa bo'ladi. Ichkilikbozlikning davriy turida yolg'on surunkali ichish bir necha kundan bir necha haftagacha davom etadi. Alkogolizmning ikkinchi bosqichida somatik kardiamiopatiya, jigarning yog' bosishi, gastrit va ijtimoiy (oila buzilishi, ish almashtirish) og'ibatlar kuchli bo'ladi. 3. Ichkilikka bo'lgan chidamlilikning kamayishi kasallikning 3-bosqichga o'tishini bildiradi. Bunda benorlar oz-ozdan kun bo'yи ichadi. Bir necha haftadan bir necha oyga cho'ziladi. Ichkilikning birinchi kuni ko'p ichib, oxirgi kunlari esa ichkilikka chidamlilik kamayib boradi. Jismoniyo'zgarishlar yuzaga kelib, butunlay idmay qo'yadilar. Benorlar uyatsiz, sharm-hayosiz, urishpq, yolg'onchi bo'lib qoladilar. Bunda gepatit, yurakdag'i o'zgarishlar tuzalmaydigan darajaga keladi. Kasallikning kechishi ichkilik ichgandan uning ikkinchi bosqichi boshlanguncha, 6–7 yil vaqt o'tadi. Butez rivojlangan turi hisoblanadi. O'rta rivojlangan turi 7–15 yilgacha, astasekin rivojlangan davrida 15 yildan ko'proq vaqt o'tadi.

**Davosi.** Surunkali alkogolizm uch bosqichda davolanadi: 1. Zararsiz-lantirish (dezintoksikatsion terapiya); umumiy davolash 40 % 20 ml glukoza bilan 5 % 5,0 askorbin kislotasi tomir ichiga 15 kun, unitiol 5 % 3–5 ml 6–10 marta mushak orasiga; tiosulfat natriy 30 % 15–20 ml 10–15 marta tomir ichiga; natriy xlор 0,9 % 1–2 litr tomir ichiga tomchilatib yuboriladi; gemodez, reopoligukin 400,0 ml tomir ichiga 4–5 kun, magneziy sulfat 25 % 5–10,0 ml eritmasiga 40 % glukoza qo'shib, tomir ichiga 14 kungacha beriladi. Vitamin B<sub>1</sub> 1000 mg, B<sub>6</sub> 100 mg, nikotin kislota katta dozada beriladi. Abstinent holatlarda va surunkali davrlarda qo'llaniladi. Abstinent holatida vegetativ astenik asab o'zgarishlarida nootrop dorilar, fenazepam 1–2 mg, seduksen 0,5 % 2–4 ml, pirroksin 1–3 ml 2–6 marta qilinadi. Ruhiy o'zgarishlarda aminazin, tizersin, galoperidol, teralin, melleril, depressiyada amitriptilin buyuriladi.

Ikkinci bosqichda davolash kasallikka, ichkilikka moyillikni bartaraf etish, bunda psixoterapiya usullari ham qo'llaniladi. Ichkilikka bo'lgan moyillikni bartaraf etish uchun psixotrop dorilar – karbiden 90–150 mg, neuleptil 30 mg, melleril 150 mg, teralen, etaperazin, pirogenal 250–1500 mg buyuriladi. Spirtli ichimlikka jirkanchlik hissini uyg'otish magsadida

shartli reflekslami keltirib chiqarish uchun apomorfining yangi tayyorlanganidan 0,5 % 0,2–1,0 ml gacha teri ostiga yuboriladi. Dori ta'sirida qayt qilish refleksi kuchayadi. Bemorga 30–50 ml spirt ichish tavsiya etiladi. Qayt qilishni kuchaytirish maqsadida qo'shimcha emitin 0,05 mg, ipekakuana 0,25–0,5 mg, mis kuporasi eritmasini 0,5–0,75 mg 150 ml distillangan suvda eritib, ichish buyuriladi. Bemor organizmida ichkilikka nisbatan chidamsizlik hissi uyg'otiladi. Bunda teturam (antabus) dorisini 0,125–0,5 g dan har kuni 30 kun davomida beriladi. Dorining ta'sirini mustahkamlash maqsadida teturam – alkogol sinamasini qo'yiladi. Bu sinama o'tkazishdan 3–4 kun oldin teturam 1,0 g gacha oshirib boriladi. Bemor ichgandan so'ng, behushlik, yurak sohasidagi og'riq, qon bosimning oshishi, tutqanoq xurujlari kuzatiladi. Bu o'zgarishlaming oldini olish maqsadida, sinov oldidan bemorlarga 8,4 % bikorbanat natriy, 10 % kalsiy xlor eritmasini 10 % glukozada aralashtirib, tomir ichiga yuboriladi. Bemorlarga ichkilikka qarshi chidamsizlikni keltirib chiqarish uchun metronidazol (trixopol) 1000–2000 mg har kuni, 3–4 hafta davomida; furazolidon 300–800 mg 10 kun davomida; siamid 50–100 mg 5–6 kun, nikotin kislota 100–400 mg 3–4 hafta davomida berib boriladi. Bu usulni uzoq muddat qo'llash mo'ljallanganda, mushak ichiga esperal va radeter dorilarini jarroqlik yo'li bilan kiritiladi. Uchinchchi bosqichda davolash – natijalarni bargoror qilish, kasallik qaytalanishining oldini olish usullaridir. Bunga psixoterapiya usullari, psixotrop dorilari qo'llaniladi. Kasallik qayta avj olishining oldini olish uchun teturam 0,25–0,75 g, trixopol 0,75–1 g, nikotin kislotasi har kuni 1–3 oy davomida berib boriladi. 1–2 oy o'tgach, bu kurs yana qaytariladi.

**Alkogol psixoxizi** yoki ichkilik jonsarakligi o'tkir, to'satdan boshlanadigan, bemorning o'zi va atrofdagilar uchun xavfli kasallikdir. Boshning shikastlanishi, yuqumli kasalliklar, uzoq uyqusizlik, og'ir ruhiy kechinmalar uning paydo bo'lishiga olib keladi. Kasallikdan oldin uyquning buzilishi, bemorning vahimali tushlar ko'rib chiqishi. Ko'proq erkaklarda uchraydi. Buning kelib chiqishida miya to'qimalari ichkilik ta'sirida zaharlanadi. Unda moddalar almashinuvni buziladi. Alkogol psixoxizi, asosan, abstinent holatida boshlanadi. Alkogol psixozning klinik manzarasi deliriy, gallutsinozlar, vasvasalar, ensefalopatiya ko'rinishida bo'ladi. Bundan tashqari, psixozlaming aralash va o'zgargan turlari kuzatiladi.

**Alkogol deliri** (oq alahlash) turi uch bosqichda bo'ladi: 1. Emotsional va harakatlar hayajonlanish, ko'p gapirish, fikrlar va so'zlaming ko'payishi, imo-ishoralaming kuchayishi, o'ta sezuvchanlik, kayfiyatning tez o'zgarishi, uyqusizlik va vegetativ o'zgarishlar paydo bo'ladi. 2. Yuqoridagi o'zgarishlarga ko'rish illuziyasi va gallutsinatsiyalari qo'shiladi. 3. Tashqi hodisalarga vaqt va joyga bo'lgan mo'ljallaming yo'qolishi qo'shiladi. Deliriy psixozdagi bemorlarda gallutsinatsiyalar hosil qilish, masalan, bemor yuq ko'zları ustiga barmoq bilan sekin bosib, ularga har xil ko'rinish gapirilganda, ularda ko'rish gallutsinatsiyasi paydo qilish mumkin. Bemor toza qog'ozda har xil yozuvlarni ko'rishi mumkin yoki uzib qo'yilgan telefon

bilan gaplashadi. Deliriya har doim titroq, gandiraklash, yurakning tez urishi, ko'p terlash holatlari kuzatiladi. Alkogolli deliri 2-8 kun davom etadi va chiqur uyqu bilan tugallanadi. Deliriyning quyidagi turlari bor:

1. Gipnogagik turda uyqu oldidan bemor ko'zlarini yunganda, sahnasimon ko'rish gallutsinatsiyalari paydo bo'ladi va bemor ko'zini ochsa, bu holat yo'qoladi.
2. Deliriysiz – deliriyligi (qaltirash alomati) butun tanada titroq bo'lib, bezovtalik, o'zini yo'gotish, harakatlanish, qayoqpadir chopish holatlari kuzatiladi.
3. Aralash turida sahnasimon ko'rish gallutsinatsiyalari, vasvasa g'oyalari va so'z, eshitish holatlari kuzatiladi.

**Alkogolli gallutsinozlar.** Kasallik kechishi o'tkir, o'rtacha o'tkir va surunkali turlarga bo'linadi. O'tkir turi bir necha soatdan bir necha haftagacha yoki 1 oygacha davom etadi. Bu birdan boshlanib, kechqurun yoki tunda uygusizlik, eshitish gallutsinozlarini kuzatiladi. O'rtacha og'irlilikdagi turi bir oydan olti oygacha cho'ziladi va eshitish gallutsinozlarini bo'ladi. Surunkali turi olti oydan oshib ketadi. Bunda eshitish gallutsinozlarini doimiy bo'lib, bemorlar bu ovozlar bilan bahslashadilar, urishadilar, keyinchalik bu ovozlarga ko'nikib qoladilar. O'zlarini tinchlanib, keyinchalik ish qobiliyatni tiklab oladilar.

**Alkogolli vasvasali psixozning** quyidagi turlari mavjud:

1. Alkogolli paranoid (ta'qib qilish vasvasasi) – bunda, bemorda bosh og'riq kuchayadi, bezovtalanish, hayajon, qo'rqish, harakat qo'zg'aluvchanligi namoyon bo'ladi. Bemorga har qanday kishi ta'qibchi bo'lib tuyuladi. Tez orada ko'rish va eshitish illuziyalari paydo bo'ladi. Bemorlar ta'qibchilardan qochishi yoki o'zlariga jarohat yetkazishi mumkin. Kechga borib esa delirioz belgilari, eshitish gallutsinatsiyalari paydo bo'ladi.
2. Rashk vasvasalari ko'proq erkaklarda uchraydi. Bemorlarda o'z xotini o'ynash topib olgандек, fikrlar paydo bo'ladi. Ular, ko'pincha, dalil va ashyolar qidirib, xotinlarining orgasidan kuzatib, kiyimlarini tekshirib yuradilar. Bemorlar o'z xotinlariaga nisbatan tan jarohati yetkazishlari mumkin.

**Alkogolli encefalopatiya** – bunda, o'tkir ruhiy o'zgarishlar, somatik (terining ogarib qolishi, ko'z ogining sarg'ayishi, haroratning ko'tarilishi, yurakning tez urishi, qon bosimning pasayishi, hushdan ketish, jigarning kattalashishi) va asab tizimidagi (titroq, gandiraklash, mushaklar tortishi yoki bo'shashi, nistagr, ko'rishning pasayishi, patologik reflekslarining paydo bo'lishi, ensa mushagini qotishi) o'zgarishlar kuzatiladi. Karsakov psixoz surunkali alkogol psixozida kuzatiladi. Bunda xotiraning pasayishi, joyni, vaqtini, atrof-muhitni bemorlar bilmaydi, konfabulatsiya va polinevritga xos belgilari paydo bo'ladi. O'tmishda bo'lib o'tgan voqealar esda bo'ladi, kasbga, mehnatga bo'lgan qobiliyat saqlanib qoladi. Alkogol falaji ko'proq erkaklarda uchraydi. Ruhiy o'zgarishlar, fikrlash, bilimlar, o'z-o'ziga tangidiy qarashlar kamayadi. Eyforiya, hazillar, o'ziga ishonish kuchi yugori bo'ladi, xotira buzilishlari kuzatiladi.

**Davosi.** Alkogolli psixoz zaharlanish bosqichida bemorlarni davolashda gemodez, reopoligukin 400,0 ml 2 mahal kuniga, 5 % 400,0 ml glukoza eritmasini tomir ichiga tomchilatib quyish buyuriladi. 30 % 10,0 ml natriy

tiosulfat, 5 % 5–10,0 ml unitiol, 10 % 10,0 ml kalsiy xlor, 25 % 10,0 ml magneziy sulfat dorilari tavsiya etiladi. Bemor ko'zg'alganda, seduksen, GOMK; alkogolli vasvasalar, galyusinasiyalarda aminazin, galoperidol o'rtacha dozada, bular hamma vaqt vitaminlar bilan birga beriladi. Miya shishganda mannit, laziks hamda kokardaksilaza, askorbin kislotasi, eufillin yaxshi yordam beradi. Jigar zararlanganda, metionin, essensial 3-4 mahal buyuriladi. Alkogolli ensefalopatiyada vitaminlar, pirasetam, aminazin, ensefabol, asefenlar bilan birga bosh miyada qon aylanishini yaxshilovchi dorilar – kavinton, stugeron yoki sinnarizin, sermon buyuriladi. Alkogoliznga qarshi davolashni psixoz tugagandan bir necha oydan keyin boshlash mumkin.

### Giyohvandlik

Giyohvandlik – bu, zaharli moddalarga organizmning o'rganiq qolishi natijasida, yuzaga keladi. Giyohvand moddalar, asosan, bir marta iste'mol qilganda, kayf beruvchi va surunkali iste'mol qilganda esa jismoni y va ruhiy ko'nikish hosil qiluvchi moddalardir. Giyohvand moddalar uzlucksiz iste'mol qilish giyohvandlikga olib keladi. Giyohvand moddalar iste'mol qilinganda, asosan, asab tizimi faoliyatiga ta'sir qilib, uning ish faoliyatini buzadi. Ya'ni eslash, fikrlash, sezish, gapirish qobiliyatining pasayishiga olib keladi, natijada, ularning ish qobiliyati yo'qoladi. Giyohvand moddalarni qayta iste'mol qilganda, organizmda ruhiy moyillik, ya'ni shu moddalarga nisbatan kayf, mastlik holatlari yuzaga keladi. Bunda, ayniqsa, bolalarda o'qishga bo'lган qiziqish yo'qoladi. Jismoni moyillik esa organizmning giyohvand moddalarga bo'lgan moyilliigi ortishi natijasida, giyohvand modda iste'mol qilmagan taqdirda, organizm me'yoriy faoliyat ko'rsatmasligi mungkin. Buning oqibatida, qo'l-oycqbo'g'inlarida, mushaklarda kuchli og'riq, qaltirash, tirishish holatlari bo'lib o'tadi. Bemorlarda bezvtalik, yaxshi uxlamaslik, injiqlik, bosh og'riq, tez-tez ich ketish, qattiq qo'rqu holatlari kuzatildi. Bu holatlar giyohvand moddalar qabul qilgandan keyin tezda o'tib ketadi. Bu moddalarni surunkali iste'mol qilish natijasida, organizmda jismoni moyillikning kuchayishi, ya'ni o'zini-o'zi bosqara olmasligi, nazorat qilishi yo'qoladi, bundan keyin kayf qilish uchun emas, balki shu moddalarsiz organizmning me'yoriy faoliyat ko'rsatmasligi natijasida, tura olmaslik holatlariga olib keladi. Giyohvand moddalarni surunkali iste'mol qilish homilador ayol organizmiga va homilaga zararli ta'sir qiladi. Buning natijasida, homila rivojlanishining dastlabki uch oyligida asab tizimi, barcha tana a'zolari va to'qimalari shakllanib borayotgan davrda ularga salbiy ta'sir qilib, tug'ma nusxonlar paydo bo'lishiga olib keladi. Bunda homila rivojlanishi susayadi, homilaning erta tushishi, o'lik tug'ilishi, bolaning aqiliy zaif bo'lib qolishi, mayib-majruh tug'ilishiiga olib keladi.

Giyohvandlikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri – bu, ijtimoiy: bularga bolalarning oilada noto'g'ri tarbiyalash, tevarak-atrofdagi chekuvchilarning ta'siri va ularga bolalami qiziquvchanligi, kayfiyatga tez beriluvchanlik hamda turli xil qiyinchilikdan qochishidir. Giyohvand

moddalarni uzoq muddat iste'mol qilganda kishi unga o'rganib qoladi. Bemorlar ko'proq og'riq qoldiruvchi dorilar (promedol, morfin, omnopon, barbituratlar)ni qabul qilgandan keyin unga organizm o'rganib qoladi. Agar bemorlar bunday dorilarni qabul qilmasa, organizmda abstineniya (xumor tutish) belgilari paydo bo'ladi. Bular bosh og'riq, lanjlik, tajanglik, yurak o'ynashi, kayfiyat va ruhiyatning yomonlashuvi, ich ketish, uyqusizlik va vahima bosish belgilari paydo bo'ladi. Abstineniya davrida bemorlar giyohvand moddalarni qo'lga kiritish uchun harakat qiladilar va jinoiy ishlar ham qiladilar. Ba'zi bemorlar darddan qutilish uchun shifoxonaga yotib oladilar. Og'riqqa chidolmasdan morfin qilishlarini so'raydilar. Vaqt o'tishi bilan morfin miqdori kamlik qiladi va qondimay qo'yadi.

Giyohvandlikga o'rganib qolgan benorlaming ishtahasi yo'qoladi, terisi quruq, shilviragan, qo'l bamoglarda titrash (tremor), bo'g'im-mushaklarda og'riq, uyqusi buzilgan, yurakning o'ynab turishi, ish qobiliyatining susayishi va irodaning pasayishi kuzatiladi. Benorlarda ko'pincha yolg'on gapiresh, kulish yoki yig'lash hamda xotiraning pasayishi namoyon bo'ladi. Agar nasha chekilganda eyforiya, fikrlashning tezlashishi, hirsning kuchayishi, illuziyalar (kichik ariq xuddi katta ariq bo'lib ko'rindi), boshkanalik, kulguli holatlari, tashnalik, ochlik paydo bo'ladi. Giyohvandlikda kuchli asteniya – xavotirlanish, mushaklar uchishi, ich ketish, tutqanoq xurujlari, talaffuzning buzilishi, titroq, muvozanat yo'qolishi holatlari kuzatiladi.

**Toksikomanlar.** Bularda tabiiy va sun'iy zaharlovchi moddalarni iste'mol qilish natijasida organizmda shu moddalarga nisbatan moyillik, xumor tutish holatlari kuzatiladi. Bu holat ko'pincha psixotrop dorilar bilan uzoq davolangan bemorlarda kuzatiladi. Bu dorilardagi xumor holatlari bosh og'riq, bosh aylanish, yurak urishining tezlashishi, titroq bosish, behushlik holatlari, tutqanoq xurujlari va psixoz holatlari kuzatiladi. Psixotrop dorilar uzoq muddat iste'mol qilinganda ularga chidamlilik oshadi, xumor holatlari (qo'rquv, uyqusizlik, ko'p terlash, titroq) paydo bo'ladi. Miya faoliyatini tetiklashtiruvchi dorilar (kofein) iste'mol qilganda, benorlarda tetiklashish, kuchga to'lish, yengillashish kabi holatlari kuzatiladi. Bu holatlar qisqa vaqtдан keyin bo'shashish, tushkunlik, bosh og'riq, tananing qaqshashi bilan tugallanadi. Shuning uchun, bemorlar qayta shu dorilardan olishga majbur bo'ladilar. Bundan tashgari, bemorlarda vasvasalar, eshitish, ko'rish gallutsinatsiyalarini ham kuzatiladi. Parkinsoninga beriladigan dorilar (siklodol, parkopen, romparkin, artan) ko'p dozada berilib borilganda bemorlarda eyforiya, mastlik, gallutsinatsiyalar bo'lishiga olib keladi. Bu moddalarning dozasi oshib ketganda qo'rqinchli ko'rish gallutsinatsiyasi, deliriy yoki ovoz eshitish gallutsinatsiyasi, o'tkir sezish, ta'qib qilish vasvasasi bilan o'tadigan psixozlar kuzatiladi. Xumor holatida qo'l va tananining titrashi, mushaklardagi og'riq hamda tortishishlar, yurakning tez urishi, bo'g'im va umurtqa pog'o-nasidagi og'riqlar, xavfsirash, qo'rqlik belgilari namoyon bo'ladi. Benzin, bo'yoq, lok erituvchilar, yelimlar, kremlar ko'pincha hidlaganda nafas yo'li orgali o'tkir zaharlanishga, mastlik holatiga olib keladi. Bunda eyforiya, gallutsinatsiyalar paydo bo'ladi. Agar bemorlar bu moddalarni 2–3 kun

iste'mol qilmasa, yurak o'ynashi, qon bosimning o'zgarishi, qo'l titrashi, qovoq uchishi, tanada shishlar paydo bo'lishiga olib keladi. 5-7 kunga kelib esa depressiya, apatiya, bo'shashish, asteniya belgilari uchraydi.

**Davosi.** Kasallik 3 bosqichida davolanadi. 1. Organizmdagi zaharli toksinlarni suyuqliklar quyish natijasida chigарib yuborish, organizmni umuman mustahkamlash va tetiklashtirish, giyohvand moddalar qabul qilishni to'xtatish. 2. Giyohvand moddalarga qarshi qaratilgan usullar. 3. Xumor holatini to'xtatib turuvchi davolash usullari.

Xumor holatlarida tinchlantiruvchi dorilardan pirroksan buyuriladi, bu uyqusizlik va giyohvand moddalarga bo'lgan intilishni kamaytiradi. Dori 5-7 kun davomida beriladi. Xavotirlanish, xavfsirash, qo'rqish, uyqusizlikda hamda vegetativ o'zgarishlarda elenium, seduksen, sibazon, relanium, ruotol, qo'llaniladi. Depressiyada tazepam, nozepam, frenalon, galoperidol; giyohvand xumor holatida sulfazin 5,0-10,0 ml 2-4 kun 1 marta kuniga, 5-6 marta takrorlash kerak. Pirogenal 250-1000 mpd kun ora, tiosulfat natriy 30 % 5-10,0 ml, magneziy sulfat, unitiol, vitaminlar; astenik holatlarda kalsiy glitserofosfat 0,2 g, fitin 0,25 g 3 mahal ichish uchun beriladi. Bezovtalik, uyqusizlikda tizersin, dimedrol, pipolfen hamda 2,5 % 1,0-3,0 ml aminazin 5-7 kungacha har kuni beriladi. Bundan tashgari, elektruyqu, psixoterapiya, oyoqlami iliq suvdagi ushlab turish yaxshi natija beradi.

**Tamaki chekish** (kashandalik). Eng ko'p uchraydigan hamda butun dunyo bo'yicha keng targalgan ko'pgina xalqlarning kundalik turushiga singib ketgan zararli odatdir. Chekish erkaklar va ayollar orasida hamda hozirgi davrda ko'proq yoshlar va bolalarda ko'proq uchramoqda. Chekishning xotin-qizlar orasida odat bo'lishi bu aholi o'rtasida har xil nasl va irsiy kasalliklarning ko'payishiga olib kelmoqda. Tamaki chekkanda organizmga o'tadigan zahar bu nikotindir. Chekish vaqtida organizm nikotinga asta-sekin o'rganib boradi va kashandalarda o'tkir zaharlanish hollari yuz bermaydi. Nikotin eng avval asab tizimiga ta'sir qiladi. Chekishga birinchi marta uringan kishilarda chekkan vaqtida birdan ko'ngil aynish, qusish, bosh aylanish, bosh og'riq, qulq shang'illashi, yurakning tez urishi, badanni sovuq ter bosish, teri rangining oqarib ketishi, uxlab qolish hamda holsizlanish belgilari namoyon bo'ladi. Tamakini chekib yurgan kishilarning nafas a'zolari, yurak qontomir tizimida, oshqozon-ichak yo'llarida bir qancha kasalliklar paydo bo'ladi. Chekish kasalliklarni og'irlashtiradi va uning sog'ayishini esa kechiktiradi. Chekish ateroskleroz, yurak sanchig'i, infarkt miokardning avj olishiga olib keladi. Yurak ishemik kasalliklarining boshlanishida muhim ahamiyatga ega. Kislород kelib turiishi va uning gemoglobin bilan birikishini qiyinlashtiradi. Shuning uchun to'qimalarda kislород o'tishi kamayadi. Surunkali bronxit kasalligining ko'payishiga olib keladi. Chekadigan kishilarda oshqozon va 12 barmoq ichak yarasi kasalligi, chekmaydiganlarga nisbatan ikki baravar ko'p uchraydi. Chekish kislota-ishqor muvozanatini buzadi va natijada, oshqozoning kislotali muhiti ko'payib yara paydo bo'lishiga olib keladi. Ayollar homiladorlik davrida cheksa, nikotin homilaning rivojlanishiga

ta'sir qilib, hamilaning erta tushishi, o'lik tug'ilishi va homila rivojlanmay, mayib-majruh tug'ilishiga olib keladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, chekish odad bo'lgan manlakatlarda, saraton kasalligi ko'p uchrab, o'lim hollari tobora ko'paymoqda. Chekadigan kishilar yon atrofdagi odamlarga ham zararli ta'sir ko'rsatadi. Tamaki tutini ta'siridan yurak sanchig'i boshlanib qolishi yoki astmasi bor bemorlarning nafasi qisilib qolishi mumkin.

**Davosi** quyidaqlardan iborat: 1. Nikotin abstinentini bartaraf etish va tamaki hidiga salbiy reaksiya hosil qilish. 2. Qo'lga kiritilgan natijalarni mustahkamlash va quvvatlab boruvchi dorilarni davom ettirish. Chekish to'xtatib qo'yilganda abstineniya belgilari: odamning aqliy va jismoni ish qobiliyatining kamayishi, lanjlik, xafachilik, uyquning buzilishi, tajanglik, bosh og'riq, qulq shang'illash holatlari, chekuvchilarda bu holatlar chekkan vaqtida o'tib ketadi. Chekishni tashlayotgan kishilarga dorilar bilan psixoterapiya, refleksoterapiya, fizioterapiya usulari birgalikda q'llanildi. Dorilardan tabeks, lobesil, pilokarpin beriladi, bu dorilar nikotin xumorini kamaytiradi. Tamakiga bo'lgan maylni bosish uchun seduksen, tazepam, fenazepam, etaperazin, neuleptil, teralen buyuriladi. Bular bilan birga neyroleptiklar berish yaxshi samara beradi. Lanjlik holatlarida esa vitaminlar tavsiya etiladi.

#### **Nazorat savollari va vazifalar:**

1. Alkogolizmning asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Oddiy mastlik holatining o'zgargan mastlik holatidan farqini aytинг.
3. Ichkilik jonsarakligi qanday kelib chiqadi?
4. Giyohvandlik turlari va unga qarshi kurash choralarini tushuntiring.
5. Nikotindan bemor zaharlanganda qanday klinik belgilarni yuz beradi?
6. Abstinent alomati va bemorlarni parvarish qilish choralarini nimalardan iborat?

#### **Bosh miya qontomirlari aterosklerozi**

Bosh miya qontomirlari aterosklerozida bosh miya qontomirlari torayib, devorlari zichlashib qoladi, ya'ni sklerozlanadi. Bu narsa bosh miya to'qimasining oziqlanishi va kislород bilan ta'minlanib turishini izdan chigaradi. Bunda bosh miya faoliyati buziladi, og'ir hollarda miyaning ma'lum joylariga qon quyiladi yoki bosh miya to'qimasi yumshab qoladi. Odam organizmida ortiqcha to'planib qolgan yog'simon moddalar bosh miya qontomirlarining ichki devoriga yig'iladi. Natijada, qontomir devorida biriktinuvchi to'qimalar o'sib ketadi.

Bosh miya qontomirlari aterosklerozi 50–60 yoshdan keyin boshlanadi. Kasallik asta-sekinlik bilan emotsiyonal hayajonlar, xolesteringa boy oziq-ovqatlarni ko'p iste'mol qilish, ko'p aroq ichish va chekish, kam harakat qilib hayot kechirish natijasida kelib chiqadi.

**Klinik manzarasi.** Kasallikning boshlang'ich belgilari bosh og'rishi, bosh aylanish, qulq shang'illashi, qo'l va oyoq uvishishi, toliqish va boshda

og'irlik sezishdan boshlanadi. Bemorlar serjahl, tez charchaydigan bo'lib qoladi. Ko'ngli bo'sh bo'lib, uyqusi tez-tez buziladigan, uyquga ketishi qiyin bo'ladi. Bemorlarning xotirasi pasaygan, hayoli parishon, yaqinda bo'lib o'tgan voqealarni tezda esidan chiqarib qo'yadilar. Bu voqealar ha deganda esiga kelavermaydi. Mana shular ish qobiliyatning pasayishiga olib keladi. Avvallari qiyinchilik tug'dirmaydigan ishlar endi ancha ko'p vaqt sarflash va diqqat e'tibomi ko'proq jalb qilishga olib keladi. Fikrlash, nutq qibiliyati va harakatlar sekinlashib boradi.

Bosh miya qontomirlar aterosklerozi belgilari vaqt-i-vaqti bilan susayib yoki kuchayib turadi. Kasallikning keyingi bosqichlarida markaziy asab tizimida organik o'zgarishlar kuzatiladi. Bemorlar borgan sari ko'ngli bo'sh bo'lib boraveradi, qarindoshlar bilan uchrashganda yig'lab yuboradi. Astasekinlik bilan bemorlarda aql pastlik belgilari paydo bo'ladi va xotira pasayib, fahm-farosatning kamayishi bilan kechadi.

**Davosi.** Avvalo, asosiy kasallikni, ya'ni qontomiri kasalliklarini bartaraf etish va qon aylanishi buzilishini yaxshilash lozim. Dastlabki belgilari paydo bo'lishi bilan mehnat va dam olish rejimiga qattiq amal qilish, uyquni maromiga keltirish, yotishdan oldin toza havoda yurish, uyqidan 10–15 daqiqa oldin iliq varnalar qabul qilish tavsiya etiladi. Bemorlarning ovqatanishi asosan o'simlik va sut mahsulotlaridan iborat bo'lishi kerak. Bemorlarning chekish va ichishiga barham berish kerak. Bosh aylanish, eshitish faoliyatini yaxshilash uchun betaserk 2 tabletkadan kuniga 3 mahal ovqatdan oldin, glitsin 1 tabletkadan 3 mahal til ostiga va liprimar buyuriladi. Psixotrop dorilardan juda oz miqdorda mayin ta'sir qiluvchi turlaridan melleril 50–75 mg, aminazin; galyusinozlarda oz miqdorda galoperidol; qo'rquv to'la vasvasalarda tizersin; qo'rquv va bezovtalik, depressiyalarda antidepressantlar yoki neyroleptiklar; trankvilizatorlar oz-ozdan seduksen, tazepam; xavfli qo'zg'alishlarda seduksenni tomir ichiga yuborish lozim; ba'zi hollarda aminalon, pirasetam yoki cerebrolozin, kaliy yodid 3 % 1 osh qoshiqdan 3 mahal ichishga beriladi, askorbin kislotasi va miskleron tabletkalari buyuriladi. Agar qon bosimi ko'tarilsa, unga qarshi dordamonlar ishlataladi. Fizioterapiya muolajalaridan elektroforez kaliy yod yoki novokain bilan buyin sohasiga, ugalash qo'llaniladi. Bulardan tashqari bemorlar chekish, ichkilik ichish, toliqish, emotsiyal zo'riqishdan xoli bo'lishlari lozim. Bemorlar ishga jalb etilishi kerak, ish qobiliyati fagaqt aql pastlik yoki psixoz vaqtida yo'qoladi.

#### **Bosh miya atrofiyasi natijasida vujudga keladigan ruhiy o'zgarishlar**

Ruhiy o'zgarishlarning bu guruhi, asosan, qarilikning kech davriga to'g'ri keladi. Bunda umumiy belgilari asta-sekin boshlanib, kuchayib boradi, kasallikning qaytalamasligi og'ir oqibatlarga olib keladi. Kasallikda asab tizimida chuqur o'zgarishlar bo'lib, aql pastlik rivojlanib boradi. Bosh miya atrofiyasi qaysi yosha boshlanishiga qarab quydagi turlarga ajratiladi. Bularga: 1) qarilik oldi (presenil) aql pastlik bo'lib, Pik, Alsgeymer kasalligi,

Gentington xoreyasi, Parkinson kasalliklarini o'z ichiga oladi; 2) qarilik davri (senil) turidagi miya qurishiga esa qarilik yoki senil aql pastlik (demensiya) kiradi.

**Qarilik oldi va qarilik psixozlari.** Organizmning qarishi, so'lib borishi (inalutsion davri) jarayonida bir qancha kasalliklar yoshga qarab uchrashi mumkin. Bu holat organizmda moddalar almashinuvining o'zgarishi natijasida, ya'ni jinsiy bezlar faoliyatining susayishida katta ahamiyatga ega. Bu davrda bemonlarda vazomotor o'zgarishlar qayd qilinib, bular odamning boshi va yuziga qon quyilib kelishi, qon bosimning ko'tarilishi bilan namoyon bo'ladi. Keksalik oldi davri (presenium) 45 yosh bilan 60 yosh o'rtasida va qarilik davri (senium) 60 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan davrdan boshlanadi.

**Qarilik oldi psixozlari.** Bu kasallik funksional psixozlar bo'lib, qaytish davrida (45–60 yosh) paydo bo'ladi va chucur darajadagi aqliy zaiflikka olib keladi. Bemonlarda xavotirga tushish hissi paydo bo'ladi. Ular o'lim yaqinlashib qolishidan yoki qarindoshlarining o'lib qolishi to'g'risida gapirishadi. Kasallikning klinik manzarasi qaysi belgilar ustun turishiga qarab, quydagi shakllarga bo'linadi. 1. Presenil depressiya – bu bir necha oy davomida asta-sekin avj oladi. Ba'zan esa birdan boshlanadi. Bunga ruhiy ta'sirlanish, ko'ngilsiz hodisalar sabab bo'ladi. Kasallik depressiya, xavotirga tushish, qo'zg'alib bezotalanish, bular o'z-o'zini ayblash fikrlari bilan kechadi. Bemonlarning uyqusi buziladi, vahima bosadi, ko'pincha davolanishdan, ovqatlanishdan bosh tortadi. Ko'pchilik bemonlar esa menda oshqozon-ichaklar yo'q deb davo qiladilar. Bemonlar ozib ketadilar, sochlari to'kiladi, oqaradi, terisi ilvirlab qoladi. Ular hozir meni birov olib ketadi, otib o'ldiradi, qattiq qiyinaydi deb doim kutib yuradilar. Ba'zi bemonlar esa mening qarindoshlarim yo'q, o'lib ketgan deb o'z-o'zini o'ldirishgacha olib boradilar. Bu depressiya bir necha oy yoki yillab davom etadi. 2. Presenil paranoid – bunda vasvasaga taalluqli kechimlar bo'ladi. Ular ishda, uuda ro'y bergan ko'ngilsizliklar, boshdan o'tgan kasalliklar munosabati bilan paydo bo'ladi, bemon atrofdagilar menga g'alati munosabatda bo'layapdi deb o'ylaydilar. Bemonlar tanasidagi his-tuy'ular, vasvasa, alahsirash fikrlariga ta'sir ko'rsatadi. Rashk fikri paydo bo'ladi, tanishlarining kelib-ketishiga shubha bilan qaraydilar. Eshitish gallutsinatsiyasi paydo bo'ladi. Presenil paranoid presenil depressiyaga qaraganda uzogroq davom etadi. 3. Presenil isteriya – ko'pincha ayollarda paydo bo'ladi. Bunda bemonlar arzimagan narsalar tufayli emotsional reaksiya ko'rsatadi. Ularda isteriya tutqanog'i, qo'l-oyoglarning funksional parezlari kuzatiladi.

**Davosi.** Presenil psixozlarga uchragan bemonlar psixiatriya shifoxonalarida davolanishlari zarur. Ular hamshiralarning alohida kuzatuvi ostida bo'lishlari kerak. Dorilardan aminazin bilan birga melliipramin, tizersin, amitriptilin, galoperidol berish tavsiya etiladi. Ba'zi hollarda elektr bilan talvasaga solib davolash o'rinnlidir. Presenil isteriyada trioksazin, elenium, aminazin buyuriladi. Psixoterapiya o'tkazish yaxshi natija beradi.

**Qarilik psixozlari.** Bu kasallik benorlarning bosh miya po'tlog'idagi asab hujayralari atrofiyaga uchrashi natijasida kelib chiqadi. Bu holat aql pastlikning kuchayishiga olib keladi. Qarilik psixozlari 60–65 yoshdan boshlanadi. Bunda xotiraning pasayishi, yangi narsalarning zo'rg'a o'zlashtirilishi, bilgan narsalarni esdan chiqarib qo'yish holatlari kuzatiladi. Xotira pasayishining kuchayib ketishi natijasida benorlar o'z yaqin qarindoshlarining ismlarini ham esdan chiqarib qo'yishadi. Benorlarning harakatida maqsadsiz shoshqaloliklar kuzatiladi. Konfabulatsiya, ya'ni benorlar haqiqatda hech qachon bo'lmanan voqealar to'g'risida gapiradilar. Bunda ular tushkunlikka tushib, g'angin fikrlar bilan yurishadi, lekin ko'ngillari xotirjam, beparvo bo'lishadi. Ular begona odamlar borligidan xijolat qilmay ashula aytib, raqsga tushadilar. Ko'pincha uyqusi buzilgan, kechalari bilan uxlolmaydilar, uydan-uya kirib aylanib yuradilar. Eshik-derazalarni yopilganni yoki yo'qmi esdan chiqarib qo'yishadi, qaytadan tekshirib yurishadi. Kechasi bilan uxlolmay chiqqandan keyin kunduzlari mudroq bosib yuradi. Benorlar gaplashib o'tirganda yoki ovqat yegan vaqtida uxlab qoladilar. Bunday benorlarga o'g'ridan qo'rqish (ziyon ko'rish) vasvasasi juda xarakterlidir. Bunda o'z narsalarini bekitib qo'yishadi yoki tanishlarinikiga olib borib qo'yadilar. Xotirasi ancha pasayib qolgani uchun o'z narsalarini qayerga qo'yanligini esdan chiqarib yuborishadi. Ba'zi benorlar esa ochlikdan o'lishim mumkin, yegani hech narsam yo'q deb ishontirishadi yoki boshga ziyon ko'rghanlarini aytib yurishadi. Ular keraksiz narsalar (latta, quticha, shishalar)ni yig'ib yurishadi. Senil psixozida benorlarning ko'pchiligida istahha zo'r, yaxshi bo'ladi. Yaqin kishilaming taqdiri ulami bezovta qilmaydi. Ba'zan hid bilish, eshitish illuziyalari, so'z, eshitish gallutsinatsiyalari, vaqt-i-vaqti bilan bosiqlik, hayojon paydo bo'lishi mumkin.

**Davosi.** Ko'proq yod dorilari (kaliy yoddid 3 % 1 osh qoshiqdan 3 mahal ichish uchun) beriladi. Uyqusizlikda uxlataladigan dorilar tavsiya qilinadi. Iliq vannalar buyuriladi. Vasvasalarda aminazin, triftazin, galoperidol, seduksen tavsiya etiladi.

**Alsgeymer kasalligi.** A. Alsgeymer 1907-yilda bu kasallikni birinchi bo'lib ta'riflab bergen. Kasallik, asosan, 45–55 yoshgacha bo'lgan davrda kuzatiladi. Kasallikning yashirin davri ko'p yillar davom etib, asosan organik susayish, kam rivojlangan rashk, xonavayronlik vasvasalari paydo bo'ladi. Keyinroq aql pastlik kuchayib, miya qobig'ining ish faoliyati buziladi va natijada, asab tizimida o'choqli o'zgarishlar ko'payib boradi. Aql pastlik markazida xotiraning susayishi, ya'ni uning rivojlanuvchi amneziyasi boshlanadi. Bu holatda amnestik yo'nalihsning yo'qolishi, ya'ni uning hozirgi voqealikni o'tgan zamonga surish holatlari kuzatiladi. Har kungi o'rGANILGAN tajriba va harakatlar yo'qolib boradi (ular kir yuvish, bichish-tikish, ovqat pishirish, sogol olishlar). Kasallikning boshlanish davrida benorlarda kasallikkiga nisbatan tangid bo'lib, ular o'zlarini nogiron deb sezadilar, kechga borib ularning kayfiyati biroz ko'tariladi. Alsgeymer kasalligining asosiy belgisi aql pastlik belgilarining erta o'choqli asab tizimi belgilariga o'tishi

hisoblanadi. Masalan, oddiy har kungi xatti-harakatlarning buzilishi (apraksiya); nomlar va oy-kunlami eslashning susayishi (amnestik afaziya); ko'rishning kamayishi belgilari paydo bo'ladi. Aql pasayishining oshishi bilan miya po'stlog'i ish qobiliyatining (nutq, praksis, gnozis, sanash) buzilishi uzviy bog'langan. Amnestik afaziyadan keyin umumiy sensor afaziya (bemorlarning gaplarini umuman tushunmaslik) asta rivojlanib boradi. Masalan, ko'pgina hollarda nutqning talaffuzi (so'zning birligi harfida yoki bo'g'inda chalkashish, keyinchalik esa ba'zi tovushlami, so'z qoldiqlarini takrorlash) va ixtiyoridan tashqari, so'zlarining oxirgi bo'g'inini yoki gapning oxirgi so'zini juda ko'p marta takrorlashi mumkin. Og'zaki nutqning buzilishi yozma (agrafiya) hamda o'qish qobiliyatining buzilishi (aleksiya), hisoblashning (akalkuliya) o'zgarishlari bilan birga davom etadi. Alsgeymer kasalligida psixozlar 40 %gacha uchraydi, bularga, asosan, vasvasalar (zarar ko'rish, zaharlash, ta'qib qilish), rivojlamagan ko'rish va eshitish gallutsinatsiyalari, es-husning chalkashishi, ruhiy qo'zg'alishlar, ekzogen-organik psixozlar va epileptik tutqanoqlar ham uchraydi. Kasallikning terminal bosqichida shaxs ruhiy xususiyatlarining umumiy parchalanishi bilan bir qatorda mushaklarning taranglashuvi, juda ham ozib ketish (kaxeksiya), bulimiya (ovgatni nihoyatda ko'p iste'mol qilish), ichki bezlar faoliyatining buzilishlari, ixtiyorsiz kulgu, yig'i, bujmayish kabi harakatlar, ushlab olish va oral avtomatizm reflekslari paydo bo'ladi.

**Pik kasalligi.** A. Pik tomonidan 1892-yilda aniqlangan. Bu kasallik bosh miyani tartibli atrofiyalanishi bilan kechadi. Bu kasallik 45–55 yoshdan boshlanishi bilan Alsgeymer kasalligiga o'xshasa-da, o'tkir boshlanishi bilan undan farq qiladi. Kasallikning klinik ko'rinishi atrofiya jarayoni bosh miyaning qaysi qismida joylashishidan kelib chiqadi. Kasallikning boshlanish davrida miyaning peshona qismi zararlanganda, intilishning yo'qolishi, holsizlik, sustlik, emotsiyalarning susayishi kuzatiladi. Ayni paytda nutq va harakat faolligi buziladi, o'ziga xos gapirishni xohlamaslik paydo bo'ladi. Agar atrofiya miya osti qismida joylashgan bo'lsa, unda soxta paralitik alomatlar shaxsning dag'allashuvi, muomalalikning, oldingi ta'lim-tarbiyaning, o'ziga nisbatan tanqid fikri yo'qolishi va eyforiya, xirsiy xususiyatlarning oshib ketishi bilan kechadi. Bosh miyaning peshona, peshona-chakka qismlari atrofiyasi nutq, harakat va ish qobiliyatining buzilishlariga olib keladi. Pik kasalligidagi aql pastlikning boshlang'ich davrida xotira buzilishlari bo'lmasa-da, lekin tafakkur va aql zararlanadi, fikrlash qobiliyati susayadi, umumlashtirish, o'z-o'zini tanqid qilish kamayib ketadi. Miya po'stlog'i ishining buzilishidan kelib chiquvchi afaziya, agrafiya, aleksiya, akalkuliya, apraksiyalar Alsgeymer kasalligidan ko'ra ko'proq bo'ladi. Psixotik o'zgarishlar boshqa miya atrofiya kasalligidan ko'ra kamroq uchraydi. Kasallikning oxirgi davri, xuddi Alsgeymer kasalligidagi kabi umumiy aqlning pastligi, marazm va nogironlik hollari zo'rayishi kuzatiladi. Kasallikning boshlanishidan to oxirgi bosqichigacha 5–10 yil o'tadi.

### **Nazorat savollari**

1. Bosh miya aterosklerozining kelib chiqish sabablari qaysilar?
2. Turli xil davrlarda bo'ladigan ruhiy o'zgarishlar haqida gapirib, bering?
3. Qarilik oldi va qarilik psixozlari klinik belgilari qanday kechadi.
4. Qarilik psixozlarida bemorlarni parvarish qilish nimalardan iborat?
5. Alsgeymer kasalligi bilan Pik kasalliginig bir-biridan asosiy farqi nimada?

### **Epilepsiya, bosh miya jarohatida uchraydigan ruhiy o'zgarishlar, bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari**

Epilepsiya (epilambano-ushlab olaman) – tutqanoq yoki quyonchiq – surunkali kasallik bo'lib, mushaklar tortishi va tortishuvisz bilan qaytarilib turuvchi hamda bemorning shaxsiyati o'zgarib borishi bilan kechadigan kasallikkadir. Kasallikning kelib chiqish sabablari juda ko'p va xilma-xildir. 1. Neyroinfeksiyalar (bularga gripp, brusellyoz, revmatizm, sistoserkoz, exinokokoz, glistlar). 2. Bosh miyaning turli xil yallig'lanishlari (meningit, leptomeningit, ensefalist). 3. Bosh miyaning yopiq jarohatlari (tug'rugdag'i jarohatlari, asfiksiya). 4. Bosh miyaning qontomir kasalliklari (ateroskleroz, xafaqon kasalligi, voskulitlar). 5. Turli xil zaharlaniishlar va alkogolizm. 6. Bosh miyada qon aylanishining buzilishlari (insultlar). 7. Bolalarda surunkali tanzillit va turli xil bosh miyaning organik kasalliklari (bolalalar cerebral falajligi). 8. Irsiy – degenerativ kasalliklar va bosh miya o'smalari va h. k.

Epilepsiya bo'lishi uchun, asosan, epileptik o'choq va epileptogen manba bo'lishi kerak. Epileptik o'choq deb miya tizimidagi cheklangan o'zgarishlarga aytildi. U atrofdagi neyronlarning kasallikka qo'zg'alishiga sabab bo'ladi. Natijada, bu neyronlar o'zidan fokal epileptik kuchlanish chiqara boshlaydi. Epileptik o'choqdagi ko'plab neyronlarning qo'zg'alishi ogibatida shunday razryadlar rivojlanadi. Bu holat EEGda «tig» shakldagi to'lqinlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Epilepsiya bosh miyada glioz to'qimalar ko'payadi, bulardan chandiqlar hosil bo'ladi. Epilepsiya bilan og'rigan bemorlarda muddalar almashinuvi buziladi (ogsil-azot, suv-tuz, uglevod almashinuvi), tutqanoq oldidan asetilxolin muddasi miqdorining oshishi kuzatiladi.

**Klinik manzarasi** 4 bosqichdan iborat: 1. Aura. 2. Tonik tortishish. 3. Klonik tortishish. 4. Uyqu holati.

Aura (grekcha – «shamol» degani) tutqanoq xurujining xabarchisidir. Aura har doim hushning yo'qolishidan oldin keladi. Aura har xil ko'rinishda paydo bo'ladi. Bularga oshqozon atrofidagi yoqimsiz hislar, ko'ngil aynish, bu hislar tananing yuqori qismiga ko'tarilib, bosh miyaga ta'sir qiladi. Natijada, bemor hushdan ketadi. Ba'zi bemorlarda ko'z qorachig'inining torayib-kengayib turishi, terisida uvishish, isib ketish, qorin-ichaklarda og'riq, eshitish va ko'rishning pasayishi, gallutsinatsiyalar, bosh aylanish, muvozanat buzilishi, qattiq qichqirib yuborish holatlari kuzatiladi. Aura bir xilligi va qisqa vaqtligi bilan xarakterlanadi hamda har bir bemorda o'zining aurasi bo'ladi. Auradan so'ng xuruj tonik tortishishga o'tadi, bunda bemor boshida baqiradi, nafas olish to'xtaydi, yuzi oqparadi, keyin ko'karib

ketadi. Bosh yonga, orqaga tashlanadi, ko'zlar ham yon tarafga yoki tepaga qaratilgan bo'lib, ko'z qorachig'i kengayib, yorug'likka javob bermaydi. Bo'yin tomirlari shishgan, jag' qattiq qisilgan, lab burchagida ko'pik, ba'zida qon keladi, qo'l-oyoglar katta bo'g'imlardan yozilib, qo'l panjalari siqilgan bo'ladi. Ixtiyorsiz ravishda siyidik va najaasnchi qicqarib yuboradi. Tonik qal-tirashdan keyin klonik qal-tirashga o'tadi. Bunda bosh, qo'l va oyoqlar qal-tirab, tana zarb bilan yonga va orqaga uriladi. Kasal yana chuqur nafas ola boshlaydi, ko'karish kamayadi, terlaydi. Bu bosqich 30 soniyadan 5 daqiqa gacha davom etadi. Klonik qal-tirashdan so'ng bemor uyquga ketadi. Bemor uyqudan turgandan so'ng o'zini og'ir ish qilgandek yomon sezadi.

Ba'zan tutqanoq ketma-ket boshlanib, bir necha kungacha davom etishi mumkin. Bunday tutqanoq tutishiga *epileptik status* deyiladi. Epileptik statusda talvasa xurujlari har 10–30 daqiqa davomida takrorlanib turish bilan kechadi. Status bir necha soatgacha davom etishi mumkin. Bunda klonik va tonik tirishishlar bilan birga nafas olish a'zolari va yurak faoliyatida buzilishlar bo'lib, miya shishuviga olib keladi. Tonik tirishishda yuz, qo'l va oyoqlar, tana mushaklarida tortishish, ko'z olmasi yon tomoniga va yugoriga qaragan, qorachiqlar kengaygan bo'ladi. Mushaklarning qattiq tortishuvi natijasida bemorning qo'l-oyoglarini to'g'rakashning hech iloji bo'lmaydi. Tonik tirishish 30–60 soniya davom etadi. Keyin klonik tirishish ko'proq qo'l va yuz mushaklarida kuzatiladi. Pastki jag' mushaklarining ritmik qisqarishi natijasida bemorning og'zi ochilib-yopilib turadi. Bunda bemor tilini tishlab olishi mumkin. Bemor og'zidan so'lak bilan birga qon aralash ko'pik keladi. Qo'llar ham bukilib-yozilib turadi. Klonik tirishish asta-sekin pasayib, keyin unuman to'xtaydi. Klonik tirishishda qorin mushaklari va siyidik pufagi sfinkterining nerv bilan ta'minlanishi buzilishi natijasida, bemorda ixtiyorsiz siyib yuborish va axlat chiqarish holatlari kuzatiladi. Bemorning terisi ko'kangan, vena qontomirlari shishgan, tomir urishi sekinlashgan bo'ladi.

Kichik epileptik tutqanoqlar. Absans – birdaniga va qisqa (2–5 soniya) vaqtida hushdan ketish bilan kechadi. Hushdan ketish, ma'nosiz boqish, faoliyatning buzilishi va vegetativ alomatlar bilan o'tadi. Xuruj paytida bemor yiqlimaydi va bir joyda ko'zi qimirlamay, ko'rga o'xshab qotib qoladi. Xuruj birdan boshlanib birdan to'xtaydi. Bu xuruj *oddiy absans* deb ataladi. Ba'zi bemorlarda absans mushaklar tonusi o'zgarishi (yuz, bo'yin, qo'l mushaklari tortishuvi) va chuqur vegetativ buzilishlar bilan davom etsa, unda murakkab absans kuzatiladi.

Epilepsiyada ruhiy o'zgarishlar kuzatiladi. Bunda bemorning kayfiyatni yaxshi, shirinso'z, yurish – turishida, oilada saranjom – sarishta bo'lib yurishadi, qo'ygan narsalarini kimir buzsa, darrov janjal qiladilar. Ba'zi bemorlar esa juda ham qo'pol, o'zining gapini o'tkazadigan, boshqalar bilan kelishmaydigan bo'ladi. Tashxis qo'yishda ko'proq EEG dan foydalaniadi, bunda epilepsiyaga xos «*tig'*» to'lg'inqular paydo bo'ladi.

**Davosi.** Katta tutqanoqlarda fenobarbital 0,05–0,2 g kuniga 3 mahal 3–6 oygacha, difenin 0,2–0,3 g, benzonal 0,1–0,3 g, rivotril, finlepsin

0,2–1,0 g, depakin 1 ta tabletkadan kuniga 2 mahal, eunoktin kuniga 5–25 mg dan 2–3 marta (ko'proq qismi uyquga ketishdan oldin) ichish uchun beriladi. Kichik tutqanoqlarda suksilep, piknolipsin, 0,75–1,5, etosuksimed, konvuleks, konvulsafin, epilepsin, klonozepam dorilari tavsiya etiladi.

Epileptik statusda zdilik bilan tutqanoqqa qarshi seduksen 0,5 % 2,0–4,0 natriy xlor yoki 40 % glukoza eritmasi bilan tomir ichiga 10–15 daqiga davomida yuboriladi. Talvasa to'xtamasa, 30 mg seduksenni 150 ml 10–20 % glukoza eritmasi bilan tomir ichiga tomchilatib quyish kerak. Bu ham foyda bermasa, 70–80 ml 1 % tiopental natriy yoki geksenalni sekinlik bilan tomir ichiga yuboriladi. Bunda bemorning nafas olish maromini, tomir urishini va ko'z qorachiqlarini kuzatib turish kerak. Nafas olishi har daqiqada 16–18 martaga yetsa, qorachiqlar toraygan bo'lsa geksenal yuborish to'xtatiladi. Shu bilan birga 5 ml 10 % tiopental natriy yoki geksenal eritmasini mushak orasiga yuborish mumkin. Bosh miya gipoksiya va shishib ketishiga qarshi magneziy sulfat 25 % 10,0 kalsiy xlor 10 %-10 ml, laziks, kokarboksilaza qilish kerak. Miya faoliyatini yaxshilovchi dorilardan nootropil, simarizin yoki stugeron, 3 % kaliy yodid 1 osh qoshiqdan 3 mahal, bioxinol, pirogenal, gumizol, FiBS, lidaza, magne-B<sub>6</sub>, nikotin kislotasi buyuriladi. Aminazinni faqat boshlang'ich davrida berish kerak. 5 yil davomida tutqanoq xuruji bo'lmasa, EEG me'yorida bo'lsa, tutqanoq dorilarini berish to'xtatiladi. Bemorlarga tepalikda, olov va suv havzalar, ishlab turgan mexanizmlar oldida ishslash man etiladi. Epilepsiya tutqanoq'i tutib turgan vaqtida kordiamin, komfora dorilarini yuborish mumkin emas.

**Parvarish qilish.** Tutqanoq tutib bo'lgandan keyin bemor karaxt bo'lib, keyin uyquga ketadi. Boshi tagiga yumshoq yostiq qo'yish, ust kiyimlarning tugmalarini bo'shatish lozim. Tushqanoq tutan vaqtida bemorning qo'l-ocyqlarini lat yeyishdan asrash uchun ulami ushlab turish kerak, bo'lmasa suyaklar sinishi mumkin. Ko'yak yoqasini yechish, tilini tishlab olmaslik uchun sochiq chetini ymaloq qilib og'ziga tipib qo'yish kerak. So'lak bir tomona ogib turishi uchun bemorni yonboshlab yotqizib qo'yish tavsiya etiladi. Tutqanoq tutib bo'lgandan keyin bemorni uyg'otmaslik lozim.

### **Bosh miya jarohatida uchraydigan ruhiy o'zgarishlar**

Bosh miya jarohati deganda kalla suyagi, miya pardalari, uning qobig'i, miya moddalari va qontomirlarining tashqi kuch ta'sirida jarohatlanishiga aytildi. Asosan, yopiq va ochiq jarohatlarga bo'linadi. Yopiq bosh miya jarohatida miya bo'shlig'i butunligi buzilmaydi, miya moddasiga tashqi muhit ta'sir qilmaydi. Miyaning yumshoq qavati (teridan apanevrozgacha) butun bo'ladi. Bosh miyaning ochiq jarohatida miya bo'shlig'i tashqi muhit ta'siriga uchraydi. Bunda miya jarohati kuzatilib, miya moddasiga kirib boradi. Miyaning yumshoq qavati aponevroz, suyaklar sinishi miyaning qattiq qobig'i va miya moddasi zarar ko'radi. Tashqi kuchning miyaga ta'siri natijasida miyaning chayqalishi, lat yeyishi va ezilishiga olib keladi.

Miya jarohatining rivojlanishida, asosan, to'rtta davr bo'ladi: 1. Boshlang'ich yoki o'ta o'tkir davr. 2. O'tkir davr. 3. Tiklanish yoki tuzalish davri. 4. Kechki asoratlar yoki surunkali davr. Ruhiy o'zgarishlar shu to'rtta davrga asoslangan bo'ladi. Boshlang'ich davridagi ruhiy o'zgarishlar hushning buzilishi, karaxt, sopor, koma, somnolensiya ko'rinishida bo'ladi. Miya jarohatidagi o'tkir psixozlar tashqi ta'sirdan so'ng boshlang'ich yoki o'tkir davrda paydo bo'ladi. O'rtacha yoki cho'zilgan psixozlar jarohatdan keyin bir ikki oy o'tgach va bir yil davomida rivojlanadi. Kechki asoratlar davrida ruhiy o'zgarishlar bir necha yil o'tgandan keyin paydo bo'ladi.

O'tkir davrning ruhiy o'zgarishlari bosh miyada qon aylanishining buzilishi, kislород yetishmasligi natijasida paydo bo'ladi. Bunda qontomirlarning o'tkazuvchanligi oshadi va miya shishiga olib keladi. Ruhiy o'zgarishlar sinapslar o'tkazuvchanligi, mediatorlar almashinishi, retikular va gipotalamus ishining buzilishga bog'liq. Kechki asoratlar davridagi ruhiy o'zgarishlar bosh miya jarohatining og'irligiga, bemorning yoshi, kasallikdan oldingi hulq-atvoriga bog'liq bo'ladi. Bunda orqa miya suyuqligining o'zgarishi katta ta'sir qiladi. Boshlang'ich va o'tkir davrdagi ruhiy o'zgarishlar miya jarohatlanganda hushning yo'qolishi bo'ladi. Faqat yengil miya chaygalishida hushning bulutsimon ko'rinishi paydo bo'ladi. Qolgan turlarida es-hushning o'zgarishi koma holatigacha boradi. Bemor hushiga kelganidan so'ng o'tkir davr boshlanadi. Unda xotiraning yo'qolishi kuzatiladi, retrograd amneziyada bemor hushdan ketishdan oldingi voqe va hodisalarни eslay olmaydi. Ante grad amneziya – bunda hushdan keyin bo'lgan voqealarни eslay olmaydi. O'tkir davrida asteniya belgilari ham uchraydi. Miya chaygalishida vestibular o'zgarishlar: bosh aylanish, ko'ngil aynish, qusish, asab tizimidagi o'zgarishlarda nistagn, konvergensianing susayishi, pay reflekslarining oshishi, mushaklarning bo'shashishi, vegetativ o'zgarishlar qontomir ishining buzilishi, tomir urishning sekinlashishi, qon bosimining o'zgarishi, terlash, ko'karib ketish, haroratning oshishi, yuzning qizarib ketish belgilari kuzatiladi. Miya lat yeyishida falajlik, sezgining yo'qolishi yoki kamayishi kuzatilishi mumkin. Yuzning bir tomoniga qiyshayib qolishi, eshitish, ko'rish, ko'z harakatlarining buzilishi hamda meningial belgilar paydo bo'ladi. Miya lat yeganida miyaga va miya bo'shliqlariga qon quyiladi. Bu miyaning qisilib qolishiga olib keladi. Miya jarohatidagi o'tkir davr bir ikki oy davom etadi. O'tkir davrdagi psixozlar dastlabki kunlarda yoki bir ikki hafta ichida hushning o'ziga kelishi bilan boshlanadi. Bunda turli qo'zg'alishlar, gallutsinatsiya, vasvasalar bo'lib turadi. Deliriyda ko'rish gallutsinatsiyalari bunda bemorning ko'ziga qo'rquv, vahimalar ko'rindi. Oneyroidda bemorlar o'zini fazoda ucha-yotgandek sezadi. Karsakov alomatida xotiraning saqlanib qolishi buziladi. Amneziyalar, konfabulatsiya, affekt o'zgarishlari kuzatiladi. Affekt alomatida bemorlar ko'zlar ochiq holda qimirlamasdan yotadilar, atrofqa befarg qarab, gapirmaydilar, himoya reflekslari yo'qolgan, hech narsa bajarmaydilar. Bemorlarda siyidik va ahlat tutilmaydi, yutinish saqlangan,

uyqu kecha-kunduzga bog'liq bo'lmaydi. Bunday hollanda bemonlar tezda o'lib qolishlari mumkin. Akinetik mutizmida harakatsizlik va gapimaslik holatlari namoyon bo'ladi. Bunda ko'zlardagi harakatlar saqlangan, lekin ular berilgan savollarga javob bermaydi.

Kasallikning o'tkir yoki kechki davrida paydo bo'lgan ruhiy o'zgarishlar usoq vaqt davom etishi mumkin. Astenik holatda qo'zg'aluvchanlik, holdan toyish, tez jahli chiqish, chidamsizlik, ish qobiliyatining pasayishi, xafa bo'lish belgilari kuzatiladi. Bemonlarda bosh og'riq, bosh aylanish, uyqusizlik holatlari namoyon bo'ladi. Bemonlar ahvoli ob-havoga, issiq-sovuqning almashinuviga, charchashlikka, havo bosimining o'zgarishiga va boshqa kasalliklarning qo'shilishiga bog'liq bo'ladi. Psixopatsimon o'zgarishlar astenik handa isterik holatlar bilan birga kechadi. Bu holat 10-20 yilgacha saqlanib qoladi. Bunda kayfiyatning pasayishi, ko'z yosh qilish, tezda xafa bo'lish, o'z sog'lig'i haqida xavotirlanish belgilari namoyon bo'ladi. Asab sohasidagi o'zgarishlar kam rivojlanjan bo'ladi. Bularga pay reflekslarining oshishi, qo'llarda titrash, Romberg holatida chaygalish belgilari namoyon bo'ladi. Paraksizmal o'zgarishlar miya jarohatidan keyin bir yil yoki 20-25 yil o'tganidan keyin ham paydo bo'lishi mumkin. Bu o'zgarishlarda tutqanoq xurujlari, absanslar uchraydi. Depressiya holatlari asta-sekin rivojlanadi. Bunda yig'logilik, o'ta qimmatli fikrlar, vasvasalar, ipoxondrik holatlar bilan birga davom etadi. Moniakal holatlarda kasallikning yengil turida achchiqlanish, ko'ngil bo'shlik, jahldorlik kuzatilsa, og'ir turida aql pastlik, vasvasa, yolg'on gapirish, gallutsinatsiya va qo'zg'aluvchanlik qo'shilib keladi.

**Davosi.** Kasallikning o'ta o'tkir va o'tkir davrida davolanish jarohatning og'irligiga bog'liq. Bemor bir hafta o'midan turmasdan yotishi kerak. Ikki hafta shifixonada davolanishi lozim. Bosh miyaning yopiq jarohatlari asab kasalliklar bo'limida davolanishi, agar ruhiy o'zgarishlar paydo bo'lsa, psixiatriya shifixonasida davolanishi tavsiya etiladi. Bemonlarga degidratatsion terapiya 25 % 10,0 ml magneziy sulfat, laziks, 40 % 20,0 ml glukoza tomir ichiga, seduksen, fenazepam buyuriladi. Agar bemor ruhiy bezovta bo'lsa – aminazin; vasvasalar bo'lsa – galoperidol; paraksizmal o'zgarishlar bo'lsa – benzonal, fendarbital, depakin, finlepsin tavsiya etiladi. Kasallikning tiklanish davrida trankvilizatorlar sidnokarb, neuleptin, nootropil; uyquni yaxshilovchi dorilar – eunoptin, dimedrol; jahldorlikda elenium, aminazin neuleptin; holsizlik va tez charchash bo'lganda jenshen, eleutorokok, sidnokarb; vegetativ o'zgarishlarda seduksen; diensefal o'zgarishlarda esa bellloid, betaserk, bellospan, bellataminal dorilaridan berish tavsiya etiladi.

### ***Nazorat savollari***

1. Tutqanoq xurujining kelib chiqish sabablarini ayting?
2. Epilepsiyada aura belgilari qanday kechadi?
3. Tutqanoq xurujlarida birinchi yordam ko'rsating.
4. Bosh miya jarohatida ruhiy o'zgarishlar qanday paydo bo'ladi?
5. EEGda «tig» to'lqini bo'lsa, nima haqida o'ylaysiz?

## **Psixogeniyalar**

Psixogeniyalar ruhiy jarohatlar natijasida paydo bo'ladigan kasallikdir. Bunga psixogen kasalliklar: reaktiv psixozlar va nevrozlar kiradi. Odam ruhiy jarohatlanishga kutilmaganda to'satdan yoki asta-sekin uchrashi mumkin. Masalan, bunga yer qimirlashi, suv toshqini, fojialar, bosqinchilik, yaqin kishilarning kutilmaganda vafot etganligi to'g'risida xabar kelishi sabab bo'lishi mumkin. Nevrozlar markaziy asab tizim faoliyatining psixogen yo'l bilan kelib chiqgan funksional buzilishidir. Nevrozlarning kelib chiqishida uzoq vaqt tez-tez takrorlanib turuvchi ruhiy ezilish sabab bo'ladi. Bundan tashqari, ruhiy iztiroblar, shaxsning asosiy xususiyatlari, nasl-irsiyat ham muhim ahamiyatga ega. Nevrozlarning rivojlanishi zamirida bosh miyaning tomozlanishi va qo'zg'alish jarayonlarining zo'rayishi, susayishi, ular orasidagi muvozanatning buzilishi (nevraستeniya) yoki bosh miyada qo'zg'alish o'choqlarining paydo bo'lishi (yopishqoq fikrlar) va miya po'stlog'i, po'stlog'osti jarayonlari muvozanatining buzilishi (isteriya) yotadi.

Nevrasteniya markaziy asab tizimining holdan toyishi, o'ta chidamsizlik, serjahllik, tutaqib ketish alomatlari bo'ladi. Giperstenik turida serjahllik tutaqib ketish; oraliq turida serjahllik va holdan ketish; gepostenik turida esa lanjlik, behollik, uyqunchalik alomatlari kuzatiladi. Yopishqoq fikrlar nevrozida xayoldan ketmaydigan fikrlar, miyaga o'mashib qolgan g'oyalari, xotiralar, ikkilanishlar, qo'rquv, harakat va qiziqishning paydo bo'lishi bilan davom etadi. Bularidan tashqari, vegetativ va ipoxondrik belgilari ham kuzatiladi. Bemoring kayfiyati pasayib, umidsizlik, o'z-o'zidan qoniqmaslik belgilari kuzatiladi. Bu nevrozlar uzoq vaqt saqlanib qoladi va surunkali kechadi. Nevrozning isterik turi esa isterik alomatlar bilan harakat, sezgi, vegetativ va ruhiy buzilishlar bilan birga davom etadi. Bunda isterik giperkinezlar, tutqanoqlar, isteriyaga sabab bo'ladigan kar-sogovlik, ko'rlik, sezgi buzilishi, og'riq, quşish, havo yetishmaslik belgilari bilan kechadi.

**Davosi.** Psixoterapiya, fizioterapiya, jismoniy tarbiya usullari va gipnoz yaxshi samara beradi. Uyquni yaxshilash hordiq chiqarish, toza havoda sayr qilish lozim. Giperstenik turida brom dorilar, meprobomat 200–2000 mg dan, seduksen 2,5 mg dan, tazepam 30–40 mg dan; gipostenik turida quvvatga kirgizuvchi dorilar pantokrin, eleutorokok, jenshen, sidnokarb buyuriladi. Yopishqoq fikrlar nevrozi va isteriyada trankvilizatorlar va antidepressantlar birga qo'llaniladi: elenium 20–50 mg, seduksen 10–20 mg, eglonil 200 mg, meprobomat 400–1200 mg, fenazepam, tazepam, glitsin; uyqusizlikda ivadal 10 ml dan uyqudan oldin, radedorm 5 mg dan, propazin 25–100 mg, teralen 5–25 mg, melleril 10–75 mg dan tavsiya etiladi.

## **Reaktiv psixozlar**

Reaktiv psixozlar ruhiy jarohatga yoki ko'ngilsiz hodisalar tufayli kelib chiqadigan kasallikdir. Reaktiv psixozlar psixogeniyalarga nisbatan qisqaroq

alomatlari og'irroq, ularda psixomotor va affektiv buzilishlaming kuchliligi, vasvasa, gallutsiratsiyalar, isterik xurujlar bilan ongning buzilishlari kuzatiladi. Reaktiv psixozlarning alomatlari qaytarilib turadi. Reaktiv psixozlar bemonlar o'z ahvoliga tanqidiy ko'z bilan qaramasligi, shart-sharoitni yetarlidha to'g'ri baholay olmasligi bilan xarakterlanadi. Reaktiv psixoz asab tizimi kuchsiz bo'lган odamlarda ko'proq uchraydi. Reaktiv psixozlarni keltirib chiqaruvchi omillar yaqin kishilardan ajralib qolish, tabiiy ofatlar, qamoqqa tushish, kelishmovchiliklar va h. k. Reaktiv psixozlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Reaktiv depressiya – bu bemonlar jarchatlangandan keyin 4–5 kun o'tgach zo'rayadi. Bunda qisqa muddatli stupor yoki ixtiyorsiz harakatlar paydo bo'ladi. Shok reaksiyasi es-hushning o'zgarishi bilan kechadi. Bu holatlar yaqin kishilaming o'limi, zilzilalar, tabiiy ofatlar davrida kelib chiqadi. Bunday holatlarda bemonlar savollarga javob bermaydi, qimirlamay bir joyda turib qoladi, yuzida vahimalar paydo bo'ladi. Bemonlar atrofdagilarga reaksiya ko'rsatmaydi. Bunday holat bir necha daqiqa davom etishi mumkin, keyinchalik depressiya holati ustun bo'lib qoladi. Bemonlar uysusi buzilgan bo'lib, turli xil vahimali tushlar ko'radi va gallutsinator kechirmalar paydo bo'ladi. Reaktiv psixozda tormozlanish qisqa muddatli bo'ladi.

2. Reaktiv stupor – bunda bemonlar mutlaqo harakatsiz bo'lib, bu qo'zg'alishlar bilan almashinib turadi. Turli salbiy omillar ta'sirida miya po'stlog'ida chuqur tormozlanish kuzatiladi. Qattiq ta'sirlanish natijasida bemonlar gapira olmay qoladi (mutizm). Bundan tashgari, bemonlar karaxt, es-hushi o'zgargan, ko'zlari bir nuqtaga qarab qolgan holda o'tiradi. Bunday holat o'tib ketgandan keyin bemonlarda amneziya kuzatiladi. Bemonlar tormozlangan yoki qo'zg'algan holatda bo'lsa ham, u atrofdagi voqealarga batamom befarg bo'lib qolmaydi. Bunday holat bosh miya po'stlog'idiagi retikular farmatsiyaning tormozlanishi natijasida paydo bo'ladi.

3. Reaktiv paranoid – bu shaklida ko'pincha bemonlarda ta'qib vasvasasi paydo bo'ladi. Bemonlar meni birov kuzatib yuribdi, meni urmoqchi degan o'y-xayollar bilan yuradilar. Reaktiv paranoidning shizofreniya vasvasasidan farqi shuki, uning mazmuni ma'lum doiralardan chetga chiqmaydi va bo'lib o'tgan voqealami aks ettiradi.

**Davosi.** Reaktiv psixozni davolashda psixoterapiya, fizikaviy usullar va mehnat bilan davolash birinchi o'rinda turadi. Affektiv qo'zg'alishlarda tizersin, aminazin 100–300 mg dan mushak orasiga, fenazepam 1,5–3 mg, seduksen tomir ichiga yuboriladi. Reaktiv depressiya kam harakat (adinamiya) bilan birga kuzatilganda azafen 300 mg kuniga, pirazidol 200–300 mg, melipramin 100–300 mg (agar depressiya qo'rquv-notinchlik bilan birga kechsa), amitriptilin 150–200 mg, sonapaks 30–60 mg, tazepam yoki seduksen 20–30 mg, eglonil, ksanaks 0,25 mg buyuriladi. Reaktiv paranoidlarda triflazin, galoperidol 15 mg, majep til beriladi. Reaktiv isterik psixoz turlarini davolashda seduksen, fenazepam, melleril, neuleptil; mushak orasiga aminazin yoki tizersin, dimedrol va magniy sulfat bilan birga yuborilsa, isterik psixozlar yaxshi davolanadilar. Isterik stupor (gotib qolish) bilan kuzatiladigan holatlarda ruhiy holatni tetiklashtiruvchi

(psixostimulatorlar) kuniga 30–40 mg dan, sidnokarb trankvilizatorlar bilan birga yoki barbamil, kofein aralashmasi ishlatiladi. Bularidan tashqari notroplar va vitaminlar ham qo'llaniladi.

### **Psihopatiyalar**

Psihopatiya – emotsional iroda buzilishidan xarakterning, ya'ni fe'l-atvoming kasallik tusiga kirishidir. Boshqacha aytganda psixopatiya xarakter kasalligidir. Odamning atrofdagilarga moslashib olishi qiyinlashib qoladi. Bunday odamlar o'zlarining ishlaydigan jamoalari bilan yaxshi chiqisha olmaydilar. Ular doimo janjallahшиб turishadi. Psixopatlar tajovuzkor bo'lib, o'z xarakterining g'alatiligidan o'zları qiyalib yuradi.

Psihopatlarning quyidagi turlari bor: 1. Qo'zg'aluvchi psixopatlarda bemorlar arzimagan bahona bilan tutoqib ketadilar. Bemorlar tajovuzkor bo'lib, ko'philigidagi ruhiyatning aynib, isteriya ko'rinishida bo'lishidir. Bu turdag'i bemorlar juda janjalkash, tez haya jonlanuvchi shaxslardir. Bular osoyishtalik davrida o'zlarining yurish-turishlariga tanqidiy ko'z bilan qarab, shu yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini to'g'rilash choralarini izlashadi. 2. Psixoasterik psixopatlar (tormozlanuvchi) – bunday odamlar ko'proq shubha bilan xayol surib, xavotirga tushib yuradilar. Bular uyatchan, tez toliqadigan, boshqalar bilan mulogotga tez kirishib keta olmaydilar. Bemorlarning ko'philigi tortinchoq bo'lib, salga qizarib ketishadi. Shuning uchun bemorlar yanada battarroq xi jolat tortishadi. Bular ruhan zaif, ish qobiliyati susaygan, ko'ngliga doimo vahimalar tushib yuradi. Bemorlarning ko'proq boshi og'riyi, ular yolg'iz yurishga harakat qiladi, ko'philigi odamlar orasidan qochadi. 3. Patologik qiziqish psixopatlar-bemorlarning ba'zilari-da ruhiyati baland bo'lib yursa, boshqalarida pasaygan bo'ladi. Ba'zi psixopatlarda jinsiy buzugliq uchraydi. Masalan, gomoseksualizm – o'z jinsidagi kishiga jinsiy mayl qo'yish, sadizm – jinsiy aloqa qiladigan kishisining tanasini og'ritib, jinsiy hirsini qondirish, pedofiliya – go'daklarga jinsiy mayl qo'yish, zoofiliya – hayvonlarga nisbatan jinsiy qiziquvchanlik. Psixopatlarda ko'proq nevrotik, ba'zilarida esa isterik belgilari rivojlangan bo'ladi.

**Davosi.** Psixopatlarni davolashda trankvilizatorlarga, neyroleptiklarga katta ahamiyat berish kerak. Qo'zg'aluvchanlik bilan o'tadigan psixopatik o'zgarishlarga neyroleptiklar (neuleptil, melliipril, stelazin) yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Paranoyyal psixopatlarda stelazin, galoperidol, pimozid (orap) qo'llaniladi. Agar kasallik o'tkir affektiv qo'zg'alishlar yoki notinchlik bilan kuzatilsa, neyroleptiklar trankvilizatorlar bilan birga tomir ichiga yuboriladi. Astenik o'zgarishlarda nootropil, ensefabol, glitsin, navopassit, riboksin, vitaminlar, nikotin kislotasi yaxshi samara beradi. Bemorlarni hayotga moslashtirish maqsadida ularni o'rab turgan muhitni sog'lomlashtirish, kerak bo'lsa bemorlarni vaqtincha ichuvchi, narkoman yoki salbiy ta'sir etuvchi shaxslardan ajratish lozim. Bu borada bemor oilasi bilan psixoterapevtik ishlar olib borish, ular orasida o'zaro tinch munosabatlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

## **Nevrozlar**

Nevroz so'zini fanga birinchi bo'lib shotland shifokori Kellen 1776-yilda olib kirgan. Nevroz – bu markaziy asab tizimining funksional kasalligi hisoblanadi. Nevrozlarning kelib chiqish sabablari ko'p va turli-tuman bo'lib, markaziy asab tizimiga har xil stresslarning ta'siri natijasida paydo bo'ladi. Hozirgi paytda axborotning ko'pligi va odamlarning kam harakat qilishi natijasida, nihiy jardatlarning ko'pligi irlisi va genetik moyilliklar, tez-tez kasallikka chaliniib turish, har xil vahimali, qo'rqinchli videofilmami ko'rish nevrozlarga olib keladi. Bunda tashgari, oilada, uya va ishxonadagi stress holatlar, janjallar va surunkali oshgozon – ichak kasalliklari, yurak qontamir kasalliklari hamda alkogolizm ta'siri natijasida ham kelib chiqadi. Nevrozlarda bosh miya po'stlog'i va po'stloq osti tugunlarining faoliyati buziladi.

Nevrozlarning quyidagi alomatlari bor: 1. Astenik alomat – asab va ruhiyatning zaiflashuvi, toligishi. Juda ko'p kasalliklardan keyin va sog'lon odamlar charchaganda, toliqganda astenik alomat kuzatiladi. Bunda bosh og'riq, bosh aylanish, ko'ngil aynish, serjahillik, yurak sohasida og'riq, tez charchab qolish, xotiraning susayishi, mehnat qobiliyatining pasayishi va kayfiyatning buzilishi bo'lib turadi. Bemorlarning uyqusi buziladi, uyqusi yuzaki tezda uqlab qolmaydi. Ko'p o'ylaydilar, uyqudan turgandan keyin karaxt bo'lib turadilar. 2. Obsessiv alomat – miyadan ketmaydigan holatlar. Bunda bemorlar qilgan ishlarini qayta-qayta tekshirib yuradilar. Masalan: eshik qulflangarmi yoki yo'qmi?, gaz o'chirilgarmi yoki yo'qmi? deb bezovta bo'lib yuradilar. Bemorlarning miyasiga qo'rqinchli, vahimali narsalar o'mashib qoldi va ulardan qutulish choralarini ko'p o'ylab yuradilar. 3. Fobik alomat – bunda bemorlar biror narsalardan qo'rqib yashaydilar. Kardiofobiya – yurak kasali bo'lib qolishdan qo'rqish, lissofobiya – ruhiy kasal bo'lib qolishdan qo'rqish, gipsofobiya – balandlikdan qo'rqish, kenserofobiya – rak kasalligidan qo'rqish, klaustrofobiya – yopiq imoratlaridan qo'rqish, agorafobiya – ochiq joylardan qo'rqish. 4. Ipoxontrik alomat – bunda bemorlar o'z sog'lig'iga nisbatan ortiqcha qayg'uradilar va ko'p o'ylaydilar. Ipoxontrik alomat ruhiy kasalliklarda ko'p uchrayıdi va fobiyalardan bilan birga kechadi. Ipoxontrik alomatta bemorlar tanasida uvishish, yojimsiz his-tuyg'ular va og'riqlar bo'lib turadi. 5. Nevrotik depressiya alomati – bunda bemorlar tashqi voqealarga befarq, loqayd bo'lib qoladilar. Bemorlarning kayfiyati buzilgan, ishtahasi yo'qolgan va uyqusi buzilgan bo'ladi. Bemorlar bir o'zi yolg'iz qolishga intiladi. Nevrotik depressiyada bemorlar o'zini qo'lga oladi, isteriyadagi singari harakatlar qilmaydi.

## **Nevrasteniya**

Nevrasteniya – bu asteniya va depressiya alomatlaring birgalikda qo'shilishi natijasida yuzaga keladi. Nevrasteniya da bemorlar shikoyati bosh og'riq, bosh aylanish, uyqusizlik, yurak sohasidagi uvishish va og'riq, qo'l-oyqlarning sovuq qotishi, ko'p terlash, dispeptik buzilishlar-ko'ngil aynish,

qusish, oshpozon sohasida va ichaklarda og'riq hamda ich ketishi yoki qotishidir. Bundan tashgari, jinsiy zaiflikdan, tez jahli chiqishidan shikoyat qiladilar. Nevrasteniya qo'zg'alishning kuchayishi natijasida ish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Bunda bemonlar tez charchab qoladi, aqliy va mehnat qobiliyatining pasayishiga olib keladi hamda xotiraning susayishi boshlanadi. Bemor tekshirib ko'rilingda qo'llarida titrash, ko'p terlash, pay reflekslarining jonlanishi kuzatiladi. Nevrasteniyaning 3 ta turi bor: 1. Giperstenik turi – bunda bemonlarning asabiylashishi, arzimagan narsalardan ta'sirlanishi, salga ko'z yosh qilishi va diqqatning buzilishi kuzatiladi. 2. Gipostenik turida bemorlar jismoniy va aqliy qobiliyatining pasayishi, toliqish va uyquchanlik belgilari kuzatiladi. 3. Aralash turida bemorlar birpasda asabiylashadilar, Bu toliqish, uyquchanlik belgilari bilan almashinib turadi. Nevrasteniyada vegetativ o'zgarishlar ham kuzatiladi. Bemonlarning yurak sohasida xurujsimon og'riq, qo'l va oyoqlarida uvishish, muzlab qolish, ko'p terlash belgilari bilan o'tadi. Nevrasteniyani davolashda bemoning umumiyligi akvolini yaxshilovchi dorilar, temir dorilar, glitserofosfat, vitamin B guruhni, toza havoda sayr qilish, iliq suv muolajalari qabul qilish, fizioterapiya muolajalari hamda shifobaxsh badantarbiya bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. Uyquchanlik va tez charchash bo'lganda xitoy limoni, jenshen, pantokrin 30 tomchidan 3 mahal, ovqatdan 30 daqiqa oldin yoki 4 soatdan keyin, bir oy davomida ichiriladi. Qo'zg'aluvchanlik, tez jahli chiqish, asabiylashishda aminazin 0,025 g yoki propazin 0,025 1 tabletidan 3 mahal ichishga buyuriladi. Vegetativ buzilishlarda trioksazin 0,3 g, elenium 0,01 g dan 2–3 mahal 3–4 hafta ichishga buyuriladi. Tinchlantiruvchi dorilardan valerian 10,0: 200,0 + natriy brom 6,0 1 qoshiqdan 3 mahal ichishga beriladi. Jinsiy zaiflikda sekurinin 0,2 % 1,0 teri ostiga 1 oy davomida beriladi.

### Isteriya

Isteriyaning klinik ko'rinishi turli-turan bo'lib, uning ba'zi belgilari boshqa bir kasallikka o'xshab ketgani uchun isteriyani «buyuk taqlidchi» deb atashadi. Isteriyada bosh miya po'stlog'i tomozlanib, po'stloq osti tugunlari faoliyati oshadi. Natijada, po'stloq osti tugunlarining ixtiyorsiz qo'zg'alishlari va tutqanoq xurujlari paydo bo'ladi. Isteriyada tashqi ta'sirlar bemoning ruhiyatiga ta'sir qilishi natijasida yuzaga keladi. Isteriyada bemor harakati tartibsiz, birdan boshlanadi. Ko'procq kunduz kunlari bo'lib bunda es-hushi saqlangan bo'ladi. Bemor bo'lib o'tgan voqealarni eslaydi. Isteriya tutqanoq xurujida bemor hushdan ketishdan oldin o'ziga qulay joy tanlaydi, so'ng bioror joyi lat yemasligi uchun sekin yiqladi. Agar bemoning atrofida odamlar bo'lsa, isterik tutqanoq xuruji uzoq davom etishi mumkin. Bemonlar tutqanoq vaqtida kiyimlarini tortib yirtadi, yuzini timaydi, boshini devorga uradi, o'zining ko'ksiga uradi. Bemonlar bunday holatlarda tillarini tishlab olmaydilar. Bemonlarning ko'z gorachiqlarining yong'likka javob reaksiyasi saqlangan bo'lib, kasallik reflekslari bo'lmaydi va ixtiyorsiz o'rinaligiga siyib yubormaydilar. Isteriya tutqanoq xu-

ruji bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etishi mumkin. Isteriyada harakat va sezuvchanlikning buzilishi, shuningdek, monoplegiya, paraplegiya, gemiplegiya, giperkinezlar hamda gapiraolmaslik, eshitaolmaslik (surdomutizm) kuzatiladi. Isteriya fala jida mushaklar tonusi o'zgarmaydi, pay reflekslari buzilmagan, patologik reflekslari va atrofiya bo'lmaydi.

**Davolash usullari.** Psixoterapiya keng qo'llaniladi.

### Miyadan ketmaydigan holatlar nevrozi

Miyadan ketmaydigan holatlar nevrozi obsessiv va fobik alomatlar bilan birlgilikda kechadi. Bu nevrozlar nevrasteniya va isteriyaga nisbatan kam uchraydi. Bunda kasallik belgilari miyaga o'mashib qoldi. Bemorning ko'nglida vahimalar, xavotirlanish va qo'rquv hissiyotlari paydo bo'ladi. Bunday bemorlar tekshirib ko'rilinganda ichki a'zolar va asab tizimidan asosiy kasallik belgilari topilmaydi. Bemorlarda ko'proq pay reflekslari biroz jonlangan, qo'l panjalarining titrashi, mushaklar tonusi biroz taranglashgan, yurakning tez urishi va ko'p terlash hamda boshqa vegetativ o'zgarishlar kuzatiladi. Bemorlarda ko'proq fobik alomatlar, ya'ni kardiofobiya, insultfobiya, mizofobiya – o'ziga infeksiya yuqib qolishi dan qo'rqish, suisidofobiya – o'zini o'zi o'ldirib qo'yishdan qo'rqish va boshqa belgilari kuzatiladi. Bunday nevrozlar uzoq davom etadi va odam mehnat qobiliyatini vaqtinda yo'qtil turadi.

**Davosi.** Vahimalar iskanjasida qolsa va uyqusi buzilib tursa, dastlab anti-depresantlar va trankvilizatorlar buyuriladi. Galoperidol, aminazin bilan birga relanium, tazepam, seduksen qo'llaniladi. Bundan tashqari, bemorlami quvvatga kirgizuvchi dorilar bilan birga ulaming dam olishini yaxshilash hamda ruhiy jarohatlami keltirib chiqaruvchi sabablardan uzoroq va alohida qilib qo'yish tavsiya etiladi. Shu bilan birga ovqatlanish va uqlash rejimiga anal qilish shart.

### Nevrozlarning davosi

Trankvilizatordan diazepam, sibazon yoki relanium, elenium tazepam, nitrazepam, fenazepam; neyroleptiklar sonapaks, amitriptilin, frenalon tavsiya etiladi. Bemorning umumiy ahvolini yaxshilovchi dorilar, quvvatga kirgizuvchi dorilardan vitaminlar B<sub>1</sub>, B<sub>6</sub>, B<sub>12</sub>, fitin, magne – B<sub>6</sub>, kalsiy glukonat, AIF, kokarboksilaza, nikotin kislota va boshqalar. Tinchlantiruchi dorilar natriy brom 1–3 % bir osh qoshiqdan 3 mahal, valerian 1 ta tabletidan 3 mahal, glitsin 1 ta tabletidan til ostiga 2–3 mahal, novopassit 1 oshiqdan 3 mahal ichishga buyuriladi. Stimulatorlardan aloe, FiBS, eleutorokok, jenshen, pantokrin tavsiya etiladi.

Vegetativ o'zgarishlarda piroksan, bellloid, bellataminal, betaserk, bellaspon va boshqalar; aminokislotalardan nootropil, pirasetam, serebrolizin, aminalon, glutamin kislota va boshqalar; fizioterapiya usullari elektroforez 3 % natriy brom bilan ensa sohasiga, elektr uyqu, ignarefleksoterapiya, tinchlantiruvchi ugalash, parafin, ozokerit qo'llaniladi. Psixoterapiya, gipnoz va autogen mashqlar tavsiya etiladi.

Fobik va obsessiv alomatlarda – diazepam, seduksen 12–20 mg dan kuniga, elenium – 20–60 mg, frenalon 30–60 mg, og'ir hollarda diazepam 20–40 mg dan, amitriptilin 30–50 mg dan ikkalasi birligida qo'llaniladi. Bundan tashqari, elektroforez kalsiy, brom va dimedrol bilan ensa sohasiga qo'yiladi. Astenik alomatida natriy brom 3 % bir qoshiqdan 3 marta ichishga, valerian 1 ta tabletkadan 3 marta, elenium 1 ta tabletkadan 2 marta, iliq varnalarga tushish tavsiya etiladi, elektroforez natriy brom va magniy sulfat bilan ensa sohasiga qo'llaniladi, elektr uyqu 40 daqiqa gacha buyuriladi, bundan tashqari, ignarefleksoterapiya ham keng qo'llaniladi. Bular kasallikning giperstenik shaklida buyuriladi. Jeshen, eleuterokokk 20–30 tomchidan 3 mahal ichishga, sidnokarb 10–20 mg dan buyuriladi. Bu gipostenik shaklida ishlataladi. Bulardan tashqari, astenik alomatda kofein bilan brom dorilari birligida buyuriladi. Vitamin B guruhlar, aloe, FiBS, AIF, aminalon ishlataladi. Astenik alomatning og'ir turlarida insulin 4–20 tb. gacha teri orasiga yuboriladi, hammasi bo'lib 10 ta in'eksiya qilinadi. Insulin olgandan 2 soatdan keyin 40 % 20,0 ml glukoza eritmasidan tomir ichiga yuboriladi.

Ipoxondrik alomatida trankvilizatorlar, antidepressantlar organizmning quvlatini oshiruvchi dorilar bilan birga fizioterapiya usullari qo'llaniladi. Bunda eglonil 200 mg, sidnokarb va amitriptilin 100 mg gacha 3–4 mahal kuniga ichishga buyuriladi.

**Yatrogeniyalar.** Bu tibbiyot xodimlari bemorlarga nisbatan noto'g'ri muomala qilish hamda dori-darmonlarni bo'lar bo'lmasga (ko'proq yugori dozalarda) buyurishi natijasida kelib chiqadigan kasallikdir. Bemorlar bilan suhabat qilganda uning kasalligi to'g'risida ehtiyoj bo'lib gapirish lozim. Ba'zi bemorlarning oldida tibbiyot atamalarini so'zlash mumkin emas. Bemorlar esa shu atamalar haqida o'ylab qolishlari yoki yomon fikrlarga borishlari mumkin. Ko'pchilik bemorlar shifokor tomonidan qo'yilgan tashxisni, uning ozibatini hamshiralardan so'rab oladilar. Ayrim hamshiralarning e'tiborsizligi tufayli bemorlarga kasallik tarixini ko'rsatib yoki qo'yilgan tashxisni to'liq aytib qo'yadilar. Natijada, bemorning sog'ayib ketishiga yomon ta'sir ko'rsatib, ahvolini og'irlashtirib qo'yadilar.

**Oligofreniya** (aql pastlik, tentaklik) – bu ruhiy jihatdan rivojlanmay qolishdir. Oligofreniya tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Homilaning ona qormida turli tashqi ta'sirlar natijasida zararlanishi, 3 yoshgacha bo'lgan davrda meningit, ensefalit va bosh miya jarohatlanishi natijasida kelib chiqadi. Bundan tashqari, irlsiy va xromosom kasalliklar (Daun kasalligi), kichikboshlik (mikrosefaliya) dan keyin ham oligofreniya kelib chiqadi. Oligofreniyada bemorlar ruhiy jihatdan qandalik rivojlanmay qolishiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Debillik – oligofrenyaning yengil shakli bo'lib, bunda bemorlarning ko'pchiligi maktabga o'qishga boradi. Lekin ular qiyinchilik bilan o'qiydilar. Bunday bemorlar bitta sinifa darslami o'zlashtira olmay bir necha yil qolib ketadi. Bunday bemorlar gapiradi, lekin sanash, qo'shishni qiyinchilik bilan bajaradi. Ba'zi bemorlar esa she'r va ashulalardan parchalarni yaxshi yodlab olgan bo'ladilar. Bunday bemorlarni maxsus maktablarda o'qitish mumkin. Be-

monlarda fikrlash doirasi tor bo'lib qoladi, tangid qilinsa, juda tez xafa bo'la-di. Bunday bemorlarning ko'ngli juda bo'sh bo'lib, tez ishonuvchan bo'ladi. 2. Imbesillik – o'rtacha og'irlilikdagi darajasi bo'lib, bunda bemorlarning so'z boyligi chegaralangan bo'ladi. Bemorlar ko'p ishlataladigan so'zlamni o'zlashtirib oladi. Bunday bemorlar maxsus maktablarda o'qiy olmaydi, chunki ularning nutq va so'zlamni talaffuz qilishi hamda duduqlanib gapirishi kuzatiladi. Bu turda bemorlami sanash va o'qitishga o'rgatish qiyin bo'ladi. Masalan, bar-moqlarni o'rgatilgan bemor unga yordam berilmasa, shu vazifani o'zlarini hal qila olmaydilar. Ruhiyati ko'pincha, yaxshi, soddadil, gappa kiradigan bo'ladilar. Ba'zi bir bemorlar esa juda tajang, serjahl, ruhiy tushkunlikda bo'ladilar. 3. Idiotiya – oligofreniyaning og'ir darajasi bo'lib, bunday bemorlarda nutq bo'lmaydi. Ular ma'nosiz tovushlar, kamdan-kam hollarda ayrim so'zlamni talaffuz qiladilar. Bunday bemorlami biror ishga o'rgatib bo'lmaydi, kundalik buyumlardan foydalana olmaydilar. Ular qo'llariga tushgan narsalarni og'zlariga soladilar, birdan baqirib yuboradilar. Bunday bemorlar o'zlarini va atrofdagi odamlarni tishlab olishlari mumkin. Bemorlar yaqin qarindosh-urug'larini tanimaydilar.

**Davosi.** Bemorlarning bosh miya ish faoliyatini yaxshilovchi dorilardan serebrolizin, nootropil, aminalon, pirasetam, glutamin kislota, ensefabol buyuriladi. Tinchlantiruvchi dorilar, degidratatsiya, quvatni oshiruvchi dorilar hamda tutqanoqqa qarshi dorilar qo'llaniladi. Bundan tashqari, pedagogik va logoped maslahati tavsija etildi.

Umumiy profilaktik choralar: ona qornida homilaning to'g'ri rivojlanishini nazorat qilish, ekstrogenital kasalliklarni vaqtida davolash, tug'riq davri asoratlarining oldini olish va o'z vaqtida davo choralarini tashkil etish lozim.

**Psixoterapevtik davolash usullari.** Psixoterapiya kasal odamga davo maqsadida ta'sir ko'rsatish turlaridan biridir. Davoning bu turi kasal kishiga ma'lum maqsadni ko'zlagan holda, reja bilan ruhan ta'sir ko'rsatib, davo natijasiga erishishdir. Bemor kishiga ta'sir ko'rsatish degan narsaga ma'lum maqsadni ko'zlab, so'z bilan murojaat qilishning o'zигина emas, balki bemor bilan muonala qilganda, tilbiyot xodimlarining hamisha o'zini qanday tutishi, shuningdek, psixikaga kor qiladigan butun vaziyat hamda yordam uchun bemor qaysi tilbiyot muassasasiga kelgan bo'lsa, o'sha muassasani xarakterlab beruvchi tilbiyot etikasining usullari ham kiradi. Psixoterapiyaning asosiy usullari tilbiyot deontologiyasi qoidalari bilan bog'langan.

Tilbiyot xodimlari (shifokor, hamshiralari va boshq.) bemorga digpat-e'tiborli bo'lishlari, bemorlarga har tomonlama g'anxo'rlik qilish, ularning tezroq sog'ayib ketishiga yordam berishlari kerak.

Turli-tuman psixoterapiya usullari yordamida ruhiy jarchatlarning oldini olish, bemorlarda to'g'ri munosabatni paydo qilish kerak bo'ladi. Tilbiyot hamshirasi shifokoming buyurganlarini o'z vaqtida bajarishi kerak. Bemorlar o'zlarining ahvoli, laboratoriya tekshirishlarining natijalari, o'zlariga buyurilgan dorilarning ta'sirini bilishlarini istab, tegishli savollar bilan tilbiyot hamshirasiga murojaat qilishadi. Bemorlarning savol hamda shikoyatlariga tilbiyot

hamshiralari hamma vaqt tayyor turishlari kerak. Shuning uchun, tibbiyot hamshirasi o'z kasbini juda yaxshi bilishi va tibbiyot deontologiya qoidalari ni ham unutmasligi kerak. Ba'zan hamshiralarning ishi juda ko'p bo'ladi, shuning uchun, bemorlardan biroz sabr qilib turishni iltimos qilishlari kerak. Qari yoshdagi bemorlarning ko'philigi o'z iltimos va savollarini hadeb takrorlay-verishadi, bo'limdagi xodimlardan doim ranjib yurishadi. Hamshiralalar mana shu psixologik xususiyatlarni to'g'ri tushunishlari hamda keksalik davrida odamning ko'ngli nozik va har narsadan ranjiyveradigan bo'lib qolishini esdan chiqamasliklari kerak. Qarilikdan aqli past bo'lib qolgan, og'ir somatik kassallik bilan og'rigan bemorlar yoki katatonik stupor holatiga tushgan bemorlarning ruhiy holati unchaliq buzilmagan bo'ladi. Masalan, stupor holatidagi bemordan yotgan paytida bo'limda bo'lib o'tgan voqe va gapso'zlamni bilib olishi yoki qarilikdan aqli past bo'lib qolgan bemor kasali og'ir degan so'zlamni eshitgudek bo'lsa, ahvoli og'irlashib qolishi mumkin. Bunday bemorlar gapning ma'nosini tushummasa ham, uning changini oson payqab olishadi va ularga muloyimlik hamda mehribonlik bilan muonala qilinadigan bo'lsa, tinchlanib qolishadi. Aqli joyida bemorlarga, ayniqsa, ipoxondriya ko'rinishlari bo'lgan depressiya holatidagi bemorlar kelganida, psixoterapeutik chora-tadbirlar ulaming ahvolini anda yengillashtiradi va parvarish qilishni osonlashtiradi. Psixoterapiya o'z vaqtida bilib qo'llaniladigan bo'lsa, nevroz bilan og'rigan bemorlarning ko'philigi shuning yordamida darddan xalos bo'ladi. Psixoterapiya yakka va jamaa tarzda o'tkaziladi. Bemor yoki bemorlar guruhiga murojaat qilib aytildigan so'zlarining asosiy mazmuni tinchlanitradigan, tushuntirib beradigan, rag'bat uyg'otadigan, diqqatni chalg'itadigan, faollashtiradigan, buyurib ishontiradigan so'zlardan iborat bo'ladi. Psixoterapiya bemorga dori-darmonlar bilan davo qilinayotgan vaqtida ham yoki mustaqil o'zi ham qo'llaniladi. Bemor shaxsiyatiga ma'lum maqsadni ko'zlab, reja bilan ruhiy ta'sir ko'rsatishdan iborat maxsus psixoterapiya bemorning uyg'oqlik holatida ham, uni so'zga ishontirib, gipnoz qilib uxlatib qo'yilgan sharoitda ham olib boriladi. So'zga ishontirib va gipnotik uyqu bilan davolash ba'zi hollarda bemorda oldin giyohvand moddalar yuborish bilan birga o'tkaziladi. Hozirgi vaqtida o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish va o'z-o'zini idora etish usullarini bemorlarga o'rgatish yaxshi samara berayapti.

**Gipnoz.** Gipnoz uyqu bilan uyg'oqlik o'rtasidagi oraliq holatdir, bu - bosh miya po'stlog'idagi hujayralarning muayyan ta'sirlar (to'satdan berilgan o'ta kudhli yoki kudsiz ta'sirlar) tufayli yuzaga keladigan chala tomozanishdir. Davo maqsadida odamda yuzaga keltiriladigan gipnoz holatlari unga ta'sir ko'rsatib, chala uxlatib qo'yishdir, bunday paytda odam qisman uyg'oq bo'lib, unda saqlanib qoladigan shu chala uyg'oqlik holati snifokor bilan bemor o'rta-sida aloqa o'matishga imkon beradi. Gipnozning tibbiyotdagi ahamiyati bir tomonidan asab tizimiga himoyalaydigan tomozlovchi ta'sir ko'rsatishdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomonidan odamni ko'proq ishonuvchan qilib qo'yishdan iboratdir. Psixoterapeutik ta'sir, ya'ni snifokor tomonidan dalil isbotli so'zlar bilan ta'sir ko'rsatilishiga bemorning ko'proq beriluvchan bo'lib qolishidan

iboratdir. Davo maqsadida ta'sir ko'rsatish (suggestio) – shifokorning ma'-lum maqsadni ko'zlab, bemorga so'z bilan faol ta'sir ko'rsatib borishidir.

**Autogen mashqlar.** Autogen mashqlar keyingi yillarda nevrozlar, nevrotik holatlar, logonevroz, enurez, seksual buzilishlarda keng op'llaniladigan bo'ldi. Autogen mashqlarning mohiyati shundan iboratki, bemor shifokor rahbarligida bir necha oy davomida nafas mushaklariga, qon aylanish va boshqa a'zolarga qaratilgan mashqlarni fikran takrorlash yo'li bilan boshgaradi. Bunda maq-sad, ba'zi bir vegetativ faoliyatni, mushaklar bo'shashishini, hordiq olishni paydo qilishdir. Bemor uyqusizlik bilan uyuq o'rtasidagi holat bo'lib, u ong hajmining kanayishi bilan xarakterlanadi. Bunda biror sabab bilan o'z-o'ziga ta'sir qilish, o'z-o'zini ishortirish, o'z-o'zini tasdiglash formulasi ahaniyatga ega bo'ladi va bemorlar uni o'z-o'zini (hatto, ular uchun chidab bo'lmaydigan sharoitda ham) idora etish uchun qo'llaydilar. Bu usulning yaxshiligi shunda-ki, bemorlar o'zlarining kasallik holatlarini va ayrim kasallik belgilari (o'z-o'zini idora etish, ruhiy va his-tuyg'umoslashishi)ni yenga oladilar. Bu mashqlar uzoq vaqt 3–6 oygacha cho'zilishi mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. Nima uchun psixogeniya deb ataladi va unga qaysi kasallar kiradi?
2. Reaktiv psixozlarning qanday turlari bor?
3. Psixopatiya nima?
4. Isteriya xuruj bilan epileptik xuruj nimasi bilan farq qiladi?
5. Psixoterapiya qanday olib boriladi?

#### **Amaliy muolajalar va ko'nikmalar**

**Liyubal punksiya qilish.** Kerakli anjomlar: zararsizlantirilgan mandrenli igna, orga miya suyuqligini o'lchaydigan monometr, shpris, spirt, yod, 0,5 % novokain eritmasi, steril paxta, tompon, probirkha. Bemorni punksiya qilishdan oldin ovqatlantirish mumkin emas, siydiq pufagi va ichaklari bo'shatilgan bo'lishi kerak. Punksiyada bemor o'tirgan yoki o'ng tomon bilan yotgan holatda, uning oyoqlari qorniga yaqinlashgan, boshi oldinga egilgan bo'lishi kerak. Umurtqa pog'onasining pastki ko'krak qismi, bel va dung'aza sohalarini yod-spirt-yod bilan artiladi. Punksiya qilinadigan joy aniqlanib, 0,5 % 2 ml novokain eritmasi yuboriladi. Mandrenli igna bilan III–IV yoki IV–V bel umurtqasi oralig'iga sanchiladi. Bunda orqa miya suyuqligini o'lchaydigan monometr yordamida orqa miya suyuqlik bosimi o'lchanadi. Tashxis maqsadida 6–9 ml orqa miya suyuqligi olinadi. Muolajalardan keyin bemorni xonasiga olib borib, ikki soat turmasdan, yanbosh qilib, yostigsiz yotqiziladi. Ikki kungacha to'shakda turmasdan yotishi lozim. Ikki soatdan keyin ovqatlantirishga ruxsat etiladi. Urotropinni 0,5 g dan kuniga 3 marta ichishga ruxsat etiladi.

**Neuralgiyalarda novokainli blokada qilishga zarur ashyolarni tayyorlash va bajarish.** Novokainli blokada –bu, kidnik jarrohlik usullaridan hisoblanadi. Uni bajarishdan oldin to'liq aseptik va antisepstik opidalarga amal qilish kerak.

Novokainli blokada qiladigan xona doim dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan tozalab atilib turishi, kvars nurlari bo'lishi shart. Xonada shokka qarshi dorilar tayor turishi kerak. Zarur ashylardan zararsizlantirilgan stol, bint, qaychi, qo'l va terini artish uchun 96° spirt, 5 %li yod, shprislar (1,0–20,0), kislrorod yuborish uchun shpris Jane, har xil ignalar, kislrorod yostiqcha bilan ta'minlanishi kerak. Blokadani bajarish uchun shifokor qo'lini sovun bilan yaxshilab yuvishi, 0,5 % xlorgeksidin eritmasi va 90° spirt bilan ikki marta tozalashi shart.

**Paravertebral blokada qilish.** Umurtqa pog'onasi osteoxondrozi va bel-dung'aza radikulitlarida og'riq xurujlari kuchli bo'lganda, paravertebral blokada qilish shart. Bunda bemor sog'lom tomoni bilan yonbosh yoki chalgancha yotqiziladi. Shpris ignasini umurtqa o'simtalaridan 3 sm yon tomoniga umurtopning ko'ndalang o'simtasigacha sanchiladi. Keyin igna biroz yugoriga ko'tarilib, 30° ichkariga buriqan holda, 2 sm gacha kirkiziladi. Ignani umurtqa tanasining yon tamonigacha olib boriladi. Ignanining umumiy chuqurligi 6 sm gacha bo'lishi kerak. Blokada uchun 0,5–2 % 10–20 ml novokain, gidrokortizon 25–75 mg, vitamin B<sub>12</sub> 200–1000 mkg bo'lishi kerak. Agar blokada to'g'ri qilinsa, bemorda og'riq birdan yo'qoladi. 2–3 kundan keyin blokadani qaytarish mumkin.

**Antikoagulant davo o'tkazish tartibi.** Antikoagulant terapiya o'tkazishda geperin, fenilin, dikumarin dorilari qo'llaniladi. Agar protrombin indeks yugori bo'lsa (me'yorda 70–90 %), bu dorilar qo'llaniladi. Geperinni 5–10 000 tb. dan kuniga 4 mahal 3 kungacha beriladi. Geperinni tomir ichiga yuborganda, birdan ta'sir qiladi. Mushak orasiga yuborilganda esa 30–40 daqiqa dan keyin ta'sir qiladi. Geperin bilan davolashda qonning ivish vagtini nazorat qilish kerak. Qon ketish asoratlari kuzatilsa, siydiķda eritrotsitlar paydo bo'lsa, geperinni yuborish to'xtatiladi.

**Yotoq yaralarining oldini olish va davolash.** Yotoq yaralar, asosan, to'shakda uzoq vagt yotgan bemorlarda paydo bo'ladi, ko'proq keksa yoshdagi bemorlarda. Bemor orqa bilan yotganda, dung'aza sohasi, umurtqa pog'onasi o'simtalarini va tovonida, yonbosh bilan yotganda esa chanoq suyagi, sonning tashqi yuzasi va boldir sohasida yotoq yaralar paydo bo'ladi. Yotoq yaralarda teri oldin qizarib, keyin yuzasi qorayishi va yaralar paydo bo'lib, yiringslashi mumkin. Bulaming oldini olish uchun to'shak yumshoq bo'lishini ta'minlash, teriga komfora sperti surtish va ug'alash lozimbo'ladi. Agar terida yotoq yaralar boshlangan bo'lsa, 5 % kaliy permanganat, oblipexa moyi, sintomitsin emulsiyasi va Vishnevskiy malhamilari surtish tavsiya etiladi.

**Bemorning umurtqa pog'onasini rentgenoterapiyaga tayyorlash.** Bunda rentgenoterapiyaga yuborishdan bir kun oldin bemor kechqurun 19<sup>00</sup> gacha ovqatlangan bo'lishi kerak. Kechasi soat 22<sup>00</sup> va ertalab 6<sup>00</sup> da bemorni tozalovchi klizma qilish zarur. Keyin soat 9<sup>00</sup> da rentgenoterapiyaga olib borish kerak.

**Siydik pufagini kateterizatsiya qilish va yuvish texnikasi.** Zararsizlantirilgan yumshoq yoki qattiq katetemi iliq suv bilan yuvib olinadi va jinsiy a'zolar dezinfeksiya qilinadi. Kateterga steril vazelin surtiladi. Chap qo'l bilan jinsiy

a'zo boshi ushlanib, o'ng qo'l bilan pinset yordamida kateter siydiq chiqarish kanaliga yuboriladi. Agar kateter doimiy tursa, leykoplaster yordamida jinsiy a'zo boshiga yopishtirib qo'yiladi. Siydiq pufagini 2 % borat kislota, kaliy permanganat 0,1:200 eritmalar bilan yuviladi. Bu aseptik va antiseptik qoidalarga rioya qilgan holda bajariladi. Kateter olib tashlangandan keyin, siydiq chiqarish kanaliga antiseptik eritma surtiladi.

**Miya insultlarida ko'rsatiladigan shoshilinch yordam.** Gemorragik insult birdan kutilmaganda boshlanadi. Hushning buzilishi, bir necha marta qusish, nafas maromi o'zgarishi (shovqinli nafas eshitiladi), qon bosimi ko'tarilgan, tomir urishi kuchaygan, mushaklar tonusi pasaygan, qorachiqlar toraygan, yorug'likka reaksiyasi yo'qolgan, teri rangi ko'kargan va qizargan, gemiplegiya, og'iz yarim ochiq holatda, oyoq panjasi tashqariga qarab qolgan.

Shoshilinch yordam: qat'iy to'shak tartibi, tilning orqaga tortilib ketishiga yo'l qo'ymaslik, boshni baland qilib qo'yish, eufillin 2,4 % 5-10 ml 40 % glukoza eritmasi bilan t/i, aminakpron kislota 5 % 400 ml, vikasol, disinon, yurak faoliyatini yaxshilash uchun strofantin 0,05 % 0,25-1 ml glukoza bilan t/i. Miya shishiga qarshi laziks 1 % 2 ml, qon bosimi baland bo'lsa, aminazin 2,5 % 1 ml, dibazol 1 % 2-4 ml, gemiton 0,3-1 ml m/o. Qusishga qarshi atropin 0,1 % 1,0 m/o, bemorda bezovtalik kuzatilsa, seduksen 0,5 % 2 ml m/o qilinadi.

**Subaraxnoidal qon ketish.** Gemorragik insult belgilariga o'xshash bo'lib, bunga meningial belgilari (Kernig, Brudzinskiy) ruhiy bezovtalik bilan davom etadi. Shoshilinch yordam gemorragik insultdagidek.

**Miya infarkti yoki ishemik insult.** Umumiy va mahalliy miya belgilari asta-sekinlik bilan rivojlanib boradi. Bunda hushning chugur buzilishlari kuzatilmaydi, lekin soat sayin ko'payib boradi. Birdan bosh og'riq, nutq buzilishlari, bosh aylanish, yuzning oqarishi va gemiparez kuzatiladi.

Shoshilinch yordam: qat'iy to'shak tartibi, qusishga qarshi dorilar qon bosimi pasaygan bo'lsa kofein 10 % 1-2 ml, mezaton 1 % 1-2 ml, no-shpa 2-4 ml, kordiamin 1-2 ml, reopoliglukin 400 ml t/i, trental, kurantil buyuriladi.

**Og'ir bosh miya shikastlanishi.** Hushning buzilishi (komagacha), qorachiqlarning kengayishi, uning yorug'likka reaksiyasi sustlashgan, nistagr, atoniya, chanoq a'zolari faoliyati buzilgan. Meningial belgilari kuzatiladi. Nafas olish va yurak faoliyatida o'zgarishlar ro'y beradi.

Shoshilinch yordam: qat'iy to'shak tartibi, nafas olishni yaxshilash, tilning orqaga ketishiga yo'l qo'ymaslik, shok va kollaps holatlarda kordiamin, kofein, mezaton, lobelin. Miya va o'pka shishlariga laziks, mannitol, plazma tavsiya etiladi.

**Orqa miya shikastlanishi.** Og'ir holatlarda bemorlarda orga miyaning qaysi joylari zararlanishiga qarab, tetra yoki paraplegiya, sezgi sohasida va chanoq a'zolarining faoliyati buziladi.

Shoshilinch yordam: bemor umurtqa pog'onasini immobilizatsiya qilish, govugga kateter solish, og'riq goldinuvchi dori - baralgin 5,0 t/i qilinadi. Bemorni tashishda yotqizilgan holda, agar umurtqa pog'onasining bo'yin qismi

shikastlansa, orga bilan, ko'krak va bel sohasi shikastlansa, qorin bilan yotqiziladi. Bunda yumshoq yostiqcha ko'krak qafasiga qo'yilgan holda tashiladi.

**Serebrospinal meningit.** Kasallik birdan o'tkir bosh og'riq, qusish, harorat ko'tarilishi bilan boshlanadi. Meningial belgilar ijobiy bo'ladi. Bemor qo'l-oyoglarini bo'g'imlaridan bukkan, boshini orqaga tashlagan holda yotadi. Shovqin va yorug'likni yoqtirmaydi. Tomir urishi sustlashgan, pay reflekslari pasaygan.

Shoshilinch yordam: qat'iy to'shak tartibi. Bemorlar alchida ajratilgan xonada yotishi kerak (idish-tovoq, ko'rpa-to'shak, sochig). Penitsillin 1 mln har 4 soatda m/o, tana harorati 41°C va undan yugori bo'lsa, reopirin 5,0 m/o. Miya shishishiga laziks, marnit, bemor bezovta bo'lsa, tindhlantinuvchi dorilar qilinadi.

**Anaflaktik shok.** Bemorda so'lak ogish, aksa urish, yo'tal, qorinda og'riq paydo bo'ladi. O'pkadan quruq xirillashlar eshitiladi. Qon bosimi pasaygan, sovuq ter bosadi. Behushlik kuzatiladi.

Shoshilinch yordam: adrenalin 0,1 % 0,5–1,0 ml t/o, kerak bo'lsa, har 15–20 daqiqadan so'ng, qaytarish mumkin. Dimedrol 1 % 2 ml, tavegil, prednizolon 60 mg, kalsiy xlor 10 % 10 ml t/i sekinlik bilan yuboriladi.

**Psiyomotor qo'zgalishlar.** Katatonik qo'zgalishlar: bunda bemorlar, umuman, harakat qilmay, bir joyda qotib qoladi. Ba'zan esa mushaklar tonusi bo'shashib, pasayib qolganligi kuzatiladi, bemor gapirmaydi, ovqat yemaydi.

Shoshilinch yordam: to'shak tartibi. Aminazin 2,5 % 2 ml yoki tizersin 2,5 % 1 ml m/o, kordiamin 2 ml, leponeks 200 mg ichishga, zond bilan ovqatlantirish.

Gebefrank qo'zgalishlar: bemor o'ziga-o'zi kulaveradi, har xil qiliqlar qilib aftini burishitiradi, qaplari qurug' safsatadan iborat.

Shoshilinch yordam: aminazin, tizersin.

Moniakal qo'zgalish: bemorning kayfiyati yaxshi, ko'p gapiradi, hamma narsalarga qiziqib, aralashib ketadi, ko'ziga hamma narsalar yaxshi bo'lib ko'rinadi.

Shoshilinch yordam: aminazin, tizersin.

Gallutsinator – paranoid qo'zgalish. Qo'rqish, xavfsirash, qochish, o'ziga jarohat yetkazishi mumkin.

Shoshilinch yordam: aminazin, tizersin, galoperidol 3,0 m/o.

Ajitirlangan depressiya. Kayfiyatning yomonlashuvi, o'zini ayblash, o'zini o'ldirish.

Shoshilinch yordam: to'shak tartibi. Benomi kuzatish, tizersin 2,5 % 3 ml, amitriptillin 1 % 4–10 ml m/o, leponeks 100 mg ichishga.

Delirioz qo'zgalish: qo'rqish, ko'ruv va eshitish gallutsinatsiyalari, qochishga harakat qilish, atrofdagilardan xavfsirash.

Shoshilinch yordam: seduksen 0,5 % 2 ml m/o.

**Komatoz holatlarda shoshilinch yordam.** Koma – hushning yo'qolishi, harakat, sezgi, reflekslarning va boshqa organizm uchun kerak bo'lgan a'zolar faoliyatining buzilishi bilan o'tadigan holat. Komatoz holatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar: insultlar, bosh miya o'smalari, meningoensefalitlar,

umumi yuqumli kasalliklar, shikastlanishlar, endogen va ekzogen zaharlanishlar (diabet, uremiya, alkogolizm), endokrin kasalliklari.

Komaning asosiy belgilari: miyaning mahalliy belgilari (anizokoreya, falajlar, mushaklar tonusining pasayishi, anizorefleksiya, oyoq panjasining tashgariga qarab qolishi). Markaziy asab tizimining zaharlanishiga qarab, komanning uchta darajasi bo'ldi. 1. Yengil koma – hushning yengil buzilishi bo'lib, bemor so'zlarga e'tiborsiz, yorug'lik va shovqining qarataydi. Kuchli og'riqli ta'sirlarga harakat qilish bilan javob beradi. Reflekslar saqlangan (burun shilliq qavatlariiga ta'sir qilinganda, aksa urish, korneal reflekslar saqlangan, ko'z qoradigiqlari yorug'likka sezgir, pay reflekslari biroz oshgan, teri reflekslari pasaygan). Yutinishi saqlangan, lekin qiyinchilik bilan yutinadi. Chanoq a'zolar faoliyatini buzilgan, nafas va yurak faoliyatida unchaliq o'zgarish sezilmaydi.

2. O'rtacha og'ir darajasida bemor yorug'lik, shovqin va kuchli og'riq ta'sirlariiga javob bermaydi. Yutinish buziladi, ko'z qoradigiqlari toragan, ayrim hollarda kengaygan bo'ldi. Nafas olish a'zosi va yurak faoliyatida keskin buzilishlar bo'lib, qon bosimi pasaygan, tomir urishi kuchsiz, sianoz, chanoq a'zolar faoliyatini buzilgan.

3. Og'ir darajasi. Bemoming ahvoli o'ta og'ir bo'lib, nafas olish va yurak faoliyatida o'zgarishlar bo'ldi. Mushaklar tonusi yo'qoladi, gipotermiya, hamma reflekslar so'nadi, ko'z qoradigiqlari kengaygan bo'ldi. Chanoq a'zolar faoliyatini yo'qoladi.

Agar koma birdan boshlansa, bu, ko'pincha, bosh miya qontomirlarining o'tkir buzilishlari (ishemik insult, gemorragik insult, subaraxnoidal qon ketish). Agar asta-sekinlik bilan koma belgilari kuchaysa, bu endogen zaharlanishlar (diabet, buyrak, jigar komasi) kelib chiqadi. Yuqumli kasalliklardan keyin ham komatoz holatlar paydo bo'ldi (ensefalit, meningit, umumi yuqumli kasalliklar). Agar bemor qoni va siydigida qand miqdori ko'paysa, bu diabet komasi, bunda siydiqda aseton paydo bo'ldi. Agar qonda bilirubin va fermentlar ko'paysa – jigar komasi, qonda azot qoldig'i indikan miqdori ko'paysa, buyrak komasiga taalluqlidir. Agar bemor anamnezida is gazidan zaharlanish bo'lsa, bunda qonda karboksigemoglobin miqdori oshgan bo'ldi. Orqa miya suyuqligini tekshirganda, unda qon bo'lsa – gemorragik insult, sitoz soni ko'paygan bo'lsa – meningitlar, oqsil-hujayralar dissotsiatsiyasi kuzatilsa, bosh miya o'smalariga taalluqli bo'ldi.

Barcha komalarning kelib chiqishiga sabab, bosh miyada kislrorod yetishmasligidir. Shuning uchun komani davolashda keltirib chiqaruvchi sabablarga asoslanib, davolanadi. Barcha komalarga oksigenoterapiya o'tkaziladi, organizmdan zaharli toksinlarni chiqarish uchun gemosorbsiya qilinadi. Bundan tashgari, glukoza 5 %, natriy xlor 0,9 %, natriy bikarbonat 4 % eritmalariga kaliy xlor qo'shib, tomir ichiga yuboriladi. Bemoming og'iz-kurni so'laklardan tozalanib, nafas olishini yaxshilash, qon aylanishini yaxshilovchi, miya shishlariiga qarshi, talvasaga, infeksiyaga qarshi davo choralarini ko'rildi.

**Apoplektilik koma** – bosh miya qon aylanishining o'tkir buzilishlari – insultlar natijasida kelib chiqadi. Miyaga qon quyilishi yoki miya qontomiri tigilib qolishi (trombozi) natijasida, miyada qon aylanishining birdan izdan

chigishidan keyin yuzaga keladi. Apoplektik koma bir necha soatdan bir necha kungacha hushning yo'qolishi bilan davom etadi.

**Giperglikemik koma.** Asta-sekin boshlanadi, ishtaha yo'qolishi, ko'ngil aynishi, qusish, og'iz qurishi, charchash, tez-tez siyish, umumiyliz holsizlik, uyquchanlik, qon bosimi pasaygan, tomir urishi tezlashgan, aseton hidi seziladi. Og'ir hollarda teri quruq, qorinda og'riq, ta'sirlarga javob bermaydi. Tili quruq, nafas olishi shovqinli, 1 daqiqada 10–12 marta, qorachiqlar toraygan, yorug'likka reaksiyasi sust, reflekslar sustlashgan. Qon va siyidik tarkibida qand miqdori ko'paygan, siyidikda aseton bo'ladi.

Shoshilinch yordam: zdulik bilan oddiy insulindan 100–200 tb (shundan yarim dozasi natriy xlor bilan tomir ichiga, qolgani teri ostiga qilinadi). 0,9 % natriy xlor, Ringer eritmasi, 4 %li natriy bikarbonat, 5 %li glukoza tomir ichiga kaliy xlor qo'shib yuboriladi.

**Gipoglikemik koma.** Insulinni ko'p olgan vaqtida paydo bo'ladi. Bunda charchash, qo'rqish, titrash, ochlik sezish, terlash, yurakning tez urishi, hushi karaxt, ter ogish, qorachiqlar kengaygan, yorug'likka reaksiyasi yo'qolgan, tomir urishi tezlashgan, qon bosimi va tana harorati pasaygan. Kernig belgisi ijobiy. Siyidikda qand va aseton yo'q.

Shoshilinch yordam: shirinchoy ichirish yoki glukoza 10 % 1 qoshiqdan ichirish, 40 % 60 ml glukoza, kokarboksilaza, vitamin C, gidrokortizon, kofein qilinadi.

**Jigar komasi.** Sekinlik bilan boshlanadi, bosh og'riq, kunduzi ko'p uplash, kechasi bezovta bo'lish, charchash, og'iz ichi achchiq bo'lishi, ta'm bilmaslik, ko'ngil aynishi, qusish, psixomotor qo'zg'alishlar, talvasa, til ogargan, meteorizm, qorachiqlar kengaygan, yorug'likka reaksiyasi sustlashgan, og'izdan jigar hidi seziladi, qonda bilirubin miqdori ko'paygan.

Shoshilinch yordam: glukoza 40 %, askorbin kislota, plazma, vitamin B guruhni, vikasol, albumin, essensial, prednizolon beriladi.

**Uremik koma.** Og'izdan ammiak hidi keladi, yuzi shishgan, teri qichishi, og'iz qurish, uyquchanlik, qusish, bosh og'riq, siyidik miqdorining kamayishi, qon bosimi ko'tarilgan. Qorachiqlar toraygan, yorug'likka reaksiyasi yo'qolgan, meningial belgilar, reflekslar baland, qonda gemoglobin va eritrotsitlar kamaygan. Azot qoldig'i, mochevina, kreatinin oshgan. Siyidikda oqsil va eritrotsitlar ko'paygan.

Shoshilinch yordam: oshqozonni 3 % soda bilan yuvish. Glukoza 40 %, askorbin kislota, 4 % natriy bikarbonat, aminazin, kordiamin beriladi.

**Alkogol komasi.** Etil spirti ko'proq ichganda, paydo bo'ladi. Yuzi qizargan, sianoz, teri nam, sovuq, tana harorati va qon bosimi pasaygan, tomir urishi tezlashgan, qorachiqlar toraygan, qusish, ixtiyorlari siyib yuborish va ahlat chiqarish, og'izdan aroq hidi keladi. Ensa, chaynov va qo'l-oyoq mushaklari taranglashgan.

Shoshilinch yordam: oshqozonni zond bilan yuvish, glukoza 20 % 500 ml tomir ichiga, vitamin B<sub>1</sub>–B<sub>6</sub> 5–6 ml tomir ichiga, insulin 20 tb, 4 % natriy bikarbonat, mannit, laziks, qon bosimi pasayganda, kofein, kordiamin beriladi.

**Sulfazin bilan davolash:** sulfazinning 1 % eritmasini dumba sohasiga qilishdan oldin yaxshilab 37–38°C gacha isitiladi. Dorini 2 kunda bir marta 2 ml dan boshlab 8 ml gacha ko'tarib boriladi. Davo kursi 3–5 in'eksiya.

**Apomorfinli terapiya o'tkazish:** apomorfining 1 % eritmasini 0,1 ml dan 0,8 ml gacha oshirib boriladi. Bemorda qusish belgilari paydo bo'lguncha har kuni yoki kun ora mushak orasiga qilinadi. Keyin bemorga 50 ml spirt ichiriladi. Davo kursi 20 kun.

**Antabus-teturam provakatsiyasini o'tkazish:** bemorga har kuni antabus (teturam) berilgandan so'ng, bir haftadan keyin sinab ko'rildi. Sinov kunida bemorga ertalab 0,75–1 g antabus, 8–9 soatdan keyin esa 30–50 ml aroq ichiriladi. Bemorda 15–20 daqiqadan keyin vegetativ o'zgarishlar kuzatiladi. Bular ko'ngil aynishi, qusish, teri rangining qizarishi, ba'zan sianoz, qon bosimi pasayishi, tomir urishi tezlashishi, nafas qisishi, oyoq-qo'llaming uwhishi. Agar bu belgililar bir yarim soatgacha o'tib ketmasa, unda bemorga kislrorad berish, lobelin, kordiamin, glukoza 40 % 40 ml, qusishga qarshi atropin 0,1 % 0,5 ml qilinadi. Bemor to'rt soatgacha shifokor nazaratida turadi.

**Amital-kofeinli qo'zg'atish o'tkazish:** bu depressiv holatlarda – ovqat yemay, qimirlamay bir joyda turib qolgan bemorlarga qo'llaniladi. Bunda kofein 20 % 1 ml teri ostiga qilinadi. 5 daqiqadan so'ng, yangi tayyorlangan 5 % amital natriy eritmasidan tomir ichiga sekinlik bilan yuboriladi. Bundan keyin bemor bilan muloqotga kirishladi va ovqatlantiriladi. Davo kursi 5–10 in'eksiya bo'lib, kunaro qilinadi.

**Ovgatni rad etgan bemorlarni sun'iy ovqatlantirish.** Ruhiy kasallikkarda bemorning ovqat yemaslik sabablari turli xil bo'lishi mumkin. Bularga zaharlanish yoki ipoxondrik vasvasalar, eshitish gallutsinasiyasi, katatonik va depressiv holatlar, ya'ni o'zini o'ldirish va anoreksiyada kuzatiladi. Bunda hamshiralardan bemomi o'z vaqtida ovqatlantirish talab etiladi. Ba'zi bemorlar tibbiyot xodimlari oldida va kunduz kunlari ovqat yemasliklari mumkin. Bunday bemorlar yolg'iz o'zi qolganda yoki tunda ovqatlanadilar. Agar bemomi ovqatlantirishning iloji bo'lmasa, unda sun'iy yo'l bilan ovqatlantirish lozim. Bunda bemor chalqanda yotqizilib, qo'llarini yonga tushirib ushlab turiladi. Boshini esa bir tononga sochiq bilan ushlab turish kerak. Zondning uchiga vazelin surtib, burun orgali yuborib, oshpozonga tushiriladi. Zondning tashqi uchiga voronka kiygizib, oz miqdorda suv yuboriladi. Agar zond traxeyaga tushsa, bemorda yo'tal va ko'karish belgilari paydo bo'ladi. Bunday holatlар bo'lmasa, zond oshpozonga to'g'ri yuborilgan. Bunga ishonch hosil qilgandan keyin, zond orgali ovqatlantiriladi. Ovgat tarkibida sut, bulon, tuxum sarig'i, shakar, tuz va vitaminlar bo'lishi zarur. Bemor uchun kerakli dorilar ham zond orgali yuboriladi. Zond orgali bir martaga bir litrgacha ovqat aralashmasi yuboriladi. Zondni burundan yuborishning iloji bo'lmasa, og'iz orgali yuboriladi. Agar bemorda tish protezlari bo'lsa olib qo'yiladi.


**Isterik xuruj.** Isteriya xurujlari birdan boshlanadi, ruhiy taassurotlar natijasida kelib chiqadi. Isterik holatlarda bemor aldhida xonaga yotqizilishi,

atrofdagi odamlardan tinchlik saqlab turish talab etiladi. Bemor atrofida odamlar ko'paysa, isteriya xuruji kuchayadi va tezlashadi. Isteriya xuruji bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etadi. Kuchli tashqi taassurotlar og'riq, sovuq suv, qattiq ovoz ta'siridan isteriya xuruji bosilishi mumkin. Agar isteriya xuruji uzoq davom etsa, unda bemorni tinchlantirish uchun aminazin 2,5 % 1,0 ml m/o kordiamin 25 % 2,0 ml, dimedrol 1 % 2,0 ml, diazepam 2,0 m/o qilinadi. Bunday tashqari, bemorni alohida xonaga yotqizib, uni gipnoz va autotrening mashqlari o'tkazilishi lozim. Bunda bemor 2-3 seansdan keyin o'zi gapira boshlaydi. Autotrening kuniga 2 marta ertalab va kechqurun o'tkaziladi. Bunda bemor tinch joyga yotqizilib, butun tanadagi mushaklarini bo'shatish talab etiladi. «Men har doim tinchman, men dam olayapman, mening mushaklarim bo'shashgan qo'l-oyoqlarim iliq, men o'zimga ishonaman, men tinchlandim» deyishi va bu so'zlamni takrorlab turishi zarur. Bunday bemorlarni oldida hamshiralar ko'proc muloptda bo'lib, kuzatishlari va subbetlar qilib turishlari shart.

**Bosh va orqa miya shikastlarida transportirovka qilish.** Immobilizatsiya maqsadida (Kramer, Diteriks, pnevmatik) shinalardan foydalilaniladi. Immobilizatsiya-shikastlangan soha yoki gavdaning qaysidir bir qismini qimirlashini bartaraf qilish va tinch holat yaratishdir. Immobilizatsiya singan, chiqqan, ezilgan joyni qimirlamasligi va tinch turishi uchun qo'llaniladi. Og'riqni, karaxtlikni, infeksiya tushishni, qon ketishni oldini olish hamda bemorni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish maqsadida ham foydalilaniladi. Immobilizatsiya har doim singan sohadan ikki tarafдан 2-3 katta bo'g'im sohasini ushlashi kerak. Birinchi shina boshni tepe sohasidan umurtqa pog'onasini bel sohasigacha to'g'ri holatda qo'yiladi. Ikkinci shina boshni tepe qismidan ikkala yelka sohasigacha, uchinchisi shina ikkala qo'l sohasiga ko'ndalangiga qo'yiladi.

**Longeta tayyorlash.** Buning uchun bint yoki marli, ganch kukuni va suv kerak bo'ladi. Longeta 6-8 qavat bintdan tayyorlanib, har bir qavati orasiga ganch kukuni sepib qatlanib boriladi. Tayyor bo'lган longeta qatlamlarga qatlanib, tog'oradagi suvgaga solib qo'yiladi. Ma'lum vaqtidan keyin havo pufaklari chiqmay qolgandan so'ng, suvdan olib sidiriladi va astarlik bint ustidan qo'yib, bog'lanadi. Astarlik terining butunligini saqlash uchun qo'yiladi.

**Bel-dung'aza radukulitlarida umurtqa pog'onasini cho'zish.** Buning uchun bemorning tagiga tekis taxtali to'shak bo'lishi shart. Bemorni bosh tononi 30° burchak ostida ko'tarilgan bo'lishi, qo'lтиq ostiga paxta bintdan tayyorlangan valikni qo'ltingdan karovatga osib qo'yiladi. Bemorni oyoq tononi esa pastroqga tushirilgan bo'ladi.



**Koratoz holatlarda benorlarni tekshirish algoritmi.**

## TEST SAVOLLARI

**1. «Neyran» so'zi nimani bildiradi?**

- A. Shvann hujayralari.
- B. Asab hujayralari va uning o'simtasini.
- C. Asab hujayrasining o'simtasasi.
- D. Asab hujayrasining qaysi qismi.
- E. Akson.

**2. Bemorda pastki paraparez, gipotoniya, giporefleksiya va siyidik tutilib qolish belgilari bor. Orqa miyaning ko'ndalang kesimi zararlangan. Orqa miyaning qaysi qismi zararlangan.**

- A. Bo'yin kengligi.
- B. Ko'krak segmenti.
- C. Bel kengligi.
- D. Dung'a segmenti.
- E. Ko'krak segmentining yarimi.

**3. Orqa miya suyuqligida qon bo'lsa, u qaysi kasallikda uchraydi?**

- A. Bosh miya leptomeningiti.
- B. Ishemik insult.
- C. Bosh miya o'smasi.
- D. Gemorragik insult.
- E. Miyelit.

**4. Agar bemorda periferik asab tizimining monoparezi o'ng oyoqda bo'lsa, orqa miyaning qaysi qismi zararlangan?**

- A. Orqa miya ko'krak qismining yarimi.
- B. Orqa miya oldingi shoxining bel kengligi.
- C. Orqa miya orqa shoxining ko'krak qismi.
- D. Orqa miyaning bo'yin kengligi.
- E. Orqa miyaning ildizlari.

**5. Segment xilida sezgining buzilishi kuzatilsa, zararlangan joyni aniqlang.**

- A. Orqa miyaning orga ustuni.

- B. Ichki kapsula.

- C. Orqa miyaning orga shoxi.
- D. Periferik asab tizimi.
- E. Orga miya chigallari.

**6. Bemorning orga miya bel kengligi ko'ndalang kesimi to'liq zararlangan bo'lsa, qanday belgililar bo'ladi?**

- A. Spastik tetraparez.
- B. Pastki spastik paraparez.
- C. Oyoqlarda periferik asab tizimining zararlanishi, pay va Axill refleksi yo'qolishi, siyidik tutilib qolishi.
- D. O'ng tomonda periferik asab tizimi zararlangan.
- E. Tetraplegiya.

**7. S<sub>5</sub> o'ngda nevroma bo'lsa, qaysi belgi birinchi bo'lib paydo bo'ladi?**

- A. Tetraparez.
- B. Siyidik va ich kelishni tutilishi.
- C. Bo'yin va qo'lida og'riq.
- D. Gemiparez o'ngda.
- E. Chap qo'lida monoparez.

**8. Bemor 30 yoshda, kasallik bordan boshlangan haroratning ko'tarilishi, holsizlik. Bir kundan keyin o'ng tomonda umurtqa pog'onasi, qovurg'a sohasida qattiq og'riq bo'lib, mayda toshmalar paydo bo'lgan. Tashxisni aniqlang.**

- A. Ko'krak miyeliti.
- B. Bo'yin ko'krak radikuliti.
- C. Gangliolit.
- D. Qovurg'alararo nevralgiya.
- E. Ishioradikulit.

**9. Gemorragik insultda qaysi dorilar mumkin emas?**

- A. Penitsillin.
- B. Laziks.

- D. Geparin.  
 E. Kavinton.  
 F. Mannit.
- 10. Ishemik insultda qaysi dorilar mumkin emas?**
- A. Geparin.  
 B. Furasemid.  
 D. Vikasol.  
 E. Nikotin kislota.  
 F. Noshpa.
- 11. Penitsillini kasallik keltirib chiqaruvchi sabablarga tavsiya eting.**
- A. Bosh miyada qon quylganda.  
 B. Ishemik insultda.  
 D. Meningitda.  
 E. Radikulitda.  
 F. Migrenda.
- 12. Bosh miyaning chaygalishiga tashxis qo'ying.**
- A. Kallani sochli qismidagi ko'kargan, yorilgan joyga.  
 B. Burun bo'shlig'ining sinishiga.  
 D. Turg'un bo'limgan tarqoq asab tizimidagi belgilarga.  
 E. Kernig va Lasseg belgilari bo'lsa.  
 F. Vasserman va Neri belgilari
- 13. Bemorni chap tomonida yuz mu-shaklarini parezi bilan ko'z yosh oqishi bo'lgan. Zararlangan joyini aniqlang?**
- A. Kortika-spinal yo'l.  
 B. Qo'shimcha nerv.  
 D. Yuz nervi.  
 E. Orqa miya mushak yo'li.  
 F. Bosh miya peshona qismi.
- 14. Bemorning oyog'ida monoparez, markaziy falajlik xilida, zararlangan joyini aniqlang.**
- A. Bosh miyaning yugori tepa bo'lagi.  
 B. Bosh miyaning yugori oldingi markaziy egati.  
 D. Ichki kapsula.  
 E. Ko'ruv do'mbog'i.  
 F. Orqa miya bel qismi.
- 15. Bemor o'nagay bo'lib, unda o'ng tomonda gemiparez bilan birga motor va sensor afaziya uchraydi. Bunda bosh miyaning qaysi arteriyasida qon aylanish buzilgan?**
- A . O'ng tomondagи pastki orqa miyacha arteriyasi.
- B. Chap tomonlama o'rta miya arteriyasi.  
 D. O'ng tomondagи orqa miya arteriyasi.  
 E. Oldingi miya arteriyasi.  
 F. Miyacha arteriyasi.
- 16. Orqa miya ko'krak qismining o'ng tomoni zararlangan. Qanday belgilarni bo'ladi?**
- A. Chap oyoqning markaziy falaji, sezgining buzilishi zararlangan tomonda o'tkazuvchi xilda.  
 B. O'ng oyoqda markaziy falaj, sezgining o'ng tomonda yo'qolishi o'tkazuvchi xilda.  
 D. O'ng oyoqning periferik asab falaji bilan qorin reflekslari o'ng tomonda yo'qolgan. Mushak-bo'g'im va taktil sezgisi chap tomonda yo'qolgan.  
 E. O'ng oyoqning markaziy falaji, og'riq va harorat sezgisining chap tomonda o'tkazuvchi xilda yo'qolishi, o'ng tomonda chugur sezgining o'tkazuvchi xilda yo'qolishi.  
 F. Spastik paraparez, gipertonus, giperrefleksiya.
- 17. Bosh miya peshona qismi zararlangunda, quyidagi belgilarni aniqlang.**
- A. Sensor afaziya, sanashni bilmaslik, umumiy qaltirash xuruji.  
 B. Sensor afaziya, aleksiya, kichik tutqanoq xuruji, ataksiya.  
 D. Tutqanoq xuruji, bosh va ko'zni zararlangan tomonidan qarama-qarshi tomonga qarab yetishi, ruhiy o'zgarish.  
 E. Ko'rish gallutsinatsiyasi.  
 F. Eshitish, hid bilish, ta'm bilish gallutsinatsiyasi.
- 18. Bosh miya tepa qismida quyidagi markazlar joylashgan.**
- A. Hid bilish, gapirish, sensor afaziya markazi.  
 B. Butun sezgi markazi, praksiya, sanash, jismilarni paypaslab bilish markazi.  
 D. Yoza olmaslik, motor afaziysi, eshitish markazi.

- E. Ko'rish, eshitish, ta'm bilish markazi.
- F. Nutq, nigoh-qarash markazi.
- 19. Bemorning chap tomonida VI – VII – VIII kalla bosh miya nervlari zararlangan, nistagm mavjud. Zararlangan joyni aniqlang.**
- Vorolev ko'prigida.
  - Chap tomonda miyacha ko'priq burchagi.
  - O'ng tomonda Vorolev ko'prigining pastki qismida.
  - Ichki kapsulaning o'ng tomonida.
  - Bosh miya tepe qismida.
- 20. Bemorning chap tomonida ko'z olmasini harakatlantiruvchi nerv zararlangan, o'ng tomonda gemiparez bor. Zararlangan joyni ayting.**
- O'rta miyaning chap tomoni.
  - O'rta miya va Vorolev ko'prigining chap tomonida.
  - Ichki kapsulaning chap tomoni.
  - Ko'rav dumbog'inining chap tomoni.
  - Bosh miya chap tomon peshona qismi.
- 21. Bosh miya chakka qismida qaysi markazlar joylashgan?**
- Ko'rish, sanash, motor afaziyasi.
  - Eshitish, hid bilish va tam bilish markazi, musiqaga qobiliyat, sensor markazi.
  - Sanash, eshitish, nigoh, muvozanat markazlari.
  - Yozish, tam bilish markazi, ko'rib bilish markazi, ko'rish gallutsinat-siyesi.
  - Sezgi, taktil, ko'rib bilish markazi.
- 22. Bemor 28 yoshda. Avtomobil jarohatidan keyin og'ir ahvolda shifoxonaga keltirildi. Tekshirganda, hushi karaxt, tomir urushi 130 marta, qon bosimi 90/50 mm simob ustuniga teng, bir necha marta qusgan, o'ng tomon chakka sohasida gematoma bor. Ko'z qorachiqlarni yorug'likka javobi sustlashgan, nistagm, ruhiy qo'zg'alish, chap tomonda yuz nervining faloji, mushaklar gipotoniysi, pay reflekslari**
- jonlangan, rentgenogrammada chakka suyagini yorilish belgilari mavjud. Tashxis qo'ying.
- Bosh miya chayqalishi, chakka suyagini yorilishi.
  - Bosh miyaning og'ir lat yeyishi, subaraxnoidal qon ketish bilan chakka suyagini yopiq sinishi.
  - Jarohatdan keyingi subaraxnoidal bo'shliqqa qon ketish.
  - Epidural qon ketish.
  - Parenximatoz qon ketish.
- 23. Bemor 14 yoshida, o'nagay bo'lib, yoshligidan chap o'rta qulog'inining yiringli otiti bilan kasallangan. Shifoxonaga haroratning ko'tarilishi, bosh og'riq, qusish bilan keltirildi. Tekshirganda, hushi karaxt, badani issiq, tomir urishi 48 marta, qon bosimi 120/80 mm simob ustuni, ensa mushagini tarangligi, Kernig va Brudzinskiy belgilari bor. Tashxis qo'ying.**
- O'tkir miyelit.
  - Bosh miya qon quyilishi.
  - Chap tomonda bosh miyaning chakka bo'lagidagi absesssi.
  - O'tkir ensefalit.
  - Yiringli o'rta qulog otiti.
- 24. Lyumbal punksiya qiliш mumkin emas.**
- Ko'z tubi me'yorida.
  - Ko'rish nervining so'rg'ichi dimlangan, nistagm.
  - Pastki paraparez.
  - Chanoq a'zolarining faoliyati buzilgan.
  - Miyelit.
- 25. Meningit uchun xarakterli belgilari.**
- Orga miya suyuqligida limfasitlar soni 3–5 tagacha.
  - Ensa mushagi tarangligi, Brudzinskiy va Kernig belgilari, bosh og'riq, qusish.
  - Pastki paraparez markaziy falajlik xilida.
  - Vasserman, Lasseg, Neri belgilari.
  - Orqa miya suyuqlik bosimi 200 mm suv ustuniga teng.
- 26. Bosh miya chayqalishiga xos belgilari.**

- A. Tutqanoq xuruji.  
 B. Gemiparez o'ng tomonda.  
 D. Retrograd amneziya.  
 E. Chanoq a'zolarining faoliyati buzilgan.  
 F. Pastki paraparez.
- 27. Tutqanoq kasalligiga mumkin bo'lмаган дори.**
- A. Benzanol.  
 B. Furatsemid.  
 D. Kamfora.  
 E. Vitamin B<sub>6</sub>.  
 F. Sinarizin.
- 28. Vaksinali ensefalitda qaysi dori qilinadi?**
- A. Antibiotik.  
 B. Gormon.  
 D. Ftalazol.  
 E. Kamfora.  
 F. Strixmin.
- 29. Ko'z tubining ko'ruv nervining so'rg'ichi dimlangan bo'lsa, qaysi kasallikka xos belgi bo'ladi?**
- A. Bosh miya chaygalishi.  
 B. Miyacha o'smasi.  
 D. Shol kasalligi.  
 E. Bo'yin radikuliti.  
 F. Miyelit.
- 30. Tutqanoqqa xos bo'lмаган белгилами аytинг.**
- A. Qisqa vaqt hushdan ketish.  
 B. Og'izdan ko'pik kelish.  
 D. Ixtiyorsiz siyb yuborish, tilni tishlabolish.  
 E. Xuruj vaqtida ko'z qorachig'inинг yong'likka javobi to'liq saqlangan.  
 F. Aura.
- 31. Orqa miya suyuqligi tekshirilganda, meningitga xos belgilari.**
- A. Tiniq.  
 B. Loyqa.  
 D. Qon bo'lishi.  
 E. Qand miqdori kamayishi.  
 F. Limfatsitlar soni 3-5 tagacha.
- 32. Bemor pastga qaraganda, ko'ziga narsalaming ikkita bo'lib qolish belgilari bor. Zararlangan joyni aniqlang.**
- A. Ko'z olmasini harakatlantiruvchi nerv.
- B. G'altaksimon nerv.  
 D. Uzqolglashtiruvchi nerv.  
 E. Bosh miya peshona bo'lagi zararlanganda.  
 F. Yuz nervi.
- 33. Bemor gapga tushunadi, lekin gapira olmaydi.**
- A. Sensor afaziya.  
 B. Amnestik afaziya.  
 D. Motor afaziya.  
 E. Dizartriya.  
 F. Disfagiya.
- 34. Zo'rayib boruvchi mushaklar distrofiyasida zararlangan joyni aniqlang.**
- A. Orqa miya oldingi shoxi.  
 B. Mushaklar.  
 D. Orqa miyaning oldingi ildizlari.  
 E. Orqa miyaning yon ustunlari.  
 F. Orqa miya orqa shoxi.
- 35. Bemorning oyog'ida monoparez bo'lsa, qaysi bosh miya arteriyasida qon aylanishi buzilgan?**
- A. O'rta miya arteriyasi.  
 B. Oldingi miya arteriyasi.  
 D. Asosiy arteriya.  
 E. Orga miya arteriyasi.  
 F. Uhurtqa arteriyasi.
- 36. Orqa miya suyuqligida eritrotsitlar bo'lishi.**
- A. Ishemik insult.  
 B. Subaroxnoidal qon ketish.  
 D. Gipertonik kriz.  
 E. Orqa miya miyeliti.  
 F. Meningit.
- 37. Sezgining bemor qo'llarida qo'l-qopsimon, oyoqlarida paypoqsimon buzilishi bo'lsa, qaysi kasallik bo'ladi?**
- A. Pleksit.  
 B. Bilak nervining yallig'lanishi.  
 D. Polinevrit.  
 E. Poliomiyelit.  
 F. Radikulit.
- 38. Epileptik xurujda qaysi muolaja mumkin emas?**
- A. Siyodik haydovchi dorilar.  
 B. Vitaminlar.  
 D. Elektr davo muolajlari.  
 E. Qaltirashga qarshi dorilar.  
 F. Gormonlar.

**39. Bemorning oyoq panjasida og'riq, Axill refleksi yo'qolgan, oyoq panjasidagi arteriyada pulsatsiya pasaygan. Qaysi joy zararlangan?**

- A. Son arteriyasi.
- B. Orqa miya ko'krak segmenti.
- C. Oyoqning chugur venalari.
- D. Quymich nervining zararlanishi.
- E. Bo'yin osteoxondrozi.

**40. Bosh miya rentgen suratida qontomir izlari kengaygan, turk egari silliqlashgan.**

- A. Bo'yin radikuliti.
- B. Gipofiz o'smasi.
- C. Migren.
- D. Vegetativ qontomir distoniysi.
- E. Polinevrit.

**41. EVG da epilepsiaga xos bo'lgan to'lqinni toping.**

- A. Tetta to'lqin.
- B. Delta to'lqin.
- C. Tig' to'lqin.
- D. Betta to'lqin.
- E. Gipersinxron alfa.

**42. Bulbar falajiga xos bo'lgan belgilar qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A. Tetraparez.
- B. Dizartriya.
- C. Yutinish refleksining yo'qolishi.
- D. Tilning atrofiyasi.
- E. Barchasi to'g'ri.

**43. Parkinson alomatni qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A. Yuz mushaklarining qotib qolishi.
- B. Mayda qadamchalar bilan yurish.
- C. Mushak tonusining bukuvchi va yozuvchcha mushaklarda oshishi.
- D. Qo'llarda «tanga sanash» belgisi hamda titrash.
- E. Hamma variantlar to'g'ri.

**41. Son nervining zararlanishiga xos belgi.**

- A. Lasseg belgisi.
- B. Vasserman belgisi.
- C. Neri belgisi.
- D. Pay refleksining oshishi.
- E. Barcha javoblar to'g'ri.

**42. Meningitga xos belgilar.**

- A. Talvasa xurujlari.

B. Ensa mushagining tarangligi.  
D. Kernig va Brudzinskiy belgilari.  
E. Bosh og'riq, giperesteziya.  
F. Barcha javoblar to'g'ri.

**43. Aniq bor narsalarni noto'g'ri idrok qilish nima deyiladi?**

- A. Gallutsinatsiya.
- B. Illuziya.
- C. Depressiya.
- D. Asteniya.
- E. Ambliopiya

**44. Yo'q narsalarni bor deb idrok qilish.**

- A. Isteriya.
- B. Gallutsinatsiya.
- C. Illuziya.
- D. Depressiya.
- E. Amavroz

**45. Bemorning qulog'iga har xil tovushlar, odamlar ovozi, kimdir ismini aytilib chagiradi.**

- A. Illuziya.
- B. Gallutsinatsiya.
- C. Isteriya.
- D. Depressiya.
- E. Amneziya

**46. Bemor 26 yoshda, shikoyatlari tez charchab qolishdan, bosh og'riq, ko'p terlash, uygu buzilishi, kayfiyatning yomonlashuvidan, tez jahli chiqishidan. Tekshirganda, pay reflekslari jonlangan, giperesteziya, gipergidroz, qon bosimi o'ng qo'lida 115/70, chap qo'lida 100/60 mm simob ustuniga teng.**

- A. Ipoxonidrik alomat.
- B. Isterik alomat.
- C. Astenik alomat.
- D. Amneziya.
- E. Maniakal holat.

**47. Bemor 49 yoshda, kayfiyati pasaygan, ishtahasi yo'q, g'amgin, atrofdagilarga e'tiborsiz, ruhiy tush-kunlikka tushgan. Ko'zdan kechirganda sochi to'kilgan, ko'z qorachiqlari kattalashgan, taxikardiya va ich ketish belgilari bor.**

- A. Eyforiya.
- B. Asteniya.
- C. Ipoxonidriya.
- D. Depressiya.

- F. Maniakal holat
- 48. Retrograd amneziya.**
- Xotiradan tushib qolgan voqealarning va uydimalar.
  - Kasallik boshlangandan keyin bo'lib o'tgan voqealarni esdan chiqib qolishi.
  - Xotiraning susayib ketishi.
  - Kasallik boshlangandan oldin bo'lib o'tgan voqealarning esdan chiqib qolishi.
  - Xotiraning yo'qolishi
- 49. Kasallik boshlangandan keyin bo'lib o'tgan voqealarning esdan chiqib qolishi.**
- Retrograd amneziya.
  - Antograd amneziya.
  - Amneziya.
  - Gipomneziya.
  - Konfabulatsiya.
- 50. Bemor 35 yoshda, shikoyati nafas olishga qiynalish, havo yetishmaslik, sababsiz yig'lash, qo'l va oyoqning uvishib qolishi hamda tutqanoq xurujidan. Tekshirganda, xuruj vaqtida harakatlari tartibili, ko'z qorachiqlarining yorug'likka javobi saqlangan, mushaklar tonusi va pay reflekslari saqlangan. Patologik reflekslari yo'q.**
- Epileptik xuruj.
  - Isterik xuruj.
  - Depressiya.
  - Asteniya.
  - Paranoyyal alomat
- 51. Bemor 29 yoshda. O'zini juda yaxshi sezadi, hamma vaqt xushchaqchaq yuradi. Doimo xursand bo'lib, o'zini kuchi o'ta ko'payib ketgandek sezadi. Charchash va uyqu nimaligini bilmaydi.**
- Tekshirganda, kayfiyatning ko'tarilishi, fikrlash qobiliyatining kuchayish belgilari bor. Ishtahasi yaxshi, qon bosimi, tomir urishi va jinsiy qobiliyati oshgan.
- Depressiya alomat.
  - Osessiv alomat.
  - Paranoyyal alomat.
  - Maniakal alomat.
  - Asteniya.
- 52. Hushning buzilishi.**
- Amensiya.
  - Amneziya.
  - Demensiya.
  - Konfabulatsiya.
  - Agripniya.
- 53. Aqlning zaiflashuvi.**
- Demensiya.
  - Amensiya.
  - Gipomneziya.
  - Amneziya.
  - Akineziya
- 54. Xotiraning pasayishi.**
- Asteniya.
  - Demensiya.
  - Amensiya.
  - Gipomneziya.
  - Amneziya.
- 55. Bemorda pastki paraparez, giper-tonus, giperrefleksiya va patologik reflekslaridan Babinskaya, Gordon bor. Bunda orqa miyaning ko'ndalang kesimi zararlangan, orga miyaning qaysi qismi zararlangan?**
- Bo'yin kengligi.
  - Ko'krak segmenti.
  - Bel kengligi.
  - Dung'aza segmenti.
  - Orga miya bel kengligining yarmi.

## ASAB VA RUHIY KASALLIKLARIDA QO'LLANILADIGAN TAYANCH IBORALAR

**Absans** – yo'qlik) – es-hushning qisqa vaqt yo'qolishi.

**Abstinensiya** – xumor tutish holati.

**Aggravasiya** – bemorda bor kasallik belgilarini bo'rttiribko'rsatish.

**Agrafiya** – yozish qobiliyatining yo'qolishi.

**Agressiv** – atrofdagi kishilarga tashlanuvchi, xavf soluvchi.

**Akalkuliya** – hisoblash qobiliyatining yo'qolishi.

**Akineziya** – harakatning yo'qligi, falajlik.

**Akrogipergidroz** – qo'l-oyoq panjalarining terlashi.

**Akronegalik alomat** – tana, til, yuz, qo'l va oyoq panjalarining haddan tashqari kattalashibketishi.

**Akroparesteziya** – barmoqlar uchining uishishi.

**Akrosianoz** – qo'l-oyoq barmoqlarining ko'karishi.

**Alaliya** – nutqning yetarli darajada rivojlanmegani.

**Aleksiya** – o'qilgan narsani tushunish qobiliyatining yo'qolishi.

**Allopesiya** – sochning to'kilishi.

**Altermik alomat** – bir tomonda kalla bosh miya nervlarining, qarama-qarshi tomonda esa harakat nervlarining zararlanishi.

**Amavroz** – ko'rlik.

**Amliopiya** – ko'rish o'tkirligining pasayishi.

**Amimiya** – yuz mushaklarining kam harakatligi tufayli yuz mushaklarining gotib qolishi.

**Amneziya** – tumushdagi ayrim hodisalarining xotiradanyo'qolishi.

**Amnestik alomat** – haqiqiy voqeani eslasmasdan, uni sodir bo'lmagan voqealar bilan almashtrish.

**Amuziya** – musiqiy qobiliyatning yo'qolishi.

**Analgeziya** – og'riq sezgisining yo'qolishi.

**Anizokoriya** – ko'z qorachig'i katta-kichikligining turlichabob'lishi

**Anoreksiya** – ishtahaning yo'qolishi.

**Anosmiya** – hid bilmaslik.

**Apatiya** – hech narsaga qiziqmaslik.

**Apraksiya** – yoshlikdan o'rgatilgan turli mantiqiy harakatlar

**Arefleksiya** – refleksning yo'qolishi.

**Astaziya-abaziya** – tura olmaslik va yura olmaslik.

**Asteniya** – quvvatsizlik, charchoq, darmon qurishi,

**Ataksiya** – harakatning buzilishi.

**Atoniya** – mushak tonusining pasayishi.

**Afaziya** – gapira olmaslik, nutqning buzilishi.

**Amnestik afaziya** – bemor buyumlarni nima uchun va qanday ishlataligilarni bilgan holda ulameng nomlarini to'g'ri aytolmaydi.

**Afoniya** – ovozning yo'qolishi.

**Affekt** – his-tuyg'ular (g'azab, shodlanish) ni zo'r berib ifodalash.

**Aerobiya** – havo yetishmasligidan qo'rqish.

**Bulimiya** – ishtahaning haddan tashqari ochilib ketishi.

**Vernike-Mann holati** – harakat nerv zararlanishi natijasida qo'l bukilib, oyoqning uzayib qolishi.

**Gallutsinatsiya** – yo'q narsalami sezish.

**Genatomiyeliya** – orga miyaga qon quyilishi.

**Gemianopsiya** – ko'ruv maydoni yarmining yo'qolishi.

**Gemikraniya** – boshning yamni og'rishi.

**Gemiparez** – tananing bir tomonidagi oyoq va qo'lning falajlanishi.

**Gidrosefiliya** – bosh miyaga suv yig'ilishi.

**Giperesteziya** – sezgining kuchayishi.

**Giperrefleksiya** – reflekslarning kuchayib ketishi.

**Gipersomniya** – uyquchanlik, ko'p uplash.

**Gipertonus** – mushaklar tonusining kuchayishi.

**Gipertrofiya** – mushaklarning kattalashib ketishi.

**Gipomimiya** – yuz mushaklari harakatining pasayishi.

**Gipesteziya** – sezgining kamayib ketishi.

**Gipnoz** – psixoterapiya yordamida sun'iy uvlash.

**Gipotoniya** – mushaklar tonusining pasayib ketishi.

**Gipotrofiya** – mushaklarning ozishi.

**Gorner belgisi** – ko'z kosasining qisman ichkariga kirib ketishi.

**Debillik** – ongning yengil darajada pasayishi.

**Deliriy** – bemor uyqusimon holatda bo'lib, qo'zgi alish paytida o'zining qayerdaligini bilmaydi.

**Dizartriya** – talaffuzning buzilishi, bemor murakkabso'zlamni, tez aytishlarni qiyinlik bilan gapiradi.

**Diplopiya** – atrofdagi narsalarning ko'zga qo'shaloqbo'lib ko'rinishi.

**Disfagiya** – yutinishing buzilishi.

**Idiotiya** – ongning butunlay buzilishi.

**Illuziya** – taşqi muhitdag'i narsalami noto'g'ri qabul qilish.

**Insult** – miyaga qon quylilishi.

**Intension tremor** (titrash, qaltirash) – ko'pincha, hayojonlanganda, qo'l-oqqlarda bo'ladigan titroq.

**Ipoxondirik g'oya** – miyaga o'mashib qolgan fikrlar

**Ishias** – qymich nervining nevralgiyasi.

**Katalepsiya** – shanga o'xshab qotib qolish.

**Katamnez** – bemor shifoxonadan chiqib ketgandan keyingi ma'lumotlar.

**Kauzalgiya** – achishib og'rish, kuydiradigan og'riq.

**Klimaks** – jinsiy bezlar faoliyatining to'xtashi.

**Koma** – qattiq hushdan ketish.

**Kriz** – to'satdan paydo bo'ladigan xuruj.

**Lagoftalm** – ko'zning butunlay yunilmasligi.

**Likvor** – orqa miya suyuqligi.

**Maniakal holat** – kayfiyatning haddan tashqari chog'bo'lishi.

**Marazm** – somatik hamda ruhiy tushkunlik ogibatida, aqliy va jismoni yihatdan bo'shashibketish.

**Melankoliya** – harakatning sustligi, kayfiyatning past bo'lishi.

**Meningit** – miya pardalarining yallig'lanishi.

**Midriaz** – ko'z qorachig'inинг kengayishi.

**Mioz** – ko'z qorachig'ining torayishi.

**Miokloniya** – ayrim mushaklarning vaqtiga vaqt bilan tez-tez qisqarishi.

**Mikrosefaliya** – bosh miyaning kichik bo'lishi.

**Miopatiya** – mushaklarning zararlanishi bilan kechadigan, zo'raylib boruvchi kasallik.

**Miyelit** – orqa miyaning yallig'lanishi.

**Monoplegiya** – bir qo'l yoki bir oyoqning falajlanishi.

**Mutizm** – gapira olmaslik.

**Narkolepsiya** – birdan boshlanadigan patologik uyqu xuriji.

**Giyohvandlik** – giyohvand moddalarni sunukali iste'mol qilish.

**Nevralliya** – nerv yo'li bo'ylab, seziladigan og'riq.

**Nevriz** – alchida nervning yallig'lanishi.

**Neyron** – hujayra va undan chiqadigan o'sintalar.

**Nistagm** – ko'z kosasining qimirlab titrab turishi.

**Oligofreniya** – aql pastlik, fikrlash xusu-siyatining pastligi.

**Paraplegiya** – ikkala oyoqning falaji.

**Parez** – chala falajlik.

**Patronaj** – ruhiy kasalligi bor bemorni shifoxonadan chiqqandan so'ng, muntazan kuzatib borish.

**Perseveratsiya** – bir xil gapni takrorlaverish.

**Pleksit** – asab chigalining yallig'lanishi.

**Polidaktiliya** – bamooq oralaridagi parda.

**Polimiyyelit** – shol kasalligi.

**Presenil** – garilikdan oldindi davr.

**Ptoz** – ko'z qovog'ining pastga tushib qolishi.

**Radikulit** – orga miyadan chiqadigan o'sintalamining yallig'lanishi.

**Retrograd amneziya** – kasallikdan oldindi voqealarni eslaysi olmaslik.

**Remessiya** – bemorning vaqtincha sog'aygan davri.

**Refleksiya** – tashqi muhit ta'siriga organizming javobreaksiyasi.

**Sadizm** – biror kishiga og'riq berish, azoblashdan huzur qilish (masalan, jinsiy alopda).

**Simulatsiya** – bilib turib o'zini kasallikka olish.

**Somatik** – tana, vujud, jismga xos.

**Sinergiya** – hamkorlik.

**Skandirlangan nutq** – so'zlamni bo'lib-bo'lib aytilish ya ayrim bo'g'ln larga urg'uberib, o'ziga xos maqom bilan gapirish.

**Sommambulizm** – uyguda yurib chiqish.

**Spazmofiliya** – bolalarda kalsiy yetishmov-chiligidagi bo'ladigan tutqanoq xurujlari.

**Stereotip** – harakatning bir xil tarzda takrorlanishi.

**Stupor** – harakatning bexosdan to'xtashi.

**Suggestiya** – ishtontirish, ruhiy ta'sir qilish, so'zbilanta'sir ko'rsatish.

**Suisidal** – o'ziga o'zi suiqasd qilish.

**Surdamutizm** – kar-saqovlik.

**Tetraplegiya** – qo'l-oqqlarning falajlanishi.

**Tik** – mushaklarning beixtiyor tortishib uchishi.

**Tremor** – qaltirash, titrash, mayda titroq.

**Trizm** – chaynov mushaklarining tutqanoq tarzda qisqarishi.

**Fobiya** – vahima, ko'ngilga qo'rquv tushish, qo'rquvhollati.

**Eyforiya** – bemorning kayfi chog', shod bo'lib yuriishi, dimog'chog'lik.

**Ekzoftalm** – ko'z kosasining oldinda burtib chiqibketishi.

**Emotsiya** – his-tuyg'u.

**Enurez** – siydiq tuta olmaslik.

**Ensefalit** – bosh miyaning yallig'lanishi.

**Yivenil** – o'smirlar, yoshlarga oid; yoshlikdagi holating saglanishi.

**Yatrogeniya** – tibbiyot xodimining bemorga aytgan noto'g'ri so'zi ogibatida kelib chiqadigan kasallik.

## **ASAB VA RUHIY KASALLIKLARIDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARI**

### **Uyqu kelturuvchi dorilar:**

Rp: Ivalad 10 mg  
 D. S. Uyquga yotishdan oldin 1 ta tabletkadan ichib yotish 10 kungacha  
 Rp: Phenobarbital 0,1  
 D.t.d N. 6 in tab.  
 S. 1 ta tabletkadan uyqudan 1 soat oldin iliqchoy bilan ichilsin.  
 Rp: Nitrazepani 0,01  
 D.t.d N.30 tabl  
 S. 1-5 yoshgacha 1 ta tabletkadan bir mahal uyqudan oldin

Rp: Sol. Natriy bromidi 1 % 100,0  
 D.t.d N. 1 in flac.  
 S. 1 des. qoshiqdan 3 mahal (2 yoshli bolaga)  
 Rp: Inf. rad. Valerianae 10,0 – 200,0  
 Natriy bromidi 4,0  
 S. 1 des. qoshiqdan 3 mahal (10 yoshli bolaga)  
 Rp: Sol. Magnesi sulfurici 25 % – 10,0  
 D.t.d. 10 amp.  
 S. 5,0 ml dan mushaklar orasiga novokain qo'shib (12 yoshli bolaga tutqanoq xurujida)

### **Psixotrop dorilar. Neytroleptiklar**

Rp: Sol. Aminasini 2,5 % 1,0  
 D.t.d N.10 in amp.  
 S. 1,0 ml dan mushaklar orasiga (5 ml 0,5 % li novokain eritmaside eritilib)  
 Rp: Dragee Aminasini 0,025  
 D.t.d N 30  
 S.1 ta drajedan 2 mahal ovqatdan keyin  
 Rp: Sol. Haloperidoli 0,5 % 1,0  
 D.t.d N.5 in amp  
 S. 4 yoshli bolaga 0,2 ml dan 1 mahal, mushaklar orasiga  
 Rp: Tab. Haloperidoli 0,0015  
 D.t.d N. 50  
 S. 1 ta tabetkadan 2 mahal  
 Rp: Sol. Droperidoli 0,25 % 5,0  
 D.t.d N.10 in amp.  
 S. 0,5 ml dan mushaklar ichiga tutqanoq xurujida

### **Antidepressantlar**

Rp: Tab. Millipramini 0,025 (25 mg)  
 D.t. N. 20  
 S. 1/2 ta tabletkadan 1 mahal 10 kun, keyingi 10 kunda 2 mahaldan (5 yoshli bolaga)  
 Rp: Tab. Amitriptylini 0,025 (25 mg)  
 D.t. N. 20  
 S.1/3 tabl.dan 3 mahal.

### **Markaziy asab tizimining stimulatorlari**

Rp: Sol. Cordiamini 25 % 1,0  
 D.t.d. N. 10 amp.  
 S. 1,0 ml dan teri ostiga.  
 Rp: Sol. Comphorae oleosae 20 %- 2,0  
 D.t.d. N. 10 amp.  
 S. 2,0 ml dan teri ostiga.

### **Nootroplar**

**Trankvilizatorlar (tinchlantiruvchi dorilar**

Rp: Tab. Sibazoni obducatae 0,001  
 D.t.d N.20  
 S. 1/2 ta tabletkadan 2 mahal (5 yoshli bolaga)  
 Rp: Tab. Phenazepam 0,001  
 D.t.d N.50  
 S.1/2 tabl.uyqudan oldin (10 yoshli bolaga)  
 Rp: Tab. Nozepam, 0,01  
 D.t.d N.50  
 S.1/2 tab. uygudan odin (10 yoshli bolaga)  
 Rp: Tab Tazepam 0,01 (10mg)  
 D.t.d N.50  
 S. 1 ta tabletkadan 2 mahal ichishga.  
 Sedativ dorilari

Rp: Tab. Pyracetami 0,2  
 D.t.d. N. 30  
 S.1/4 tabl.2 mahal 20 kun (4 oylik bolaga)  
 Rp: Aminaloni obd. 0,25  
 D.t.d. N. 100  
 S. 1 ta tabletkadan 3 mahal 1-2 oy davomida (11 yoshli bolaga)  
 Rp: Tab. Phenibuti 0,25 (25 mg)  
 D.t.d. N. 50  
 S. 0,05 dan 3 mahal ovqatdan oldin (8 yoshgacha bo'lgan bolaga)  
 Rp: Tab. Pantogami 0,25.  
 D.t.d. N. 50  
 S. 1 ta tabletkadan 4 mahal (1-2 oy davomida) ovqatdan keyin.

### **Analeptiklar**

Rp: Sol. corasoli 10 % – 1,0.  
 D.t.d. N. 10.  
 S. 0,3 ml teri ostiga (2-5 yoshli bolaga).  
 Rp: Sol. lobelini 1 % – 1,0.  
 D.t.d. N. 10 in amp.  
 S. 0,1 mg. dan mushaklar orasiga (12 yoshgacha bo'lgan bolaga).

### **Tutqanoq xurujilariga qarshi dori-dammonlar**

Rp: Hexamidini 0,125 (0,25).  
 D.t.d. N. 50  
 S. 1 ta tabletkadan kuniga 2 mahal  
 Rp: Benzonali 0,25  
 D.t.d. N. 50 in tab  
 S. 0,025 – 0,05 dan 3 mahal (3-6 yoshli bolaga)  
 Rp: Diphenini 0,1  
 D.t.d. N. 20 in tab  
 S.1 ta tabletkadan 2 mahal  
 Rp: Carbamazepini 0,2 (Finlepsini)  
 D.t.d. N. 50 in tab  
 S. 0,1 – 0,4g dan sutkasiga (1 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolaga)  
 Rp: Sir. Convulexi 50 (Depakini)  
 D.t.d. N. 10 in flac  
 S. 20 – 50 mg/kg 3 mahal  
 Rp: Mydocalmi 0,05  
 D.t.d. N. 30 in dragee  
 S. 1 ta tabletkadan 2-3 mahal

### **Parkinsonizmda go'llaniladigan dorilar**

Rp: Suclodoli 0,001(0,002)  
 D.t.d. N. 50 in tab  
 S.1/2 ta tabletkadan 2 mahal (ovqatdan keyin 6 yoshli bolaga)  
 Rp: L – Dophia 0,25  
 D.t.d. N. 100 in tab  
 S. 1/2 ta tabletkadan 2 mahal.

### **Miyaning dofaminergik tizimiga ta'sir etuvchi dorilar**

Rp: Nacomi  
 D.t.d. N. 50 in tab  
 S. Yosh bolaga 1/4 dan 1/2 tabl. cha 2-3 mahal.  
 Rp: Pentalgini  
 D.t.d. N. 10 in tab  
 S.1/2 ta tabletkadan 3 mahal.

Rp: Tab Analgini 0,25

D.t.d. N. 10  
 S:1 ta tabletkadan 2-3 mahal  
 Rp: Tab Paracetamoli 0,2  
 D.t.d. N. 10  
 S.1/4 ta tabletkadan 2 – 3 mahal (6-12 oylikkacha bo'lgan bolaga), 1/2 ta tabletkadan 2-3 mahal (2-5 yoshli bolaga).  
 Rp: Sol. Analgini 50 % 1,0  
 D.t.d. N. 10 amp  
 S. 1,0 ml dan mushak orasiga.  
 Rp: Ac. acetylsalicylici 0,25 (0,5)  
 D.t.d. N. 10 in tab  
 S.1 ta tabletkadan 3 mahal (2 yoshli bolaga).

### **Xolinesteraza ingibitorlari**

Rp: Sol Galanthamini 0,25 % – 1,0  
 D.t.d. N. 10 in amp  
 S. 1 ml dan kuniga 1-2 mahal  
 Rp: Sol Protserini 0,05 % – 1,0  
 D.t.d. N. 10 in amp  
 S. 0,3 ml teri ostiga (3 yoshli bolaga 10 kun davomida)  
 Rp: Tab. Oxazyli 0,005  
 D.t.d. N. 50 in tab  
 S.1/2 ta tabletkadan ovqatdan keyin 1-2 mahal (2-3 yoshli bolaga)  
 Rp: Sol Desoxypeganini hydrochloridi 1 % – 1,0  
 D.t.d. N. 10  
 S. 0,7 ml dan teri ostiga 10 kun (7 yoshli bolaga)

### **Xolinolitik moddalar**

Rp: Sol Atropini sulfatis 0,1 % – 1,0  
 D.t.d. N. 10 in amp  
 S. 1,0 ml dan teri ostiga.  
 Rp: Sol Platyphylini hydrotartratis 0,2 % 1,0  
 D.t.d. N. 10 in amp  
 S. 1,0 ml dan teri ostiga.  
 Rp: Sol Pentamini 5 % – 1,0  
 D.t.N 6 in amp  
 0,2-0,4 ml mushaklar orasiga.

### **Adrenalin va adrenomimetik moddalar**

Rp: Sol Adrenalini hydrochloridi 0,1 % – 1,0  
 D.t.N 6 in amp  
 S. 0,3 ml dan mushaklar orasiga (5 yosh bo'lgan bolaga).

### **Antigistamin dorilar**

Rp: Tab Dimedroli 0,05  
 S. 1/4 ta tabletkadan kechasiqa (1 yoshgacha bo'lgan bolaga).  
 Rp: Tab Diatsolini 0,05  
 D.t.d.N 10  
 S. 1 ta tabletkadan 2–3 mahal ovqatdan keyin  
 Rp: Tab Tavegili 0,001  
 D.t.d.N 20  
 S. ½ ta tabletkadan ovqat paytida 2 mahal (6–12 yoshli bolaga)

### **Miyada qon aylanishini yaxshilaydigan dorilar**

Rp: Tab Cinnarizini 0,025  
 D.t.d.N 50  
 S. 1/2 ta tabletkadan ovqat paytida 2 mahal (10 yoshli bolaga)  
 Rp: Tab Cavintoni 0,005  
 D.t.d.N 50  
 S. 1/2 ta tabletkadan 2 mahal 1 oy davomida (10–12 yoshli bolaga)  
 Rp: Dibasoli 0,001  
 D.t.d.N 50 publ  
 S. 1 poroshokdan 2 mahal 20 kun.  
 Rp: Betaserk N 30  
 D. S. 1 tabl dan 3 mahal ovqatdan oldin.  
 Rp: Dilceron N50 tabl  
 D. S. 1 tabl 2–3 marta ichishga.

### **Spazmolitiklar**

Rp: Sol Papaverini hydrochloridi 2 % 2,0.  
 D.t.d.N 10 in amp.  
 S. 1,0 ml dan mushaklar orasiga.  
 Rp: Tab Nospani 0,04  
 D.t.d.N 50  
 S. 1 tablet. 1 mahal 20 kun.

### **Diuretiklar**

Rp: Sol Furosemidi 1 % – 2,0 (0,02).  
 D.t.d.N 5 in amp.  
 S. 1,0 ml dan kuniga 2 mahaldan mushak orasiga.  
 Rp: Tab Diacarbi 0,25.  
 D.t.d.N 5  
 S. 1/4 ta tabletkadan ertalab kunora 7–10 marta.  
 Rp: Verospironi 0,025 (25mg).  
 D.t.d.N. 10 in tab.  
 S. 1 ta tabletkadan 2 mahal.

### **Gormonlar**

Rp: Tab Prednisoloni 0,001 (1mg).  
 D.t.d.N 20  
 S. 1 mg dan og'irligining har kg ga sxema bo'yicha.  
 Rp: Sol Nerobolili 1,0 – 1 % oleosae (10).  
 D.t.d.N. 10 in amp.  
 S. 0,4 ml dan har 7–10 kunda 1 marta (2 yoshli bolaga) <sup>14</sup>.  
 Rp: Sol Retabolili oleosae 1,0 – 5 % (50).  
 D.t.d.N. 5 in amp.  
 S. 3–4 haftada 1 marta 0,5 ml dan(10 kg li bolaga) <sup>13</sup>.

### **Vitaminlar**

Rp: Ac ascorbinici 0,025.  
 D.t.d.N 20 in tab.  
 S. 1 ta tabletkadan 3 mahal.  
 Rp: Rutini 0,02  
 D.t.d.N. 20 in tab.  
 S. 1 ta tabletkadan 3 mahal.  
 Rp: Sol Thiamini chloridi 2,5 %-1,0.  
 D.t.d.N. 10 in amp.  
 S. 1,0 ml dan mushaklar orasiga.  
 Rp: Cocarboxylazi 0,05.  
 D.t.d.N. 10 in amp.  
 S. 50 mg dan mushaklar orasiga.  
 Rp: Sol Pyridoxini hydrochloridi 5 %-1,0.  
 D.t.d.N. 10 in amp.  
 S. 0,5–1,0 ml dan mushaklar orasiga.  
 Rp: Sol Acidi Nicotinici 1 % 1,0.  
 D.t.d.N. 20.  
 S. 1,0 ml dan mushak orasiga.  
 Rp: Sol Syancobalamidi 0,001 % 1,0.  
 D.t.d.N. 10 in amp.  
 S. 200 mkg dan kunora mushak orasiga.

### **Aminokislotalar**

Rp: Tab Ac gulutaminici 0,25.  
 S. 1/4 ta tabletkadan 2 mahal (1 yoshgacha bo'lgan bolaga).  
 Rp: Cerebrolysin 1,0.  
 D. t. d. N.10 in amp.  
 S. Har kuni 1,0 ml dan mushak orasiga.

### **Kalsiy dorilar**

Rp: Sol Calcii chloridi 5 % 100,0.  
 D.t.d.N. 1 in flac.  
 S. Kuniga 1 osh qoshiqdan 3 mahal ichish uchun.

Rp: Tab Calcii gluconati 0,5.  
D.t.d.N.20.  
S. Ovgatdan oldin 1 tabletkadan  
3 mahal ichish uchun.

#### **Kaliy dorilar**

Rp: Dr Panangini.  
D.t.d.N.50.  
S. 1 dr 2 mahal ichishga.  
Rp: Tab Asparkami.  
D.t.d.N. 50.  
S. 1 tab 2 mahal ichishga.

#### **Gipotenziv dorilar**

Rp: Sinopril 10 mg N20.  
S. 1 tabletkadan 1 mahal ovqatdan keyin.  
Rp: Enap-H N 20.  
S. Kuniga 1-2 tabletkadan ichishga.  
Rp: Enam 5 mg N20.  
S. uniga 1 tabletkadan 2 marta ichishga.  
Rp: Indap 25 N20 caps.  
S. Kuniga 1 kapsuladan 1 marta ertalab  
ichishga.

Rp: Capoten 25 mg N15.  
S. Kuniga 1 tabletkadan 2 marta ichishga.  
Rp: Retserpini 0,0001.  
D.t.d.N.20.  
S. 1 tab 2 mahal ichishga ovqatdan keyin.  
Rp: Raunatini 0,002.  
D.t.d.N.20.  
S. 1 tab 2 mahal ichishga ovqatdan keyin.

#### **Moddalar almashinuvini yaxshilaydigan dorilar**

Rp: Sol Natrii adenosinphosphati 1 %  
1,0.  
D.t.d.N.10 in amp.  
S. 1,0 ml dan har kun mushak orasiga.  
Rp: Sol Glucosae 40 % 20,0.  
D.t.d.N.10 in amp.  
S. 10,0 ml dan har kun tomir ichiga.  
Rp: Lydasae 64 TB.  
D.t.d.N.10 in amp.  
S. 1 ml dan kun ora teri orasiga.  
Rp: Xanax 0,25.  
D.t.d.N.30.  
S. 1 tabl 2-3 mahal ichishga.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. N. M. Majidov. «Umumiy nevrologiya». Toshkent, 1995.
2. Sh. Sh. Shomansurov. «Asab va ruhiy kasalliliklar». Toshkent, 1995.
3. A. M. Aslanov. «Asab kasalliliklari» Toshkent, 1998.
4. Sh. A. Murtalibov. «Psixiatriyadan ma'lumotnoma» Toshkent, 1993.
5. Sh. Sh. Shomansurov. «Bolalar asab kasalliliklari» Toshkent, 1995.

## MUNDARIJA

So'z boshi ..... 3

### UMUMIY BO'LIM

Nevropatologiya va psixiatriyaning rivojlanish tarixi .....	4
Bemorlarni bevosita va asbob uskunalar yordamida tekshirish usullari. Rentgenologik tekshirish usullari .....	7
Asab tizimi anatomiysi, fiziologiyasi va gistologiyasi. ....	11
Asab kasalliklarining umumiy simptomatologiyasi. ....	11
Asab to'qimasi .....	11
Markaziy asab tizimi .....	13
Bosh miya po'stloq qismining fiziologiyasi, zararlanishi va tekshirish usullari ..	15
Bosh miya po'stloq osti tuzilmalari ..	17
Miyachani tekshirish usullari .....	19
Bosh miya pardalari, bosh miy qorinchalari, orga miyab suyugligi hosil bo'lishi, aylanib yurishi. Meningial belgilar, meningizn, kalla ichki bosimining kuchayishi va kamayishi .	19
Periferik asab tizimi anatomiysi, fiziologiyasi, zararlanish belgilari va tekshirish usullari .....	23
Harakat tizimi, anatomiysi, fiziologiyasi, zararlanish belgilari va tekshirish usullari .....	27
Reflekslar anatomiysi, fiziologiyasi, zararlanishi va tekshirish usullari ..	30
Kalla bosh miya nervlarining anatomiysi, fiziologiyasi, zararlanish belgilari va tekshirish usullari .....	32
Sezgi tizimi anatomiysi, fiziologiyasi, zararlanish belgilari va tekshirish usullari .....	38
Vegetativ asab tizimi anatomiysi, fiziologiyasi, zararlanish belgilari va tekshirish usullari .....	40
Chanoq a'zolar faoliyati va zararlanishi	43

### MAXSUS BO'LIM

Asab kasalliklarini tekshirish, davolash va parvarish qilish usullari Asab kasalligida bemorlarning kasallik tarixini yozish	45
Asab sohasini tekshirish .....	46
Asab kasalliklarini davolash va parvarish qilish usullari .....	48
Periferik asab tizimi kasalliklari .....	51
Bel-dung'aza radikuliti .....	52
Bo'yin radikuliti .....	54
Ko'krak radikuliti .....	54
Tirsak nervining nevriti .....	55
Bilak nervining nevriti .....	55
Oraliq nervining nevriti .....	55
Quymich nervining nevriti .....	56
Yuz nervining nevriti .....	56
In'eksiyadan keyingi quymich asabi nevriti .....	57
Nevralgiyalar .....	58
Uch tarmoqli nervning nevralgiyasi ..	58
Ehsa asabining nevralgiyasi .....	59
Qovurg'alararo nervlaming nevralgiyasi	59
Periferik asab tizimi kasalliklami davolash	60
Polinevritlar .....	61
Difteriya polinevriti .....	61
Alkogol polinevriti .....	62
Diabet polinevriti .....	62
Poliradikulonevropatiya (Giyen-Barre alomati) .....	63
Toksik polinevritlar .....	65
Markaziy asab tiziminining yuqumli kasalliklari Meningitlar .....	65
Yiringli meningit .....	66
Sil meningiti .....	67
Zaxm meningiti .....	70
Ensefalit .....	70
Epidemik (letargik) ensefalit .....	70
Kana ensefaliti .....	71
Ikkilanchi ensefalitlar .....	72
Gripp va uning asab tizimini zararlashi	73
Revmatik ensefalit .....	76
O'tkir poliomiyelit .....	78
Miyelit .....	79

Leptomeningit .....	80
OITS .....	81
Bosh va orqa miyada qon aylanishlar-	
ning buzilishlari .....	84
O'tib ketuvchi bosh miyada qon ayla-	
nishing buzilishi .....	84
Ishemik insultlar .....	86
Gemorragik insult .....	88
Pardalar orasiga qon quyilishi .....	88
Markaziy asab tizimining o'smalari ..	92
Bosh miya absesssi .....	94
Miyaning parazitar kasalliklari .....	95
Bosh va orga miya shikastlanishi .....	97
Orga miya shikastlari .....	101
Nerv tiziminining irlsiy-degenerativ va	
zo'rayib boradigan kasalliklari .....	102
Neyrogen mushaklar distrofiyasi .....	104
Chagalqlarda asab tizimi kasalliklari ..	109
Ensefalopatiya .....	110
Chagalqlarda bo'yin va yelka chigalining	
jordhatlanishi .....	113
Bolalar serebral falajligi .....	114
Vegetativ asab tizimi kasalliklari .....	118
Vegetativ qon tomirlar distoniyası ..	118
Migren .....	120
Anafilaktik shok .....	121
Asab tiziminining kasbga alogador	
ba'zi kasalliklari va zaharlanish	
hollari .....	124
Botulizm .....	127
Psixiatriya: (Ruhiy kasalliklar) .....	128
Ruhiy kasalliklarning belgilari .....	128
Ruhiy kasalliklarning asosiy alomatlari ..	132
Psixonevrologik yordamni tashkil	
etishning asosiy masalalari, shifoxo-	
nalarda va psixonevrologik dispanserda	
ruhiy kasalliklarni davolash, razorat	
qilish hamda parvarish xususiyati ..	137
Ruhiy kasalliklarga qilinadigan parvarishlar	
xususiyatlari .....	140
Ichki kasalliklар va yugumli kasallikkarda	
uchraydigan ruhiy o'zgarishlar .....	
Tug'rugdan keyingi psixozlar .....	143
Shizofreniya .....	145
Moniakal – depressiv psixoz .....	149
Alkgogolizm, alkogol psixozlar .....	151
Narkomaniya .....	156
Bosh miya qon tomirlari aterosklerozi ..	160
Bosh miya atrofisiyasi natijasida vujudga	
keladigan ruhiy o'zgarishlar .....	161
Epilepsiya, bosh miya jarohatida	
uchraydigan ruhiy o'zgarishlar,	
benorlami parvarish qilish xususiyatlari	
164	
Bosh miya jarohatida uchraydigan	
ruhiy o'zgarishlar .....	167
Psixogeniyalar .....	169
Reaktiv psixozlar .....	170
Psixopatiyalar .....	171
Nevrozlar .....	172
Nevrasteniya .....	173
Miyadan ketmaydigan holatlar nevrozi ..	174
Nevrozlarning davosi .....	175
Amaliy muolajalar va ko'nkmalar ..	179
Test savllari .....	188
Asab va ruhiy kasalliklarida	
qo'llaniladigan tayanch iboralar ..	194
Asab va ruhiy kasalliklarida	
qo'llaniladigan dori vositalari ..	196
Antidepressantlar .....	197
Vitaminlar .....	199
Foydalaniłgan adabiyotlar .....	200

*X. Q. SHODMONOV, X. Sh. ESHMURODOV  
O.T. TURSUNOVA*

**ASAB VA RUHIY KASALLIKLAR**

Muharrir A. Ziyodov  
Badiiy muharrir J. Gurova  
Öexnik muharrir T. Smirnova  
Musahhih M. Akromova  
Kompyuterda sahifalovchi A. Yuldasheva

Bosishga 2004.17.08. y. da ruxsat etildi. Bichimi 60%90<sup>1/16</sup>.  
«Dayms» garniturada offset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 12,5.  
Nashr t. 13,5. Jami 2000 nusxa. 117-raqamli buyurtma.

«ARNAPRINT» MCHJ da sahifalanib, chop etildi.  
Öoshkent, H. Boyqaro ko'chasi, 51.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIM MARKAZI

X. Q. SHODMONOV, X. Sh. ESHMURODOV  
O. T. TURSUNOVA

# **ASAB VA RUHIY KASALLIKLAR**

*Tibbiyot kollejlari o'quvchilari uchun  
o'quv qo'llarma*

**TOSHKENT  
2004**